

MADAMIN ESHMURODOV

**XORAZM
MANBALARIDA
DAVLATCHILIK TARIXI**

(Monografiya)

Xorazm -2024

UO'K 93/94(575.171)

KBK 63.3(50'zb)

E 99

Madamin Eshmurodov. [Matn]: Xorazm manbalarida davlatchilik tarixi. M.Eshmurodov. Xorazm: Ogahiy nashriyoti, 2024-yil. 260 b.

2- нашр

Qariyb uch ming yillik yozma tarixga ega bo'lgan Xorazmning o'tmishi, tarixi va madaniyati, bu yerda kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar turli tillarda bitilgan yozma manbalarda o'z aksini topgan. Shuning uchun ham arab, fors va turkiy tillarda bitilgan manbalarda o'zbek davlatchiligi tarixining masalalarini o'rganish hamda tadqiq etish mavzui dolzarbligicha qolmoqda. Monografiyada o'zbek davlatchiligi tarixining muhim va boy qatlamini tashkil etgan Xorazmdagi davlatchilik tarixi yozma manbalar asosida tadqiq qilinib, uning xulosa va natijalari berilgan.

Monografiya tarixchilar, manbashunoslar hamda vatanimiz tarixi bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

Taqrizchilar:

M.Is'hoqov,
tarix fanlari doktori.
Sh.Vohidov,
tarix fanlari doktori;
M.Mahmudov,
tarix fanlari doktori.

ISBN 978-9910-9446-3-5

©M. Eshmurodov "Xorazm manbalarida davlatchilik tarixi."

© Ogahiy nashriyoti, 2024 yil.

«Biz jahon maydonida kecha paydo bo'lgan millat emasmiz.

Bizning millatimiz, xalqimiz ko'hna Xorazm zaminida «Avesto» paydo bo'lgan zamonlardan buyon o'z hayoti, o'z madaniyati, o'z tarixi bilan yashab keladi».

I.A.Karimov

KIRISH

Xorazm sivilizatsiyasi, bu vohada shakllangan qadimiy Xorazm davlati nafaqat Markaziy Osiyo, balki jahon tarixida alohida o'rin egallaydi. Asrlar davomida bu hududda shakllanib, rivojlangan davlatlar o'zbek davlatchiligining muhim bosqichlarini tashkil qiladi. Shuning uchun ham Islom Karimov Xorazm tarixi va uning ahamiyati borasida quyidagi xulosalarini bergan: «O'zbek davlatchiligining tamal toshlari bundan 2700 yil muqaddam aynan Xorazm vohasida qo'yilgan... Xorazm tarixi o'zbek davlatchiligining asosi, uning qudrati va qadimiyligining tasdig'idir... Xorazm hamda Xiva tarixi xalqimizning yozuv, ilm- fan, san'at, madaniyat va ma'naviyat sohalaridagi yuksalish bosqichlarini o'zida mujassam etadi... Bugun bolalarimiz maktablarda va oliy o'quv yurtlarida o'rganadigan algebra, algoritm kabi kashfiyotlarga asos solgan Muhammad Muso al-Xorazmiy bu go'zal voaha nomini dunyoga mashhur etgan. Atlantika ummoni ortida Amerika qit'asi borligini Xristofor Kolumbdan 500 yil avval bashorat etib, hattoki, uning xaritasini chizib qoldirgan buyuk ajdodimiz Abu Rayhon Beruniy mana shu muqaddas zaminda tug'ilgan¹».

Ayni shu so'zlarni Xorazm tarixi va madaniyatini uzoq asrlar osha bizgacha yetib kelgan yozma manbalarning ma'lumotlari ham isbotlab beradi. 1998 –yili Islom Karimov bir guruh tarixchilar bilan

¹Karimov. I.A. Xiva shaxrining 2500 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik s'uzi // Karimov. I.A. Asarlar. 6-tom. -T. «Ўzbekiston», 1998. Б-375.

uchrashar ekan, o‘zbek davlatchiligi tarixini manbalar asosida jiddiy o‘rganishni muhim, dolzarb ilmiy yo‘nalish sifatida belgilab bergan². Keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston FA Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish» haqidagi Qarorida³ mazkur ilmiy yo‘nalish tarix fanining istiqbolli va dolzarb mavzui sifatida belgilandi hamda davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Xorazm davlati qadimda, o‘rta asrlar va keyingi davrlarda Markaziy Osiyoda bo‘lib o‘tgan barcha siyosiy jarayonlarning markazi hisoblangan. Bu yerda hukmdorlik qilgan sulolalarning ba’zi hukmdorlari islom tarixida ham katta ta’sir o‘tkazgan. Xorazm vohasi qaysi bir saltanat va davlat tarkibida bo‘lmasin, o‘ziga xos tarixi hamda madaniyati bilan ajralib, uning moddiy va ma’naviy merosi o‘zbek xalqini boy o‘tmishining namunasi.

Qariyb uch ming yillik yozma tarixga ega bo‘lgan Xorazmning o‘tmishi, tarixi va madaniyati, bu yerda kechgan turli siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy jarayonlar bugungi kunda o‘rganilishi dolzarb bo‘lgan mavzular obyektiga aylanmoqda. Ayni shu mavzu turli davr va zamonlarda, turli tillarda bitilgan yozma manbalarda o‘z aksini topgan. Shuning uchun ham xorazmiy, pahlaviy, fors, arab va turkiy tillarda yozilgan manbalarda o‘zbek davlatchilik tarixining masalalarini o‘rganish hamda tadqiq etish mavzui dolzarbligicha qolmoqda. O‘zbek davlatchiligi tarixining muhim va boy qatlamini tashkil etgan Xorazmdagi davlatchilik qadimdan XX asrning boshlarigacha yozma manbalar asosida tadqiq qilinib, xulosa va natijalar bergan.

Monografiyada Xorazm yozma merosida o‘zbek davlatchiligi tarixi masalalari qadim davrdan, ya’ni «Avesto» yaratilishi zamonidan to XX asrning boshlarigacha tadqiqot ob’ekti sifatida

²Каримов И.А. *Тарихий хотирасиз келажак йўқ. -Т.: «Ўзбекистон», 1998. - Б.5 ва кейингилари.*

³Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон ФА Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш» ҳақидаги Қарори // *Халқ сўзи*, 1998 йил 20 июл.

tanlangan. Shu tarixiy davr ichida fors, arab va o‘zbek tillarida yaratilgan yozma manbalarda o‘zbek davlatchiligi tarixi masalalari va uning turli jabhalari tadqiq qilinib, o‘rganildi, fikr vaxulosalar berildi. Mazkur ishning asosiy obyekti turli davrlarda yaratilgan fors, arab va turkiy tillardagi Xorazm (va Xorazm haqidagi) yozma meros va undagi o‘zbek davlatchiligi tarixiga doir ma’lumotlarning tahlilidir.

Tadqiqotning yetakchi ilmiy konsepsiyasi muammoga sivilizatsion yondashuv ekanligini hisobga olgan holda, ishning nazariy uslubiy asosini mustaqil O‘zbekiston Respublikasi milliy istiqloq g‘oyasining ustuvor maqsad va vazifalari tashkil qildi. Bu yangi ilmiy konsepsiya xalqning milliy qadriyatlarini, urf-odati va turmush tarzini, to‘plagan bilimlari va hayotiy falsafasi bilan uni boyitib, o‘rganilayotgan muammoning barcha qirralarini yangicha baholash mezoni xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Tadqiqotda o‘rganilayotgan muammoni to‘g‘ri hal etishda ilmiylik, bilishning xolis, tarixiy, qiyosiy va tanqidiy o‘rganish, tizimlilik tamoyillari, kulturogenез prinsiplariga amal qilindi. Jahon ijtimoiy-gumanitar fanlarida ishlab chiqarilgan va tan olingan N. A. Berdyayev⁴, M. Blok⁵, Maks Veber⁶, P. Sorokin⁷, A. Dj. Toyinbi⁸, L. Fevr⁹, K. Yaspers¹⁰ kabi olimlarning metodologik qarashlaridan ham foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini ishlab chiqishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning asarlari (ayniqsa, uning «Tarixiy xotirasiz - kelajak yo‘q» asarida

⁴Бердяев Н.А. *Смысл истории*. -М.: Мысль, 1990. - 176с.

⁵Блок М. *Апология истории и ремесло историка*. -М.: «Наука», 1973. – 232 с.

⁶У ва унинг таълимоти ҳақида қаранг. Жук С.И. Макс Вебер и социальная история // *Вопросы философии*, 1990. - № 4, - С 15-22, Момзен В. Макс Вебер и социальная история // *Новая и новейшая история*. 1990.-№4. - С.55 - 64

⁷Сорокин П. *Человек. Цивилизация. Общество*. Москва: *Издательство политической литературы*. 1992 - С - 544 .

⁸Тойнби А. Дж. *Постижение истории*. -М.: «Наука», - 732 с.

⁹Февр Л. *Бои за историю*. -М.: «Наука», 1991.-630 с.

¹⁰Ясперс К. *Смысл и назначение истории*.-М.: «Политиздат».1991. – 390с.

ilgari surgan g'oyalar), ma'ruza va nutqlarida bayon etilgan uslubiy, ilmiy-nazariy ko'rsatmalari muhim rol o'ynadi.

Monografiyada olib chiqilayotgan asosiy holatlar quyidagilardir:

Xorazm yozma merosida eng qadimgisi «Avesto» hisoblanadi va unda keltirilgan ma'lumotlar Vatanimiz hududidagi qadimiy davlatlar, jumladan, Xorazmga tegishlidir.

- Xorazm vohasi to'rt tomondan qum va cho'llar bilan o'rab olingani ba'zi tarixiy davrlarda muhim bir himoya vositasi vazifasini bajargan. Shuning uchun bu o'lkaning ba'zi davrlari tarixiga oid ma'lumotlar juda kam.

- O'rta asrlarda Sirdaryo bo'ylari orqali Xorazmga yangi ko'chmanchi qabilalar kirib borishi natijasida Xorazm Kang' davlatining tarkibiga kirgan.

- Arab halifaligi davrida Xorazm muhim harbiy strategik ahamiyat kasb etgan. Uning shu davrdagi tarixini Abu Rayhon Beruniy asarlari orqali ham o'rganish mumkin.

- O'zbek davlatchiligi tarixida Xorazmshohlar saltanati alohida ahamiyatga egadir. Bu saltanat tarixi arab va fors tillaridagi ko'pgina manbalarda yoritilgan.

- XVI asrdan boshlab, Xorazmda chingiziylar va shayboniylar hokimiyatining legitimatsiyasiga doir o'zbek tilida birinchi asarlar paydo bo'la boshlaydi. Biroq Xorazm tarixnavislik maktabining asoschisi haqli ravishda Abulg'oziy Bahodirxondir.

- XIXning o'rtalari va XX asrning boshlarida Xorazmda sulolaviy solnomanavislik shakllanib rivojlanadi. Bu maktabning yirik namoyandalari Munis, Ogahiy, Bayoniy hisoblanadi.

- Xorazm tarixnavisligida Xiva xonligining iqtisodiy va ijtimoiy ahvoli, yer va suvga egalik munosabatlari, soliqlar, ichki va tashqi siyosat, xalqaro munosabatlar, obodonchilik ishlari, etnik va etnosiyosiy jarayonlar tafsilotlari berilgan.

- Tadqiqotda Xorazm yozma manbalaridagi o'zbek davlatchiligi tarixi masalalari bosqichma-bosqich tahlil etilgan.

Xorazm yozma manbalarida o‘zbek davlatchiligi tarixining masalalari birinchi marotaba keng miqyosdagi manbalar asosida o‘rganilib, unda Xorazm vohasida shakllangan davlatchilik uyushmalari o‘zbek davlatchiligining asoslaridan biri sifatida talqin qilindi. Qadimiy Xorazm, Kang‘ davlati, Xorazmshohlar saltanati, Sufiylar sulolasi davridagi Xorazm, Xiva xonligi O‘zbek davlatchiligining shu vohadagi bosqichlari sifatida tarixda qolgan.

Tadqiqotda birinchi marotaba «Avesto» ma’lumotlari keng qo‘lamda tahlil etildi, o‘rta asrlarga doir Xorazmshohlar davlati har tomonlama o‘rganildi, XVI asrdan Xorazmdagi shayboniylar sulolasining hukmronligi, qo‘ng‘irotlar davri yozma manbalar asosida tahlil etilib, Xorazmda yaratilgan tarixiy asarlar manbashunoslik nuqtayi nazaridan tadqiqot doirasiga tortildi, muhim xulosalar va natijalarga kelindi. Ishda Xorazm solnomalarining shakllanishi, bosqichlari, namoyondalari va ular asarlarining kodikologik tavsifi berildi.

O‘zbek davlatchiligi tarixi O‘zbekiston tarixi fanining muhim va o‘ta dolzarb ilmiy yo‘nalishlar doirasiga kiradi. Uch ming yil avval Xorazmda paydo bo‘lib, shakllangan davlatchilik tuzilmalari Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi, xo‘jalik va madaniy hayotida faol qatnashib kelgan. Xorazm vohasida bir qancha saltanatlar va davlatlar shakllanib, rivojlanib inqiroz va turli siyosiy, ijtimoiy voqeiklarni boshdan kechirgan. Mazkur ishda Xorazm yozma manbalaridagi o‘zbek davlatchiligi tarixi va boshqaruv tizimining turli jihatlari har tomonlama o‘rganildi va nazariy xulosalar, ilmiy natijalar olindi.

Monografiyada keltirilgan faktlar, ilmiy umumlashma va xulosalardan Respublika oliy o‘quv yurtlarining tarix mutaxassislarini tayyorlash uchun O‘zbekiston tarixining so‘nggi o‘rta asrlar davri tarixi, manbashunoslik, tarixshunoslik fanlarini o‘qitish jarayonida, amaliy mashg‘ulotlarda, Xiva xonligi tarixiga oid qo‘llanmalar, darsliklar yozishda hamda o‘lkashunoslik to‘garaklarida maxsus kurslar olib borishda foydalanish mumkin.

I bob. QADIMGI BITIKLARDA DASTLABKI DAVLATCHILIK HAQIDA

1. «Avesto» da davlatchilik atributlarining aks etishi

Uch ming yillik tariximizning muhim manbai bo'lgan «Avesto» ma'lumotlari asosida biz o'sha davr ijtimoiy hayotining ko'p qirralarini o'rganishimiz mumkin. «Avesto» olami o'zining boy madaniy qatlami bilan insoniyat tarixida muhim o'rin egallaydi. Bugungi kunlarda muhim mavzulardan biri «Avesto» davridagi jamiyat, uning tarkibi va ijtimoiy munosabatlar tarixi, davlatchilik atributikalarini yoritishdan iboratdir.

«Avesto»da ahamoniylargacha bo'lgan geografik, hududiy nomlar, atamalar, ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumotlar, siyosiy tarix, diniy-falsafiy va turli ma'lumotlar saqlangan.

«Avesto»da tilga olingan juda ko'plab mamlakatlar - O'rta Osiyo va O'rta Sharq, Afg'oniston, Eronning shimoli-sharqiy hududlari bilan bog'liqdir. Yasht qismlari ariylarning yerlari haqida quyidagicha e'lon qiladi: «U mamlakatning jasur sardorlari ko'pdan-ko'p harbiy yurishlar qiladi, uning keng yaylovlarga ega, suvga serob tog'larida chorva tinch o'tlov va yemish bilan ta'minlangan, bu yerdagi sersuv chuqur ko'llar to'lqinlanib turadi, kema qatnaydigan keng daryolarning oqimi Pourutadagi Iskta, Xaravaydagi Mouru, Sog'ddagi Gava va Xvarizam tomoniga toshib intiladi»¹¹.

«Avesto» ma'lumotlariga ko'ra, eroniy sulolalaridan bo'lgan Kayoniylar sulolasining so'nggi vakillaridan biri Kavi Vishtasp payg'ambar Zaratushtraga homiylik qiladi. Ko'pchilik tadqiqotchilar Kavi Vishtaspni Boxtarda hukmronlik qilganini e'tirof etadilar. «Avesto» ma'lumotlariga ko'ra, Kavi Vishtasp davrida davlat uyushmasi mavjud bo'lgan. Misol uchun, Gohlarda Zardo'sht kichik hukmdorlarni urushlarni to'xtatishga, kuchli va

¹¹ *Авесто. Дар дӯ желд. Мӯтарҷим профессур Жалил Дӯстхоҳ. Устоди донешгоҳе Эсфохон. -Техрон. Марварид. 1991 м. - С. 978 (Форс тилидаги манбалар муаллиф томонидан таржима қилинган)*

odil podsho qo‘l ostida birlashishga da‘vat etadi. Aftidan, o‘sha paytdayoq kichik mulklarning yagona podshoh hukmronligi ostidagi nisbatan yirik siyosiy uyushmalarga birlashuvi boshlanadi. Payg‘ambar Zardo‘st va shoh Vishtasp bu birlashuvning tashabbuskorlari edilar.

O‘tgan asrning oxirlaridan boshlab, hozirgi kunga qadar «Avesto» ma‘lumotlari (viloyatlarning Aryoshayona bo‘yicha birlashishi), Gerodot va Gekatey asarlari («Katta Xorazm»), shuningdek, Ktesiyning qadimgi Bixtar podsholigi haqidagi ma‘lumotlari va nihoyat, arxeologik tadqiqotlar natijalari O‘rta Osiyoda ilk davlat uyushmalarining paydo bo‘lishi muammolarini o‘rganish uchun asos bo‘lgan bo‘lishiga qaramasdan, qadimgi davlatlar hududlari, shakllari, boshqaruv tizimi va sanasi bilan bog‘liq bo‘lgan mavzularning ko‘pgina yo‘nalishlari hamon ilmiy bahslarga sabab bo‘lmoqda.

Ko‘pchilik tadqiqotchilar O‘rta Osiyoda ilk davlatlarning shakllanish va rivojlanish jarayonini ahamoniylargacha bo‘lgan davrda deb hisoblaydilar va miloddan avvalgi IX-VII asrlar bilan belgilaydilar (M.Dunker, V.Tomashek, F.Altxaym, S.P.Tolstov, M.M.Dyakonov, I.M.Dyakonov, V.M.Masson, M.Dandamayev, Ya.G‘ulomov, B.A.Litvinskiy, Ye.V. Rtveladze, I.V.Pyankov, A.S.Sagdullayev va boshqalar).

Ilmiy adabiyotlar O‘rta Osiyoda ahamoniylargacha bo‘lgan davrda mavjud bo‘lgan quyidagi davlat uyushmalari haqida so‘z yuritadi: 1. Aryoshayona - O‘rta Osiyodagi qadimgi viloyatlarning «dahiyosasti» uyushmasi; 2. Aryanam Vayjex - bu ham Aryoshayonadek yoki uning markazi Ariya va Marg‘iyonada bo‘lgan «Katta Xorazm» yoki Amudaryoning quyi oqimidagi Xorazm davlati; 3. Qadimgi Bixtar davlati. 4. Ko‘chmanchi qabilalar konfederatsiyasi.

Ilk davlatchilik masalasida juda ko‘plab ilmiy bahslar bo‘lib o‘tgan bo‘lishiga qaramay, bu masala hanuz o‘z yechimini topgan deb hisoblanmaydi. Xususan, «Katta Xorazm» («Avesto» tilida Xvarizam, qadimgi fors tilida Xvarazmish, qadimgi yunon tilida

Xorasmiya) davlatining hududiy joylashuvi va paydo bo'lgan davri masalalari ham ancha munozarali mavzu. Arxeologik tadqiqotlar ayrim hollarda yozma manbalar ma'lumotlarini tasdiqlamaydi. Miloddan avvalgi IX-VIII asrlar Xorazm madaniyati Amirobod nomi bilan mashhurdir. Bu madaniyatning me'morchilik yodgorliklari, asosan, chayla va yarim yerto'lalardan iborat bo'lib, mustahkam turar joylar uchramaydi. Xorazmdagi dehqonchilikning rivojidan darak beruvchi yirik sugorish inshootlari, mustahkam mudofaaga ega bo'lgan turar joylar (Kuzalikir, Ding'alja) miloddan avvalgi VI-V asrlarga oiddir.

Qadimgi Xorazmning joylashuv hududlari ham ancha munozarali mavzu hisoblanadi. Ayrim tadqiqotchilar (Tarn, Altxaym) ahamoniylargacha xorazmiylar Parfiya chegaralaridan sharqiy yo'nalishda Kopetdog' yonbag'irlarida joylashgan desalar, ayrimlari (Xenning, Gershevich) bu davlatning markazi Marv va Hirot atrofida bo'lib, Kir II bosib olganidan so'ng Quyi Amudaryoga - hozirgi Xorazm hududlariga ko'chib o'tgan deydilar. Ayrim tadqiqotchilar fikricha (S.Tolstov, M.Vorobeva), qadimgi Xorazmning chegaralari hozirgi Xorazm hududlaridan ancha keng bo'lib, O'rta Amudaryodagi Qo'shqal'adan boshlab Orol dengizigacha bo'lgan hududlarni o'z ichiga olgan.

Ahamoniylar bosib olgan barcha hududlar satrapiya (hokimliklar)ga bo'lingan bo'lib, ularni fors podsholari tomonidan tayinlab qo'yilgan satrap hokimlar boshqarganlar. Gerodot ma'lumotlariga ko'ra, Boxtar XII satrapiya bo'lib 300 talant (talant - Bobil pul birligi bo'lib, 1 talant 30 kg dan ziyodroq kumushga teng), saklar va kaspniylar XI satrapiya bo'lib, 200 talant Xorazm, Sug'd, Parfiya va Ariya XVI satrapiya bo'lib, 300 talant miqdorda yillik soliq to'lar edilar. Shuningdek, O'rta Osiyoliklar soliq sifatida qimmatbaho toshlar, chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlarini ham fors podsholariga berib turganlar.

Miloddan avvalgi I ming yillikning o'rtalarida Xorazm ham rivojlanish jarayonini boshdan kechiradi. Xorazm tadqiqotlari natijalariga qaraganda, VI-IV asrlarda bu hududda Yirik yirik

manzilgohlar mavjud edi. Bu davrda Xorazmda inshootlar qurilishida g'isht, paxsa ishlatilgan. Manzilgohlar va turar joylardan topilgan topilmalarning boy na qashshoqligi bu yerda mavjud bo'lgan ijtimoiy va mulkiy tengsizlikdan dalolat beradi. Shaharlar aholisining asosiy mashsuloti hunarmandchilik bo'lgan. Topilgan ko'plab sopol, bronza, temir buyumlar fikrimiz dalilidir. Xorazmda bu davrda mahalliy o'troq aholidan tashqari, ko'chmanchi chorvadorlar ham yashagan bo'lib, ular o'rtasida doimiy harbiy to'qnashuvlar, iqtisodiy va madaniy munosabatlar bo'lib turgan.

O'rta Osiyo xalqlari ahamoniylar madaniyat yodgorliklari bunyod etilishida katta hissa qo'shdilar. Bu davrda ilk marta O'rta Osiyo xalqlari zarb qilingan tanga pullar bilan tanishdilar. O'rta Osiyo hududidan ahamoniylar pul tartibiga oid oltin dariklar va boshqa tangalar topilgan. Ahamoniylar davrida ko'pgina Sharq xalqlarining siyosiy birligi - butun jahon tarixida, iqtisodiy va madaniy rivojlanishida muhim davr bo'lib qoldi. Bu o'rinda O'rta Osiyo hududidagi xalqlar va qabilalarning ham hissasi nihoyatda katta bo'ldi.

«Avesto» davri jamiyati markazlashgan davlat tomonidan boshqarilgan. Eng oliy hukmdor shahanshoh bo'lib u barcha qudratni mutloq o'z qo'liga olgan edi. Doro I (eramizdan oldingi 521-486) katibalarida shunday yozuvlar uchraydi: «Axuramazda yer ishlarida xalalni ko'rdi va uni menga topshirdi va men uni to'g'ri tartibga keltirdim. Shuning uchun Axuramazda fazli ila men Forsdan tashqari mening tasarrufimdagi o'lkalarga ham hukmronlik qilaman, menga ular boj to'laydilar, aytganimni bajo keltiradilar, u yerlarda qonun hukmrondir»¹².

Qoyatosh bitiklar va Gerodot ma'lumotlariga ko'ra, ahamoniylar davlati hududi 20 ta qaram-ma'muriy qismlarga satraplarga bo'lingan. Tadqiqotchilarning fikricha, forslar davlat boshqaruvining bu an'alarini midiyaliklardan o'zlashtirganlar. Satraplar yirik hududlarga ega bo'lib, ko'pincha bir necha viloyat va o'lkalarni o'z tarkibiga birlashtirgan. Masalan. Parfiya, Girkaniya,

¹²*Рашиод Муҳаммад, Фалсафа аз оғози тарих. -Душанбе: Ирфон, 1900.-С.104.*

Areya, Xorasmiya va Sug‘diyona bitta satrap tarkibiga kirgan. Satraplarning chegaralari ayrim hollarda o‘zgarib turgan.

E’tibor berish lozimki, ahamoniylar davlatida satraplar etnik kelib chiqishiga qarab emas, balki iqtisodiy salohiyatiga qarab tashkil etilgan. Satraplar shahanshohning noibi sifatida, asosan, forslardan tayinlangan. Satrapning ma’muriyati va boshqaruvi shahanshoh ma’muriyati hamda markaziy boshqaruv apparatini qisqartirilgan holda takrorlagan. Ya’ni satrapda ikkita yordamchi, devonxona va mirzalar bo‘lgan. Bir vaqtning o‘zida satrap o‘zi noiblik qilib turgan hududda bosh qozi vazifasini ham bajargan. Ayrim hollarni istisno qilganda, satrap harbiy boshliqlik vazifasini bajarmagan. Misol uchun, Doro I barcha satraplarning harbiy vazifalarini bekor qilgan va ularga faqat o‘ziga buysunuvchi harbiy boshliqlarni jo‘natgan. Satraplarning faoliyati markazdan qattiq nazorat ostiga olingan. Hattoki, shahanshoh huzuridagi amaldorlar tez-tez kelib satraplar faoliyatini tekshirib turganlar. «Avesto»da odil shoh g‘oyasining keng targ‘ib qilinishi ushbu faoliyatning qonuniy asosini tashkil qilgan. O‘zbek adabiyotida bizga ma’lum bo‘lgan xalq og‘zaki ijodining ilk manbalari (jumladan, Alp Er To‘nga marsiyasi), qadimiy toshbitiklar (Tunyuquq, Bilga Xoqon, Kultegin)dan tortib ma’rifatchilik adabiyotigacha bo‘lgan davrdagi markaziy mavzulardan biri bo‘lgan odil shoh g‘oyasining ildizlarini shu kunlarda ko‘zimiz ilg‘ashi mumkin bo‘lgan eng qadimiy manba «Avesto»dan izlash ma’quldir. Bunga asos «Avesto»ning asliy mantida «shoh» tushunchasini ifodalovchi bir necha atama mavjud bo‘lib, ularning lug‘aviy ma’nolari davlatchilik tarixi tadqiqi uchun muhimdir. Jumladan, **shahriyor** atamasi. «Vendidod»da shunday satrlarni o‘qiymiz: «Shundan so‘ng men Axuramazda unga tuhfa taqdim etdim: biri zarrin suvra, ikkinchisi zarrin ashtra. Shunday qilib Jam mening Shahriyorim bo‘ldi.» (Ikkinchi fargard, 5-6-bandlar.) **Shahriyor** so‘zi aslida **shahr** so‘zi bilan o‘zakdosh bo‘lib, ularning lug‘aviy ma’nolari o‘rtasida muayyan bog‘liqlik ko‘zga tashlanadi. Shahr «Avesto»da **xshathra** shaklida bo‘lib, qadimgi

hind tilida **kshatra** tarzida ishlatilgan¹³. Mazkur soʻz **xshi** - shohlik qilmoq oʻzagidan hisoblanadi. Shahr, shoh, shahriyor soʻzlarining oʻzakdoshligi ayni paytda davlatchilikning ilk bosqichlari shahar-davlat tasavvurlarini rivojlantiradi. Shunga hamohang tasvirlarni «Vendidod»ning 2-fargard 2-boʻlimi 25-bandida ham uchratamiz:«Shundan soʻng sen, ey Jam! - har birining toʻrt tomoni aspiyris uzunligida boʻlgan bir var bino qil. Qoʻylar, tuyalar, odamlar, itlar, parrandalar va kuydirguvchi qizil olov urugʻlarini u yerga olib bor...»¹⁴. Ushbu oʻrinda tilga olingan «var»«Avesto»da **varijamkard** boʻlib, avestoshunos olim Jalil Doʻstxoh unga «odamlar va jonivorlarni Mahr Kavsh devidan himoya qilish maqsadida Jamshid Axuramazda buyrugʻi bilan bino qilgan katta yer osti makoni» deb izoh beradi¹⁵. Ushbu maʼlumotlarning oʻzi shaharsozlik va davlatchilikning uzviy bogliq jihatlari xususida qimmatli maʼlumotlar beradi.

Bugungi kunda koʻpgina eroniy tillar lugʻat fondida mavjud podshoh maʼnosidagi «xusrav» soʻzi «Avesto»da **xusravah** shaklida uchraydi¹⁶. Tadqiqotchilar fikricha, ushbu soʻz «yaxshi nom», “mashhur” maʼnosidagi soʻz polisemantika natijasida hosil boʻlgan. Shu holatning oʻzi butun Sharq xalqlarining odil shoh haqidagi orzu-oʻylari, siyosiy maqsadlarini oʻzida ifoda etgani koʻrinadi. Mashhur eronshunos olim Bartoleme esa ushbu soʻzning qadimgi hind tilida sushravas shaklida ishlatilganini qayd etadi¹⁷.

Ahamoniylar davrida shohning xohish-irodasi barcha qonun va diniy hukmlardan ham ustun boʻlgan. «Shahanshohlik davlat va

¹³ *Grundriss der Neupersischen Etymologie, Strasburg, 1893-P.898*

¹⁴ *Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. Т «Шарқ».2001.-Б. 111.*

¹⁵ *Авесто. Мўтаржсем Жалиле Дўстхоҳ, Устоде донишгоҳе Эсфахон. Техрон. Марварид. 1991. ЖII.- С. 107.*

¹⁶ *Grundriss der iranischen Philologic Strassburg 1896.-P. 193*

¹⁷ *Afturaniaches Worterbuch. Strassburg 1950-P.1738*

diniy boshqaruvining eng oliy ko‘rinishi, barcha fikr va jamoalardan ustun bo‘lgan narsadir»¹⁸.

Shohdan keyin eng yuqori amal bu Vuzruk faromodorga tegishli bo‘lib, u ming nafardan iborat shoh soqchilarining qo‘mondoni hisoblanib, «hazorbada» (ming kishidan iborat qo‘shinning qo‘mondoni) unvoniga ega edi. Shu bilan birga, u barcha saroy ishlariga mas‘ul va vazirlarning ustidan boshliq bo‘lgan. Keyingi vazifa va amallar:

Shohhomordabir (barcha boyliklar vaziri), ganjhomordabir (xazina vaziri), doddabir (adliya vaziri), kodohomordabir (siyisxona dabiri, miroxo‘r), otashhomor (otashxonalar ta‘minoti bo‘yicha vazir), ravangondabir (vaqf mulklari vaziri), erondabirbad (devon boshlig‘i), artishtoronsolor (barcha qo‘shinlar qo‘mondoni), andarzbadospvargon (otliqlar o‘qituvchisi), suturpizishk (baytor) va hokazo.

Eng yirik uyushma «daxyusasti» (viloyatlar ustidan hukmronlik yoki viloyatlar uyushmasi) edi. Bunday uyushmaning hukmdori «butun daxyular daxyupatisi» deb atalgan. Qiyosiy tahlillar asosida ahamoniylar davridagi «shohlar shohi» unvoni ushbu «Avesto» unvoniga borib taqalashini taxmin qilish mumkin. «Avesto»da shuningdek, «kavi», «sastar» va «xatra» kabi boshqaruv bilan bog‘liq bo‘lgan unvonlar ham uchraydi. «Kavi» (forschada «kay») unvoni ««Avesto»da ko‘p uchraydi. Bu unvon nafaqat katta o‘lkalar podsholari, balki Kichik mulklar hukmdorlariga ham berilgan. Qal‘alar, tumanlar va viloyatlar hukmdorlari «Sastar» unvoni bilan atalgan. «Hokimiyat», «qudrat» ma‘nolarini beruvchi «xshatra» unvoni tumandan tortib o‘lkalar hukmdorlarigacha berilgan. Misol uchun, Behistun yozuvlarida podsho Doro I ushbu unvon bilan tilga olinadi.

¹⁸Жавод Муҳйи. Тарихи тамаддуни Ирон. Техрон, 1377 ҳижри. - С. 105

«Avesto»da yig'in yoki yig'ilish ma'nosidagi «xanjumana» (yangi fors tilida «anjuman») so'zi uchraydi. Aftidan, dastlabki paytlarda podsho hokimiyati saylab qo'yilgan. Chunki, «Shohnoma» ma'lumotlariga ko'ra, kayoniylar (kavilar) sulolasining asoschisi Kaykubod kavilar umumiy anjumanida Eron podshosi qilib saylanadi. «Avesto» ma'lumotlariga ko'ra, podsho (daxyupati) bir vaqtning o'zida bosh harbiy qo'mondon va bosh qozi (sudya) hisoblangan. Podsho o'zining harbiy gvardiya (pahlaviy tilidan olingan gurd, qahramon sifatida) ega bo'lgan. Viloyat va harbiy holatlarda bu drujinalar shoh ixtiyorida bo'lgan.

«Avesto»da davlat va jamiyatning muhim belgilaridan biri bo'lgan qonunchilik va axloqiy me'yorlar diniy dunyoqarash doirasida berilgan. Bu masala avestoshunoslar, jumladan, Ibrohim Purdovud¹⁹, Jalil Do'stxoh²⁰, Dinshoh Eroniy²¹, Oshtiyoniy²² kabi ko'plab olimlar tomonidan tadqiqot markazida bo'lgan. Ushbu mavzuga o'zbek avestoshunoslari ham e'tibor qaratganlar. Bunday tadqiqotlar qatorida, jumladan, S.Hasanovning “ «Avesto» –huquq manbai” maqolasini qayd etishimiz mumkin²³.

«Avesto»da qonun tushunchasi *data* so'zi orqali ifodalangan. Pahlaviy tilida *dât* shaklida bo'lgan bu so'²⁴ qadimgi hind tilidagi *dhâman* (qonun, dastur) so'zi bilan o'zakkodoshdir²⁵. Shuning uchun ham «Avesto»da Dota (Dod) qonun, adliya, insof va adolat, qonun homiysi bo'lgan iloh nomidir. «Avesto»ning ko'pgina joylarida uning nomi zikr etilgan o'rinlarni uchratamiz.

¹⁹ *Иброҳим Пурдоуд. Фарҳанге ироне бостон. Бахше нухуст. Энтешороте анжўмане ирониеноси. Техрон. 1326 ھ.*

²⁰ *Авесто. Дар дў желд. Мўтаржрим профессор Жалил Дўстхоҳ. Устоди донешгоҳе Эсфаҳон - Техрон. Марварид. 1991 м.*

²¹ *Диншоҳ Ирони. Ахлоқе ироне бостон. Техрон Матбе-ие мажлес, 1312 ھ.*

²² *Оштиёни. Зардўшт (Маздаясна ваа ҳукумат) Техрон, Баҳор. 1367 ھ.*

²³ *Ҳасанов С. «Авесто» - ҳуқуқ манбаи // Мулоқот, 1999, 1-сон.*

²⁴ *Pierre Jean de Menasce. Shkand-Gumanik Vicar, texte pazand-pehlevi transcript traduit et commenté. Fribourg. Suisse. 1945. r 2; 271.*

²⁵ *Табризий Мухамад бин Халаф Бурхоне қотей. Техрон. Амири Кабир. 1997.—С. 807.*

Bugungi kunda ko‘plab eroniy tillar, (jumladan, kurd va afg‘on tillarida **dād**, tojik tilida **dod**, fors tilida **داد** shaklida «adolat» ma‘nosini ifodalovchi mazkur so‘z mazdaparastlik dini, uning hukm va qonunlari, tabiati mazmunida kelgan. Mazkur so‘z, shuningdek, «vidavidota» («Vendidod»)ning tarkibiy qismlaridan biridir. Bundan tashqari, ushbu so‘zga o‘zakdosh **dodar** so‘zi *xoliq, xudo* degan ma‘noni anglatadi va Ahuramazdaning sifatlaridan biri tarzida qayd etilgan. Dodar (dey) sharafiga uch kun: dey ba ozar (ozar kunidan keyin keladigan dey), dey ba mehr (mehr kunidan keladigan dey), dey ba din (din kunidan keyin keladigan dey) qo‘yilgan.

Zardo‘shiylik e‘tiqodida qiyomat kunida ro‘y beradigan sinov nomi bo‘lgan «dodiston» atamasida ham ushbu tushuncha mavjudligini ko‘ramiz. Bundan tashqari, zardo‘shiylik diniy matnlaridan biri ham «Dodistoni diniy» (pahlaviycha «Dodistoni dinik») deb nomlanadi. Pahlaviy tilida yozilib, 28600 so‘zdan iborat bo‘lgan bu kitob muallifi 2-milodiy asrning birinchi yarmida zardo‘shiytlarning Kirmon va Forsdagi katta mo‘badi Manush Yuvon Yimak (Manuchehr Javon Jam o‘g‘li)dir. Bu kitobda 92 diniy savolga javob berilgan. Mazkur birikmada «dodiston» so‘zi «hukm, fatvo, ra‘y» ma‘nolarini beradi.

«Avesto»ning «Vendidod» qismi O‘z nomi bilan zardo‘shiylik qonun-qoidalari majmuidir. «Vendidod» avestoshunos J.Do‘stxoh ta‘rificha, vidaivdota «devlarni haydovchi yoki halok qiluvchi qonun» deb nomlanuvchi, forsiyda o‘zgargan holda shu tarzda ataluvchi «Avesto» qismlaridan birining nomidir. Ushbu tarkibni «devlarni halok qiluvchi» deb o‘girishimiz uni asl ma‘nosi va mazmuni (borliqdagi ikki kuch - Ahuramazda va Axriman o‘rtasidagi jangu jadal) ifodasiga oydinlik kiritadi²⁶.

«Vendidod»da qonunchilikka oid bir necha atamalarni uchratamizki, bugungi kunda qonun kodekslarida o‘z ifodasini

²⁶ *Авесто Жилди дўввўм. Мўтаржим профессор Жалил Дўстхоҳ. Устоди донешгоҳе Эсфаҳон. - Техрон, Марварид. 1991.-С. 979.*

topgan holatlarning ayrimlari unda diniy dunyoqarash qobig'ida aks etgani ko'rinadi.

Adliya ishlarining barchasini shohning o'zi nazorat qilgan. Navro'z va Mehrgon bayramlarida hamda qabul vaqtida, o'tirishlarda ham shoh sud va adliya ishlarini olib borgan. Biroq da'vo bilan shohga faqat maxsus qozilar dodiston orqali murojaat qilish mumkin edi. Bu uchun shahardovar (shahar qozisi), roderon (mamlakat qozisi), sipohdovar (qo'shin qozisi) degan amallar joriy qilingan edi. Diniy masalalar bo'yicha ishlar ruhoniylar zimmasida bo'lgan. Gerodot ma'lumotiga qaraganda, ahamoniylar davrida adliya ishlarini olib boradigan yetti nafar pors va midiyalik asilzodalardan iborat kengash tashkil qilingan bo'lib, ular adliya ishlariga mas'ul edilar. Shoh yetti xiradmandlar kengashi va qozilar tomonidan chiqarilgan qaror va jazo turlari ham ko'p edi. Bular turli yo'llar bilan amalga oshiriladigan o'lim jazosidan boshlab, jismoniy jazolar, moddiy jarima va turli sinovlardan (issiq va sovuq - vaji garm va vaji sard imtihonlari)dan o'tishni, turli narsalarni yeyish, ichish bilan ont ichirishni taqozo qilinardi. Bu yerda Firdavsiy «Shohnoma»sidagi Siyovushning Sudoba tuhmatiga giriftor bo'lib, aybsizligini isbotlash uchun olov bilan imtihon qilinganini misol tariqasiga tilga olish kifoya qiladi.

Gunohkor uch xil ayblanishi mumkin edi. 1. Diniy gunoh, jinoyat. 2. Ra'iyatning shoh va davlatga nisbatan jinoyatlari, ya'ni siyosiy gunoh. 3. Shaxsning boshqa shaxsga nisbatan jinoyati. Jazo tayinlash jarayonida shaxsning qul yoki ozod ekani, jinsi va yoshi ham inobatga olingan. Zardo'sht dinida ba'zi hayvonlarga nisbatan qilingan jinoyatlar ham ko'rsatilgan. Jumladan, it va barcha xonaki hayvonlar Ahuramazda qo'shini qatorida sanalagani bois maxsus himoyaga olingan. Hayvonlarga yetkazilgan zarar va azob- uqubat uchun jazo belgilangan. Jazo belgilash jarayonida, asosan, «Avesto»ning huquqqa doir «Dotik» naskalaridan foydalanganlar. «Dotik», ya'ni dod va adolatdan iborat qismlar bo'lib, u «Nikotam», «Vendidod», «Havas», «Salotam» kitoblaridan iborat. Bundan tashqari, zardo'shtiy ruhoniylari tomonidan pahlaviy tilida yozilgan

«Modigoni hazordaston» (ming qonunchilik masaladan iborat kitob), «Dinkard» (Ozarpat xati bilan IX asrda yozilgan), «Dodsitoni dinik» (IX asrning oxirlari), «Bundahish», «Artavirafnomak», «Xudoynomak va boshqa asarlar ham zardo'shtiyalar jamoasidagi «Avesto» huquqi manbalarini tashkil qilgan.

Zardo'shtiylik e'tiqodida jamoa mulki bo'lgan suv va olovga katta ahamiyat berilgan. Bu hol, ayniqsa, ularning suv ilohasi haqidagi mifologik tasavvurida yaqqol ko'rinadi.

Ardvisura Anohita suv ilohasi bo'lib, «Avesto»ning eng muhim yashtlaridan biri «Obon yasht» uning madhiga bag'ishlanadi. Bu iloha nomi uch qismdan tarkib topgan: birinchi qismi: “*ariduy*” va u bunda, shubhasiz, “*dare*” ma'nosida kelgan. Ikkinchi “suro” yoki “sura” donishmand va uchinchi qism “anohita” pok, beg'ubor ma'nosidadir. Bu so'z pahlaviycha Anohid, armancha Onoxit va forsiyda Nohiddir va Zuhra sayyorasi ham shunday nomlanadi. Obon (pahlaviycha Opon) hamma suvlar ilohi va Ano Hitoning sifatidir. Bu nom pahlaviy yozma manbalaridan birida Burzyazd deb nomlangan va Opom Napot yoki Napot Opom bilan bir deb hisoblangan.

«Avesto»da olov «Bahrom olovi» nomi bilan bog'liqdir. Otashi Bahrom yoki ozari Bahrom yetti xil otashkadadan (Sosoniylar davri) biri hisoblanib, maxsus bir otashkada nomi emas, balki Eronning ko'plab shaharlarida Ozari Bahrom qaror topgan edi. Ardasher Bobokon dushman changalidan qutulish uchun Fors qo'ltig'iga yetib keladi va u yerda Ardasher otliq qishloq barpo qiladi, daryo sohilida o'nta Ozari Bahrom barpo qiladi. Zardo'shtiyalarning e'tiqodiga ko'ra, taqvodorlarning har birida Ozari Bahrom bo'lmog'i kerak. Dindorlar dasturining ba'zilariga ko'ra esa, faqat bitta Ozari Bahrom bo'lmog'i kerak. Chunki, u shohdir va bir necha shoh bir iqlimga sig'maydi. Bugungi kunda Ozari Bahromning eng muhimi bundan yetti yuz yil avval bino qilingan Hindistondagi Navsoriy otashgohidir.

Forsiy lugʻatlarda «Bahrom otashkadasi» iborasi hamal Bahrom (Mirrix) doirasida boʻlgani uchun hamal burjidan kinoya, deb izohlangan.

Otashi Bahrom har birini tayyorlash qiyin va uzoq choʻziladigan oʻn olti xil turdagi olovdan tarkib topadi. Oʻn olti olovdan har biri marosimlar davomida toʻplangandan keyin yilning oxirgi besh kunining birinchi kuni olovlarni bir otashdonga soladilar va yangi yilning birinchi kuni uning atrofida diniy qoʻshiqlarni kuylaydilar.

“Avesto”da davlatchilik atributlaridan hisoblangan ijtimoiy tabaqalar haqida ham soʻz yuritiladi. Bu haqda avestoshunos Jalil Doʻstxoh “oturbon” soʻziga bergan izohda yozadi: “Oturbon” “Avesto”da Osravon yoki Osurvon hamda pahlaviychada Osravon yoki Osrun boʻlib, “olov posboni” maʼnosini beradi. Oturvon din peshvolari yoki moʻbadlar unvoni edi. Ular sipohiylar va dehqonlar qatorida uch ijtimoiy tabaqaning biri edilar²⁷.

Manbalarda oturbon, ozarbon soʻzlari bir tushunchani anglatgan. Ozarbon soʻzi ham “Avesto”da athravan, pahlaviyda atûrpân shaklida ishlatilgan va “olov posboni” maʼnosini anglatgan²⁸.

Umuman, ozar, otar, otash soʻzlari kabi otashparast, ozarparast soʻzlari bir xil majozan «zardoʻshtiy» maʼnosini anglatgan²⁹. Bizningcha, keyingi davrlarda oturbon, otashbon, ozarbon soʻzlari zardoʻshtiylik dini peshvolarining umumiy nomiga aylangan. «Avesto»da zardoʻshtiylik diniy rutbalaridan bir nechasing nomi tilga olinadi. Masalan, yazishna (mazdaparastlarning alkov va duo marosimlari)ni oʻtkazish uchun sakkiz nafar moʻbad masʼul edi. Masalan, shulardan biri obrit

²⁷ *Авесто Жилди дүввүм. Мўтаржим профессор Жалил Дўстхох. Устоди донешгоҳе Эсфаҳон. - Техрон, Марварид. 1991.-С. 894.*

²⁸ *Мўин Муҳаммад “Маздаясна ва таъсире он дар адабиёте порсе”, Аз интешороте донешгоҳе техрон.1326х. -С177.*

²⁹ *Мўин Муҳаммад “Маздаясна ва таъсире он дар адабиёте порсе”, Аз интешороте донешгоҳе техрон.1326х-С.187-184*

(«Avesto»da obirita) bo‘lib, u beshinchi maqomda bo‘lgan. Obrit o‘sha marosimda suv keltirishga mas‘ul va mazkur so‘zning lug‘aviy ma‘nosi ham «suv keltiruvchi»dir. Hozirgi kunlarda o‘sha sakkiz peshvoning ikki nafari «zavt» va «rospi» unvonlari bilan mazkur sakkiz mo‘bad o‘rniga yazishnani o‘tkazadilar. Bu sakkiz mo‘bad unvoni quyidagilardan iborat: oturvaxsh, osantr, rospiy, zavt, obrit, surushvarz, farbartar, havtan³⁰. «Avesto»da din peshvolarining nafaqat vazifalari, balki, ularning alohida mas‘uliyatlari haqida ham so‘z ketgan o‘rinlarni uchratamiz. Ikkinchi ijtimoiy tabaqa artishtor bo‘lib, pahlaviy tilida artêshhtar shaklida uchraydi³¹.

Mazkur kitobda munajjimlar, tabiblar, munshiy va dabirlar, ya‘ni qalam ahlining tilga olinmasligi hayratlanarlidir.

«Avesto» jamiyatni to‘rt tabaqaga bo‘ladi: Ruhoniylar-kohinlar (atravanlar); jangovarlar-harbiylar (ratayistralar); peshovar-hunarmandlar (xutlar), (hunar ahli) va kishovarzlar dehqon-chorvadorlar (vasterya-fshuyant). Aynan mulkdorlar va tavongarlar jamoasi bo‘lgan «Avesto» olamida peshovar va barzgar (qo‘shchilar)ni yuqori tabaqaning xizmatkorlariga aylantirilgan edi. Jamiyatning bunday tabaqalashuvi qadimgi, ya‘ni zardushtiylikkacha bo‘lgan an‘analarni o‘zida aks ettiradi. Bu an‘analar ayrim o‘zgarishlar bilan ko‘p asrlar – “Avesto”dan keyingi davrlarda ham saqlanib qoladi.

«Avesto» davri jamiyatining to‘rt tabaqalik tizimi Firdavsiyning «Shohnoma»sida ham tilga olinadi. Bir tabaqadan boshqa bir tabaqaga o‘tishni «Avesto» qat‘iyan man qilardi. Biroq shuni ta‘kidlash lozimki, faqat shohning inoyati va maxsus farmoni bilan biror bir xizmat ko‘rsatgan kishiga faqat jangchilar tabaqasiga

³⁰ *Авесто Жилди дүввүм. Мўтаржим профессор Жалил Дўстхоҳ. Устои донешгоҳе Эсфаҳон. - Техрон, Марварид. 1991.-С. 894.*

³¹ *Pierre Jean de Menasce. Shkand-Gumanik Vicar, texte pazand-pehlevi transcript traduit et commenté. Fribourg. Suisse. 1945. r 2; 267.*

o‘tkazilishi mumkin edi. Ruhoniylar tabaqasiga o‘tish mutlaqo mumkin bo‘lmagan³².

Ruhoniylarning asosiy qismini mo‘badlar tashkil qilgan. Ularning asosiy vazifalari otashkadalardagi xizmatlardan, muqaddas olovni saqlashdan, ta’ziya, qurbonlik marosimlarni boshqarishdan, duo, alqovlar, namozlarni ijro etishdan, tug‘ilish, o‘lish, uylanish marosimlarida qatnashish va ularni boshqarish, diniy bayramlarni tashkil etish, kurash musobaqalarini o‘tkazish, yosh bolalarga ta’lim berish, gunohkorlar gunohlarini kaffora evaziga kechirishdan iborat bo‘lgan³³.

Ahamoniylar davrida ruhoniylar faqat diniy ishlar bilan shug‘ullanishgan. Biroq ashkoniylar davridan boshlab, ular davlat kengashlari (mehiston)da qatnashib, siyosiy faoliyat ham ko‘rsata boshladilar. Sosoniylar davrida esa mo‘badlar, asosan, siyosiy va davlat ishlari bilan shug‘ullanib, qolgan barcha vazifalarini o‘z shogirdlari *zutlar* va *rosbilarga* yukladilar.

Ruhoniylar quyidagi daraja va maqomga ega bo‘lganlar: Zutar zaotar (zuta, ashulachilar) «Yasna» matnlarini oq‘iydigan, u bilan aloqador rasm-rusumlarni bajaradigan asl mo‘bad. Bugungi kunlarda uni faqat bittagina yordamchisi bor. Uni rasvik - raswik (rosbi, olovga qaraydiganlar) deydilar. «Avesto» hamda sosoniylar davrida uning oltita (olti amshospandga o‘xshash) yordamchilari bo‘lgan. Yettinchi yordamchi zutarning orsasında turgan va uni “sraošāvarza” - srushovarza derdilar. Uning vazifasi butun marosim tartibini nazorat qilishdan iborat bo‘lgan.

Mo‘badlar ruhoniylarning muhim bir qatlami sifatida “Avesto” jamiyatida katta mavqega ega bo‘lganlar. «Avesto»da ularni “atharavan”, pahlaviy tilida “asron” (asrok) deb ataganlar. Ularning uchinchi nomlari “kohin” yoki umuman jamoa ulug‘i

³² Рашиод Муҳаммад, *Фалсафа аз оғози тарих. (дар7 жилд)Жилдҳон 1 ва 2.* - Душанбе: Ирфон, 1900.-С.96

³³ *Тарихи муфассали Ирон - Техрон: “Тус”.* - С. 137

sifatida «Avesto»da faqatgina bir marta kelgan «moyu» (mag‘uy), qadimiy fors tilidagi «maguy» (mug‘)ga to‘g‘ri keladi.

Ahamoniylar davrida mug‘lar yuqori tabaqadagi ruhoniylar sifatida viloyatlarda diniy ishlarni va dinni barcha imperiya hududlarida tarqatish uchun katta hissa qo‘shdilar. Somoniylarning birinchi shahanshohlarida mug‘larni «magu mart» - Magu Mart derdilar. Ularning ichidan eng yuqori martabali ruhoniylar «magupat» (magu pat) mo‘bad nomi bilan atagan kohin chiqqan. Sosoniylarning oxirgi davrlarida barcha zardo‘shiy ruhoniylar mo‘bad nomini oldilar, biroq eng ulug‘ mo‘badni «magupaton magupat» (Magupatan madupat) mo‘badi mo‘badon, barcha mo‘badlar mo‘badi deganlar. Bundan tashqari, ruhoniylar martabasiga o‘tgan va o‘z shogirdlariga ega bo‘lganni «hirpat» («Avesto»dagi Aeərapaiti) deydilar. Bugungi kunlarda hind zardo‘shiy birlinchi bosqichdagi hirpat mo‘badni «novar» deydilar. Novar kam ahamiyatli kichik marosimlarni boshqara oladi. Biroq u «Videvdod», «Yasna» va «Visparad» marosimlarini boshqara olmasa ham ishtirok etishi mumkin. Ikkinchi darajada hirpat «martab» (martab) maqomiga ko‘tariladi va barcha marosimlarni boshqara oladi. Mo‘badlardan ham yuqori maqomga «dastur»lar turadilar. Ular barcha ibodatxona va otashxonalarni hamda diniy muassasalarni boshqarardilar. Pahlaviy tilida bu istiloh «mo‘badi buzurg» nomi bilan tilga olingan. Dasturi dastur zardo‘shiy jamoasining rahbari sifatida faqat shahanshohdan pastroq turgan.

Ardasleri Bobakon davrida barcha ruhoniylar soliqlardan ozod qilindi va ularning foydasiga ushr solig‘i joriy qilindi. Ularga mol-mulklar va katta imtiyozlar berildi. Natijada, kuchayib ketgan ruhoniylar davlat ishlariga aralashib, shahanshohlarni taxtdan olib, o‘zlarining nomzodlarini shohlikka ko‘tarardilar. Shopur I, Xurmuz I va Bahrom II davridagi mo‘badon mo‘badi Kartir/Kardar yozishmalarida (Taxti Rajab, Persepolda) uning qancha katta qudratga ega bo‘lganini ko‘rish mumkin³⁴.

³⁴ *Жавод Муҳйи. Тарихи тамаддуни Ирон.–Техрон, 1377 ҳижри.-С.48.*

Ashkoniylar hukmronligining oxirlarida Zardo'sht dini zaiflashadi, zero, Ashkoniylar hukmronlari yunonliklarning urf-odat va dinlariga moyil edilar. Sosoniylar hukmdorlari davriga kelib, din va davlat ishlari birlashtirildi va ruhoniylar eng yuqori hurmat ehtirom darajasiga ko'tarildi. O'z navbatida, ruhoniylar ham o'z homiylarini qo'llaganlar, ularni maktab, hukumatlarining kuchayishiga zo'r berganlar. Aks hollarda ruhoniylar shohlarni taxtdan tushirganlar. Masalan, Kubod Mazdakka yon bosgani uchun taxtdan mahrum va o'linga mahkum bo'ldi. Uning o'g'li esa Xusrav I barcha mazdakiylarni o'ldirib, «Odil Anushervon» laqabini oldi; Bahrom I Moniy terisini shilib olgani uchun Halim shoh nomini olgan; Yazdigurd I esa nasroniylarga yon bosgani uchun «Shohi bazahgar» (gunohkor Shoh) nomini oldi³⁵.

Jangovarlar:

Ular (egallagan mol-mulklariga qarab) ikki toifaga bo'linardilar: yuqori mansab va past mansabdagi jangovar-jangchilar hamda ularning farzandlari va oilalari. Jangovarlik ham meros bo'lib, barchalari aslzoda sanalardilar. Tinchlik vaqtida ular shoh saroyida xizmat qilib viloyat va chegaradagilar astondorlik, marzbonlik qilardilar, yer va molu mulklarining boshqaruvi bilan mashg'ul bo'lardilar. Urush va yurishlar davrida o'z piyoda va suvoriylari bilan saroyda hozir bo'lib, qo'shin qanotlarini boshqarardilar. Past mansabdagi jangovarlar, asosan, otliq askar sifatida qo'shinga qo'shilib, yurish va jangga tayyor bo'lardilar. «Avesto» davridagi qo'shin, asosan, muayyan hudud aholisi (etno-territorial) asosida tuzilar edi.

Harbiy unvon va mansablar quyidagicha bo'lgan: 1. Vuzur farmodor (ulug' farmondor. Yurishlar vaqtida poytaxtda qolib, shahanshoh noibi bilan birga mamlakatni idora etardi). 2. Eroniyspahad (barcha qo'shin qo'mondoni). 3. Ispahad (otliqqo'shin qo'mondoni). Bayg'onsolor (piyodalar qo'shini qo'mondoni). 4. Artishtoronsolor (armiya/front qo'mondoni). 5.

³⁵ Рашиод Муҳаммад. *Фалсафа из оғози тарих. Душанбе: Ирфон, 1990. – С. 98.*

Gundsolor (bir qanot qo‘mondoni). 6. Dirafshsolor (dasta/tug‘ qo‘mondoni). 7. Satrap (nohiya shohi). 8. Astondor (aston qo‘shinining qo‘mondoni). 9. Argbad(qal‘abegi). 10. Aronsipahboz (nohiya harbiy ishlarining vaziri).

Manbalarda jangovarlar oilalaridan yetti xonadon Vispuhar nomi bilan tilga olinadi va ulardan eng mashhur sulolalari Spandiyor, Ispahbud, Mehron, Suran va Koran ekani qayd qilinadi.

Bundan tashqari, shahanshohning shaxsiy gvardiyasi (gurdon), sipohi jovid (abadiy shoh xizmatida bo‘lganlar), shahriston dastalari, qal‘alar va chegaradagi qo‘shinlar ham harbiy tizim doirasida amal qilardilar. Yana harbiy tizimda dehqon va rustoqlar aholisi hisobidan yuzlab boshqa amal hamda mansablar bo‘lgan (suyursotchi, shotir, mehtar, chopar, borbar, borovodor va hakazo).

Jangovarlar ham barcha soliqlardan ozod edilar, qimmatbaho kiyim kiyish, qurol-aslaha olib yurishga haqlari bo‘lib, oila a‘zolariga ipak matodan kiyim kiyish, zebu ziynatlar bilan yurish uchun haqlari bo‘lgan.

Yilda bir marta shahanshohning shaxsan o‘zi qo‘shinlarni ko‘rikdan o‘tkazib, yaxshi xizmat qilganlarni taqdirlagan, harbiy qoidalarni buzganlarni jazolagan. Butun davlat hududi to‘rtta harbiy okrugga bo‘lingan. Har bir okrug harbiy boshlig‘i markazdan tayinlanib, bevosita shahanshohga bo‘ysungan. Bosib olingan hududlar va chegara hududlarda harbiy gornizonlar joylashtirilgan. Ahamoniylar qo‘shinlarining harbiy tartibi haqida Gerodot va Kursiy Ruf batafsil ma‘lumotlar beradilar. Bu ma‘lumotlarga ko‘ra, ularning asosiy harbiy qurollari qilich, gurzi, o‘q-yoy, qalqon, hanjar, harbiy bolta va nayzalardan iborat bo‘lgan.

Peshavarlar (hunar ahli), asosan, shahar aholisi va hunarmandlardan iborat bo‘lgan. Ular yilda uch marta soliq to‘lardilar va markaziy davlat tomonidan tayinlangan maxsus mufattish (harbiy va mudofaa ishlar bo‘yicha), nozir (soliq masalasi bo‘yicha) va mubassir (grajdanlik ishlari bo‘yicha) amaldor tomonidan nazorat qilinardi.

Kishovlarlar, ya'ni ziroatchi, qo'shchilar «Avesto» jamoasining eng past tabaqasi hisoblanardi. Ular jangovlarlar va ruhoniylar yerlarida ishlab, mulk egalariga «begor» kabi majburiyatni yil davomida bajarib, davlatga esa yer va jon solig'ini to'lardilar. Urush va harbiy yurishlar paytida piyoda askarlar sifatida majburiy xizmatga jalb qilinardilar. Tinchlik paytida mulk egasi yerida yilida bir marta «begor»majburiyatini bajarardilar. Ulardan katta miqdorda soliq olinardi. Masalan, bir jarib (1 ga) ziroatli yerdan bir dirham, bir jarib tokzordan sakkiz dirham, bir jarib sholi eqilganmaydondan besh dirham soliq olinardi. Har bir ziroatchi 30 yoshdan 50 yoshga to'lgunga qadar jon solig'i ham to'lashga majbur edi.

«Avesto» davrida yashayotgan jamiyatda oila va nikoh hamda meros masalasini o'rganish muhimdir. Bu mavzuni o'rganishda bizga «Avesto» bilan birga boshqa yozma manbalar va mavjud tadqiqotlar yaqindan yordam beradi. Qadimiy o'lkamizda uzoq muddatlar hukmron ideologiya sifatida amal qilgan«Mazdayasno», otashparastlik va zardo'shtiylik o'sha qadimiy jamoaning ijtimoiy munosabatlar asosini tashkil qilgan. Oila va nikoh ham Zardo'sht diniga binoan uning asosiy g'oyalariidan kelib chiqqan holda amalga oshirilgan. Zardo'shtiya dinida oila muqaddas sanalgan va oilasiz yashash man qilingan. Farzandi bo'lmagan odamlar Chinvo't ko'prigidan o'tib ezgulikka erisha olmasdi. Manbalar va ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, oila qurish bir majburiy vazifa bo'lgan.

«Avesto» (Yasno, Goh 32, 1 band)da oila «xavoitush - xaētuš» deb nomlanadi. Undan tashqari, shu joyda muayyan hududda yashayotgan qabila, avlodni «vərəzənəm» viriz'inam nomi bilan ataladi. Qabiladan katta uyushmaning nomi ulug', buyuk, ya'ni xalq, elat ma'nosidagisini «Avesto»da «airyamna» (airyamno) deyishgan. «Damon» yoki «nimon» oila, xonavoda yashaydigan mahal va manzildir (qiyoslang: tojikcha xonumon = xona+ nimon). «Vis» bir nechta xonavoda yashaydigan mahal, deh, qishloq deyilgan. «Zantu» esa bir-birlaridan yaqin bo'lmagan, biroq

muayyan xonavodaga emas, bir zan-ayolga yaqin oilalarning yashash joylari. Zantuga tegishli guruhni mazkur matnda «airiman» deyishgan. «Dahiyu»/kishvar, mamlakat millat yoki bir elat yashaydigan hududdir. Uni «dahiyupaiti» - dehqat boshqargan. Shunday qilib, «Avesto» olami jamiyatini oila, avlod, qabila, elat, ular yashaydigan deh va mamlakat tashkil qilardi.

«Avesto» bo'yicha qadimiy jamiyatning asosi bo'lgan oila va nikoh masalasini quyidagicha tahlil qilish mumkin: 1. Muayyan bir yoshga yetgan har bir o'g'il va qiz o'z ota- onalari, ba'zan o'z ixtiyorlari bilan oila qurishlari lozim bo'lgan. Oila qurishga kuchlari yetmaganlarga Anushervon davrida davlat xazinasidan yordam berishgani ma'lum. Farzandi borodamlar, Zardo'sht ta'limotiga binoan, Alvand va Damovand tog'larini boylagan Chinvot ko'prigidan bemalol o'tadilar. Bolasizlar esa narigi dunyoda sarson va sargardon bo'lib «buridapul» (ko'prikdan o'tolmagan) sifatida yurar edi. Ahamoniylar davrida ularning imperiyalarining barcha hududlarida ko'p bolali oilalarga mukofot ham berardilar. Zardo'sht ham nikohni rizqu ro'zining asosi, farovon ne'mat keltiruvchi deb bildirdi. Er va xotin nikohda birgalikda yerga ishlov berib, bog'larni gulafshon va boyliklarni ko'paytirishlari mumkin edi. Qadimiy Xorazmda ham oila qurish yoshi yigit va qizlar uchun 13, 14 va 15 deb manbalarda ko'rsatilgan. Qizlarni 9 yoshda nomzad va 13 yoshda erining uyiga jo'natish mumkin bo'lgan.

2. Yoshlar aslan ota-onalarining roziliklari bilan, ular kelgan qarorga rozi bo'lib, oila qurishlari zarur edi. Ayniqsa, qizlar faqat otalari tanlagan kuyovga erga tegishlari lozim bo'lgan. O'z ixtiyori bilan erga tekkan qiz «xudsarzan» (o'z ixtiyori bilan erga tekkan juvon, qaysar ayol ma'nosida) nomini olib, merosdan mahrum bo'lardi va hech qachon o'z oilasida «poshshozan» (shoh ayol, malika) maqomiga ega bo'la olmasdi. O'z ixtiyori bilan uylangan yigitlar haqida «Avesto» matni va Zardo'sht hech nima demagan, faqat o'g'ilni merosga egalik qilish, bu dunyo va oxirat baxtiga erishish uchun ota-onaga itoat qilishi lozim bo'lgan.

3. Mahramlar o'rtasidagi nikoh ham «Avesto» jamoasida shoh oilasi va aslzodalar o'rtasida mavjud bo'lgan (xvaetvadata). Qadimiy Rim va Yunon tarixchilari ma'lumotlaridan ko'pincha shoh va a'yon-ashroflarda yaqin qarindoshlar bilan oila qurganlar haqida ma'lumot olamiz³⁶.

4. Qadimda «Avesto» olamida bir er kishi xotinlarining soni haqida ham ma'lumot mavjud. Aslzodalar va boy tabaqadagi erkaklarning xotinlari bitta bo'lmagan. Masalan, Kir III va Kambuja III ning uchta xotini, Doro I ning yetti, Ardasherning 360 nafar xotin va cho'rilari bo'lgan (Amir Temur haramida to'rt shar'iy xotini bilan birga yana 20 ga yaqin joriya - qumolari bo'lgani kabi). Biroq shuncha ayollardan faqatgina bittagina ayol qonuniy, qolganlari esa g'ayriqonuniy sanalardilar. Qonuniy xotun «kazokbonuk» va qolganlarni chokar, joriya, qumo derdilar.

5. Oilada ayollar quyidagi maqomlar va meros olish huquqiga ega edilar:

a) Poshshozan/malika otasi va o'z oilasi roziligi bilan erga tekkan qiz;

b) Xudsarzan - o'z ixtiyori bilan otasi va oilasining rozilgisiz erining uyiga ketgani;

v) Chokarzan - tul qolgan ayol, ikkinchi erga tekkan juvon;

g) Anvokin - biror bir oila a'zosiga tegishli bo'lgan qiz.

Oilasi uni birinchi o'g'il bolasini bobosiga berish sharti bilan erga berishgani. Shu o'g'il onasi o'rnida qolib, merosxo'r sifatida qoladi. Ko'pincha o'g'illari bo'lmagan oilalar va shaxslar shu tartibga amal qilganlar;

d) Satarzan yosh yoki bevaqt vafot etgan o'g'ilga erga tekkan qiz. Oila avval uni o'lgan yigit nikohiga kiritib, keyin unga qayta sep yig'ib, erga beradilar. Bu qizning birinchi farzandi, ko'pincha o'g'li vafot etgan yigitning farzandi sanalardi va uning oilasiga beriladi. Ba'zan farzandi bo'lmagan kishi biror bir qizni so'rab, o'z nikohiga rasman kitar edi. Keyin uni yangi sep va narsalari bilan

³⁶ Геродот II, I, III, 2.

qayta erga berib, uning farzandini asrab olardi. «Avesto» jamiyati patriarxal jamoa bo‘lib, barcha huquq er va oila boshlig‘ining qo‘lida edi. Zarur bo‘lganda o‘g‘il katta qizi va singlisini otasiga xizmat qilish uchun berardi. «Gata»larning 53-bobi 5-gohida shunday deyiladi: «Sizlarga aytgum, ey kuyov bo‘lgan yigitlar va ey kelin bo‘lgan qizlar! Doim o‘z juftlaringni eslanglar va yakdillik va birjihatlik bilan pok din tariqasida yurib, ittihad va ittifoq ila rostlik libosini kiyinglar. Shunda to‘g‘ri va shodmonlik bilan hayot kechirgan bo‘lasizlar».

Er xotini vafot etganda boshqa ayolga uylanishi mumkin edi. Ayol esa ikkinchi marta faqat chokarzan sifatida qayta erga tegishi mumkin edi. Biroq agarda uning birinchi eridan farzandi bo‘lmasa, ikkinchi oilasida paydo bo‘lgan farzandlarining yarmi oldingi eriga tegishli bo‘lardi. Diniy tafakkurga binoan, oxiratda u birinchi eri visoliga tegar ekan. Agarda ayolning eri bir muddat g‘oyib bo‘lsa, xotini boshqa erga tegsa, birinchi eri qaytishi bilanoq uning huzuriga qaytib, yana «poshshozan» darajasiga ko‘tarilardi. Poshshozan umumiy mulkidan boshqalarga hadya va tuhfalalar berishi mumkin edi. Ko‘p hollarda ayol erining mol-mulkiga sherik, eri mulkining mutasaddiysiga aylanar edi. «Avesto» bo‘yicha, ayol eridan qolgan mulkka egalik qilishi lozim bo‘lgan. Er faqatgina zaruriyat tug‘ilganda xotiniga tegishli bo‘lgan mol-mulkdan foydalanishi mumkin edi. Biroq birinchi imkoniyat bilan uni qaytarib berishi talab qilingan. Ayol o‘z mol- mulkidan ibodatxona qursa, uning mutavaliyligi faqat bolalariga tegishli bo‘lib, erining esa unga daxli bo‘lmagan. Ayolning ta‘minoti xoh boy bo‘lsin, xoh kambag‘al faqat erining zimmasida bo‘lgan. Er o‘z xotiniga biror bir mulk, boylik yoki zeb- ziynat bersa va uni uch kun davomida qayta so‘ramasa, u narsalar xotinniki bo‘lib qolardi. Er ularni qayta talab qilganda berish-bermaslik ayol zimmasida bo‘lgan. Xotin uyga biror bir xonaki hayvon (qo‘y, echki, tuya, ot)ni olib kelsa va eri uch kun davomida biror bir narsa demasa, ularni boqib olishi va o‘z mulkiga aylantirishi mumkin bo‘lgan.

6. Er o'z xotinini yaqinda vafot etgan biror bir boy kishiga erga berishi ham mumkin bo'lgan. Shunda ayoli «poshshozan» o'rnidan «chokar»likka tushardi. Shundan keyin tug'ilgan farzand o'lgan odamning bolasi sanalardi va ona bilan o'g'il uning merosxo'riga aylanardi. Ayolga, albatta kamroq meros tegsa ham, u uning moli hisoblanib, «sobiq» erining unga daxli bo'lmagan. Zardo'shtiy faqat o'z dinidagi va o'z elatiga uylanishi mumkin bo'lgan. Aks holda bunday kishini bir o'likka erga tekkan deb ta'nasor qilardilar.

Asrab olgan bolalar va farzandxondalarning o'rni.

«Avesto» matnlarida farzandxonda qilganlarning masalasi juda muhimdir. Farzandxonda uch darajaga ega bo'lgan 1. Tirik vaqtida farzand qilinganlar. 2. Zo'raki farzand. 3. Vorislar tomonidan tayinlangan farzand. Endi har birini mufassalroq ko'rib chiqamiz.

1. Farzand qabul qilingandan so'ng bir shaxs vafot etadi. Bu farzand vafot etganga o'g'il sifatida qoladi.

2. Mavjud zo'raki farzand. O'zidan katta o'g'il yoki aka-ukalari bo'lmagan shaxs o'ziga taalluqli bo'lgan qiz, poshshozan bo'lgan xotinining qizini farzandlikka qabul qiladi.

3. Vorislar tomonidan asrandi voris quyidagicha qabul qilingan: a) vafot etgan shaxsning katta singlisi, agarda u boshqa bir oilaga taalluqli bo'lmasa; b) vafot etgan shaxs akasining qizi; v) marhum akasining o'g'li.

Yuqoridagilardan shu ma'lum bo'ldiki, farzandlikka ham erkak va ham ayol qabul qilinishi mumkin bo'lgan. Biroq farzandlikka qabul qilingan balog'atga yetgani, solimaql bo'lmog'i, zardo'shtiy dinida ekani va jazosi o'lim bo'lgan jinoyat sodir etmagani talab qilinadi. Bundan tashqari, uning xonavodasi va ko'p bolalari bo'lmagani lozim bo'lgan. Bunday shaxs bir yoki bir nechta xonavodaning farzandxonda bo'lishi mumkin edi. Bunday holat ko'pincha erkaklarga ma'qul bo'lgan. Qizlardan esa erga tegmagani, biror bir boshqa xonavodaga tegishli bo'lmaganlari, birov bilan nikohsiz yashamagani, fohisha bo'lmagani farzandlikka qabul

qilingan. Biroq ba'zan qizlardan zardo'shtiy bo'lmagan va yoshi kichik bo'lganlar ham farzand sifatida tanlangan.

Manbalarda biz farzandlikka qabul qilganlarning boshqa merosxo'rlar bilan munosabatlari, ularning hayotlari haqida ma'lumot topmaymiz. Faqat shu rasm va rusumning uzoq muddat davom etgani bu tartib oilaning kattasi nazoratida amalga oshirgani, tarbiya va ta'lim olganini taxmin qilsa bo'ladi.

Farzand besh yoki yetti yoshgacha onasi oldida parvarish topardi. Yetti yoshda u otasi ixtiyoriga o'tib, maxsus marosimda sitra jomasini unga kiydiradilar va beliga ko'sti/go'shti (bugungi kunlarda milliy kurashdagi belbog' turi ana shu go'shti - kamarni ushlab kurashga tushgan zardo'shtiydardan qolgan) degan kamarni boylardilar. Shundan keyin bolaga din asoslari, qilichbozlik, o'q otish, nayza tashlash, otsuvorlikni kattalar o'rgatardilar. Qadimiy «Avesto» olamida ta'lim va tarbiya masalasi alohida mavzudir.

«Avesto» ta'limotida oila jamiyatning eng muhim tarkibiy qismi sifatida baholangan. «Avesto»da oilaviy hayot masalasiga katta e'tibor berilgan. Oila qurish jamiyat a'zosining shaxsiy ishi deb qaralmagan. Bu esa har bir inson o'zi mansub bo'lgan jamiyatning muhim bir uzviy qismi deb qarash natijasidir. Bu esa jamiyat taraqqiyotiga, uning mustahkamligiga ta'sir qiladigan hol ekanligi anglangan. Jumladan, «Vendidod»ning to'rtinchi fargard uchinchi bo'lim 47-bandida o'qiyamiz:

Ey Sipiytomon Zardo'sht!

Kimning xotini bo'lsa, u xotinsiz va dunyodan farzandsiz o'tayotgan kishidan yaxshiroqdir.

Kimning uyi bo'lsa, u uysiz bexonumon odamdan yaxshiroqdir. Kimning dunyosi bo'lsa, u hech vaqosi yo'q gadodan afzaldir³⁷.

Shuningdek, uchinchi fargardning birinchi bo'limida quyidagi satrlar ham yuqorida aytilganlariga hamohang o'laroq, oilaning jamiyat va davlatdagi beqiyos o'rnini vasf qiladi:

³⁷ *Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси - Т.: «Қомуслар» Бош таҳририяти, 2001. Б.121*

Ey, olamni yaratgan Zot!

Ey Haqiqat!

Zamini hammadan ko'ra baxtliroq bo'lgan dunyodagi ikkinchi joy qayer?

Axuramazda javob berdi:

Bunday joy bir Ashavan tiklagan makondir. O'sha joyda mo'bad ro'zg'or tebratadi. Sigirlar galasi va uy bekasi, farzandlar va suruvlar yashaydi bu uyda... Uy bekasi baxtiyor, farzandlar shodmon³⁸.

Ushbu parchada «uy bekasi» deb tarjima qilingan soʻz Jalil Doʻstxoh tarjimasida «kadbonu» boʻlib, uning avestoviy shakli **katak bônôydir**³⁹. Mashhur leksikograf Muhammad Mubinning taʼkidlashicha, hozirgi fors tilida bonu «malika» maʼnosidagi «shahrbonu» (podshoh - shahriyor)ning qisqargan shakli ham hisoblanadi⁴⁰. Mazdaparastlar dinida Bahman, Shahrivar, Sipandormaz, Xurdod va Amurdodlar oʻz ichiga oluvchi bosh ilohlar guruhi boʻlib, u amshospandlar deb ataladi. Shulardan uchtasi-Spandormaz, Xurdod, Amurdod ayol qiyofasida tasvirlangan. Xususan, Amurdod qiyofasida ayollarga xos pokizalik, mehr-muruvvat kabi xislatlar oʻzining toʻla aksini topgan. Amurdod «Avesto»da Amirihota, pahlaviycha Amurdod yoki Amurdot, forsiyda Amurdod yoki Murdod. «Mangulik», «boqiylik» maʼnosini anglatadi. Gohlarda Ahuramazdaning sifatlaridan biri, lekin «Yangi Avesto»da nomi hamisha Xurdod ilohasi nomi bilan keluvchi bir ilohda oʻz aksini topgan. Amurdod ilohlar dunyosida Ahuramazdaning mangu va boqiyiligini namoyish qiluvchidir hamda astumand dunyosida (moddiy dunyoda) giyohlarga va oziq-ovqatga homiylik qilish uning vazifasidir. Zardoʻshiylik adabiyotlaridan biri «Toropur volo» sharhiga koʻra, Amurdod, Xurdod, Spandormaz Ahuramazda ilohining muannas koʻrinishini tashkil etuvchi uch

³⁸ *Ŷua acap. –B.112.*

³⁹ *Justi Ferdinand. Der Bundelesh. Ubersetzt. leipzig .1868.-P 89.*

⁴⁰ *Табризий Муҳаммад бин Халаф Бурҳоне қотей. Техрон. Амири Кабир. 1997.–С. 807.*

iloha guruhidir. Yilning beshinchi oyi va har oyning yettinchi kuni, chambak guli unga xosdir.

«Bundahishn»da bu iloha haqida o'qiyimiz: «Mangu Amurdod behisob giyohlar sururidir. Zero, uning uchun olam giyohlari o'z mulkidir. Giyohlarni o'stiradi va ko'ylar suruvini ko'paytiradi. Chunki, hamma chorva mollari undan yeb kun ko'radilar. Kimki, giyohlarni e'zozlasa, Amurdod undan xotirjam, ozorlagan holda esa ozurda bo'ladi».

«Avesto»da uy sohibi ma'nosida esa **katakxvatay** so'zi ishlatilgan⁴¹.

«Avesto» ishlab chiqarishni davlat va jamiyatni harakatga keltiruvchi omil deb biladi. «Avesto»da chorvachilik va dehqonchilikka katta ahamiyat berilganidan bu sohalarga jamiyat va davlatning muhim belgilaridan biri sifatida qaralganini ko'rish mumkin. Ushbu fikrga dalil bo'ladigan o'rinlarni «Avesto»da ko'plab uchratamiz. Jumladan, «Vendidod»ning ikkinchi fargapdining uchinchi bo'lim 31-32-bandlarida quyidagi satrlarni o'qiyimiz:

*Kimda-kim bug'doy eksa, u Ashax (Haqiqat)ni ekadi.
Qachonki, egatlarda urug' yetilsa, devlar o'rinlaridan qo'padilar.*

*Qachonki, bug'doy gurkirab ko'karsa, devlar dahshatdan
titray boshlaydilar.*

Qachonki, bug'doy un bo'lsa, devlar nola chekadilar.

*Qachonki, bug'doy xirmonga uyulsa, devlar nobud
bo'ladilar⁴².*

Shuningdek, yerni qadrlash, uning saxovatidan bahramand bo'lish uchun mehr bilan mehnat qilishga undovlarning go'zal bir badiiy tarzda berilishini ham ayni shu bobda ko'ramiz:

Uzoq zamon ekilmagan va omoch tegmagan zamin baxtsizdir. U omochni orzu qiladi. Bunday zamin balog'at pallasiga yetgan

⁴¹Nyberg H.S. *Hilfibuch des Pehlavi*, 2 Bände Uppsala 1928-1931. p.125

⁴²Авесто. *Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржумаси Т. «Қомуслар» Бош таҳририяти*, 2001. -б.115

sohibjamol qizdir. Bu qiz farzand ko‘rish va yaxshi yostiqdoshga intiqdir.

Kimda-kim zaminni chap va o‘ng qo‘l bilan, o‘ng qo‘l va chap qo‘l bilan shudgor qilsa, zamin unga farovonlik baxsh etadi. U go‘zal va pokiza qizga o‘xshaydi. U qiz er xonadoniga kirib borib, halol yostiqdoshiga farzandlar tug‘ib beradi. Zamin ham mo‘l-qo‘l mevalarini in‘om etadi⁴³.

«Avesto»da bu jarayon Mazdaparstlik dinining e‘tiqodlari o‘limdan keyingi hayot aqidalari bilan chambarchas bog‘liq holda talqin qilingan. Bu holni, xususan, quyidagi parchada yaqqol ko‘rishimiz mumkin:

Kimda-kim zaminni shudgor qilib, uni mehribonlik va parhezkorlik bilan bir Ashavanga topshirsa, Sipandormaz uni zamin qa‘rida, hasrat va parishonlik olamida, tubanlik va sho‘rbaxtlik sarzaminida devlar makoni - do‘zax tubiga uloqtirib tashlamaydi⁴⁴.

«Vendidod»ning ikkinchi fargard ikkinchi bo‘limning 25-41-bandlarida odamlar, ularning asosiy mashg‘ulotlari dehqonchilik va chorvachilik xususida so‘z yuritiladi. Jumladan, 33-bandda shunday deyiladi:

O‘shanda Jam har birining to‘rt tomoni aspiyris uzunligida bo‘lgan var bino qildi va qo‘ylar, tuyalar, odamlar, itlar, parrandalar va kuydirguvchi qizil olov urug‘larini u yerga olib bordi.

O‘shanda Jam odamlar yashamog‘i uchun har birining to‘rt tomoni aspiyris uzunligida bo‘lgan var bino qildi⁴⁵. Sigirlar, qo‘ylar uchun har birining to‘rt tomoni aspiyris uzunligida bo‘lgan var barpo ayladi.

Ushbu badda tilga olingan «aspiyris» so‘zi ajdodlarimizning qal‘asozlik madaniyatini ko‘z o‘ngimizda tasavvur qilishimizga yordam beradi. Avestoshunos Jalil Do‘stxoh yozishicha, «aspiyris»

⁴³Ŷua asar.-B. 115

⁴⁴Ŷua asar.-B.115

⁴⁵Ŷua asar.-B.111

soʻzi oʻzagida «aspa» - ot soʻzi mavjud boʻlib, u otchopar uzunligi birliklaridan biridir. «Avesto»ning pahlaviycha tarjimasida oʻsha «var»ning har bir yeri uzunligi ikki «hosar», yaʼni ikki farsang deb zikr qilingan. Eron olimi Bahor «Avesto»ning oʻzida asli bir «hosar» bir aspiyris uzunligida boʻlgan, u taxminan 700 metrga teng keladi, deb yozadi⁴⁶.

Ushbu maʼlumotlarning oʻzi qadimgi Xorazmdagi qalʼalarning qurilish sistemasida uy hayvonlari uchun maxsus oʻrinlar ajratilgani izohlash bilan birga mazkur qadimiy yodnomaning mansublik darajasiga ham oʻyinlik kiritadi.

Yuqoridagi parchada «qoʻy» deb tarjima qilingan soʻz «Avesto»ning asliy matnida **gaospenta** tarzida qoʻllangan⁴⁷. U aslida chorva mollarining umumiy nomi boʻlgan gâv soʻziga «muqaddas» maʼnosidagi **spenta** soʻzining birikuvidan tashkil topgan boʻlib, «ezgu mol», «muqaddas mol» degan maʼnoni bildiradi. Aslida «kuy» maʼnosida «Avesto»ning oʻzida **maesha** soʻzi ishlatilgan⁴⁸.

Ushbu holatning oʻzidayoq mazkur yodnomada qadim ajdodlarning ishlab chiqarish borasidagi ikki muhim sohasi - dehqonchilik va chorvachilikka katta eʼtibor qaratganlarini yaqqol koʻrsatadi.

Umuman, mil. avv. VII asrning oxiri VI asrda Xorazm davlati mavjud boʻlganligi aniq. Bu davrda Xorazmda qurilish va hunarmandchilik ancha rivojlangan. Tadqiqotlar natijasida bu hududlardan bronza va temirdan yasalgan mehnat hamda harbiy qurollar, sopol urchuqlar, bronza igna, bigizlar, sopol idishlar topilgan. Bu topilmalar qoʻshni Margʻiyona, Boxtar va Sugʻdiyona topilmalariga oʻxshab ketadi.

⁴⁶ *Авесто. Мўтаржим профессор Жалил Дўстхоҳ. Устоди донешгоҳе Эсфажон. - Техрон, Марварид. 1991.-С.912-913.*

⁴⁷ *Grundriss der Neupersischen Etymologie. Strasburg. 1893.-P.942.*

⁴⁸ *Grundriss der Neupersischen Etymologie. Strasburg. 1893.-P.942.*

«Avesto»ni undagi davlat va jamiyat boshqaruvi masalarining aks etishi e'tibori bilan kuzatsak, bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan ba'zi muammolar qadim ajdodlar tafakkuri nuqtai nazaridan yoritilganini ko'ramiz va uni ilmiy tahlili xalqimizning jamiyat va davlat boshqaruvi tarixining tadqiqida muhim faktlar beradi.

Shunday qilib, mazkur mavzu bo'yicha quyidagi xulosalarni berish mumkin: «Avesto» mazmuni, qadimiy bitiklar, turli tillardagi manbalar hamda ilmiy tadqiqotlar natijalari bugungi kunlarda quyidagi natijalarni olishga imkon beradi.

1. Zardo'shtiylik Eron va Turon xalqlarining qadimiydiniy e'tiqodlaridan bo'lgan.

2. Zardo'sht tarixiy shaxs bo'lib, Buxtarda, uning hokimi Vistashpa va malika Xutaosya saroylarida Mazda Yasna - Mutlaq Oqil Zot dinini targ'ib etgan.

3. Zardo'shtning olamga kelishi va faoliyati ikki daryo oralig'i, ya'ni Sirdaryo va Amudaryo o'rtasidagi hududlarda sodir bo'lgan.

4. Zardo'sht targ'ib qilgan Mazda Yasna dini boshqa jahon dinlarning shakllanishiga katta ta'sir etgan.

5. Zardo'shtiylik va unga yaqin ta'limotlar qadimiy dunyoning diniy-falsafiy sistemalari doirasida muhim o'rin egallaydi.

6. Zardo'shtiylik o'z negizida payg'ambarlik g'oyasi mavjud bo'lgan eng qadimiy dinlardan biridir (unda bu g'oya Budparastlik va yaxudiylik dinida keltirilgan payg'ambarlardan ham oldin foydalanilgan).

7. Zardo'shtiylik birinchilardan bo'lib ezgulik va yovuzlikning o'zaro aloqalari, olam va tabiatda insonning o'rni, tarixiy jarayonlarga uning ta'siri, narigi olamda ajru mukofoti haqidagi ta'limotlarni olib bordi.

8. Zardo'shtiylik dini jahon dinlari darajasiga ko'tarilmagan bo'lsa ham, u qadimda boshqa diniy falasafiy aqidalarni qabilaviy,

mahalliy qadriyatlardan milliy va umumdavlat dinlar darajasiga ko'tarilish uchun zamin yaratdi.

9. Zardo'sht yashagan davr va «Avesto» zamoni bu monogam oilalar va xususiy mulkning shakllanishi, davlatchilik unsurlarning paydo bo'lishi, protoshahar, shahar, shahar-davlatlar, davlat va konfederatsiyalarning paydo bo'lgan davrini qamrab oladi.

10. Zardo'shtning diniy-falsafiy ta'limoti islomgacha bo'lgan davrda muayyan jarayonlar, rivojlanish va o'zgarishlarni boshdan kechirgan. Islom davrida va o'rta asrlarda ham u turli o'zgarish hamda transformatsiyani boshdan kechirgani ma'lum.

2. Al-Beruniy ilk turkiy davlatlar haqida

Xorazm hukmdorlari tarixda Xorazmshohlar nomi bilan mashhur bo'lganlar. O'rta asrlarda Xorazmda Xorazmshohlarning to'rtta sulolasi davlatni boshqargan: Ofrig'iylar (305-995); Ma'muniylar (995-1017); Oltuntosh sulolasi (1017-1034); Anushteginlar sulolasi (1097-1231).

Yuqorida aytib o'tilgan mazkur sulolalar ichida Ofrig'iylar davri tarixi va madaniyati, asosan arxeologik materiallarda saqlangan. Eng ko'p yozma yodgorliklar esa ma'muniylar va Xorazmshohlar davrlariga mansubdir. Bu davrlarda yaratilgan yozma meros Xorazmshohlar saltanatida ilm-fanning turli sohalari rivojlanganligidan darak beradi⁴⁹.

Beruniy Xorazmda ilk davlatning paydo bo'lishini aniq raqamlar bilan ko'rsatib berishga intiladi. Uning ta'rificha, mahalliy tarixiy an'ana Xorazm davlati tarixini tashqi tuzilishinigina beradi, chunki xorazmliklarning o'zlari bu an'anani ilk o'rta asrlarda deb tasavvur qilganlar.

⁴⁹Бўриев О. Ўрта Осиёда илмий анъаналар давомийлиги (Хоразмишохлар ва темурийлар давлари таҳлили) Жалолиддин Мангуберди – Ватан, юрт ҳимоячиси // Халқаро конференция материаллари. Урганч). -Т.: «Фан,1999, -Б.35.

«Xorazmliklar, -deb yozadi Beruniy, yil hisobini oʻz mamlakatlarida aholi joylashgan vaqtdan, Iskandardan avvalgi 980 yildan, yaʼni selevkiylar erasidan oldin (Selevk erasi Bobilni Selevk bosib olgan vaqtdan eski hisob bilan 312 yil), yaʼni er.av. 1292 yildan boshlaydilar». Shundan keyin ular er. av. 1200 yillardan boshlab muqaddas «Avesto» va qadimgi Oʻrta Osiyo - Eron dostonlaridagi «turkiy saltanat»ni boʻysundirgan afsonaviy sarkarda Siyovush ibn Kaykovus Xorazmshohlar sulolasiga asos solgan. Demak, Beruniyning soʻzlariga qaraganda, X asrgacha hukmronlik qilgan buyuk Xorazmshohlar sulolasining paydo boʻlishi er. av. XIII asr oxirlariga toʻgʻri keladi. Uning taʼrificha, forslardan qabul qilgan yil hisobi «ularning (xorazmliklarning) mamlakatini idora etgan va shoh unvoniga ega boʻlgan Kayxisravlar sulolasidan chiqqan hukmronlik qilgan yillarga qarab» yuritilgan. Bu sulolaga mansub podsholardan Ofrigʻ hukmronligiga qadar shunday boʻlib kelgan. Beruniy yozadi:

«Xorazmliklar ham shunday yoʻl tutdilar. Ular Xorazmga odamlar joylasha boshlaganidan tarix olar edilar, bu Iskandardan toʻqqiz yuz sakson yil ilgari boʻlgan edi. Undan keyin Siyovush ibn Kaykovusning Xorazmga kelishidan, Kayxusrav va uning naslining Xorazmda podshohlik qilishlaridan tarix oldilar. Shu vaqtda Kayxusrav Xorazmga koʻchib, turk podshohlari (ustidan hukmronligini yurgizgan edi. Bu voqea Xorazmga odam joylashishidan toʻqson ikki yil keyin edi.

Soʻngra ular tarix olishda eronliklarga ergashib, Kayxusravning (Xorazm)shohlari deb ataluvchi naslidan boʻlgan har bir (podshoh davrining boshlanishidan) tarix oldilar. Nihoyat, Kayxusrav naslidan Ofrigʻ podshohligi boshlandi. Eronliklar «gunohkor» Yazdijardini yomon xabar keltiruvchiga yoʻyganlaridek, (xorazmliklar) Ofrigʻni shum xabar keltiruvchiga chiqardilar. Ofrigʻdan keyin uning oʻgʻli podshoh boʻldi. (Ofrigʻ) Iskandar tarixining olti yuz oʻn oltinchi yilida al-Fir ustiga oʻz qasrini qurdirdi. Keyin xorazmliklar Ofrigʻ va uning avlodi podshohligidan tarix oldilar.

Al-Fir⁵⁰ Xorazm shahrining chekkasidagi loy va xom g‘ishtdan qurilgan qal‘a bo‘lib, bir-birining ichiga joylashgan va balandlikda bir-biridan qolishmaydigan uch qavat qo‘rg‘on edi. Bu barcha qo‘rg‘onlar tepasida Yamandagi G‘umdon singari podshohlarning qasrlari bor edi.

...Al-Fir o‘n milcha va undan (yiroq) masofadan ko‘rinar edi. Jayhun har yili uni buzib, yiqitib va parchalab olib keta berdi; nihoyat Iskandar tarixining ming uch yuz beshinchi yilda⁵¹ undan asar qolmadi.

Payg‘ambar alayhissalom kelgan vaqtda, Xorazm shohlaridan Arsamux ibn Buzgor ibn Xomgariy ibn Shovush Sixr bin Azkojvor ibn Askajamuk ibn Saxxasak ibn Bag‘ra ibn Ofrig‘ podshoh edi. Xorazm aholisi (islom dinidan) qaytgandan keyin, Qutayba ibn Muslim⁵² Xorazmni ikkinchi marta fath qilgach, xorazmliklarga Askamuk ibn Azkojvor ibn Sabriy ibn Sixr ibn Arsamuxni podshohlikka ko‘tardi. Xusravlar nasli qo‘lidan viloyat ketib, ularda faqat shohlik nomi qoldi, chunki shohlik ularga merosdek edi. Tarix, musulmonlar rasmiga muvofiq, hijriy (yiliga) ko‘chirildi.

Qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o‘rgangan va bilimini boshqalarga o‘rgatadigan kishilarni halok etib, butkul yo‘q qilib yuborgan edi. Shuning uchun u (xabar va rivoyatlar) islom davridan keyin, haqiqatni bilib bo‘lmaydigan darajada yashirin qoldi. Mamlakat idorasi goho bu xonadonda bo‘lib, goho boshqa qabilalar qo‘llariga o‘tib yurdi. Nihoyat, Shahid Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Iroq ibn Mansur ibn Abdulloh ibn Turksabosa ibn Shovushfir ibn Askajamuk ibn Azkojvor ibn Sabriy ibn Sixr ibn Arsamuxdan - buning zamonida payg‘ambar alayhissalomga

⁵⁰ *Қиёт яқинидаги қалъа. IV аср бошларида қурилган.*

⁵¹ *Милодий 993 йил.*

⁵² *Қутайба ибн Муслим 712 йили Хоразм ва Мовароуннаҳрга бостириб кирган араб лашкарбоииси. Қутайба қайтгандан кейин хоразмликлар араб ноибига қарши кўзгелон кўтарганлар ва уни ўлдирганлар.*

payg‘ambarlik kelganini aytib o‘tdim keyin viloyatlik ham, shohlik ham ular (qo‘li) dan chiqib ketdi»⁵³.

Shunisi qiziqki, eramizdan avvalgi I asrdan eramizning VIII asrigacha, ya‘ni arab istilosiga qadar davrga oid topilgan xorazm tangalarida tasvirlangan chavandoz obrazi ko‘p jihatdan Xorazmshohlar sulolasiga asos solgan qahramon Siyovush obrazini eslatadi. Qadimgi afsona va dostonlarda tasvirlangan, «Avesto»da Siyovarshan nomi bilan tilga tushgan, pahlaviy adabiyotida va mashhur «Shohnoma»da ham, hatto Beruniy asarlarida ham Siyovush (yana bir diqqatga sazovor nomi Siyovaxsh) faqat yarim xudo-qahramon sifatida tasvirlanadi⁵⁴.

Tuproqqal’a saroyi zallarining birida boshiga toj kiygan va qo‘liga burgut ushlagan podsho haykalining topilishi, shuningdek, Anqaqal’a yaqinida ham boshida toj, qo‘lida burgut ushlagan kishi rasmi solingan tangananing topilishi va bu tangalarning shu joyda zarb qilinganligi mahalliy sulola hokimiyati o‘rnatilganligidan guvohlik beradi. Topilgan tangalarda lotin alifbosida «S» harfiga o‘xshash siyovushlar avlodiga ishorat bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Mazkur sulola dastlab, Ofrig‘iylar, keyin Ma‘muniylar davrigacha, ya‘ni eramizning 995 –yiligacha hukmronlik qilgan va qo‘shni davlatlar bilan doimiy iqtisodiy hamda madaniy aloqada bo‘lib turgan. Eramizdan avvalgi I ming yillikning boshlarida O‘rta Osiyoda (jumladan, Xorazmda) paydo bo‘lgan qudratli davlatlar o‘z hukmronligini o‘rnatish va uni mustahkamlash uchun muayyan g‘oyaviy vositaga muhtoj ham edi.

Kushon imperiyasida ro‘y berayotgan ijtimoiy va siyosiy jarayonda Xorazm muhim rol o‘ynagan bo‘lsa kerak, chunki tanga pullarni tekshirish natijasida olingan ma‘lumotlarga qaraganda, III asrdayoq o‘z mustaqilligi uchun kurash boshlagan. Shu munosabat bilan ichki siyosat larzaga keladi.

⁵³ *Беруний Абурайхон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Танланган асарлар. Т.: «Фан», 1968. - Б.71-72*

⁵⁴ *Жабборов И. Буюк Хоразмшоҳлар давлати. -Т.: «Шарқ», 1999. 36-37-б.*

Xorazmda kushonlar bilan kurash va ichki siyosiy olishuvlar qudratli mahalliy sulolani vujudga keltiradi. Bu sulola o'z tangalarini zarb qiladi va shaharlarda o'zlariga saroylar quradi, kuchli qo'shni davlatlarda bo'layotgan voqealardan foydalanib, butun dunyoga hukmron bo'lishga da'vo qila boshlaydi. Tangalarni tekshirish tufayli olingan xulosalarga qaraganda, Xorazm mustaqilligi VIII asrning oxirlarigacha davom etadi.

Shunday qilib, III asrdan Xorazmda kushonlar bilan kurashda g'olib chiqqan siyosiy guruh - ofrig'iylar sulolasiga asos solinadi. Sulola asoschisining nomi Ofrig' deb ataladi. Bu yangi sulola Tuproqqal'aga tayangan holda o'z hokimiyatini dastlab vohaning o'ng qirg'og'ida o'rnatadi. Xorazmning yangi podsholari III asrda Kat kanalini qaziganlar va so'ngra unda Kat shahrini qurib, o'z qarorgohlarini shu yerga ko'chirganlar⁵⁵. Tuproqqal'a xarobalarini tekshirish, uning haqiqatan ham katta davlat tayanchi Shohlar qarorgohi, balki poytaxt bo'lganligini ko'rsatadi.

Kushon davlati o'rnatilgandan keyin Xorazmda mahalliy tanga zarb qilish deyarlik to'xtalib, Kushon podsholarining tangalari tarqala boshladi Xorazm hududida Kadfiz II, Kanishka, Xuvishka, Vasudeva nomli podsholarning ismlari zarb qilingan 60 ga yaqin tangalar topilgan. Ko'p tangalarda ilgari mahalliy sulola - siyovushlarga oid tamg'a mavjud bo'lgan. Bu esa Kushon davrida ham Xorazm o'zining mustaqilligini saqlab qolishga intilib kelayotganligini ko'rsatadi.

Demak, topilgan tangalar asosida Kushon hukmronligi o'rnatilgandan boshlab, to Ofrig'iylar davrigacha Xorazmda zo'r tarixiy hodisalar ro'y berganligi, hokimlik bir necha marta bir qo'ldan ikkinchisiga o'tganligini isbotlash mumkin. Tanga namunalari, xo'jalikka oid arxiv hujjatlari Ofrig'iylar davlatida boshqarish va soliq tizimi takomillashgan va muayyan tartibga solinganligini tasdiqlaydi.

Yangi sulolaga asos solgan Shoh Ofrig' Eron podshosi Yazdigird 1 singari badjahl deb shuhrat qozongan. Rivoyatlarga

⁵⁵ *Гуломов Я. Хоразмнинг суғорилиши тарихи. –Т.: ЎзФА нашриёти, 1945.-Б.115.*

ko'ra, Xorazmda ilk shaharlardan al-Fir qal'asi ortidagi ulkan qasrni «Iskandardan keyingi 616 –yili» (eramizning 305 –yili) Ofrig' qurdirgan emish; bu qasrni selevkiylar erasining 1305 –yilida (eramizning 997 –yili) Amudaryo yuvib ketgan. Xorazmlik Siyovushiylarning Ofrig' boshlab bergan quyi avlodi Xorazmda 995-yilga qadar hukmronlik qilgan. Ofrig' qurdirgan ming yillik qasrning buzilib ketishi bilan ofrig'iylar sulolasining qulashi simvolik tarzda bir vaqtga to'g'ri kelishi qiziqarli hodisa. Beruniy mazkur sulolaga mansub 22 ta shohni sanab o'tadi va 305 –yildan 995 –yilgacha hukmronlik qilgan bu podsholardan ba'zilarining hukmronlik qilgani to'g'risida ma'lumotlar keltiradi.

Ofrig'iylar Xorazmni IV asrdan to X asrning oxirigacha boshqardilar. Beruniy shu suloladan chiqqan hukmdorlarning ro'yxatini keltiradi: 1) Ofrig', 2) Bo'g'ra, 3) Saxasek, 4) Askajamuq, 5) Askajuvar, 6) Saxr, 7) Shovush, 8) Hamgiri (Hamjard), 9) Bo'zgar, 10) Arsamux, 11) Caxp, 12) Sabri, 13) Askijuvar, 14) Askijamug', 15) Shovshafar, 16) Tuksebosa, 17) Abdulla, 18) Mansur, 19) Iroq, 20) Muhammad, 21) Ahmad, 22) Abu Abdulla Muhammad⁵⁶.

Keyingi ma'lumotlarga qaraganda, bu ro'yxatga Askajamukning otasi Chag'onni ham kiritish lozim.

N.Veselovskiy va S.P.Tolstovning ma'lumotlariga qaraganda, Vazamara degan va boshqa Xorazm podsholari tangalarining topilishi bu ro'yxat to'la emas, degan xulosaga kelishadi va sulolani ofrig'iylar sulolasiga kiritishadi.

Shunisi qiziqi, Beruniy xronologiyasiga binoan, ilk Xorazm podsholari sulolasi boshlanishi, ya'ni siyovushiylar podsholigi davridan to Ofrig'iylar sulolasi hukmronligi boshlanish asrlarigacha butun Xorazmda keng hududda yirik shahar qal'alar va qasrlar qurish, katta-kichik kanallar qazib keng maydonlarni o'zlashtirish davriga to'g'ri keladi. Bunga Xorazm arxeologiya-etnografiya

⁵⁶ *Веселовский Н. Очерк историко-географических сведений о хивинском ханстве, СПб., 1877 24-25-бетлар.*

kompleks ekspeditsiyasining yarim asrdan ko‘proq olib borgan samarali faoliyati tufayli qilingan kashfiyotlar dalil sifatida mazkur fikrni tasdiqlaydi.

VI asrdan boshlab Xorazm vohasida iqtisodiy va madaniy sohada rivojlanish jarayoni boshlandi. Bu davrda antik davrdagi shaharlarning ko‘pchiligi vayron holga aylangan bo‘lib, ba‘zilarida esa madaniy hayot davom etdi. Jumladan, Teshikqal’a, Burgutkal’a, Uyqal’a, Qumbosganqal’a. Bu qal’alar atrofida ko‘p sonli «ko‘shk», «qo‘rg‘on» yoki «qo‘rg‘oncha» shaklida mudofaa tizimiga ega bo‘lgan uy-joylar qurilgan. Masalan, Qumbosganqal’ada 8 ta ko‘shk, Teshikqal’ada 13 ta ko‘shk, Burgutqal’ada 25 ta ko‘shk bo‘lgan⁵⁷.

IX-X asrlarda Xorazm hududida ikki mustaqil davlat vujudga keldi. Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida Ofrig‘iylar davlati poytaxti Kat, Amudaryoning chap sohili hududida esa Somoniylar tomonidan boshqarilgan davlat poytaxti Mazdahqon, keyinchalik Gurganj shaharlari bo‘lgan⁵⁸.

VIII asrda Xorazm vohasiga kelgan Balazuriy va Tabariy, Kat (Fir), Hazorasp, Gurganjning iqtisodiy va madaniy markazi bo‘lganligini ko‘rsatadi. X asrda Xorazm vohasida iqtisodiy va madaniy hayot rivojlanishi barqaror bo‘lib, ko‘p shaharlarning qurilishi, boshqa hududlar bilan iqtisodiy hamda madaniy aloqalarning kengayishida namoyon bo‘ladi.

Arab sayyoh va geograflarining (al-Istaxriy va al-Maqdisiy) ma‘lumotlariga qaraganda, X asrga kelib, Ofrig‘iylar hukmronligining oxirgi yillarida Xorazm vohasida 30 dan ortiq shaharlar mavjud bo‘lgan. Ular hunarmandchilik, savdo, ilm va madaniyat markazlari qatorida Xorazm o‘tmishida katta iz qoldirgan. Jumladan: Darg‘on, Hazorasp, Xushmisan,

⁵⁷Толстов С.П. Древний Хорезм -М., 1948. 129-135-б.

⁵⁸Човдирбоев С., Собиров К. Қадимги Хоразм Ўрта Осиё урбанизацияси жараёнида Жалолиддин Мангуберди –Ватан, юрт ҳимоячиси (Халқаро конференция материаллари. Урганч.) ЎзРФА.: «Фан», 1999, 99-б.

Ardaxushmisan, Safardiz, Nuzbar, Kardaranxos, Kardar, Borategin, Mazminiya, Jurjoniya, Nujabon, Gurganj, Kardnaxzas, Badminiya, Daxi, Korategin, Gardman, Oyxon, Arzaxiva, Zamaxshar, Ruzund, Vazarmand, Vasxaxonxas, Madamisan, Jigarband, Jaz, Jit, Safdar, Massasan, Andaraston, Kat shaharlari maydoni, boyligi va aholisi to‘g‘risida keng ma‘lumot bergan.

Al-Beruniy xorazmliklarning diniy e‘tiqodlari haqida quyidagi ma‘lumotlarni bergan:

«Peshdodiy podshohlari va Balxda turuvchi kayoniylarning ba‘zilari to Bishtosf podshohligidan o‘ttiz yil o‘tib, Zardo‘st yuzaga chiqqan vaqtgacha, ikki yoritqichni; yulduzlar va barcha unsurlarni ulug‘lar va muqaddas hisoblar edilar»⁵⁹.

..Keyin «ozarbayjonlik Zardo‘st ibn Safid Tumon yuzaga chiqdi. U Manuchihr podshoh naslidan, mug‘lar xonadonidan, ularning ko‘zga ko‘ringan ulug‘laridan edi. Bu (xodisa) Bishtosf podshohligidan o‘ttiz yil o‘tgandan (keyin) ro‘y berdi. (Zardo‘st) ikki yoni o‘ng va so‘li qirqilgan ko‘ylak kiygan, beliga xurmo po‘stlog‘idan zunnor bog‘lagan, og‘ziga sholdan suzg‘ich tutgan (fidom), yozuvlari o‘chib ketgan bir varaqni –qog‘ozni qo‘liga ushlab, ko‘kragiga qo‘ygan holda yuzaga chiqdi»⁶⁰.

Majusiylar gumonicha, Zardo‘st osmondan kunduz yarmida Balxdagi bir ayvon tomiga tushgan. Tom yorilib, Bishtosf kunduzgi uyqudan uyg‘onib ketgan. Zardo‘st uni majusiylikka, tangriga imon keltirib, uni pok va muqaddas bo‘lishga, shaytonga ibodat qilmaslikka, podshohlarga bo‘ysunishga, o‘z tabiatini isloh etishga va eng yaqin kishisiga uylanishga da‘vat etgan. Ammo onalariga uylanish xususida lashkarboshi Marzubon ibn Rustamning mana bunday hikoya qilayotganini eshitdim: «Zardo‘st buni majusiylarga buyurmagan. Faqatgina Bishtosf Zardo‘st atrofiga o‘z zamonining donishmand va olimlarini yiqqan va ular Zardo‘stdan so‘ragan

⁵⁹ *Беруний Абурайхон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Танланган асарлар. 1-Т.: «Фан», 1968. - Б. 233.*

⁶⁰ *Ўша асар. - Б. 236*

masalalari orasida odamlardan ajralib, onasi bilan turgan va o'z naslining uzilib qolishidan qo'rqib, o'z onasidan boshqa ayol bilan aloqada bo'lishga yo'l topmagan kishi haqida savol berganlarida, Zardo'sht u kishining o'z onasiga yaqinlik qilishi mumkin deb fatvo bergan, xolos⁶¹.

Zardo'sht majusiylar «Abisto» deb aytaydigan kitob bilan (yuzaga) keldi. Bu kitob barcha boshqa xalqlar tillariga muxolif bir tilda (yozilgan) va alohida tartibda bo'lib, maxsus bir til egalari bilib, boshqa til egalari bilmay qolmasligi uchun (u tildagi) harflar soni hamma tillar harflaridan ortiq edi. Zardo'sht bu kitobni Bishtosfning oldiga kuydi, Bishtosf mamlakatining ulug'lari hozir edilar va mamlakat aholisidan ko'p xalq yig'ilgan edi. Zardo'sht misni eritishga buyurdi, mis eritildi. Shunda Zardo'sht: -Tangrim, agar bu men bilan shu podshohga yuborgan kitobing bo'lsa, misning zararini mendan qaytar! - dedi.

Keyin u (eritilgan misni) ustidan quyishga buyurdi. Misni uning ko'kragi va qorniga quyib yuborgan edilar, ustidan oqa boshladi va har bir mo'yiga yumaloq mis shar bo'lib osildi. Bu sharlar majusiylar hukmronligi davrida ularning xazinalarida saqlanayotganini eshitdim.

Bishtosf (Zardo'shtga) rozilik bildirdi va unga da'vatini qabul etmay turganida, xudoning oldidan farishtalar kelib, uni Zardo'shtga imon keltirishga buyurganlarini aytdi. Shundan keyin Zardo'sht o'z diniga da'vat qilib yetmish yil (ba'zilarning aytishicha) qirq yetti yil umr ko'rdi⁶².

Ibroniylar Zardo'sht Ilyos payg'ambar shogirdlaridan edi, deb da'vo qiladilar. Zardo'sht (o'zining) (Tug'ilish kitobi)da bolalik vaqtida Harronda hikmatni hikmatshunos Ilyosdan ilm o'rganganini aytgan.

⁶¹Ўша асар. - Б. 237

⁶²Беруний Абурайхон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Танланган асарлар. I. -Т.: «Фан», 1968. - Б.237.

Rumliklar da'vosicha, Zardo'sht Muvsuldan bo'lgan. Ehtimol, ular Ozarbayjon chegaralarini Muvsul chegaralariga qo'shib, shunday degan bo'lsalar kerak⁶³.

Yunonliklar (bunday) deydilar: Ammuniyning faylasuflar fikrlarini bayon etish maqsadida tuzgan kitobida hikoya qilishicha, Fisog'o'ring ikkita shogirdi bo'lib, birini Qaloyus, ikkinchisini Faylakus deb atashar ekan. Qaloyus Hindiston mamlakatiga borib, Barahmanlar (ta'limoti) nisbat beriladigan Barahman unga yetti yil shogird bo'lgan va undan Fisog'ur ta'limotini o'rgangan. Qaloyus o'lgach, Barahman (yangi) fikrlar ijod etib, bularni Fisog'ur ta'limotiga qo'shgan.

Faylakus esa Bobilga borgan. U bilan Purushosfning o'g'li Safid Tumon deb mashhur bo'lgan va Zardo'sht nomi bilan tanilgan Vortush uchrashgan hamda undan ta'lim olgan. Faylakus o'lgach, Zardo'sht Siblun [Seylon] tog'iga kirib, bir qancha yil shu yerda yashagan. Nihoyat kitobini tuzib, u yangiliklarini yuzaga chiqargan⁶⁴.

To'g'risi shuki, Zardo'sht Ozarbayjondan bo'lgan. Ehtimol, uning tug'ilish haqidagi kitobida zikr qilishicha, u o'z otasi bilan Xarronga borib, hikmatshunos Ilyosga uchragan va undan (ilm) istifoda etgan, deb bizga uning haqida hikoya qilingan (kishidir).

Podshoh Doro ibn Doro xazinasida (Abistonning o'n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarni vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtda uni kuydirib yubordi. Shuning uchun o'sha vaqtdan beri Abistonning beshdan uchi yo'qolib ketdi. Abisto o'ttiz «nask» edi, majusiylar qo'lida o'n ikki nask chamasi qoldi. Biz Qur'on bo'laklarini xaftiyaklar deganimizdek, nask Abisto bo'laklaridan har bir bo'lakning nomidir⁶⁵.

⁶³ *Ўша асар. - Б. 237.*

⁶⁴ *Беруний Абурайхон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Танланган асарлар. - Т.:»Фан», 1968. - Б. 237.*

⁶⁵ *Ўша асар. - Б. 238.*

U vaqtda Bishtosfning Jomosp ismli bir vaziri bor edi. U Zardo'shtga imon keltirdi va unga tobe bo'ldi. Buning bir kitobi bo'lib, unda: «Zardo'sht yuzaga chiqqandan ming besh yuz yil o'tganda davlat (eronliklarga) qaytadi», — deyilgan. Eralarni tekshiruvchilar so'ziga ko'ra, Iskandar podshohligidan ming ikki yuz qirq ikki yil o'tganda u muddat tugagan; shu vaqt ichida biz keyin bayon etadiganlardan boshqa (soxta payg'ambarlar) yuzaga chiqmagan. Lekin majusiylar so'ziga qaraganda, u muddat tugamagan, chunki yuqorida aytganimizdek, ular «qabila podshohlari» muddati to'g'risida shubhaga boradilar, ta'kidlashlaricha, u muddat davlatlari ketib, oxirgi podshohlari bo'lmish Yazdijird ibn Shahriyor o'ldirilishining besh yuz o'ttizinchi yili tamom bo'lganda tugashi kerak⁶⁶.

Bobning xulosasi sifatida ta'kidlash mumkinki, «Avesto» dunyoga kela boshlagan davrda Markaziy Osiyo va Eronda davlatchilik allaqachon shakllangan edi va bu hol «Avesto»ning mazmun-mohiyatida o'z aksini topgan.

- «Avesto» S.P.Tolstov ta'kidlaganidek, o'zining ko'p qatlamli va murakkabligi bilan e'tiborga loyiq. Unda aks etgan jamiyat va davlat doirasidagi rusum hamda qonun-qoidalar ma'lum bir tartibda izchil berilmasligi tabiiydir. Birinchidan, biz «Avesto»ning asliy matniga ega emasmiz. Ikkinchidan, hozirgi kunda fanga ma'lum bo'lgan va jahonning ko'pgina tillari (jumladan, o'zbek tiliga ikki mutarjim - M.Is'hoqov, A.Mahkam tomonidan)ga o'girilgan «Avesto»da qonun-qoidalarning asosiysi «Vendidod»da jamlanganiga ko'ra, bu tartib asliy matnda saqlangan bo'lsa kerak, degan xulosa chiqarish mumkin.

-«Avesto»da ijtimoiy tabaqalar xususida gap ketishi, aholining turli kasb-kori, ijtimoiy kelib chiqishi, diniy mansubligi jihatidan guruhlarga ajratilishi unda ilk davlatchilik atributlarining aks etganidan darak beradi.

⁶⁶Беруний Абурайхон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Танланган асарлар. I. -Т.: «Фан», 1968. -Б.238.

- Mazkur yodnomada juda uzoq tarixga oid huquqiy atamalarning uchrashi unda davlat huquqi anchayin mukammal aks etganini ko'rsatadi. Bundan tashqari, unda aks etgan qonunlar avvalo Aleksandr Makedonskiy, keyinchalik islom fathigacha zardo'shtiylik dini yetakchi bo'lgan hududlarda qonunlar majmui vazifasini ham o'tagani ma'lum.

- «Avesto»da davlat chegaralari masalasi mifologik tasavvurlar asosida bo'lsa ham, ayrim o'rinlarda undagi joy nomlarini lokalizatsiya qilish imkoni tug'iladi. Uch ming yillik yodnomada bu kabi masalalarning ko'tarilishi qadim ajdodlarning siyosiy tafakkuri yuksak rivojlanganidan darak beradi.

Beruniy qadimiy xorazmliklar va ularning diniy e'tiqodlari bilan bog'liq Zardo'sht va uning kitobi «Avesto» haqida ilmiy mavqedan turib, har qanday mutaassiblikdan holi bo'lgan xulosalarini beradi.

- Beruniy ofrig'iylar davlati va ulardan chiqqan hukmronlari haqida aniq ma'lumotlar hamda tarixiy dalillarni keltirgan.

II bob. XORAZMSHOHLAR IMPERIYASI HAQIDAGI MANBALARDA DAVLATCHILIK MASALALARI

1. Xorazmshohlar davlatidagi siyosiy jarayonlar va uning ma'muriy boshqaruv tizimi

Xorazm vohasi arab istilosidan keyin Arab xalifaligi tarkibiga kirgach, bu yerda islom diniga asoslangan davlat boshqaruvi, diniy qadriyatlar joriy qilindi. X asrning oxirlarida Shimoliy Xorazmning hukmdori bo'lmish Ma'mun ibn Muhammad mamlakatni birlashtirib, o'zini Xorazmshoh deb e'lon qildi, poytaxti Gurganj shahri bo'lib qoldi. Ma'muniylar Ma'mun ibn Muhammad (995-997), Ali ibn Ma'mun (997-1009), Ma'mun ibn Ma'mun (1009-1017) hukmdorligi davrida Xorazmning mavqei siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan kuchaydi. Xorazmda ilm-fan ravnaqi ham shu davrda yaxshi kuzatiladi, buyuk xorazmlik alloma Abu Rayhon Beruniy ham ushbu Xorazmshohlar davlatida yetishib chiqqan. Xorazm 1017 yilda Sulton Mahmud davlatiga qo'shilgach, bir asr davomida mustaqil davlat maqomini yo'qotgan edi. 1040 yilgacha Xorazm G'aznaviylar davlati tarkibida, shundan so'ng saljuqiylar davlati tarkibida bo'lgan.

Juvayniy, Qazviniy, Nizom ul-mulkning «Siyosatnoma», mo'g'ul hukmronligi davrida yaratilgan Jamol al-Qarshiyning «Mulhaqot bi-s-Suroh» asarlarida Xorazmshohlar-anushteginlar haqida ham ma'lumotlar keltirilgan⁶⁷. Kelib chiqishi o'g'uzlardan bo'lgan Anushtagin saljuqiy hukmdorlarning Xorazmdagi vakili edi. Undan so'ng o'g'li Qutbiddin Muhammad 1097 –yili Xorazm voliyi etib tayinlandi va Xorazmshoh unvonini oldi. U o'zining O'ttiz yillik hukmronligida saljuqiylarga to'la qaram edi va ularga sadoqat bilan xizmat qildi, ayni paytda, Xorazm ham o'z mavqegini mustahkamlab bordi.

Demak, XI-XII asrlarda saljuqiylar davlatining ma'muriy chegarasi shimoliy va sharqiy yo'nalishlarda ham ancha kengayib Xuroson, Movarounnahr va Xorazm uning tarkibida yagona siyosiy-ma'muriy birlik doirasiga kiritilgan edi. Biroq Anushteginlar - Xorazmshohlar sulolasining vakili Alouddin Otsiz Xorazmshoh (1127-1156) mustaqil siyosat yurgizishga harakat qildi va shu

⁶⁷ Джамал ал-Қарши Ал-Мулҳакат би-с-Сурах. Введение, перевод с арабского персидского, текст, факсимиле и комментарии и указатели. -Алматы: Дайк-Пресс, 2005. -410 с.

sababdan Saljuqiylar davlatining hukmdori Sulton Sanjar (1118-1157) bilan uzoq muddat urush-talashlar olib bordi. Xorazmshoh Otsiz dastlabki paytlarda o'n yil davomida (1138 yilgacha) Sulton Sanjarga sodiq qolib, xizmat qildi; so'ngra 1138 –yili Mang'ishloqni va Sirdaryoning quyi havzasidagi Jand shahrini bosib oldi. Sulton Sanjar bu harakatdan g'azablanib Xorazmga qo'shin tortmoqchi bo'lganda, Otsiz kuchiga ko'zi yetmay, qilgan gunohi uchun uzr so'rashga majbur bo'ldi. Sulton Sanjar bilan Xorazmshoh Otsiz o'rtasida saljuqiylarga tegishli yerlarning bosib olinishi va Otsiz tomonidan yana uzr so'rashlar bir necha marta takrorlanadi. Ana shunday urush-talashlar bilan 1156 –yili Xorazmshoh Otsiz va 1157 –yili Sulton Sanjar olamdan ko'z yumadi. Sulton Sanjarning vafoti bilan saljuqiylarning Xurosondagi davlati ham barham topdi.

XII asrning boshlarida, dastlab Ili daryosi havzasiga, so'ngra Issiqqo'l atrofiga qoraxitoylar kelib o'rnamshdilar. Qoraxoniylar davlatining poytaxti Bolasog'un shahrini egalladilar va u qoraxitoylar davlatining bosh shahri bo'lib qoldi. Bu yerdan qoraxitoylar Movarounnahrda bosqinchilik yurishlarini uyushtirib turdilar. 1138 –yili Xo'jand yaqinida qoraxoniylarni va 1141 –yili Samarqand atrofida Sulton Sanjar lashkarini tor-mor qildilar. Movarounnahr qoraxitoylar qo'li ostiga o'tdi. Sulton Sanjarning qoraxoniylardan mag'lubiyati tez orada Xurosonda Saljuqiylar davlatining zaiflashib batamom tugashiga olib keldi. (1157y.). Movarounnahr qoraxitoylar hukmiga o'tgandan so'ng, Xorazmshoh Alouddin Otsiz ham qoraxitoylarga xiroj to'lab turish majburiyatini oldi. Buning evaziga Xorazmshoh Otsiz bilan qoraxitoylar o'rtasida shartnoma tuzilib, Buxoro Xorazmshoh ixtiyoriga o'tdi. Otsiz bu bilan cheklanib qolmadi va 1152 –yili Sirdaryoning quyi havzasida qoraxitoylar bosib olgan Jand va uning atroflariga qo'shin tortib, u joylarni o'z qo'li ostiga oldi. Natijada Xorazmning chegarasi shimol tomonlarga qarab ancha kengaydi. Umuman, Otsiz butun podshohligi davomida Xorazmni mustaqil davlat qilish uchun kurash olib bordi, uning mavqeini kuchaytirdi, desa bo'ladi.

Alouddin Otsiz vafotidan so'ng (1156 y.) Xorazm taxtini egallagan o'g'li El-Arslon ham qoraxitoylarga qarshi kurash olib bordi va bu siyosatda, qoraxitoylardan ta'qibga uchrab, Xorazmdan himoya izlagan qorliq qabilalaridan foydalanishga ham harakat qildi. 1158 yilda qoraxitoylar bilan to'qnashuvda g'alaba qozondi. Lekin keyinchalik qoraxitoylar yana ustun kelib, 1171 –yili Xorazmga bostirib kirdilar. 1172 yilda El-Arslon vafotidan so'ng uning o'g'illari Alouddin Takesh va Sultonshoh Mahmud o'rtasida Xorazm taxti uchun kurash yillarida ham Xorazmning qoraxitoylarga qaramligi saqlanib qoldi.

Xorazmni qoraxitoylar vassalligidan qutqarish uchun Takesh katta kuch sarflashga majbur bo'ldi. Faqat XII asrning 80- yillarida u Xurosonda ba'zi yutuqlarni qo'lga kiritdi. Sultonshoh Mahmud vafotidan keyingina (1193 y.). Alouddin Takesh Xorazmning yagona podshosi bo'lib qoldi. U 1180 yildan boshlab o'z davlatining shimoliy chegaralarini mustahkamlab, Jand shahrining mudofaa qobiliyatini kuchaytirdi, ayni paytda Takesh qoraxitoylarga qarshi murosasiz kurash olib borib, uning qo'shinlari sharqda qoraxitoylar poytaxti Bolasog'un atroflarigacha bosqinchilik yurishlarini olib bordilar.

Xorazmshohlar Takesh vafotidan keyin (1200 y.) uning taxtini o'g'li Qutbiddin Muhammad egalladi. U hukmdorlik qilgan davrlarda buyuk Xorazmshohlar davlati barpo etilib, bu imperiya Osiyoning muhim qismlarini, yevropaning sharqiy bo'lagidagi iqtisodiy jihatdan baquvvat hududlarni qamrab olgan buyuk davlat bo'lgan. Bir tomoni Iroq-u Ajam bo'lsa, ikkinchi tomoni Xitoy-u Shimoliy Rusiya bo'lsa, janubi - Hindistonning yarmi Katta Xorazm hududiga kirgan. Bu davrda Xorazmshohlar Davlatining poytaxti Gurganj iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksaldi. Ilm-fan, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, tijorat sohalarida yuz bergan katta o'zgarishlar Xorazmning Yaqin Sharq, Kavkaz va Sharqiy Yevropa mamlakatlari bilan madaniy hamda savdo-sotiq aloqalarini yanada mustahkamladi. Xorazmning bu davrdagi iqtisodiy ko'tarilish jarayonini tekshirar ekanmiz, deb yozadi taniqli

olim P.Tolstov, -bu buyuk feodal monarxiyaning bizga qadar saqlanib qolgan qoldiqlarini puxta ko'rib chiqamiz. Shunda yuz ming gektar unumli yerlarga yangidan jon bag'ishlagan katta irrigatsiya ishlari, sahro chekkasida chegara istehkomlarining qurilishi, Xuroson, Movarounnahr va Dashti Qipchoqning ichkarisiga boradigan davlat ahamiyatiga molik savdo yo'llarining mustahkamlanishi, shahar hayoti, hunarmandchilik, savdoning yangidan gullab-yashnashi, O'rta Osiyo, Eron va Volga bo'ylari ilm-fani va madaniyatining butun keyingi tarixiga kuchli ta'sir ko'rsatgan «Xorazm reneseansi», ya'ni uyg'onish davri san'atining hashamatli va boy taraqqiyoti ko'z oldimizdan o'tadi.⁶⁸

XII-XIII asr boshlarida Xorazm vohasida urbanizatsiya jarayonining uchinchi bosqichi yuz berdi. Bu tarixiy davrda Amudaryoning o'ng va chap sohildagi hududlarda iqtisodiy va madaniy hayot yanada rivoj topdi. Yirik sug'orish inshootlari ta'mirlanib, yangi inshootlar qurildi, hunarmandchilik va savdosotiq rivojlandi, shaharlar qurilishi keng miqyosda olib borildi, qo'shni va uzoq hududlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqalar kengaydi. Ayniqsa, Gurganj shahari Movarounnahrning yirik shaharlaridan biri bo'lib, u iqtisodiy, madaniy va siyosiy shahar bo'lgan. Xullas, o'rta asrda buyuk Xorazmshohlar davlati o'z ichiga Movarounnahrdan boshqa Mozandaron, Ardan, Ozarbayjon, Shirvon, Fors, Kirmon, Makron, Koshon, G'azna umuman 1450 ga yaqin shaharlar va viloyatlarni o'z ichiga olgan.

Xorazm Sulton Alouddin Muhammad hokimlik qilgan davrda (1200-1220) Xorazm davlati eng kuchli turk qabilalari – qang'li, qipchoq, turkman, shuningdek, tojik aholisini o'z hokimiyati ostiga vaqtinchalik birlashtirib, katta qudratga ega bo'ladi. Xorazmshoh Muhammad dehqonchilik qilinadigan vohalarning va shaharlarning hukmron sinflariga suyanib sharqda qoraxitoylar va g'arbda xalifalikka qarshi kurash olib boradi. U qoraxitoylarni Movarounnahrdan siqib chiqardi va dunyoni zabt etishni xayol qilib,

⁶⁸ Қаранг: //Мулоқот. 1991, № 10.

xalifalikning markazi bo'lgan Bag'dodga qarshi yurishga tayyorgarlik ko'radi.

Endi buyuk davlatga aylangan Xorazmning ichki qismida ko'chmanchi turk qabilalari va mahalliy zodagonlar vakillari o'rtasida to'xtovsiz siyosiy kurash davom etadi, bu kurash Xorazmshoh atrofidagi saroy doiralari o'rtasida ham jiddiy tus oladi. Xorazmshohning qipchoq onasi va uning qarindosh-urug'larining, shuningdek, ko'pgina ruhoniylarning ta'siri ostidagi, xalifalikka yon bosgan turk guruhlarini hokimiyatni o'z qo'liga olishga urindilar. Bunga Xorazmshohning o'g'li va taxt egasi Jaloliddin Manguberdi shahar va qishloq zodagonlari yordamida ularga qarshi turadi.

Buyuk hokimiyatning moddiy timsollari orasida sikka, ya'ni tanga zarb qilish eng muhimi hisoblanadi.

Xorazmshohlarga tobe bo'lgan ko'pgina mamlakatlarda hamda viloyatlarda Xorazmshoh nomiga xutba o'qilib, tangalar zarb qilingan. Xorazmshohlardan birinchi bo'lib Otsiz o'z nomidan tanga zarb ettira boshlagan.

Tarixiy manbalarda Xorazmshohlar nomiga tanga zarb etilgan barcha shaharlar ko'rsatilmagan. Ammo topilgan tangalarning o'zidagi yozuvdan kelib chiqib, 30 ga yaqin viloyat va shaharlarda Xorazmshohlar nomiga tangalar zarb etilgan. Ayniqsa, Alouddin Muhammad davrida bunday tangalarning jug'rofiy hududlari kengaygan.

Jaloliddin Xorazmshoh uch xil: oltin, kumush va mis tangalar zarb ettirgan. Bizning davrimizgacha bu tangalar nihoyatda kam yetib kelgan. Jaloliddinning Hindistonda zarb ettirgan tangalari hozirgacha topilmagan.

Xorazmshohlar davlatini kengaytirgan vaqtlarida avvalgi hukmdorlarning sulolalari zarb etgan dinor va dirhamlarni ham muomalada qoldirgan.

Shunday qilib, XII asrning oxiri XIII asr boshlaridan Xorazm saljuqiylar hukmronligidan qutulib, mustaqil va qudratli davlat sifatida 140 yil davomida gullab-yashnagan edi. Shu davrlarda

(1097-1231) hukmronlik qilgan Anushtagin avlodi bo'lgan Xorazmshohlarni V.V.Bartold «Eng porloq sulola» deb atagan edi.

Anushtaginiylar davrida ham davlat boshqaruvida ilgari ko'rib o'tilgan sulolalar boshqaruvidan farqli tizim bo'lmagan. Zero, bir tomondan, sulolalar o'zgarishi bilan voqelik, ya'ni an'analar shundayligicha qolavergan, ikkinchi tomondan, anushtaginiylar ma'lum muddat saljuqiylar dargohi bilan nihoyatda yaqin munosabatda bo'lganliklari uchun ulardagi boshqaruv tizimi tajribasini o'zlashtirishlari qiyin bo'lgan. Demak, davlat boshqaruvi ikki tizimdan: oliy dargoh va devonlar majmuidan iborat bo'lgan⁶⁹.

Davlat tashkiloti, ya'ni ma'muriy boshqaruv tizimi Saroy, **Devon(lar)**, **O'rdu** (qo'shin) va **qazovat** (qozilik) dan iborat bo'lgan. Ijroiya ishlarini devonlar, (vazirliklar) olib borib, bu tizim tepasida vazir (bosh vazir) turgan⁷⁰.

Saroy boshqaruvi. Xorazmshohlar (Takesh, Alouddin Muhammad va Jaloliddin) mohiyat e'tibori bilan eroniy va turkiy - islom sultonlariga salohiyat, qobiliyatlarni o'zida mujassamlashtirgan bir hukmdor –sulton⁷¹ edilar.

Ko'pgina fors va turkiy islom davlatlarida bo'lgani singari, Xorazmshohlarda ham saltanat vorisligi masalasi ma'lum bir tamoyillarga bog'liq bo'lmagan. Shunga qaramay, sulton ko'pincha katta o'g'lini valiahd qilib tayinlab, boshqa shahzoda va yuksak martabali a'yonlarni valiahdga itoat qilish to'g'risida qasamyod ettirardi. Ma'lumki, Sulton Alouddin Muhammad onasi Turkon Xotunning tazyiqi ostida katta o'g'li Jaloliddinni emas, balki kichik o'g'li O'zloqshohni valiahd etib tayinlagan edi. Mo'g'ul istilosi vaqtida Sulton orqa-oldiga qaramay, Xazar dengizidagi Abiskin oroliga qochdi. Turkon Xotun esa mo'g'ullarga asir tushadi. Sulton

⁶⁹ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. -Т.: «Шарқ». 2000. –Б. 144

⁷⁰ Низомул-мулк. Сияр ал-мулк / Форс-тожик тилидан таржимонлар, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари Ш. Воҳидов, Афғондил Эркинов. Иккинчи тўлдирилган ва қайта ишланган нашири. Т.: «Янги аср авлоди», 2008.- Б.27-36.

⁷¹ Султон ва халифа ўртасидаги тафовуслар ҳақида қаранг: Бартолд В.В. Халиф и султан // Сочинения. Т. VII. - М. «Наука», 1966. – С. 15-78.

o‘limidan bir necha kun oldin o‘g‘illari Jaloliddin, O‘zloqshoh va Oqshohni huzuriga chorlab, Jaloliddin Manguberdini voris qilib, o‘z qo‘li bilan qilichini o‘g‘lining beliga bog‘lab qo‘yadi⁷². Shu tariqa Jaloliddin valiahd etib tayinlanadi. Biroq Jaloliddin Abiskindan chiqib, ukalari bilan Gurganchjga borgan vaqtida birodarlarining fitnasiga duch keldi va poytaxtni tark etishga majbur bo‘ldi⁷³. Oqibatda Jaloliddin uchun bay‘at va julus, ya‘ni qasamyod va taxtga chiqish marosimi o‘tkazilmay qoldi. Jaloliddin bu marosimni faqat uch yildan keyin Hindistondan qaytib, ukasi G‘iyosiddin Pirshohni va Xorazmshohlar imperiyasining Erondagi eski vassallarini bo‘ysundirganidan so‘nggina G‘iyosiddinning chodirida o‘tkaza oldi, xolos. Xonlar, maliklar, amirlar kafanlari va qilichlarini bo‘yniga ilib, peshonalarini yerga tekkizguday ta‘zim etib qasamyod qildilar⁷⁴.

Shu tariqa Jaloliddinning bay‘at⁷⁵ va taxtga chiqish marosimi u valiahdlikka tayin etilganidan so‘ng ancha uzoq muddatdan keyin amalga oshirildi va Jaloliddin huquqan sulton sifatiga ega bo‘ldi.

Hukmdorning **hokimiyat ramzi** bo‘lgan unsurlar turli-tumandir. Bu ramzlar ikki: ma‘naviy va moddiy unsurlardan iborat. “Unvonlar” va “Xutba” ma‘naviy unsurlar sirasiga kiradi. Moddiy unsurlar esa: “Sikka” (tanga zarb etish), “Taxt”, “Toj”, “Shamsiya”, “Libos”, “Bayroq”, “Harbiy musiqa marshi”, “Tug‘”, “Kamar”, “Saroy/Borgoh” va “Chodir/Saroparda/Yurta”dan iborat bo‘lgan.

⁷²Шиҳобиддин Муҳаммад ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди. –Т. Ўзбекистон», 2006.- Б. 78-79.

⁷³Шиҳобиддин Муҳаммад ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди. –Т. Ўзбекистон», 2006.- Б. 80.

⁷⁴Ўша асар.- Б. 123-124.

⁷⁵**Бай‘ат** - қабул ва тасдиқдан иборат маросимдир. Тарихан бу ҳукмдорга итоатни билдирган. Бу маросим ҳукмдор ҳузурда ер ўпиши тариқасида, Курьонни қўлга олиб, кўпинча эса қилч ва кафанлик матони бўйинга осиб ижро этилган. Ал-Мовардий. Ал- аҳком ас-султония ва валоят ад-диния. - с 3-33. Ислам. Энциклопедический словарь -С.36.

Hukmdorning **qabul marosimlari** (seremonial, ro‘zi bor, ro‘zi bordihi) saroyda yoki chodirda o‘tkazilgan⁷⁶.

Hukmdorning rasmiy va shaxsiy hayot kechiradigan va bu hayotuchun kerakli rasm-rusumlarni o‘tkazishga mas’ul shaxslar ishlaydigan binoga **saroy/borgoh** deyilgan. Saroy ikki **salomxona** va **devon**dan iborat bo‘lgan. Haramda sultonning nikohida bo‘lgan umr yo‘ldoshlari va joriyalari yashagan. Manbalarda haram haqida ma’lumotlar ham juda ko‘p. Ulardan sultonning ayollari va joriyalarining nomlari, farzandalarining nomlari, xotinlarining qaysi urug‘ va qabiladan ekanliklari haqida ma’lumot olishimiz mumkin⁷⁷.

Salomxonada hukmdorning rasmiy yoki g‘ayrirasmiy qabul marosimlari o‘tkazilgan. Xorazmshohlarning saroylari Xorazm, Samarqand, Tabrizda, shuningdek, boshqa yirik shaharlarda ham mavjud bo‘lib, hokimlar saroylarida ular qo‘nishlari mumkin edi. Aftidan bu saroylarning ba’zilar sulton tomonidan barpo etilmagan. Xorazmshohlar oldingi hukmdorlardan qolgan saroylardan yoki zabt etgan shaharlardagi saroylardan foydalangan.

Hukmdor sayohat yoki safarga chiqqan vaqtlarda uning uchun katta bir chodir –yurta tiklanar edi. Chodirda ham saroydagiga o‘xshash hayot kechirilgan. Saroy tashkilotiga mansub amaldorlar bu yerda ham o‘z vazifalarini o‘tayverganlar. Sulton safarga chiqqanida harami va xazinasini birga olib yurgan. Vaziyat, sharoit taqozosiga ko‘ra, Xorazmshohlar butun umr to‘xtovsiz yurishda bo‘lgan. Shunga ko‘ra, ularning hayoti saroydan ko‘ra, ko‘proq chodirda kechdi, desa bo‘laveradi.

Hukmdorning saroy yoxud chodirda o‘tkazgan qabul marosimlari shartli ravishda ikki xil: rasmiy va g‘ayrirasmiy

⁷⁶ Низомул-мулк. Сияр ал-мулк / Форс-тожик тилидан таржимонлар, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари Ш. Воҳидов, Афтондил Эркинов. Иккинчи тўлдирилган ва қайта ишланган наشري. Т.: «Янги аср авлоди», 2008. – Б.20-27

⁷⁷ Хукмдор ҳарамии бошқаруви ҳақида қаранг: Низомул-мулк. Сияр ал-мулк. / Форс-тожик тилидан таржимонлар, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари (Ш. Воҳидов, Афтондил Эркинов. Иккинчи тўлдирилган ва қайта ишланган наشري. Т.: «Янги аср авлоди», 2008. - Б 165-173.

marosim bo‘lgan. Ayni chog‘da sultonning barcha qabul marosimlarini rasmiy yoki g‘ayrirasmiy deb keskin farqlash mushkul. Saroy xizmatchilari rasmiy marosimlarda ham, g‘ayrirasmiy marosimlarda ham o‘z vazifasini o‘tashda davom etavergan. Hukmdorning hokimiyat ramzlari rasmiy va g‘ayrirasmiy qabullarda birdek qo‘llanilgan.

Rasmiy qabul marosimlari «ro‘zi bor» (qabul kuni) da bo‘lib o‘tgan. Vazir, davlat arkoni, chet el hukmdorlari va vassal hukmdorlar, elchilar, maslahat kengashi, raiyatning qabuli, ziyofatlar (xos va om qabuli⁷⁸) ana shunday marosimlardan edi.

Aysh-ishrat majlislari va xilvat esa **g‘ayrirasmiy qabul** marosimlari sirasiga kirgan⁷⁹.

Rasmiy va norasmiy qabullarda saroyda (yoki chodir, yurtada) sulton, soqchilari, uning vazirlari barcha xodimlari, a‘yon va ashrof, harbiylar, viloyat hukmdorlari, elchi va mehmonlar, ulamoning qat‘iy belgilangan joylari bo‘lgani manbalarda aks ettirilgan. Ularning joylari qat‘iy ravishda sultonning orqasi, ikki tomoni ro‘para, o‘rindiqlik yoki tik turish bilan belgilangan edi.

Buyuk Devon/**Devoni Oliy** hukumat idorasining eng oliy organi bo‘lgan. Vazir, sohibi devoni davlat, sohibi devoni insho, sohibi devoni istifo, sohibi devoni ishraf, sohibi devoni arz –Buyuk devon a‘zolari bo‘lgan. Buyuk devon davlat ishlari muhokama etilgan va qarorlar chiqarilgan bir kengashdir. Biroq shunisi shubhasizki, uzil-kesil qarorni sultonning o‘zi chiqargan. Viloyatlarning noib va vazirlari Buyuk devonga bog‘liq bo‘lgan. Sultonning amri bilan yuqorida nomlari tilga olingan maqom egalari ustidan Buyuk devonda taftish o‘tkazilishi mumkin edi. Bunday misollar manbalarda ko‘p keltirilgan⁸⁰.

⁷⁸ Низомул-мулк. Сияр ал-мулк / Форс-тожик тилидан таржимонлар, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари Ш. Воҳидов, Афтондил Эркинов. Иккинчи тўлдирилган ва қайта ишланган наشري. Т.: «Янги аср авлоди», 2008. – Б. 101-115.

⁷⁹ Ўша асар. - Б 115 (Шароб ичши тартиби ва қоидалари ҳақида).

⁸⁰ Шихобиддин Муҳаммад ал-Насавий. Султон Жалолiddин Мангуберди. “Ўзбекистон”, 2006. -Б. 177,205-207 ва б.

Sohibi devon. Anʼanaga koʻra, vazirdan keyingi oliy mansab egasi boʻlgan. Sohibi devon viloyatlar noiblari va vazirlarining murojaatlarini devonga oshirgan va devon aʼzosi sifatida devonga taqdim etilgan masalalarning ahamiyatini orttirgan.

Lavozimining ahamiyati, mavqeiga koʻra, quyidagi devonlar mavjud boʻlgan: Devoni insho, devoni istifo, devoni ishraf, devoni arz va devoni nazr.

Devoni insho. Davlatning tashqi va ichki ishlari yuzasidan vasiqalar hozirlash, aloqani boshqarib turish shu tashkilotning vazifasi edi. Bu devonning boshligʻiga «munshiy» deyilgan. Shifrlangan maktublarni yozish va oʻqish munshiyning vazifalaridan edi. Bundan tashqari, munshiy sultonning maktublarini ham yozib borgan. Munshiyga «sohibi devoni insho» ham deyilgan.

Kotib al-insho mansabi xalifalikdagi saroy lavozimlari ichida eng qadimgilaridan biri hisoblangan. Saljuqiylar va Xorazmshohlar hukmronligi davrida mamlakat ichkarisidagi hamda boshqa davlatlar vakillari bilan yozishmalar, hujjatlar devon al- insho yoki devon at-tugʻroda tayyorlangan. Devon boshligʻi qasidagoʻylik usulini mukammal bilgan kishi boʻlgan. Hujjatlar tayyorlanganda uning mazmuni bilan birga shakliga ham alohida ahamiyat berilgan⁸¹.

Devoni istifo. Bu tashkilot davlatning butun moliyaviy ishlarini yuritgan va boshqarib turgan. Devon boshligʻiga «sohibi devoni istifo» yoki «mustavfiy» (yaʼni daftardor) ham deyilgan.

Yuqorida eslatganimiz Faxriddin Ali ibn Abul Qosim al-Jandiy Jandda devonda bir qancha vaqt xazinachilar noibi (mustavofiy) boʻlib xizmat qildi⁸².

Mustavfiy–mamlakatning chekka oʻlkalaridagi moliyaviy ishlar rahbari (devon ul-istifo) moliyaviy maslahatchi⁸³.

⁸¹ *Шихобиддин Муҳаммад ал-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди. “Ўзбекистон», 2006. -Б. 305.*

⁸² *Ўша асар. - Б. 127.*

⁸³ *Ўша асар. - Б.336.*

Devoni ishraf. Bu tashkilot davlat darajalari, idoralarini taftish qilib turgan. Boshlig'iga «sohibi devoni ishraf» yoki «mushrif» deyilgan.

Devoni arz. Bu tashkilot qo'shin boshqaruvi, harbiylarning iqtolari, daromadlari, maoshlari va harbiy qismlar anjomlarining qaydi va nazorati bilan shug'ullangan. Bu devonning boshlig'iga «sohibi devoni arz» yoki «ariz» ham deyilgan.

Devoni nazr moliyaviy masalalar bilan shug'ullangan. Bu mansab to'g'risida yetarli ma'lumot yo'q. Devoni nazrning boshlig'iga «nozir» deyishgan⁸⁴.

Manshur devon ishlarini yuritishga mas'ul shaxs. U devondan chiqadigan har bir farmon, yorliqni nazorat qilgan.

Viloyatlarni boshqaruvchi vazirlar ham davlatning katta amaldorlari edilar. Bu vazirlik mansabi viloyat yoki shaharlarda noiblikdan keyin ikkinchi o'rinda turgan. Bu rahbarlik lavozimi faqat Xorazmshohlar davlatidagina mavjud bo'lgan⁸⁵. Bu mansabda O'sha davr qoidasiga muvofiq turkiylar qo'yilmagan. Bu vazirlar Xorazmshohga yoki uning vaziriga bo'ysungan. Ushbu lavozim saljuqiylar saroyidagi vakil mansabiga to'g'ri kelgan. Jumladan, an-Nasaviy bir paytlar Nasa vaziri bo'lgan⁸⁶.

Vazir viloyatning eng vakolatli boshlig'i bo'lgan. Bu lavozimga obro'li, yuksak martabali odamlar qo'yilganiga qarab, yo Xorazmshohni o'ziga qarashli yer-suv yoki siyosiy jihatdan muhim mavqe tutgan viloyat va shaharlarni boshqarganlar.

Poytaxtdagi singari, viloyatlarda ham vazirga qarashli bir oz kichikroq devonlar bo'lgan. Devoni viloyat devoni istifo, devoni ishraf, devoni nazr va devoni arz kabi idoralar mavjud edi.

Viloyatda vazirdan keyin eng nufuzli mansab egasi **omil** bo'lgani haqida ma'lumot mavjud. Omil «voliy» ma'nosida

⁸⁴ Ойдин Тонарий. Жалолиддин Хоразмишох ва унинг даври (Турк тилидан Бобохон Муҳаммад Шариф таржимаси). Т.: «Шарқ», 1999 - б. 86

⁸⁵ Ан-Насавий. Кўрсатилган асари. - Б. 312. Яна қаранг: 3. Бунёдов кўрсатилган асар. Б.128.

⁸⁶ Ан-Насавий. Кўрсатилган асар. 65-боб. - Б. 181 ва кейингилари

ishlatilgan. Omil boshqaruvchi yoki noib kabi vakolatga ega bo'lganva asosan, soliq to'plash bilan shug'ullangan. Uning bundan tashqari, ba'zi boshqaruv vakolatlari ham bo'lganligi ma'lum⁸⁷.

Otabek - «Ota» va «bek» so'zlaridan tashkil topgan. Bu unvon, dastlab, saljuqiylar davrida joriy etildi. Dastlab, saljuqiylarning mashhur vaziri Nizomulmulkka shu unvoi berilgan edi. Manbalardan ma'lum bo'lishicha, otabeklik saljuqiylar davrida yuksak unvon edi. Sultonlar imperiya hududlarini sulola a'zolariga taqsimlab bergan vaqtlarida kichik yoshdagi shahzodalarga vasiy va murabbiy sifatida otabek tayinlar edilar. Ular o'z xizmati, sadoqati va kuch-qudrati bilan tanilib, buyuk amir darajasiga ko'tarilgan qo'mondon orasidan tanlab olinardi. Otabeklikka, asosan, yuqori lavozimda ishlab turgan obro'li o'g'uz beklari yoki sulton mamluklari tayinlangan. Saljuqiylar davlati buning yorqin misolidir. Masalan, Alouddin Qaykubod G'iyosiddin Kayxusravga yangi zabt qilingan Arzinjon viloyatini bergan vaqtida unga Muboriziddin Erto'qo'shni otabek etib tayinlagan edi. Otabeklar mustaqil bir hukmdor noibi maqomida turardilar.

Shihna—viloyatning jamoat tartibini saqlash bilan shug'ullangan. U xalqning tinchligi, osoyishtaligi va farovonligini ta'minlagan, omilga soliq yig'ish masalalarida yordam bergan. Aftidan shihna harbiy toifaga mansub bo'lgan. Bulardan tashqari, rais lavozimi ham bor edi.

Rais - bu lavozim har bir qal'a, shahar va tumanda bo'lgan. Bu lavozim egasi shaharning obro'li kishilari orasidan mahalliy aholi tomonidan saylangan va shahar miqyosida shihna vazifasini o'tagan. Raislar viloyat voliysiga bo'ysungan. Buni raislar rahbarini tayinlash Xorazmshohlar davlati miqyosida amalga oshirilgan favqulodda hol deb qarash mumkin⁸⁸.

⁸⁷ *Низомул-мулк. Сияр ал-мулк. / Форс-тожик тилидан таржимонлар, сўзбоши ва Шоҳлар муаллифлари Ш. Воҳидов, Афтондил Эркинов. Иккинчи тўлдирилган ва қайта ишланган наشري. Т.: «Янги аср авлоди», 2008. - Б. 50-62.*

⁸⁸ *Низомул-мулк. Сияр ал-мулк. / Форс-тожик тилидан таржимонлар, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари Ш. Воҳидов, Афтондил Эркинов. Иккинчи тўлдирилган ва қайта ишланган напри. Т.: «Янги аср авлоди», 2008. - Б 50-62. Ан-Насавий.*

Muxtasib shaharning bozorlarini nazorat qilgan va shaharni boshqarish bilan bogʻliq vazifalarni bajargan. Mahsulotlar, goʻsht, mevalarni tekshiruvchi, ozodalik ishlari uchun masʼul hamda aholining axlokiy ishlari boʻyicha kuzatuvchi boʻlgan. Bu mansabga aksariyat hollarda maʼrifatli odamlar, faqihlar singari olimlar orasidan imom unvoniga ega boʻlganlar qoʻyilgan⁸⁹.

Hojib - ummaviylar davridan eʼtiboran, koʻpgina islom davlatlarida mavjud boʻlgan lavozimdir. Barcha turkiy davlatlarida bu mansab amalda boʻlgan. Hojiblarning eng kattasiga «amiri hojib» yoki «malik ul-hajjab» deyilgan. Saljuqiylarda turk gʻulomlari orasidan chiqqan hojiblar boshligʻi hojibi buzurg saroyning eng yuksak martabalaridan biri boʻlgan. Buyuk saljuqiylar imperiyasida va unga qaram boshqa turkiy davlatlarda hojiblik muassasasi bevosita somoniylar va gʻaznaviylar taʼsiri ostida yuzaga kelgan. Saljuqiylarda saroy hojibi va uning qoʻli ostidagi hojiblar vazifasi asos eʼtibori bilan saroyda tashrif marosimlarini yoʻlga qoʻyishdan iborat boʻlgan.

Dargohda **bosh hojib** yoki ulugʻ hojib (hojib ul-kabir) Xorazmshohlar davlatidagi yuksak mansablardan edi. Odatda, hojib turk millatidan boʻlar edi. Hojiblarga gʻoyatda muhim vazifalar, masalan, hojib Xorazmshohga shaxsiy topshiriqlari qanday bajarilayotgani haqida axborot berar, qabul marosimlarini tashkil etar edi. Maxsus muzokaralar olib borish va hatto, vazirlar faoliyatini taftish qilish qabilar topshirilgan. Xorazmshohning bir necha hojiblari boʻlard. Ular doimo sultonga hamroh boʻlib turishar, uning eng muhim topshiriqlarini bajarar edi. Shuningdek, hojib lavozimidagi amaldorlarga butun bir viloyat noibligi topshirilgani maʼlum⁹⁰.

Кўрсатилган асар, муқаддима, 302. Яна қаранг: Ойдин Тонарий. Жалолиддин Хоразмишох ва унинг даври. (Турк тилидан Бобохон Мухаммад Шариф таржимаси). Т.: «Шарқ», 1999. –Б. 87.

⁸⁹Тонарий Ойдин. Кўрсатилган асар. - Б. 87. Яна қаранг: Ан-Насавий. Кўрсатилган асар.- Б.334.

Qul - g‘ulom har ikkala tushuncha bir ma’nodadir. Ular qul bozoridan sotib olingan yoki avvalgi hukmdordan keyingisiga meros bo‘lib o‘tgan. Ba‘zan g‘ulomlar xususiy shaxslardan hukmdorga, bir davlat ichida bir hukmdordan ikkinchisiga o‘tgan. O‘lgan hukmdorning g‘ulomlari va g‘ulomlardan chiqqan hojiblar ko‘p hollarda taxtga yangi chiqqan hukmdor xizmatiga o‘tar edilar. Tayyorlangan g‘ulomlar hojiblar qo‘li ostida bo‘lganlar. Saroy g‘ulomlari bilan davlat arkoniga qarashli g‘ulomlar orasida huquqiy jihatdan bo‘lmasa ham holati, mavqeiga ko‘ra katta farq bo‘lgan. Saroy g‘ulomlari safidan joy olish nihoyatda imtiyozli darajaga ko‘tarilishni bildirgan⁹¹.

Manbalarda Xorazmshohlar saroyida turli mansablar haqida qiziqarli ma’lumotlar saqlanib qolgan.

Hukmdorlarning **a’yonlari** va **mulozimlari** saroyda yashab turgan sulola a’zolari hamda saroy hayotiga oid tashriflarni tashkil etishga safarbar qilingan xizmatchilardan tashkil topgan.

a) Xonadon a’zolari. Turkiy hokimiyat an’anasiga ko‘ra, davlat hukmdori sulola a’zolarining barchasiga tegishli hisoblangan. Xonadonning bunday yuksak darajasiga muvofiq, sulola a’zolari zamona rasm-rusumlariga ko‘ra saroyda eng yuqori mavqeni egallagani tabiiy bir holdir. Hukmdorning onasi, umr yo‘ldoshi, farzandlari (shahzodalar) xonadon a’zolari hisoblangan. Bundan tashqari sultonning aka-ukalari, amaki-jijyanlari ham xonadon mansublari bo‘lgan.

6) **Hojiblar**. Biz yuqorida aytib o‘tganimizdek, hojib saroy marosimlarini tashkil etgan va boshqarib turgan. Xususan, u hukmdorning qabul marosimlari vaqtida mavjud qoidalarga rioya etilishini ta’minlagan. Hukmdor bilan davlatning muhim

⁹⁰ *Шихоб ад-дин ан-Насави. Жизнеописание султана Джала ад-Дина Манкбурни. / Перевод З. Буниятова. Баку. - С. 1973, 70, 73, 206, 233, 235, 285.*

⁹¹ *Низомул-мулк. Сияр ал-мулк. / Форс-тожик тилидан таржимонлар, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари Ш. Воҳидов, Афтондил Эркинов. Иккинчи тўлдирилган ва қайта ишланган нашири. Т.: «Янги аср авлоди», 2008.- Б.100-101.*

mansabdorlari oʻrtasidagi aloqani taʼminlash ham hojibning zimmasida boʻlgan.

v) **Mahramlar.** Jaloliddinning saroyida mahramlari ham boʻlgan. Ularga «xodimoni xos» ham deyilgan. Mahramlar «malikul xos» unvoniga ega boʻlganlar. Jaloliddin oʻz mahramlariga turli-tuman muvaqqat vazifalarni topshirib turgan. Masalan, u Hindistondan qaytgach, ukasi Gʻiyosiddinni itoat ostiga olish uchun mahramlaridan Adaqni yoʻllagan va ukasini ishontirishga harakat qilgan. Bundan tashqari, sulton mahramlaridan Badriddin va Tojiddinlarni elchilik va «bashorati fatku vazifasiga tayinlagani haqida maʼlumotlar bor.

g) **Saroy amirlari.** Saroy tashkilotiga mansub bu amirlar toʻgʻridan toʻgʻri hukmdorga boʻysungan. Saroy amirlari oʻz xizmat lavozimi va unvoniga koʻra quyidagicha boʻlgan: Ustozdor (yoki ustoz ud-dor) Xorazmshohlar saroyida xizmatkorlar va gʻulomlarga bosh boʻlib, xazinaga tushgan foydadan va soliq tushumlaridan muayyan bir qismini olib, bu mablagʻni saroy oshxonasi, nonvoyxonalar, sharobxonalar, otxonalar, saroydagi barcha xizmatchilarning sarf-harajatiga ajratgan. Shuningdek, u ushbu mablagʻdan maosh berish va boshqa harajatlar uchun ham foydalangan⁹².

Amiri oxur (miroxoʻr) –sayischi, sulton otxonalari boshligʻi. Otlarning soni 30 minggacha boʻlgani maʼlum. Sulton Alouddin Muhammadning miroxoʻri Ixtiyoriddin Qushlu⁹³ ixtiyorida 30 ming ot bor edi. Bu sultonning yana bir miroxoʻri Qoʻvchidoq edi. Sulton Jaloliddinning miroxoʻri «Eng ayyor mulozimlardan biri» Odoqxon edi, u sultonning barcha janglarida yonida turib qatnashgan edi⁹⁴.

Amiri ishkor/shikor –sulton ovlarini tashkil etuvchi. Hukmdorning ov qurollarini saqlagan va sulton ovga chiqqan paytlari unga hamrohlik qilgan. Ayni zamonda ov qoʻshin uchun

⁹² Ан-Насавий. Кўрсатилган асар, 82-606, 214.

⁹³ Ан-Насавий. Кўрсатилган асар, 16- боб, 58-бет; муқаддима, 314.

⁹⁴ З.Буниядов. Ануштагин –Хоразмиюҳлар давлати (1097-1231) (Аҳмад Аишаф ва Маҳкам Маҳмуд таржимаси). Т.: Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1998. -Б.132

harbiy mashq ham hisoblangan. Bu ishni tashkil etish, ov o'tkaziladigan joylarni oldindan ko'zdan kechirish ham shu amirning vazifasi bo'lgan⁹⁵.

Tashtdor –Bu lavozim egasi hukmdor qo'l yuvganda unga qumg'on va chilopchin tutgan. Oltindan qilingan bu idishlarning saqlanishi uchun mas'ul bo'lgan⁹⁶.

Bundan tashqari, bir tashtdor sulton hammomlari va hovuzlarining boshlig'i bo'lgan. Uning qo'l ostida bir necha g'ulom bo'lgan. Tashtdorlik mansabiga sulton juda ishonchli odamlarini tayinlar edi. Yuqorida tilga olganimiz Anushtagin saljuqiy sulton Malik saroyida xuddi mana shunday tashtdor mavqeiga erishganda, unga mazkur mansabga viloyatda mutanosib keluvchi shihnalik, ya'ni (raisi, qal'a boshlig'i) Xorazm shihnaligi lavozimi beriladi⁹⁷. Chunki tashtdor xizmati bilan bog'liq barcha harajatlar Xorazm viloyatidan tushadigan soliqlar bilan qoplanardi⁹⁸.

Sharobdor–sulton sharobxonasining boshlig'i va kuzatuvchisi. Sharobxonada shirin ichimliklarni tayyorlash uchun shakar ham saqlanar edi. Odatda amirlardan biri sharobdor bo'lib, uning qo'l ostida bu ishga mohir g'ulomlari bor edi. Sulton Jaloliddinning sharobdori amir Sa'diddin Ali edi.

Davotdor (arabcha: davot –siyohdon) sultonlikda yozuv qurollarini tashuvchi odam⁹⁹. Hukmdorning yozuv-chizuv asboblari shay bo'lishi va saqlanishi uchun javobgar shaxsdir.

Qissador–bir hafta davomida sulton nomiga yozilgan ariza, shikoyatlar va iltimosnomalarni yig'ib olib, Sultonga yetkazib beruvchiga hamda undan tegishli javoblarni oluvchiga aytilardi.

⁹⁵ Ойдин Тонарий. Жалолиддин Хоразмиюх ва унинг даври. (Турк тилидан Бобохон Муҳаммад Шариф таржимаси). Т.: «Шарқ», 1999. – Б.74.

⁹⁶ Ўша жойда - Б. 73-74.

⁹⁷ Жувайний. 1-том, 278-саҳифа. Яна қаранг: Тарихи жаҳонкушо. Лейден-Лондон. 2 – жилд. 1916. - Б.2

⁹⁸ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. -Т., «Шарқ», – Б. 143-144.

⁹⁹ Ан-Насавий. Кўрсатилган асар. - Б. 350.

Sulton odatda shikoyat va arizalarni juma oqshomida ko‘rib chiqardi¹⁰⁰. Xorazmshohlar saroyida qissador eng obro‘li mansablardan biri edi. Zero, hukmdor bilan oddiy xalq o‘rtasida aloqa bog‘lab raiyat ahvoli va zoridan xabardor qilib turish ishini hamma ham halol bajara olmasligi tabiiy.

Sulton Alouddin Muhammadning qissadori Najibiddin Shahrizo‘riy hukmdori hali Sulton Sanjar davrida Xurosonda qo‘shin boshlig‘i (sohib ul-jaysh) bo‘lgan vaqtdan buyon yonida shu vazifada edi. Bu mansab ancha obro‘li bo‘lib, urushlar bo‘lmagan, tinchlik paytlarida egasiga ko‘p daromad keltirgan¹⁰¹.

Shuningdek, manbalarda **jomador** (liboschi) va **ibriqdor** (hukmdor tahorat olgan vaqtda qo‘liga suv qo‘ygan) mansablar ham Xorazmshohlar davlat tashkilotida bo‘lgan.

Nozir –moliyaviy ishlar bo‘yicha amaldor (Devon an-noziriyoki devoni nozir)¹⁰².

Al-hojiblar –saroylarda odatda sulton yoki shohlarning, umuman hukmdorlarning ishlarini al-hojiblar, erkak odamlar qilishgan. Bu lavozimni Naxichevon malikasi, ya‘ni al-Jaloliya Oytug‘mish Otabek Pahlavonning qizi ham bajargan. Tarixda bundan boshqa hojibalik qilgan ayol bo‘lmasa kerak¹⁰³.

Choshnigir–sulton sharoblarini tatib ko‘ruvchi¹⁰⁴. U dasturxon yozilganida sulton taomlardan zaharlanmasligi uchun o‘zi birinchi bo‘lib tatib ko‘rar edi¹⁰⁵.

¹⁰⁰ Ан-Насавий. Кўрсатилган асар, 44-боб. - Б. 127.

¹⁰¹ З. Бунёдов. Ануштагин –Хоразмишохлар давлати. (1097-1231) (Аҳмад Ашраф ва Маҳкам Маҳмуд таржимаси). Т.: F.Фуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1998. -Б.133.

¹⁰² Ан-Насавий. Кўрсатилган асар. - Б. 363.

¹⁰³ Ўша жойда - Б. 194.

¹⁰⁴ Шихобиддин Мухаммад ан-Насаний. Султон Жалолiddин Мангуберди. -Т.: Ўзбекистон, 2006.- Б.361.

¹⁰⁵ Бунёдов З. Ануштагин - Хоразмишохлар давлати (1097-1231) (Аҳмад Ашраф ва Маҳкам Маҳмуд таржимаси). Т.: F.Фуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1998. -Б.133.

Omil (ko‘pligi amilon, ummol) –devonda moliyaviy rahbarlar ichida eng kichik vazifa. Har bir tuman, shahar, aholi yashaydigan maskan (buk‘a), qishloqning soliq yig‘ish bo‘yicha rahbari bo‘lgan¹⁰⁶.

Mushrif –devonda moliyaviy nazorat ishlarida xizmat qiladigan odamga aytilgan¹⁰⁷.

Farrosh –sulton o‘rin-to‘shaklari saqlanadigan farroshxona boshlig‘i. Uning ixtiyorida gilamlar, chodirlar; ko‘rpa- to‘shaklar bo‘lardi. Farrosh va maxsus o‘rgatilgan g‘ulomlar sulton atrofida doimo hozir turar edilar¹⁰⁸.

Faqih –davr an‘anasiga muvofiq, sulton saroyida islom huquqi (fiqh) ilmi ustozlari faqihlar ham ishlaganiga oid ba‘zi ma‘lumotlar mavjud¹⁰⁹.

Munajjim(lar) –Zamona zayliga muvofiq Jaloliddin saroyida munajjimlar ham bo‘lgan. Zotan sulton munajjimlarning so‘zidan chiqmas, ularning romlariga astoydil ishonar edi. Masalan, Isfahon yaqinida mo‘g‘ullar bilan to‘qnashganlarida munajjimlar sultonga uch kun kutib, turtinchi kuni jang boshlashni tavsiya etdilar. Sulton ham ularning so‘ziga kirib, zafar soatini kutdi, ammo g‘alabani boy berdi¹¹⁰.

Mustahdam(lar) –saroyning umumiy ishlari bilan shug‘ullangan xizmatchilarga musaddimi chovushon boshchilik qilardi. Uning qo‘l ostida chovushlar va mustahdamlar xizmat qilgan. Binobarin, armiyada chovush unvonli kichik boshliqlar bo‘lganidek, saroyda ham chovushlar xizmat qilgan. Ular safarda sultonga hamrohlik qilganlar, choparlik xizmatini o‘taganlar.

¹⁰⁶ Ўша жойда - Б. 314

¹⁰⁷ Ўша жойда - Б. 321.

¹⁰⁸ Буниёдов З. Ануштагин - Хоразмиоҳлар давлати (1097-1231) (Аҳмад Ашраф на Маҳкам Маҳмуд таржимаси). Т.: Ф.Фуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1998. -б.133.

¹⁰⁹ Ўша жойда.

¹¹⁰ Ўша жойда.

Mehtari mehtaron –sultonning xos xizmatchilari bo‘lgan muhtarlarning boshlig‘i edi. Sultonning bulardan boshqa xodimlari ham bo‘lgan¹¹¹.

Xorazmshohlar, davrida saroy amirlari hukmdorlar ishongan g‘ulomlar orasidan, ya’ni ota-bobosi turkiy bo‘lgan qullarorasidan tayinlangan. Bu amirlarning qo‘l ostida yetarli miqdorda askariy quvvatlar mavjud bo‘lib, bu qo‘shinlar bevosita hukmdorning gvardiyasini tashkil etgan.

Sulton Alouddin, shuningdek, Jaloliddin davrida saroy amirlariga amir va malik rutbalaridan ham yuksakroq bo‘lgan «xon» unvoni ham berilgan¹¹².

Harbiy boshqaruv. Saljuqiylarga qaram yashashdan qutilish uchun olib borilgan kurashning dastlabki paytlaridan to o‘z davlatining inqiroziga qadar Xorazm shohlari qurol-aslaha bilan ta’minlash va ularning sonini to‘ldirib turish, shohlarning eng katta tashvishi bo‘lib kelgan. Xorazm shohlari armiyasi yaxshi o‘qigan, har xil qurollar bilan qurollangan, uning qo‘mondonlari janglarda bir necha bor jasorat va tadbirkorlik ko‘rsatgan.

Manbadan olingan ma’lumotlarga ko‘ra, Xorazm shohlari o‘z davlatida majburiy umumxalq harbiy ta’lim tizimini joriy qilgan.

Zakariya al-Qazviniy davlat poytaxti Gurganj shahri haqida bunday deb yozadi: «Juda ko‘p aholiga ega bo‘lgan bu ulkan shaharning barcha aholisi askarlardir, hatto baqqol, qassob, nonvoy va bo‘zchilari ham askarlardir. Aytishlaricha, qoraxitoylar bilan bo‘lgan janglarning birida sulton Muhammad ibn Takesh yengilib, shaharda bekinib olgan. Sulton uncha ko‘p bo‘lmagan odamlari bilan qochgan. Buni hech kimga bildirmaslik uchun u shaharga

¹¹¹ Низом ул-мулк. Сияр ал-мулк. / Форс-тожик тилидан таржимонлар, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари ИИ. Воҳидов, Афтондил Эркинов. Иккинчи тўлдирилган ва қайта ишланган нашири. Т.: «Янги аср 2008. - Б.115

¹¹² Ойдин Тонарий. Жалолiddин ва унинг даври. (Турк тилидан Бобохон Муҳаммад Шариф таржимаси). Т.: «Шарқ», 1999. - Б.74

kechasi kirgan. Tong otganda u shahardan 30 ming otlıq askar bilan chiqib, dushmanga qarshi yo‘l olgan»¹¹³.

Xorazmshohlarning harbiy tashkiloti ham, asos e‘tibori bilan xuddi saroy va hukumat tashkiloti singari saljuqiylarnikiga o‘xshashdir¹¹⁴. Ayni zamonda armiya qo‘mondonlarining rutbalarida Alouddin Muhammad davridan boshlab, bir qancha o‘zgartirishlar qilingan. Jaloliddin Xorazmshoh davrida ham sulton Alouddin Muhammad vaqtiga nisbatan armiyani tashkil etgan unsurlarga qator o‘zgartirishlar kiritilgan.

Xorazmshohlar davrida qo‘shinga oid boshqaruv ishlari bilan buyuk devonning bo‘limi **devoni arz** shug‘ullangan. Davlat xazinasidan olingan mablag‘lar va ularning sarfi to‘g‘risidagi barcha yozuvlar shu devonda saqlangan. Xorazmshohlar davrida ham iqto tizimi bor edi¹¹⁵. Qo‘shinda xizmat qilgan harbiylarning hammasi ma‘lum qiymatdagi iqtolarga ega bo‘lishgan. Xususan, katta-kichik sarkardalar, qo‘mondonlar va harbiy voliyning boy iqtolari bor edi. Katta iqtolar hukmdorning marhamatiga muvofiq, kamayishi yoki yanada yiriklashishi mumkin edi. Kichik iqtolar esa o‘zgarmagan. Ular ota meros edi. Iqto egalari chaqirilgan zahoti o‘z amirlari qanoti ostiga to‘planishar va yurish tugagach, yana o‘z yerlariga qaytib ketishardi. Xorazmshohlar yangi bir o‘lkani zabt etgach, u yerdagi yerlar darhol iqtolarga bo‘linib, mansabdorlar o‘rtasida taqsimlanar va devoni arz daftarida qayd qilinar edi.

¹¹³Қазвиний Закариё. *Ажойиб ал-махлуқот. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху Монгольского нашествия. Т. I. - С.414. Прим.5.*

¹¹⁴*Салжуқийлар давлатининг ҳарбий бошқаруви ҳақида Низом ул-мулк «Сийёсатнома»сида кенг маълумот мавжуд. Сийёсатнома. - Б. 98 ва кейингилари.*

¹¹⁵**Иқто** - маълум бир жойга тегишли солиқлар ёки кейинчалик муайян ердан олинadиган давлат даромадининг қўмондонлар, аскарлар ёки юсак мартабали шахсларнинг хизматини тақдирлаш, маошини тўлаш мақсадида султон фармони билан инъом этилишидан иборат. Баъзи жойларда иқтоллар солиқ тўлаш шарти билан ҳам берилиши мумкин. Масалан, Низом ул-мулк ўлкаси хароб аҳволга тушганини ва у ерлардан солиқ ундириши амри маҳол эканлигини кўргач, ер-мулкни эгаллаган мавқега қараб, аскарларига бўлиб берди.

Iqto sohiblaridan tashkil topgan ulkan bir suvoriy quvvatlar Xorazmshohlar mamlakatining turli tomonlariga yerlashgandi. Ular viloyat askarlarini tashkil etardi.

Bundan tashqari, hukmdorning gvardiya¹¹⁶si ham mavjud edi. Gvardiya ichidan tanlab olingan «xosa gʻulomon» deb atalgan qismga esa sulton xavfsizligi va hayotini saqlash vazifasi yuklatilgan edi. Urush, jang vaqtlarida bu qism sulton atrofida boʻlardi.

Xorazmshohlar davrida viloyat markazlarida yetarli miqdorda harbiy qismlar turgan. Bundan tashqari, mamlakatning chegara qismlari, yoʻllar va mudofaa ahamiyatiga molik, yaroqli qalʼalarda mudofaa qismlari bor edi. Voliylar va qalʼa qoʻmondonlari, asosan, asli turkiy boʻlgan saroy xizmatchilaridan tayinlangan. Keyingi davrda esa ular yirik urugʻ beklari orasidan tanlanadigan boʻlgan. Bu badavlat va nufuzli shaxslarning qoʻli ostida bevosita ularga boʻysunadigan va aksariyat hollarda qullardan tarkib topgan xususiy harbiy qismlar ham bor edi. Urug beklari xizmatga tayinlangan joyga oʻz urugʻiga mansub muhim bir qismni olib ketardi. Iqto sohiblaridan tashkil topgan mahalliy qismlar ham ularning qoʻli ostida boʻlgan. Ehtiyoj tugʻilgan pallada armiyaga xalqdan yollanma harbiylar ham jalb etilgan. «Hashar» deb nomlangan bu koʻngilli qismdan koʻproq shahar va qalʼa mudofaasida foydalanilardi. «Hashar» hamda «mutanajjida» deb nomlangan harbiy qismlar qoʻshinning asosini tashkil etgan. Mahalliy xonadonlarning idorasidagi muxtor viloyatlar yoki vassal davlatlar ahdnoma shartlariga muvofiq, armiyaga muayyan miqdorda harbiy qismlar joʻnatish majburiyatida edilar. Bu qismlarning barcha sarf-xarajati ham ularning boʻynida boʻlgan. Xorazmshohlar qoʻshini u davrning eng mukammal qurol-aslahasi, mustahkam qalʼalarni zabt qilish uchun kerakli turli texnik vositalarga ega edi. Hukmdor va yuksak martabali amaldorlarning ot yetishtiradigan keng yaylovlari, suruvlari, oziq-ovqat omborlari va katta harbiy yoʻllar ustida barpo etgan manzillaridan iborat bir tizim ishlab turardi.

¹¹⁶ *Гвардия - форс тилидаги гурд, паҳлавон, ботир сўзидан олинган - М.Э.*

Xorazmshohlar o'z armiyasini tuzgan vaqtda uning armiyasi yollanma (zarxarid) turk askarlaridan tuzilgan edi. Qo'shin bo'linmalari va qismlar qabilaviy asosda tashkil qilinardi. Hatto davlatning eng gullab-yashnagan, askarlikka boshqa xalq va qabila yigitlari olingan vaqtlarda ham yollanma turklar qo'shinining asosiy va jangovar qismini tashkil qilardi.

Sulton Alouddin davrida armiya eng avvalo qipchoqlar, so'ng qalach, qarluq, uran, ug'rak kabi urug'lardan tashkil topgandi. Alouddin davrida urug beklari qo'l ostida bo'lgan yollanma qipchoq qanglilar gvardiyaning asosini tashkil qilgan. Ayrim qipchoq beklari Jaloliddin valiahdlikka tayin qilingandan so'ng unga qarshi bosh ko'tarishgan va hatto Jaloliddinning poytaxtni tark qilishiga sababchi bo'lgan edilar. Shuning uchun ham Jaloliddin saltanatining oxiriga qadar qipchoqlarga ishonmadi va ularni armiyaga olmadi.

Xorazmshohlar lashkarlarining qo'mondoniga «qo'id» yoki «Muqaddam» degan unvon berildi, bunga mashhur va eng qobiliyatli amirlar ko'rsatildi edi. Masalan, Xorazmshoh El-Arslon «harbiy qo'mondon (al-muqaddim al-asokir) qilib, qorluq amirlaridan biri bo'lgan Shams ul mulk ibn Husayn Ayyorbekni tayinladi. Shoh unga singlisini uzatdi va o'z qo'shiniga qo'mondon (qa'id jayshixiy) qiliboldi». Alouddin Muhammad I ning hokimiyati vaqtida Ray o'lkasining begi va harbiy qo'mondoni etib shahzoda Abulfatx Yusuf tayinlangan bo'lib, uning unvoni «amiri Isfahsolor» edi. O'lkalarda harbiy qo'mondonlarga «sohib al-jaysh» unvoni berildi.

Xorazm shohlari yangi zabt etilgan o'lka yoki viloyat yerlarini amirlarga iqto tariqasida taqsimlab berardi va mahalliy amirlar orasidan eng ko'zga ko'ringanini ularga boshliq qilib tayinlardi hamda unga «amir al-umaro» (amirlar amiri) nomini berardi.

O'n ming kishilik suvoriylar guruhiga qo'mondonlik qilgan kishilar «malik» unvoniga ega bo'lar edi. Kamdan-kam hollardagina bunday unvonlar past tabaqadan chiqqanlarga berildi edi. Masalan, shoh Alouddin Muhammad davrida sulton tashtdori Ayoq «malik» darajasigacha ko'tarildi. Oddiy xalq orasidan chiqqan Muayyid ul-

mulk Qavomiddin ham «malik» unvonini olgan, buni an-Nasaviy «juda qiyin erishilgan yutuq» deb baholagan.

Janglarda alohida oʻzini koʻrsatgan maliklarga «xon» unvoni berilar edi.

Xorazmshohlar qoʻshinidagi choparlarga «chovush» unvoni, ularning boshligʻiga esa «muqaddami chovushiya» degan nom berilar edi.

Jaloliddin Xorazmshoh qoʻshin qoʻmondonlariga yuksak unvonlar berdi. Ular quyidagilardan iborat:

Nozir al-jaysh (harbiy nozir) - Xorazmshohlar qoʻshinidagi ikkinchi lavozim boʻlib, u harbiy devonxona boshligʻining nazorati ostida faoliyat koʻrsatar edi¹¹⁷.

Ariz yoki **devon al-jaysh** - qoʻshinlar shtabining boshligʻi¹¹⁸.

Jamaqdor –sulton devon al-xossining xizmatchilaridan biri. Sultonning shaxsiy mamlugi yoki shaxsiy qoʻshin lashkari¹¹⁹.

Josusiya–maxsus xufiya va aygʻoqchilar¹²⁰ boʻlinmalari mavjud boʻlib, josuslar «dushmanning hol-ahvolidan xabardor boʻlib turar, ularning harakatini kuzatib borar, bu oʻta muhim ish edi.

Mustaxfiz –qalʼalardagi gornizonlar qoʻmondoni¹²¹.

Jondor–saroy mansabi, sultonning soqchisi¹²².

Silohdor–Xorazmshohqoʻshini devonidagi qurol-yarogʻ saqlanadigan boʻlinmaning boshligʻi¹²³.

Sarhang –500 lashkarga bosh boʻlgan lashkarboshi¹²⁴.

Qoʻshinqozisi (qoziy hasham va lashkariy hazrat yoki qozi al-asokir) –Xorazmshohlar armiyasida bosh diniy hakam.

¹¹⁷ Буниядов З. Кўрсатилган асар – Б. 121.

¹¹⁸ Ан-Насавий. Коʻрсатилган асар. - В, 363

¹¹⁹ Оʻsha joyda. 373.

¹²⁰ Низом ул-мулк. Сийосатнома. - В. 75-88.

¹²¹ Буниядов З. Кўрсатилган асар - Б. 122.

¹²² Низом ул-мулк. Сийосатнома. - Б.93

¹²³ Ан-Насавий. Кўрсатилган асар. – Б.305

¹²⁴ Ан-Насавий. Кўрсатилган асар. – Б.319

Xorazmshohlar qo‘shinida ham saljuqiylardagi singari qo‘shin qozisi bo‘lgan. Ular qo‘shin ichidagi diniy-huquqiy ziddiyatlarga barham berganlar¹²⁵.

Qo‘shin soni –Xorazm shohlarining harbiy yurishlarining ko‘lamiga qarab o‘zgarib borgan.

O‘rta Osiyoga mo‘g‘ullarning bostirib kirishi arafasida Xorazmshohlar davlatining qo‘shinlari taqriban, Turkiston va Movarounnahrda 400 ming otliq, O‘trorda 20 ming, Binoket viloyatida 10 ming va Samarqandda 110 ming kishiga yetgan edi. Undan tashqari, qo‘shinlarning anchagina qismi Sijiston, Balx, Jand, Huttalon, Qunduz va Yorkentda edi. Hatto, davlat inqirozga yuz tutgan davr Xorazm shohi Jaloliddin Manguberdi davrida ham, Hindistonda 90 ming suvoriy, Kavkaz yerlariga hujum qilgan paytlarda 200 ming suvoriy, Isfaxon atrofida mo‘g‘ullar bilan olib borilgan janglarda esa otliq va piyoda bo‘lib, 100 ming askar bo‘lgan¹²⁶.

Shubhasizki, og‘ir, yengil va tuyali suvoriylar hamda piyodalar va xalq lashkarlaridan tarkib topgan bunday katta, qudratli qo‘shinlar to‘planishiga, uni qurol-aslaha, kiyim-kechak, oziq-ovqat, tuya va yem-hashak bilan ta‘minlovchi juda katta yordamchi kuch kerak edi.

Xorazm Shohlari doimiy qismlardan tashqari, shaxsiy muhofaza qo‘shini (haras)ga¹²⁷hamega bo‘lib, ular mamluklar (qulaskar) dan tuzilgan edi. Bunday qo‘shinni dastlab Xorazmshoh Takesh tuzgan. Alouddin Muhammadning shaxsiy qo‘shinida 10 ming kishi bor edi¹²⁸.

Xorazmshohlar qo‘shinida bayroq, ot va qurol-aslahaga alohida ahamiyat berganlar. Xorazmshoh qo‘shinining qismlari ham davlatning ramzi bo‘lgan qora bayroq ko‘tarib yurgan.

¹²⁵ Буниядов З. Кўрсатилган асар - Б. 122. Яна қаранг: Ан-Насавий. Кўрсатилган асар. – Б.311

¹²⁶ Ан-Насавий. Кўрсатилган асар. – Б.319.

¹²⁷ Низом ул-мулк. Сиёсатнома. - Б. 126-130.

¹²⁸ Буниядов З. Кўрсатилган асар - Б.122

Xorazmhohlarda katta amirlarning, ya'ni xon, malik va amirlar, urug' boshliqlarining ham o'z ramz va uranlari aks ettirilgan bayroqlari bor edi.

Sulton jangda avval qo'shinni rasmiy ko'rikdan o'tkazardi. Bu yo'l bilan sulton askarlarining tayyorgarligini va ularning anjomini nazorat qilardi. Bundan tashqari, rasmiy ko'rik askarlarning ruhini ko'tarishga ham xizmat qilardi.

Urush boshlanishidan avval yoki urush e'lon qilingan vaqtda Xorazm shohlari **harbiy kengash** chaqirar va oldinda turgan vazifalar muhokama qilinardi. Kengashda jangda qo'llaniladigan taktika to'g'risida bir qarorga kelinardi. Kengashga yirik harbiy arboblar, xonlar, maliklar, amirlar, ulamolar, faqihlar va munajjimlar taklif qilinardi. Ammo bu kengashlar noto'g'ri bo'lsa, Shoh shaxsan o'zi qabul qilgan qarorni ma'qullash bilan yakunlanardi. Mo'g'ullarga qarshi yurish masalasida Alouddin Muhammadning harbiy kengashi va undagi mujodalalar haqida manbalarda ma'lumot mavjud. Biroq kengashning qarorlari ba'zan munajjimlarning bashorati bilan o'zgarishi mumkin edi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, XII asr oxiri va XIII asr boshlarida Xorazm saljuqiylar hukmronligidan qutulib, mustaqil va qudratli davlat sifatida 140 yil davomida, ya'ni mo'g'ullar istilosiga qadar gullab-yashnagan edi. Shu davrlarda (1097-1331) hukmronlik qilgan Anushtagin avlodi bo'lgan Xorazmshohlarni V.V.Bartold «Eng porloq sulola» deb atagan edi.

Anushteginiylar davrida davlat mansablari ma'muriy, diniy va harbiy lavozimlarga bo'lindi. Bu vazifalarni bajaruvchilarga davlat tomonidan tegishli maosh va mukofotlar berilgan. Xorazmshohlar davlatida Buyuk Devon hukumat idorasining eng oliy organi bo'lgan. Davlatda moliya –soliq, harbiy va boshqa mahkamalar juda muntazam amal qilardilar.

Vazir, sohibi devon (vazirdan keyingi oliy mansab) mansablari bo'lgan.

Lavozimning ahamiyati, mavqeiga ko'ra quyidagi devonlar mavjud bo'lgan: Devoni insho, devoni istifo, devoni ishraf, devoni arz va devoni nazr.

Shuningdek, Xorazmshohlar davlatida viloyat tashkiloti ham bo'lib, viloyatlarga noib va vazirlar hokim etib tayinlangan. Vazir viloyatning eng vakolatli boshlig'i bo'lgan.

Xorazmshohlarning harbiy tashkiloti ham saroy va hukumat tashkiloti singari saljuqiylarnikiga o'xshash bo'lgan. Armiya qo'mondonlarining rutbalarida Alouddin Muhammad davridan boshlab bir qancha o'zgarishlar qilingan. Jaloliddin Xorazmshoh davrida ham sulton Alouddin Muhammad davriga nisbatan armiyaga bir qator o'zgartirishlar kiritildi.

Xorazmshohlar davrida qo'shinga oid boshqaruv ishlari bilan Buyuk devonning bo'limi devoni arz shug'ullangan.

Ba'zi katta viloyatlarda mahalliy harbiy boshqarmalar ham bor edi.

Qo'shinda xizmat qilgan harbiylarning hammasi ma'lum qiymatdagi iqtolarga ega bo'lishgan.

Iqto egalaridan tashkil topgan suvoriylar Xorazmshohlar davlatining turli tomonlariga yerlashgandi. Ular viloyat askarlarini tashkil etgan.

Bundan tashqari, hukmdorning gvardiyasi ham mavjud edi.

Jaloliddin davrida viloyat armiyasini tashkil etgan unsurlarda ba'zi o'zgarishlar qilindi. Uning davrida viloyat qo'shinlarining ayrim qismlari turkmanlardan tashkil topdi.

Qazovat, qozilik mahkamasi¹²⁹. Xorazmshohlar davlatining adliya tashkiloti ilk davrlaridan boshlab mukammal va muntazam bir mexanizmga ega bo'lgan.

Adolat tashkiloti butun o'rta asr turkiy islom davlatlarida bo'lgani singari, shariat sudi va urf-odatga ko'ra hukm chiqarishga asoslangan edi. Xalq orasidagi doimiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar va da'volar shariat sudlarida ko'rilgan. Uylanish va taloq bilan bog'liq masalalar, nafaqa hamda meros da'volari,

¹²⁹ Низом ул-мулк. Сийёсатнома. - Б. 62-65.

turli-tuman mulkiy ixtiloflar, foyda-ziyon da'volari ham shu mahkamada ko'rib chiqilgan. Qozilar sulton tomonidan ishga tayinlangan.

Qozihokim degan ma'noni anglatadi¹³⁰. Qadimiy turkiy qonunlardan «Majallai ahkami adliya»da «Hokim sodir bo'lgan da'vo va dushmanlik ahkomi mashruasiga ko'ra, ularni hal etish uchun sulton tomonidan tayin etilgan zotdir» deb ta'rif etilgan. Qozi o'zi hukmdor bo'lgan viloyatga fiqhda «viloyati qozon» deyilgan. Bu ma'noda qozi umumiy siyosatdan tashqarida turgan. Xususan, ijro salohiyati bo'lmagan, so'zini ijro quvvati bilan bajo keltira olmaydigan qozilarning omma bilan aloqador masalalar to'grisida hukm chiqarishi to'g'ri bo'lmas edi. Qozining kuchi uning hukm chiqarish qudratidir. Ijro qudrati bu doiraga kirmaydi.

Adliya tashkilotining boshida «aqza' al-kuzzot» turgan. U poytaxtning eng katta qozisi bo'lishi bilan bir qatorda davlatning butun sud ishlarini ham boshqargan. Bu maqomning egasi mamlakatdagi barcha qozilarni ishga tayinlagan yoki bo'shatgan, ular tomonidan chiqarilgan va e'tirozga uchragan hukmlarni qayta ko'rgan. U hatto o'zi chiqargan bir hukmning xato ekanligini bilib qolgan taqdirda, uni tuzatish vakolatiga ega bo'lgan.

Qozilarning huzurida noib, kotib va vakil unvoniga ega bo'lgan xodimlar ishlagan. Ular qaror va hukmlarni yozar, muhofaza qilar edilar. Davlat tomonidan chiqarilgan ma'lum bir ta'rifga asosan, ko'rilgan har bir ish uchun xarj olingan. Sudlar chiqargan hukm va ajrimlar yozib boriladigan muntazam ro'yxat daftari bo'lgan. Aqza' al-kuzzotning sud devonida vaqf egalarining ishlarini ko'radigan mufattish va muhosib singari xodimlar ham ishlagan. Binobarin, bu devon keng miqyosdagi bir tashkilot edi. Shariat sudlaridan tashqari, urf va qonunga asoslangan ayrim sud masalalari ham mavjud bo'lgan. Ular osoyishtalikni buzgan, qonunlarga rioya etmaganlarni jazolar edilar.

Armiyada esa qo'shinqozilari ish ko'rgan. Faqat ayb ish qilib qo'ygan askarlarni ularning o'z amiri jazolagan. Xuddi shuningdek,

¹³⁰ Низом ул-мулк. Сийёсатнома. - Б. 45-62.

saroyda ham aybdor xizmatchini uning amiri jazolagan. Xoh fuqaro, xoh harbiy bo'lsin, yuqori martabali kishilarga nisbatan qilingan shikoyat da'volari hukmdor tomonidan boshqarilgan mazolim devonida ko'rilgan.

Bu davrda «yulak» deb nomlangan bir mazolim devoni mavjud bo'lgan. Bu mahkamani harbiy tashkilot mansabdorlaridan xon boshqargan.

Mazkur devon asli turkiy bo'lgan qo'mondonlarning aybi to'g'risida urug' urf-odatlariga muvofiq hukm chiqargan. Bu o'sha zamonda shariat huquqidan tashqari, urf-odat huquqi ham mavjud bo'lganligidan dalolat beradi.

Viloyat markazlari hamda viloyatga bog'liq shaharlarda ham qozilar va sud tashkiloti mavjud bo'lgan. Qozilik o'sha vaqtda muhim va hurmatga loyiq bir idora bo'lgan.

Idoraviy da'volar, jumladan, davlat arkonining da'volari vazir rahbarlik qiladigan devonda ko'rilgan.

Jinoyat ishlari esa qozi boshchiligidagi sudda ko'rilgan. Qozi qotillikda ayblangan xonadon a'zosini, davlatga qarshi bosh ko'targanlarni, harbiy asirlarni sud qilar va ular ustidan hukm chiqarardi. Ayni zamonda eng oliy hukmdor sifatida sulton o'z xonadoni a'zosidan tortib, oddiy bir asirgacha istalgan bir shaxs ustidan bevosita hukm chiqara olar, lozim topganida esa ularning ishini qoziga oshirardi.

Yuqorida aytilganidek, ustidan ish qo'zg'atilgan davlat arkonining ishi sultonning amri bilan va faqat u lozim topgandagina Buyuk devonga oshirilar, o'sha yerda ko'rilardi. Ajam noibi Sharafutdin Alining ishi Buyuk devonda ko'rilgani buning yorqin dalilidir. Isfaxon shahrining nufuzli kishilari noibning idora usulidan vazir Sharaful-mulkka shikoyat qildilar. Vazir bu masaladan sultonni ogoh etdi. Sulton esa masalani Buyuk devonga havola qildi. Faqat Buyuk devon sultonning ta'siri ostida noibni oqladi.

Sulton Jaloliddin o'zi yaxshi ko'rgan Isfahon shihnasi Ibn Harmilni o'ldirgan ukasi G'iyosiddin Pirshohning ishini qoziga oshirdi va «Istasang qonga qon asosida hukm qil, istasang afv et»

dedi¹³¹. Biroq G‘iyosiddin йочиб ketgani uchun uning ishi ko‘rilmay qolgan.

Goho vazir ham isyonchilarga qanday jazo berish kerakligi to‘g‘risida qoziga murojaat qilib turgan. Ozarbayjonning sobiq otabegiga O‘zbekning tarafdorlari isyon ko‘taradi. Isyon bostirilib, qo‘lga tushgan isyonchilar Tabrizga keltiriladi. Shunda Sharafulmulk qozidan: «Musulmonlar mo‘g‘ullarga qarshi jon olib, jon berib turgan bir paytda sultonimizdek bir insonga qarshi isyon ko‘targanlarning jazosi nima?» - deb so‘raydi. Qozi unga javoban Qur‘onning o‘ttiz yettinchi surasini o‘qiydi. Shundan keyin isyonchilarning ikkitasi chormixga tortish yo‘li bilan qatl qilindi. Boshqalari ham turli jazolarga mahkum etildi.

Sulton Jaloliddin Ozarbayjonning sobiq otabegi O‘zbekning xotiniga ham qozining qaroriga muvofiq uylangan. Tabriz qozisi Iziddin Qazviniy ayoldan O‘zbekning ajrashlariga oid qaror chiqarganidan keyingina nikoh o‘qitilgan¹³².

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Xorazmshohlar davlatida davlat tashkiloti, davlatchiligi negizini Saroy, Hukumat, O‘rdu (Qo‘shin) va Dor ul-qazo (sud mahkamasi) tashkil etgan.

Xorazmshohlar davlatida davlat mansablari ma‘muriy, diniy va harbiy lavozimlarga bo‘lingan. Bu vazifalarni bajaruvchilarga davlat tomonidan tegishli maosh va mukofotlar berilgan. Markaziy moliya soliq mahkamasining tuzilishi juda muntazam bo‘lib, unga vazir, sohibi devon, munshiy, sohibi devoni istifo yoki mustavfiy (ya‘ni daftardor), Sohibi devoni ishraf yoki mushrif, hojibi xos, Sohibi devoni arz yoki ariz va nozirlar, boshliq bo‘lishgan. Bu mahkama turli-tuman soliq to‘lovchi tabaqalarning hisobini olishda, davlatning tashqi va ichki ishlari yuzasidan vasiqalar hozirlash, davlatning moliyaviy ishlarini yuritish, boshqarib turish, davlat darajalari, idoralarni taftish qilib turish, qo‘shin boshqaruvi, harbiy qo‘shinni to‘plash, harbiy boshliqlarni tayinlash, xorijiy elchilarni

¹³¹ *Ойдин Тонарий. Кўрсатилган асар. - Б. 97. Яна қаранг: ан-Насавий. Кўрсатилган асар – Б. 172-173.*

¹³² *Ан-Насавий. Кўрсатилган асар. – Б.145-146.*

qabul qilish kabi masalalar bilan shugʻullangan. Davlatda taʼsis etilgan vazir, sohibi devon, hojib yoki ulugʻ hojib, mastavfiy, nozir va arz lavozimlari saroydagi eng yuqori lavozimlardan hisoblanib, bosh vazirlik vazifasiga toʻgʻri kelardi.

Mamlakatning butun hududi maʼmuriy jihatdan viloyat tashkiloti, yaʼni viloyat va viloyat vazirliklariga boʻlingan. Vazir viloyatning eng vakolatli boshligʻi boʻlib, poytaxtdagi singari, viloyatlarda ham vazirga qarashli bir oz kichikroq devonlar boʻlgan. Devoni istifo, devoni ishraf, devoni nazr va devoni arz kabi idoralar mavjud edi. Viloyatda vazirdan keyin eng nufuzli mansab egasi omil boʻlib, omil «voliy» maʼnosida ishlatilgan. Omil boshqaruvchi yoki noib kabi vakolatga ega boʻlgan va oson soliq toʻplash bilan shugʻullangan. Uning bundan tashqari, baʼzi boshqaruv vakolatlari ham boʻlganligi maʼlum. Shuningdek, shihna, rais, muhtasiblar ham viloyatning jamoat tartibi, soliq yigish masalalari, shaharni boshqarish va nazorat qilish vazifalarini bajarganlar.

Xorazmshohlar davlatining harbiy tashkiloti saroy va hukumat tashkiloti singari boʻlgan. Qoʻshinga oid boshqaruv ishlarini Buyuk devonning boʻlimi devoni arz shugʻullangan. Hukmdorning gvardiyasi ham mavjud boʻlgan. U armiyaning bosh qoʻmondoni edi.

Xorazmshohlar davlatida viloyat markazlarida yetarli miqdorda harbiy qismlar turgan. Shuningdek, mamlakatning chegara qismlari, yoʻllar va mudofaa ahamiyatiga molik qalʼalarda mudofaa qismlari boʻlgan.

2. Arab va fors tillaridagi manbalarda Xorazmshohlar davlati tarixining yoritilishi

Oʻrta Osiyoga arablarning bosqini va islom dinining yoyilishi natijasida musulmonlarning tarixiy tafakkuri, islomiy tarixnavislikning ham kirib kelishiga sabab boʻlgan. Arab xalifaligi tarkibiga kirgan vatanimizning hududlaridagi Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, Gʻaznaviylar, Gʻuriylar, Xorazmshohlar

sulolalarining hukmronliklari yagona bir tarixiy jarayon, aniqrog‘i xalifalik tarixi doirasida o‘rganilib, talqin etilishi kuzatiladi. Jahon tarixiga, shu jumladan, musulmon olami tarixiga bag‘ishlangan barcha asarlarda mahalliy sulolalar yoki xalifa gumashtalari tarafidan tuzilgan barcha davlatlarning tarixi xalifalik-islom davlatining ajralmas bir qismi sifatida yoritilgan.

Xalifalik va musulmon davlatlarning tarixiga bag‘ishlangan muhim asarlardan biri –bu Abulhasan Ali ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Abdulkarim ibn Abdulvohid ash-Shayboniy, ya’ni Izzaddin Ibn al-Asir al-Jazariy nomi bilan mashhur bo‘lgan muarrixning «al-Komil fi-t-tarix» (Komil tarix, Tarixi komil) nomli asaridir. Izzaddin Ibn al-Asir al-Jazariy 13 may 1160 –yili (jumod al-uvla oyining to‘rtinchi kuni, 555 –yili) Dajla va Furot daryolarining yuqoriqismida joylashgan JaziratIbn Umar degan mavzeda olamga kelgan¹³³. Ibn al-Asirning otasi Abulkaram Muhammad ibn Muhammad ibn Abdulkarim ibn Abdulvohid ash-Shayboniy Mosuldagi Zangiylar davlatining yuqori martabalik amaldorlaridan biri edi. Davlat xizmatidan tashqari, buyuk muarrixning otasi boy tojir hamda Jazirat va Mosulning janubida joylashgan Qasr al-Harbdagi katta yer, mulklarga ega edi. Abulqaram Muhammadning uchta o‘g‘li bo‘lgani ma’lum. Ular islom olamida buyuk va mashhur olimlar sifatida dong taratgan. Ulardan Izzaddin Ibn al-Asir o‘rtancha o‘g‘il sifatida tarix ilmida, katta akasi Abusaodat al-Muborak ibn Muhammad al-Jazariy - Majdaddin (544-606/1149-1210) mufasssir, faqih, muhaddis va arab tilining sarfu nahvi bo‘yicha, ukalari esa Abulfatx Nusulloh ibn Muhammad al-Jazariy Ziyouddin (558-637/1163-1239) adib va filolog sifatida shuhrat topgan¹³⁴. Ziyovuddin al-Jazariy

¹³³ *Ибн Халликан. Вафайат ал-аъян ва анба абна аз-заман. Джилд 3. Байрут. Дар Садир. С. 349.*

¹³⁴ *Ибн ал-Асир. Ал-Комил фи-т-тарих. Полный свод истории. Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г. Булгакова. Дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введения и указатели Ш.С. Камалиддина. Т.: Ўзбекистан, 2006. - С . 9. Ибн ал-Асир таржimai ҳолига оид маълумотлар асосан шу нашрдаги кириш қисмидан олинди. Кириш муаллифи Ш. Камалиддин – М.Э.*

Damashqning hukmdori Ali ibn Nosir al-Afzal saroyida vazir bo‘lib xizmat qilgani ham ma‘lum¹³⁵.

Ibn al-Asir oilasi bilan Mosulga ko‘chib kelib, boshlang‘ich bilimlar va hadislarni Mosulning xatibi Abulfazl Abdulloh ibn Ahmadi Tusiy huzurida o‘rganadi. 21 yoshga to‘lganda Ibn al-Asir hajga borib qaytganda Bag‘dod shahrida hadis ilmini o‘rganib Mosulga qaytadi. Mosul hukmdorining maxsus elchisi sifatida u bir necha marotaba Bag‘dodda bo‘lgan va shu safarlari davomida Abulqosim Ya‘sho ibn Sadaqa, Abu Ahmad Abdulvahob ibn Ali as-Sufi huzurlarida fiqhni o‘rgangan¹³⁶. Suriyada esa u Zayn al-Usmon darslariga qatnashgani ma‘lum¹³⁷.

Ilm olish niyatida Ibn al-Asir Irok, Suriya, Falastin va Hijoz shaharlari bo‘ylab ko‘p safar qilgan¹³⁸. 581/1185-86 yili u Mosulda bo‘lgan vaqtida sulton Salohiddin ikkinchi marta bushaharga yurish qiladi, 584/1188-89 yili tarixchi 28 yoshida mazkur sulton rahbarligida Suriya va Falastindagi nasroniylar bilan xochdorlarga qarshi urushlarda qatnashgan¹³⁹. 590/1193-94-yillarda Ibn al-Asir Damashqda edi¹⁴⁰.

Mosulga qaytgach, Ibn al-Asir hadislar rivoyati bilan shug‘ullanib, adabiyotlarni o‘rganib, ilmiy asarlar yozish bilan mashg‘ul bo‘ladi. U bir muddat Mosul otabeklarining saroyida vazir vazifasida ham faoliyat ko‘rsatib, Mosul otabeklarining muhim topshiriqlarini bajarib, Bag‘doddagi davlat arboblari va amaldorlari bilan uchrashgan. Umrining oxirlarida Ibn al-Asir bir muddat Halab (Aleppo)da shahar hokimi Shihobaddin Tug‘rul al-Xodim Otabek Malik at-Tavoshiy saroyida faxriy mehmon sifatida yashab ijod

¹³⁵ *Муфассал қаранг. Ibn al-Athir. / The Encyclopedia of islam. New edition. I-VI volumes. Leiden: E.J. Brill. 1960-1986. Vol. III - P 724.*

¹³⁶ *Richard D.S. Ibn al- and the Later Parts of the Kamil: A study of Aims and Methods / Medieval Historical Writing in the Christian and the Islamic World. London. 1982. - P.76 - 77.*

¹³⁷ *Ibn al-Athir./Islam Enciklopedisi. Istanbul, jild 5. - S. 852.*

¹³⁸ *Ибн ал-Асир. Ал-Комил фи-т-тарих. Полный свод истории. - с 8.*

¹³⁹ *Brockelman C. Ceschichte der Arabischen Literature: ISB. Leiden, 1937. – S 587-558.*

¹⁴⁰ *Richard D.S. Ibn al- and the Later Parts of the Kamil. – P77*

qiladi. Shu ayomda Ibn al-Asir bilan buyuk tarixchi Ibn Xollikon (681/1282-83 vafot etgan) uchrashgani ma'lum. Bu vaqtda Ibn Xollikon 18 yoshda bo'lgan va u Ibn al-Asirning komil muarrix va ilohiyotshunos ekanini ta'kidlagan¹⁴¹. 627/1229-30 Ibn al-Asir avval Damashqqa, bir yildan keyin esa Halab, so'ngra Mosulga keladi. Halabda bo'lganida u bilan mashhur arab geografi va filologi Yoqut al-Hamaviy (vaf. 626/1228-29) uchrashib, Ibn al-Asir vafotidan keyin kutubxonasi va qo'lyozmalarini Bag'dodga ko'chirishini iltimos qilgan. Yoqutning vasiyatiga rozilik bergan Ibn al-Asir bu iltimosni bajara olmay, 25 sha'bon 630/6 iyun 1234 –yili 75 yoshida olamni tarketdi¹⁴².

Ibn al-Asir muhaddis hamda arablarning nasablarini mukammal bilgan olim sifatida shuhrat qazongan bo'lsa ham, uni ilm olamida mashhur qilgan ilmiy merosi orasida «al-Komil fi-t-tarix» asari alohida o'rin tutadi. Bu asardan tashqari, Ibn al-Asir «Tarixi Atobaka al-Mosul» (Mosul otabeklarining tarixi) yoki «Tarix ad-davlat al-atabakiya» (Otabeklar davlati tarixi) nomli asar ham yozgan. Mazkur asarning bir nechta qo'lyozma nusxalari bizgacha yetib kelgan va Misrda ham chop etilgan¹⁴³ va mutaxassislarning fikricha, bu manba Mosul zangiylari davlati tarixini o'rganishda birlamchi manbadir. Asar Ibn al-Asir va uning otasining ma'lumotlari asosida, guvohlar va voqea ishtirokchilari tilidan bitilgan. Shamsiddin Kamoliddin bu asarni Ibn al-Asir Mosul hukmdorlari buyurtmasi bilan ham yozgan bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi¹⁴⁴.

Ibn al-Asirning ilm al-bayon va ilm al-balog'aga bag'ishlangan «al-Jomi' al-kabir» (Katta to'plam) va o'z zamonasining qiziqarli voqealariga bag'ishlangan «Tuhfat al-ajoiib

¹⁴¹Ибн Халликан. Вафаят ал-аъян ва анба абна аз-заман. Джилд 3. –С-349.

¹⁴²Ибн ал-Асир. Ал-Комил фи-т-тарих. Полный свод истории. - с 8.

¹⁴³Ўша жойда – Б. 9-10.

¹⁴⁴Ўша жойда

va turfat al-g'aroib» (Ajoib tuhfarlar va garoib hadyalar) asarlari ham yetib kelgan¹⁴⁵.

Yuqorida aytilganidek Ibn al-Asirga shuhrat keltirgan asari «al-Komil fi-t-tarix» sanaladi. Muallif mazkur asarining asosiy qismini vatani Qasr al-Harbda yozgan. Bu yerda Ibn al-Asirning katta va boy kutubxonasi mavjud bo'lgan. Ba'zi xulosalarga ko'ra, asar yozishni muallif 595/1198 - 99 yilgacha boshlagan va avvalboshda uning nomi «al-Mustaksa fi-t-tarix» (Tarixni tadqiq qiluvchi kitob) bo'lgan¹⁴⁶.

Sakkiz jilddan iborat bo'lgan «Tarixi komil» umumjahon tarixiga bag'ishlangan asar bo'lib, yilnoma tarzida tuzilgan. Acap arab xalifaligi va barcha islom mamlakatlari tarixini «Olam va Odamni yaratilishidan» to 628/1230-31 yilgacha bo'lgan davrni qamrab olib, «musulmon solnomalari tarixnavisligining yorqin namunasi va eng yuqori bosqichi» (Sh.Kamoliddin) sanaladi. «Agarda mashhur geograf Yo'it Hamaviyning «Mu'jam al-buldon» (Mamlakatlar lug'ati) asari o'z zamonasining geografiyasiga oid barcha ma'lumotlarning to'plami bo'lsa, uning zamondoshi Ibn al-Asirning «al-Komil fi-t-tarix» asari tarixga oid adabiyotlarning to'plami» desa bo'ladi¹⁴⁷. Ibn Xollikon «al-Komil fi-t-tarix»ni musulmon olami tarixining yorutguvchi ma'lum asarlar ichida eng sarasi ekanini aytib o'tgan¹⁴⁸.

V.V. Bartold Ibn al-Asir asarlarining qiymatini yuqori baholab, uni o'z asarlariga ma'lumot to'plash jarayonida ulug' bir vijdoniylik va o'sha davrda kamdan-kam ko'zga tashlanadigan tanqidiy yondashuv bilan ish tutganini qayd qiladi. Muarrir o'z asarida keltiriladigan ikkita qarama-qarshi fikrdan qaysisini tanlashda qiynalgan holda ikkalasini ham keltirgan. Bundan tashqari, Ibn al-Asir siyosiy voqealarning bayoni bilan

¹⁴⁵ *Ибн ал-Асир. Ал-Комил фи-т-тарих. Полный свод истории. Введение - С. 11-12.*

¹⁴⁶ *Ўша асар. - С.12. Яна қаранг: Richard D.S. Ibn al- and the Later Parts of the Kamil. - P. 78-79.*

¹⁴⁷ *Ибн ал-Асир. Ал-Комил фи-т-тарих. Полный свод истории. Введение С.12.*

¹⁴⁸ *Ибн Халликан. Вафаят ал-аян. Джилд 3. – С.348*

cheklanmasdan Sharq xalqlarining madaniyatiga oid ma'lumotlarni ham keltiradi. U turli davr, zamonlarda hukm surgan g'oyalar va qadriyatlar, tarixiy shaxslar hamda adiblarning haqqoniy tavsifini beradi¹⁴⁹.

Ibn al-Asirning asari o'z zamonasida ma'lum bo'lgan barcha yozma yodgorliklar asosida yozilgan bo'lib, arab va musulmon manbalarining tarixiy ma'lumotlarini keng qamrab olgan. Jumladan, Ibn al-Asir asarining oldingi yetti jildi, ya'ni islomgacha bo'lgan davr va islomning birinchi uch asri tarixi Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy (vaf. 310/923)ning «Tarix ar-rusul va-l-muluk» (payg'ambarlar va shohlar tarixi, yoki «Tarixi Tabariy») asari asosida (302 hijriy yilgacha davri) yozilgan. Shuning uchun ham olimlarning xulosalariga binoan, ikkala asar ham islom tarixining ilk davriga oid muhim birlamchi manba sanaladi¹⁵⁰.

At-Tabariy o'z asarida barcha mualliflarning ma'lumotlarini tanqidiy yondashmasdan qayta bayon qilish bilan chegaralangan bo'lsa, Ibn al-Asir uning ma'lumotlarini qayta ishlab, qisqartirilgan holda keltiradi, bizgacha yetib kelmagan boshqa manbalarning axboroti bilan ularni to'ldiradi. Shunday ilova va aniq ma'lumotlar O'rta Osiyo, Misr, Shimoliy Afrika va Ispaniya tarixlariga oid ma'lumotlardir.

Ibn al-Asir asarining manbalari qatorida bag'dodlik mashhur tarixchi Ahmad ibn Yahyo ibn Jabir al-Balazuriyning (vaf. 279/892) «Ansof al-ashrof» (Shariflar nasablari) asarini tilga olish mumkin¹⁵¹. Xuroson va Movarounnahr VII asrning ikkinchi yarmidan to X asrning o'rtalarigacha bo'lgan tarixini yozishda Ibn al-Asir bizgacha yetib kelmagan Abulhusayn Ali ibn Ahmad as-Sallamiyning «Tarix fi axbori vulot Xuroson» (Xuroson voliylari

¹⁴⁹Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Сочинения в 9 томах. Т. 1. Москва, 1963. - С.46.

¹⁵⁰Ибн ал-Асир. Ал-Комил фи-т-тарих. Полный свод истории. Введение - С.12. Яна қаранг: Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Сочинения. Т. . - С. 46.

¹⁵¹Ал-Балазури, Аҳмад ибн Яҳё. Ансаб ал-Ашироф. Ал-Қоҳира: Дор ал-маориф. 1959.

tarixi) asaridan keng foydalangan. As- Sallamiy somoniylarning amaldorlaridan bo‘lgan Abu Bakr Chag‘oniy va uning o‘g‘li Abu Alining yaqinlaridan bo‘lib, o‘z asarida voqealar bayonini Abu Ali vafotining sanasi bo‘lgan 344/955 yilgacha keltirgan¹⁵².

Safforiylar tarixiga oid ma‘lumotlarni Sallamiy asaridan tashqari, Ibn al-Asir bizgacha yetib kelmagan, Biroq Ibn Xollikon ham foydalangan Abu Abdulloh Muhammad ibn al-Azhar al-Axboriy (vaf. tak. 325/936-37)ning kitobidan olgan. Ibn al-Asirning «Tarixi komil»ida foydalangan boshqa manbalari ma‘lum emas, chunki ularni muallif ham ko‘rsatmagan.

Ibn al-Asir asarining X asrdan XIII asrning boshlarigacha bo‘lgan ma‘lumotlari alohida ahamiyatga ega. «Bu davr tarixini yozishda, u taxminan at-Tabariy asariga qilingan barcha ilovalar va mahalliy tarixiy asarlardan foydalanishi mumkin bo‘lgan»¹⁵³.

Ibn al-Asirning «Tarixi komil» asari Xorazmshohlar va mo‘g‘ullar bosqini davriga oid eng muhim, birlamchi manba sanaladi. Zero, uning muallifi shu davrda yashagan va ko‘p voqealarning bevosita guvohi bo‘lgan. Mazkur davr arab tilidagi yana ikki asarda Shihobaddin Muhammad ibn Ahmad an-Nasaviy (vaf. 647/1249)ning «Siyrat as-sulton Jaloliddin Munkburniy» va Minhojuddin Abu Umar Usmon ibn Muhammad al-Juzjoniy (vaf. 658/1250 yildan keyin)ning «Tabaqoti Nosiriy» asarida yoritilgan, xolos.

Ibn al-Asir ba’zi voqealar tafsilotini axborotchilari orqali olganiga ishora qiladi. U og‘zaki ma‘lumotlarni buxorolik bir faqih, xorazmlik savdogarlar (12 jild, 170 b), dakuklik bir shaxs (196 b), Alouddin Muhammad ibn Takeshning amirlaridan biri bo‘lgan Abu Bakr Tojiddinning bir xizmatkori (139 b), madinalik bir sayyid (171 b) va boshqalardan olgan ekan.

¹⁵²Ибн ал-Асир. Ал-Комил фи-т-тарих. Полный свод истории. Введение - С.14.

¹⁵³Ибн ал-Асир. Ал-Комил фи-т-тарих. Полный свод истории. Введение С. 15. Яна қаранг: Беляев В.И. Арабские источники по истории туркмен и Туркмении // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. 1. VII-XV вв. Арабские и персидские источники. -М.-Л, 1939. -С. 37-38

Ibn al-Asirning «al-Komil fi-t-tarix» asari X asrgacha boʻlgan tarixni yoritishda garchi kompilyativ ahamiyatga ega boʻlsa-da, xususiyl va umumiy masalalarni oʻrganishda alohida ahamiyatga egadir¹⁵⁴. X asrning ikkinchi yarmidan XII asrning oʻrtalarigacha muarrix Ibn al-Asir bizga kam maʼlum boʻlgan yoki bizgacha yetib kelmagan koʻpgina manbalardan foydalangan. XII asrning ikkinchi yarmidan boshlab, 1230-31 yilgacha boʻlgan davrni yoritishda Ibn al-Asirning asari birlamchi manba sifatida xizmat qiladi va uning maʼlumotlari hamda axboroti originalligi bilan ajralib guradi.

Ibn al-Asir al-Jazariyning «al-Komil fi-t-tarix» asari qoʻlyozma va toshbosma shaklida, turli tillardagi tarjimai bilan ilmda maʼlumdir. Asarning qoʻlyozmalari turli kutubxona va xazinalarda saqlanib, uning toʻla ilmiy-tanqidiy matni 1851- 1876 yillarda S. Tornberg tomonidan 14 jildda chop etilgan¹⁵⁵. Mazkur asarning eski oʻzbek tilidagi toʻliq tarjimai 1901-1907 yillari Xiva xoni Muhammadrahimxon Soniy Feruzning farmoniga binoan, bir guruh tarjimonlar tomonidan tarjima etilgan. Qoʻlyozmaning boshqa nusxalari va tarjimalari Oʻz FA SHI fondida saqlanadi (№ 824, 825, 6679-6802, 7290-7294, 7423- 7425).

¹⁵⁴ *Ибн ал-Асир. Ал-Комил фи-т-тарих. Полный свод истории. Введение С.16.*

¹⁵⁵ *Ibn al-Athiri Chronicon quod perfectissimum inscribitur/Ed. C.J. Tornberg. Vol. I-XIV. Upsaliae et Lugduni Batavorum, 1851-1876.*

Ibn al-Asirning asaridan turli davr va davlatlar tarixiga oid parchalari XIX-XX asrlarda qisman rus¹⁵⁶ hamda fransuz¹⁵⁷ tillariga o‘girildi, alohida tadqiqotlar olib borildi¹⁵⁸.

Tadqiqotda Ibn al-Asir asarining 2006 yilda amalga oshirilgan rus tilidagi terma tarjimasini (Toshkent: O‘zbekiston. Tarjimonlar P.G.Bulgakov va Sh. Kamoliddin) hamda Xivada amalga oshirilgan o‘zbekcha tarjimasidan keng foydalanildi.

Ibn al-Asirning «Tarixi komil» asari Xiva xoni Muhammadrahimxon Soniy buyrug‘i bilan hijriy 1321/1903-04 1325/1907-08 yillari davomida tarjima qilgan. Shunda birinchi jildini Nurulloh mufti eshon Xivaqiy va Muhammadsharif oxund (1321/1903-04); ikkinchi jildini Muhammadrafi’ ibn Nurullohmaxdum Xorazmiy (17 rabi’ as-soniy 1322/1-iyul 1904-

¹⁵⁶Медников Н.А. Палестина от завоевания ее арабами до крестовых походов по арабским источникам. Т 1-4 / Православный Палестинский сборник. Т. 17. Вып. 2. Спб., 1897-1903; Крымский А.Е. История арабов и арабской литературы. С. 1-3. Москва, 1911-1913; Из летописи Ибн ал-Асира / Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды в переводах В.Г. Тизенгаузена. Т.1. Извлечения из сочинений арабских. Спб., 1884. Мазкур асарнинг қайта нашрига қаралсин: Золотая Орда в источниках. Том первый. Арабские и персидские сочинения. Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды в переводах В.Г. Тизенгаузена. / Составление, вводная статья и комментарии Р.П. Храпачевского. Москва, 2003. С. 11-39; Мазкур асар 2006 йили Алматида тўлдирилган, қайта нашр этилган. История Казахстана в арабских источниках. Том 1. -Алматы: Дайк- Пресс, 2006; Извлечение из «ал-Камил фи-т-тарих» Ибн ал-Асира. Перевод с арабского И.Н.Леманова и С. Волина // Материалы по истории туркмен и Туркмени. Т. 1.VII-XV вв. Арабские и персидские источники. -М.-Л., 1939. - С. 358-409; Материалы по истории Азербайджана из Тарих ал-Камил (Полного свода история) Ибн ал-Асира (Перевод с арабского П. Жузе). -Баку. 1940; Извлечение из «ал-Камил фи-т-тарих» Ибн ал-Асира. Перевод с арабского К.Б. Старковой // Материалы по истории киргизов Киргизии. Вып. 1. - Москва, 1973. - С. 52-76; Ибн ал-Асир. Китаб ал-Камил фи-т-тарих (перевод с арабского Б.Вахабовой) // Материалы по истории Средней и Центральной Азии X-XIX вв. -Т.: «Фан», 1988. С. 93-94; Ибн ал-Асир. «Ал-Камил фи-т-тарих» (перевод со староузбекского Б. Ахмедова) // материалы по истории тюркских народов Центральной Азии. Т.: «Фан». 2003. - С. 136-190.136-190.

¹⁵⁷Ibn al-Athir. Annales du Maghreb et de L'Espagne. Trad. Ed annote par E. Fagnan. // Revue Africaine. XI. XLI. Alger. 1901/

¹⁵⁸Seref ed-din. Ibn Atirler. Stanbul. 1322/ 1904-05; Фролова О.Б. Источник летописи Ибн ал-Асира (XII в) в разделах посвященных истории народов СССР. Автореферат diss.kand.филол. наук. Л.:ЛГУ, 1954; Richard D.S. Ibn al- and the Later Parts of the Kamil: A study of Aims and Methods / Medieval Historical Writing in the Christian and the Islamic World. London. 1982. P. 76-108.

yili); uchinchi jildini Ubaydulloh maxdum (taxminan shu davrda); to'rtinchi jildini Xudoybergan maxdum (tarjima 3 zu-l-qa'da 1325/8 dekabr 1907 –yili ko'chirilgan); beshinchi jildini Muhammadya'qub oxund Besharig'lik ibn Do'stmuhammad So'fi (tarjimoni zu-l-qa'da 1321/yanvar-fevral 1904-da boshlab, jumodi al-avval 1322/ iyul 1904-yili tugatgan); oltinchi jildi tarjimoni Mullo Otaniyoz ibn Xo'ja Niyoz (1322/1904-05 yili, kotibi Otajon ibn Muhammadkarim); yettinchi jildini Ibodulloh xo'ja oxund va Ollohbergan ibn Muhammadrizo (rabi' al-avval 1325/aprel 1907 yili); sakkizinchi jildini Ibodullohxo'ja ibn Avaz xo'ja ibn Bobo xo'ja (1907-1909 yillarida. Tarjimoni asl matni bilan xon buyrug'iga binoan, Ota Niyoz oxund ibn Amon Niyoz So'fi ibn Nurmuhammad So'fi Xorazmiy sorlishtirib chiqqan, muharriri esa Sayyid Niyoz ibn Muhammadya'qub); to'qqizinchi jildni Habibulloh Xivaqiy (kotib va muharriri Ro'zmuhammad Xorazmiy. 1324/1906-07 ko'chirgan); o'ninchi jildni Jum'a Niyoz 4 muharram 1322/21 mart 1904 –yili tarjimaga kirishib, 1323/1905- 06 da tugatgan. Vays Niyoz ibn Abdalniyoz o'n birinchi jild tarjimasini 7 rab al-avval 1325/20 aprel 1907-yili boshlab, uni 28 jumodi as-soniy 1326/ 28 iyul 1908-yili tahrir qilib, ko'chirgan. Asarning o'n ikkinchi jildi esa Otajon xo'ja maxdum ibn Domullo Qalandar oxund Xorazmiy qalamiga mansub. Tarjimoni u 1323 –yili ramazon oyida/noyabr 1905 –yili tugatdi¹⁵⁹.

Ibn al-Asir al-Jazariyning Xorazm davlatchiligi tarixiga oid ba'zi ma'lumotlari Xorazm va Xorazmshohlar tarixining eng murakkab davrini yoritadigan manbadir. Unda Xorazmning XI-XIII asrdagi tarixi arab tarixchisi tomonidan keng yoritilgan. Xorazm davlatchiligi tarixining eng murakkab va fojiaiy davrini yoritishda Shihobiddin Muhammad an-Nasaviyning «Siyrat as-sulton Jaloliddin Mankoberti» (Sulton Jaloliddin Manguberdi (Mankuberti) hayotining tafsiloti) asari muhim o'rin egallaydi. Aytish joizki, Ibn al-Asir, Nasaviy va Juzjoniylar (oxirgi muallif haqida quyiroqda

¹⁵⁹ *Мазкур таржима нусхаларининг бошқа кодикологик хусусиятлари ҳақида қаранг: СВР (История). - С.26-30.*

alohida to‘xtalamiz) Chingizxon, uning harbiy boshliqlarining yurishlari tarixini to‘la bayon etmaganlar. V.V.Bartold xulosasiga qaraganda «ular shunday bir sharoitda qolib ketganlarki, shu xavotirli zamonning faqat bir qismidan xabardor bo‘lib qolganlar, xolos»¹⁶⁰. Ibn al-Asir shu vaqtda Baynannahrayn (Mesopotamiya)da bo‘lgan va Turkistonda bo‘lgan voqealar haqida to‘liq ma’lumot ololmagan. Faqat ba’zi voqealar, aynan Buxoro va Samarqandning bosib olinishi voqeasi guvohlari tilidan bayon qilingan.

An-Nasaviy esa mo‘g‘ullar bosqini davrida Xurosonda yashab (Nasada olamga kelgan, Xurandiz qal’asining voliysi bo‘lgan va), Xorazmshoh Jaloliddin xizmatiga 1223 –yili munshiy sifatida kirgan. Biroq u bu sanadan oldinroq Xorazmning ba’zi amaldorlari bilan aloqada bo‘lib, shu davr Xorazm davlati tarixiga oid juda qiziqarli ma’lumotlarni beradi. Turkiy va arab tillarini ham bilgan Nasaviy o‘z asarini Jaloliddin vafotidan 10 yildan so‘ng 1241 –yili yozishga kirishgan va 1249 –yili vafotidan oldinroq tugatgan.

An-Nasaviyning asari arab tilida yozilgan va uning to‘liq bo‘lmagan ikki nusxasi yetib kelgan. Undan bir nusxa Fransiya Milliy kutubxonasida va ikkinchisi Britaniya muzeyida saqlanayotir. Asarning arabcha matnini 1891 –yili Oktav Uda nashr etgan. Shu olim uni 1895 –yili fransuz tiliga ham tarjima etib, chop etgan (Paris, 1895. In PÉLOV, III., sér., vol. IX-X). Shu tarjima asosida 1914-1916 yillarda Yu.Ziyo va A.Tavhid, 1934 –yili mustaqil tarzda Najib Osim asarni turk tilida, 1945 –yili Muhammad Ali Nosix tomonidan arab tilidan fors tiliga, 1953 –yili esa Oktav Uda tarjimasi asosida yana arab tiliga Hofiz Ahmad Hamdiy o‘g‘irgan. Asar rus tilida qisman 1850 va 1900 -yillari chop etilgan. «Siyrat»ning rus tilidagi to‘liq tarjimasi asarning arabcha matni bilan Ziyo Buniyodov tomonidan 1973 –yili Bokuda chop etildi.

2006 –yili Kamol Matyoqubov mazkur asarni 1973 yildagi Ziyo Buniyodov amalga oshirilgan rus tilidagi tarjimasi asosida

¹⁶⁰Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. / Сочинения, Т. I. Москва: Издательство Восточной литературы, 1963, - С 86.

o‘zbek tiliga o‘girib, «Sulton Jaloldiddin Manguberdi (hayoti tafsiloti)» nomi bilan Toshkentda «O‘zbekiston» nashriyotida chop etgan¹⁶¹. Kitob tarjimonning kirish so‘zi, tarjima va izohlardan (izohlar muallifi Ziyo Buniyodov) iborat. Asar tarjimasidagi ba’zi kamchiliklar sifatida tarixiy shaxslar, joy nomlari, arab tilidagi asarlar nomlari, ba’zi istilohlarning o‘zbek tilida berilishidagi xatolarni ko‘rsatish mumkin).

Jaloliddinga bag‘ishlangan shu manba asosida u va Xorazmshohlar haqida G‘arbda K.D. Osson (bu olim birinchi marotaba 1852-yili «Siyrat» asari haqida ma’lumot bergan), A.Myuller, J.Boyl, V.Fishel, V.Odlen, X.Xorst, Kl.Kayen, G.Gotshalk, B.Shpuler, Len-Pul, V.Rozen, Ye.Tomas, K.Meyman, K. Vitfogel, S. Bosvort, V.V. Bartold, A. Iqbol, I. Qafaso‘g‘li, O. Tonariy, V. Minorskiy, Ye. Davidovich va boshqalar asarlarini yozganlar.

«Siyrat»da:

1. 1218 yildan 1231 yilgacha Jaloliddin qo‘l ostida vaqtincha bo‘lsa ham, bo‘lgan saltanatda, ya’ni Xorazm, Movarounnahr, Xuroson, Hindiston, Eron, Iroq, Ozarbayjon, Gruziya kabi davlatlarda bo‘lib o‘tgan voqealar, Xorazmshoh Alouddin Muhammad va Jaloliddin Manguberdi faoliyatlari, Chingizxon bosqini hikoya qilinadi;
2. Asarda keltirilgan voqealar tafsiloti Xorazmshohlar tarafida turgan tarixchi tamonidan bayon qilinadi.
3. An-Nasaviy Ibn al-Asir va Juzjoniylardan farqli o‘laroq Xorazmshohlar davlatining ichki va tashqi hayoti, Turkon xotun va uning mamlakat hayotidagi o‘rni, saltanatning yemirilishi sabablari, ko‘chmanchi turk qabilalarning (ayniqsa, qipchoqlar va Turkon xotun urug‘idagilarning) sotqinliklari, Bag‘dod xalifasining ikki yuzlama siyosati, Jaloliddinning ichki va tashqi siyosati (ismoiliy va ayubiylar, g‘urriylar bilan munosabatlar), yurishlarining sabab hamda oqibatlari yangicha asosda bayon qilinib, talqini beriladi.

¹⁶¹Шиҳобиддин Муҳаммад ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди. -Т.: «Ўзбекистон», 2006. - 384 б.

4. An-Nasaviy asaridagi ma'lumotlar asosida Xorazmshohlar davridagi Xorazm davlatchiligining dolzarb muammolaridan bo'lgan boshqaruvning sohalari (vertikal va gorizontal tarzda), ichki va tashqi siyosat, alohida shaxslarning o'rni, gegemon qabilalar hamda ularning o'troq aholi bilan munosabatlarini keng yoritish mumkin.

An-Nasaviyning asaridan o'sha davrda va undan keyin yashab o'tgan tarixchilardan al-Maqdisiy, Abal-Fido, Ibn Xoldun, al-Fuvatiy, al-Ayniy, al-Xazrajij Ibn Shaddod, az-Zahabiy, as-Safadiy, keyingi davrlarda esa ko'pgina boshqa tarixchilar foydalanganlar. Keyingi asrlarda barcha musulmon olamidagi tarixchilar o'z asarlarida Xorazmshohlar davri tarixini keng yoritishga harakat qilganlar. O'rta Osiyoda jahon tarixiga bag'ishlangan barcha asarlarda Xorazmshohlar va Xorazm tarixi alohida, maxsus bayon qilinadi. Ana shunday asarlar sirasiga Yoqut Hamaviy, Sobit Ibn al-Javziy, Yosin al-Umariy, Zakariy al-Qazviniy, Al-Kalkashandiy, Ibn Tiqtaka, Ibn Tangribirdiy, Mirzo Ulug'bek, Ibn Xollikon, Ibn Qosir, Ibn al-Ibriy, Ibn al-Vardiy, Ibn al-Amid, G'ozii Ahmad G'afforiy, Abulfaraj, Bayhaqiy, Mirxond, Vassof, Abulg'oziy Bahodirxon va boshqa o'nlab tarixchilarning asarlarini tilga olish mumkin¹⁶².

O'rta Osiyoning XIII asr tarixini to'liqroq bayon qiluvchi asarlardan yana biri Abu-l-Fazl ibn Muhammad Jamoliddin Al-Qarshiyning «Al-Mulxakot bi-s-Suroh (Suroh lug'atiga ilovalar)» asaridir. Ushbu asar Chig'atoy ulusidagi (1227-1370) Qayduning vorisi Chopar¹⁶³ hukmronligi davrida bitilgan hamda mahalliy musulmon olimiga tegishli, mo'g'ullar hukmronligi davrida ayni shu usulda yozilgan yagona tarixiy asar hisoblanadi. Aynan shuning uchun mazkur asar mo'g'ullar hukmronligi davrida (1218-1370)

¹⁶²СВР (История). -Т.: «Фан», 1998. (См. разделы: Всеобщая история, История Центральной Азии. - С.15-252).

¹⁶³Чопар ибн Қайду ибн Қистой ибн Ўқтой - 1302 йилда тахтга ўтирган.

Oʻrta Osiyo va Sharqiy Turkiston tarixi hamda madaniy hayotini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi¹⁶⁴.

Jamol al-Qarshiyning ushbu asari Oʻrta Osiyo tarixshunosligida musulmon namoyondasi, filolog, tarixchi, adabiyotshunos hamda tilshunos sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Asarni Chigʻatoy ulusi va Qoshgʻar madaniyati tarixiga bagʻishlangan ensiklopedik xarakterga ega boʻlgan mustaqil ravishdagi asar deb hisoblasak, mubolagʻa boʻlmaydi. Unda moʻgʻullar davridagi diniy va dunyoviy hayot, islom madaniyati markazlari, Oʻrta Osiyo shaharlarining ulamo va fuzalolari haqidagi maʼlumotlarga ega boʻlishimiz mumkin. Asarda, shuningdek, avtobiografik xarakterdagi koʻplab maʼlumotlarga duch kelish mumkin.

Maʼlumki, Chigʻatoy va uning avlodlari haqidagi maʼlumotlar Eron hamda Xitoy manbalarida berilgan maʼlumotlarga nisbatan anchayin zaif berilgan va ana shu davrning zaif qismini Jamol al-Qarshiyning «Al-Mulxakot bi-s-Suroh» asari maʼlum darajada toʻldiradi. Shuningdek, ayni paytda mazkur asar XIII asr tarixini bayon etuvchi hamda Oʻrta Osiyo mintaqasida bitilgan yagona asar boʻlib qolayotganini yana bir marta taʼkidlash lozim.

Muallif haqida gapirishdan avval, shuni aytish kerakki, asarning matnida muallif oʻzi haqida ham koʻp maʼlumot beradi. Unga koʻra, Jamol al-Qarshiy hijriy 628/1230-31 yilida Olmaliq shahrida, shu davrning mahalliy hukmdori boʻlgan Buzarxonning oʻgʻli Sigʻnoqtegin davrida tugʻilgan boʻlib, otasi Bolasogʻun shahri hofizlaridan biri¹⁶⁵ va onasi esa shayx Abu Alishoh avlodidan edi.

Muallifning toʻliq ismi sharifi asarda keltirilgan boʻlib, - Abu-l-Fazl Muhammad ibn Umar ibn Xolidir¹⁶⁶. Biroq ilmiy

¹⁶⁴ *Мирза Муҳаммад Хайдар. Тарихи Рашиди / Введение, перевод с персидского. А. Урунбаева, Р. П. Джалиловой, Л. М. Епифановой. - Т.: «Фан», 1996. - С. 611.*

¹⁶⁵ *Мирзо Хайдарнинг «Тарихи Рашидий» асарида айтилишича отаси Боласогун хофизларидан бўлган ҳамда Куръонни ва 20 мингга яқин ҳадисни ёддан билган олим бўлган. - Мирза Муҳаммад Хайдар. Тарих-и Рашиди / Введение, перевод с персидского А. Урунбаева, Р. П. Джалиловой, Л. М. Епифановой. - Т.: «Фан», 1996.*

adabiyotlarda uni ko‘proq Jamol al-Qarshiy¹⁶⁷ nomi bilan uchratamiz.

U o‘z davlati hukmdorlari homiyligidan foydalanib, davlat ishlaridagina xizmat qilmay, Sig‘noqteginning o‘g‘li valiahd Il-Butar va Jo‘jining qizi Bilganbekaning tarbiyachisi ham bo‘ldi. Jamolning davlat ishlaridagi bu kabi faolligi va sulolaga yaqinligi, unga «Jamol al-Qarshiy» (mo‘g‘ul tilida qarshi«saroy», jamol esa «husn, ko‘rk» degani)¹⁶⁸ taxallusini berdi.

Ushbu manba haqidagi ilk ma‘lumotlarni biz Mir Haydarning (905/1499-958/1551) «Tarixi Rashidiy» asarida uchratamiz¹⁶⁹. N.F. Petrovskiy «Tarixi Rashidiy» da eslatilgan va musulmon olimlari tomonidan unga taqdim etilgan «As-Suroh min as-Sihoh lug‘atiga ilovalarni haqida o‘zining asarlaridan birida ma‘lumot beradi¹⁷⁰. «Tarixiy Rashidiy» asarining muallifi ham ushbu «Mulhaqot» o‘zida muhim tarixiy-adabiy ma‘lumotlarni jamlaganligi bilan qimmatli ekanligini ta‘kidlaydi. Rus sharqshunos olimi Baron V.R. Rozen ham» As-Suroh»ning Oksford nusxasi haqida Petrovskiy maqolasiga izoh sifatida ko‘rsatib o‘tadi. Lekin 1895 –yilida akademik V.V. Bartold Oksfordda bo‘lganida Baron Rozenning V. Petrovskiy maqolasi izohida berilgan ko‘rsatmasiga binoan, «as-Suroh»ning nusxasini ko‘rib chiqib, ushbu nusxa «Tarixi Rashidiy»da qayd qilingan «Mulhaqot»ga umuman aloqasi yo‘qligini aytadi. Shunda Baron Rozen afsuslangan holda vaqt o‘tishi bilan O‘rta Osiyoda «Mulhaqot bi-s-Suroh»ning yana boshqa

¹⁶⁶ Джамал ал-Қарши ал-Мулхақат би-с-сурах. Введение, перевод с арабского-персидского, комментари, текст, факсимиле Ш. Х. Вохидова, Б. Б. Аминова. История Казахстана в персидских источниках. Т. II. -Алматы. Дайк-Пресс, 2005. - С. 27.

¹⁶⁷ Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Сочинение. Т. I. – М.: Наука. 1963.-С. 485.

¹⁶⁸ Бартольд В. В. Мулхақат ал-Сурах. Сочинение. Т. VIII. - М.: «Наука», 1973, 101-6. (8-изоҳ).

¹⁶⁹ Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Сочинение. Т. I. - М.: «Наука», 1963. - С. 52.

¹⁷⁰ Петровский Н.Ф. Башия «Бурана». // ЗВОРАО, Т.VIII. - С. 353. Бартольд В. В. Мулхақат ас-Сурах. Сочинение. Т. VIII. - М.: Наука, 1973. – С. 101.

nusxalari topilishi mumkinligini ta'kidlagan holda o'zi ham bunga ishonib qoladi.

Hozirga qadar «Mulhaqot bi-s-Suroh»ning uchta nusxasi ma'lum bo'lib, ulardan ikki nusxasi Rossiya FA Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limi fondida saqlanmoqda. Asarning yana bir uchunchi nusxasi esa professor Sh. X. Vohidov tomonidan topib o'rganildi va to'laqonli tarjima qilinib, nashr ettirildi. Ammo Sh. X. Vohidov asarni faqatgina tarjima qilgan bo'lib, undagi ma'lumotlar keng tahlil qilinmagan. Bizningcha, tarjimon va noshirlarning vazifalariga ham uning to'liq tahlili vazifasi kirmagan edi. Bugungi kunda manbaning mazkur nashridan keng ilmiy jamoa foydalanmoqda.

Ma'lumki, mazkur tarixiy kitoblarda O'rta Osiyoning XIII asrdagi siyosiy, madaniy hamda geografik ahvoli birmuncha sayoz yoritilgan. Aytilgan gaplar ham uzuk-yuluq bo'lib, bu davr tarixidagi kemtik joylarni to'ldira olmaydi. Ammo Muhammad ibn Umar ibn Xolidning biz o'rganayotgan «Al-Mulhaqot bi-s Suroh» asari tarixchilarimiz uchun ayni qulaylik yaratadi. Chunki Jamol al-Qarshiy nomi ila shuhrat qozongan bu muallifning mazkur mehnati biz uchun, avvalambor, ayni vaqtda O'rta Osiyo tarixidagi ana shu yuqorida aytib o'tilgan kemtik joylarni ma'lum darajada to'ldirsada, ikkinchidan, muallifning bu asari yana takror bo'lsa ham aytish darkorki, mo'g'ullar davrida Chig'atoy ulusi hududida musulmon ahli ilmi bo'lgan shaxs tomonidan bitilgan yagona tarixiy manba bo'lganligi bilan yanada qimmatlidir¹⁷¹.

Asarda arab grammatikasi, arab-fors leksikografiyasi, islom tarixi, O'rta Osiyoda hukmronlik qilgan sulolalar hamda muallifning memuarlari, Jand, Barchkent, Olmaliq kabi shaharlar haqida ma'lumot aks etgan.

Hajmiga ko'ra, «Al-Mulhaqot bi-s-Suroh» asari turli xildagi ma'lumotlardan iborat bo'lib, 41 bob (zikr) dan iborat.

¹⁷¹Джамал ал-Карши. Ал-Мулхакат би-с-сурах. С. 19; Бартолд В. Сочинение. Т. VIII. -М. «Наука», 1973.-С. 101.

Shular jumlasidan, Saljuqiylar, Xorazmshohlar, «Mo'g'ul hukmdorlari va ularning tarixi zikri» qismlari mavzuimiz uchun qimmatli¹⁷². Asarning bu qismi o'zida mo'g'ul hukmdorlari, Chingizxon tarixi, uning avlodlari hamda Chig'atoy ulusining Chopar (Ja'far) ibn Qaydu (Xaydu) hukmronlik qilgan vaqtiga qadar qimmatli va muhim ma'lumotlarni mujassam etgan.

Mo'g'ullar saroyidagi xizmatlari O'rta Osiyolik muallif uchun mahalliy tub aholisi vakili hamda musulmon olimi sifatida katta hurmat-ehtiroimga sazovor qildi. Zero, u tarix ilmida mutaxassis bo'lmasa-da, lekin o'z davrining yetuk adabiyotshunosi va tilshunosi hisoblanadi. Uning asarini esa Chig'atoy ulusi va Qoshg'ar madaniyati tarixiga bag'ishlangan qomusiy xarakterga ega bo'lgan mustaqil ravishdagi asar deb hisoblasak, mubolag'a bo'lmaydi. Unda mo'g'ullar bosqinidan oldin va keyingi davrdagi diniy, dunyoviy hayot, islom madaniyati markazlari, O'rta Osiyo shaharlarning olimu ulamolari, fozilu fuzalolari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Asarda, shuningdek, avtobiografik xarakterdagi ko'plab ma'lumotlarga duch kelish mumkin.

Asar haqqoniy tarixiy manba hisoblanib, unda O'rta Osiyoda hukmronlik qilgan sulolalar va o'sha davrda yashab, ijod etgan mashhur shayxlar-u, olimlar zikri bitilgan. Unda boshqa qo'lyozma asarlarda uchramaydigan ma'lumotlar ham o'rin olgan. Jumladan, Qoraxoniylar, Qoshg'ar va XIII asrda Olmaliqda hukmronlik qilgan Turkiy sulolalar, shuningdek, shu davrning mashhur shayxu ulamolari va ular yashab, ijod etgan davr haqidagi ma'lumotlar ham ta'kidlangan.

Asarning «Taniqli amirlar, vazirlar va buyuk shaxslar» haqidagi bobi davlat arbobi, xorazmlik Mahmud Yalovoch va o'g'li Mas'ud hamda uning avlodlariga bag'ishlangan. V.V.Bartoldning aytishicha, aynan shu asarda Mahmud Yalovochning vafot etgan yili aniq berilgan (1254). Jamol al-

¹⁷² III. X. Воҳидов, Б. Б. Аминов. *Ўша ерда/ Упоминание о монгольских хаканах и изложение их истории.* - С. 117-126

Qarshiy uni eng adolatli vazir, ishonchli shaxs hamda islom namoyondalarining vafodor himoyachisi sifatida ko'klarga ko'taradi.

Shuningdek, asarning xuddi shu qismida Mahmud Yalovochning vorisi Mas'ud ibn Mahmud al-Xorazmiy¹⁷³ haqida ham boshqa manbalarda berilmagan ko'pgina qiziqarli ma'lumotlar e'tirof etiladi. Jamol al-Qarshiy uni o'z zamonasining yetuk shaxsi sifatida ko'klarga ko'taradi. Muallif uning vafot etgan yilini shavvol oyi 688/ noyabr 1289 -il Buxoroda deb ko'rsatadi¹⁷⁴.

Jamol al-Qarshiyga yana «Zubdat at-tavorix» (Tarixlarning qaymog'i) asarini nisbat beradilar. Fors tilida bitilgan «Tazkirat at-tavorix» asari muallifi mazkur asarni foydalangan manbalari ro'yxatida bergan¹⁷⁵. Biroq al-Qarshiyning bu nomdagi tarixiy asari topilmagan.

Xorazm va xorazmshohlar davri tarixiga oid muhim manbalardan biri bu shoir va adib, muarrix Abu Ja'far Abu Nasr Muhammad ibn Abduljabbor al-Utbiy (350/961-62-413/1022-23 yoki 427/1035-36 yoki 431/1039 - 40) qalamiga mansub bo'lgan «Tarixi Yaminiy»dir. Utbiy G'aznaviylardan Abu Mansur Sabuktegin (366/977 - 387/1030) Sulton Mahmud va uning o'g'li Mas'ud saroyida xizmat qilgan. Arab tilidagi asarini Utbiy Mahmud ibn Sabukteginga bag'ishlangani uchun Sulton Mahmudga xalifa bergan «Yamin ad-davla» unvoniga atab «Tarixi Yaminiy» deb qayd etgan¹⁷⁶. Utbiy asari X-XI asrlarda Movarounnahr va Xurosonda G'aznaviylar davrida bo'lib, o'tgan tarixiy voqealar tafsiloti bayonidan iborat (asar muqaddima va 45 bob - zikrdan

¹⁷³ Mas'ud ibn Mahmud al-Xorazmiy otasidan so'ng 1239-1289 yillarda Turkiston va Movarounnahrni to'g'ullar nomidan idora etgan amaldor.

¹⁷⁴ Аҳмедов Б. *Тарихдан сабоқлар*. Т.: «Ўқитувчи», 1994. Б. 172.; *Ўзбекистон миллий энциклопедияси*. - Т. 5. 2005. Б. 506., Бартолд В. В. *Туркестан в эпоху монгольского нашествия*. Сочинение. Т. 1. -М.: «Наука», 1963. С. 549.

¹⁷⁵ Қобулий Абдуллоҳ. *Тазкират ит-таворих // Қўлэзма. Ўзбекистон ФА ШИИ. – № 2093.2^а- варақ.*

¹⁷⁶ *Утбий Абу Жаъфар Абу Наср Муҳаммад. Тарихи Утбий (Тарих ал-Утбий ал-мусаммо би-д-Яминий). // Қўлэзма. Ўзбекистон ФА ШИИ - №3252 /V*

iborat). «Tarixi Yaminiy» mutaxassislarining taxminiga ko‘ra, 412/1021 – 22-yili yozilgan¹⁷⁷.

Asarni 602/1205 /06 yili Abu Sharaf Nosih ibn Zafar ibn Sa’d al-Munshiy al-Jarbadagoniy fors tiliga tarjima qilib, uni Hamadon atrofidagi Farzin qal’asining hokimi Ulug‘ Borbek Ayubga bag‘ishlagan. Mazkur hokim Muhammad Ildegiz (1172- 1186)ning quli bo‘lgan. Tarjimon Utbiy asariga «xotima» yozib unda 582/1186-582/1186 -yillarda sodir bo‘lgan voqealarni bayon qilgan. Movarounnahr va Xurosonda Utbiyning shu forscha tarjimasi juda keng tarqalgan¹⁷⁸. Xorazm tarixi va Anushtegin Xorazmshohlar davri tarixi, ko‘pincha, shu tarjimonning ilovalarida keng yoritilgan.

Xorazmshohlar tarixiga oid manbalardan yana biri Abulfazl Muhammad ibn Xusayn Bayhaqiy «Tarixi Bayhaqiy», ya’ni «Tarixi Oli Sabuktegin» nomi bilan shuxrat topgan asardir. Abulfazl Muhammad Sabzavordagi Bayhaq viloyatining Xorisobod qishlog‘ida 385/995 yili dunyoga kelgan. Vafoti 470 yil safar oyi/1077 sentabr. G‘aznaviylarga bag‘ishlangan «Tarixi Oli Sabuktegin» to‘la 451/1059-60 –yili yozib tugatilgan. Biroq, asarning bizgacha yetib kelgan qismi, ko‘pincha, «Tarixi Mas’udiy» nomi bilan mashhur. Ibn Funduq ma’lumotiga qaraganda asar 30 jildidan iborat bo‘lgan. Bizningcha, uning har bir jildining hajmi katta bo‘lgani sabab yana nusxalar ko‘chirilib tarqalishiga to‘sqinlik qilinganiga taxminlar bor¹⁷⁹.

Bizgacha yetib kelgan qismda (V-X jildlari) Sulton Mas’ud G‘aznaviyning oxirgi o‘n yillik davri (421-432/1030-1041) tizimli,

¹⁷⁷ Миклухо-Маклай Н.Д. Описание... С.159-165. Уватов У. Об Абу Насре ал-Утби и его труде «Тарих ал-Ямини» // Востоковедение. - Ташкент, 1983. – С.80-87.

¹⁷⁸ Утби Абу Жаъфар Абу Наср Муҳаммад. Таржимайи Яминий. Қўлэзма Ўзбекистон ФА ШИИ - №3144 / 5828. Россия ФА Санкт-Петербургдаги Шарқ Қўлэзмалари институти фондида № В 666 (572 bbsc).

¹⁷⁹ Ибн Фундуқ (асар ёзилишидан юз йилча кейин) мазкур асарнинг тўла нусхасини ҳеч кўрмаганини эслатиб ўтган. Миклухо-Маклай Н.Д. Описание. - С. 162. Академик В.В. Бартольд эса «Тарихи Оли Сабуктегин»нинг фақат аввалги ўн жилдига манбаларда (Жузжоний, Хофизи Абўй асарларида М.Э) ҳаволаларни кўрган экан. Бартольд В. В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Сочинения. Том I. С.68 .

yilma-yil berilishga intilish koʻzga koʻrinadi. Biroq, bu solnomada Gʻaznaviylardan oldingi sulolalar hukmdorlari (somoniyar, xorazmshohlar) ga ham katta oʻrin beriladi. Asarning oʻninchi jildi (manbada mudjallad) Xorazm haqida alohida bob kiritilgan va u toʻla bizgacha yetib kelgan. Unda Sulton Masʻud Gʻaznaviyning Xorazmga nisbatan siyosati yoritilgan¹⁸⁰.

XII asrning oxirlarida, 590/1194 yildan keyin Xorazmshoh Takeshning xizmatida boʻlgan Sadridin Abulhasan Ali ibn Nosir al-Xusayniy «Zubdat at-tavorix» (Tarixlar qaymogʻi) asarini arab tilida yozilgan boʻlib, uning bir nusxasi Britaniya muzeyida saqlanadi¹⁸¹. Asardagi Takesh davriga oid tarixiy voqealar bayoni muhimdir.

Maʼlumki, XII asrning ikkinchi yarmi XIII asrning boshlaridagi davr islom tarixining eng qorongʻu sahifalarini tashkil qiladi. Bizgacha yetib kelgan manbalarning maʼlumotlari bir-birlariga qarama-qarshi boʻlib, muhim tarixiy voqealar sanalarini aniqlash ham qiyin. Bu muammoga hatto V.V. Bartold ham duch kelganini aytgan¹⁸². Vaholanki, bu davr musulmonlar tarixida muhim ahamiyat kasb etadi: bu davrda saljuqiylar davlati tanazzulga duch kelib, ikki yangi sulola Gʻuriylar va Xorazmshohlarning yuksalishi, Xorazmshohlarning musulmon raqiblari va qoraxitoylar ustidan gʻolib chiqishlari, ularning taxti itoatida barcha islom olamining sharqiy hududlarining kirishi, qudratli imperiya (saltanat)ga aylanishi davriga toʻgʻri keladi. Tashqaridan shunday qudratli koʻringan saltanatning ichki tomondan zaifligi tashqi dushman bilan toʻqnashuvida tez namoyon boʻlgani maʼlum.

Xorazmshohlar bilan hamasr boʻlgan Gʻuriylar tarixi Juzjoniyning «Tabaqoti Nosiriy» asarida keng yoritilgan. V.V.

¹⁸⁰ Байҗақи. *Тарихи Байҗақи(тарихи Масъуди), Бо саъй ва эҳтимоми Ғани ва Файёз. Техрон, 1324/1945. Рус тилидаги таржимаси: тарихи Абу-л-Фазл Бейҗақи. История Маъсуда Вступительная статья, перевод и примечания А.К. Арендса. -Т.: «Фан», 1962.*

¹⁸¹ *Mazkur asarni Muhammad Iqbol 1933 -yili Lohurda chop etgan.*

¹⁸² *Бартолд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Сочинение. Т. I.М.:S. 77.*

Bartold ham Juzjoniy o‘z asarini yozishda Ibn Xaysamning «Qisas as-soniy» asaridan, Faxriddin Muborakshoh Marvarudiyning genealogiyaga oid asaridan keng foydalanganini ta’kidlaydi¹⁸³.

Juzjoniy - Mihojiddin Abu Umar Usmon ibn Sirojuddin Mupammad hijriy 5 rabi al-avval 658/20 –fevral 1260 –yili o‘z asari «Tabaqoti Nosiriy»ni Dehli Sultoni Eltutmishning o‘gli Nosiriddin Mahmud (644-664/1246-1265)ga bag‘ishlagan. Umumjahon tarixiga oid mazkur asarning 16-chi tabaqasida Xorazmshohlar (18 sahifada), 23-tabaqasida esa mo‘g‘ullarning bosqini haqida (62 sahifada) ma’lumot beradi¹⁸⁴.

Xorazmshohlar tarixiga bag‘ishlangan eng muhim asarlardan biri al-Juvayniy –Alouddin Atomalik ibn Bahouddin Muhammadning «tarixi jahonkusho» asaridir. Mazkur asarda Juvayniy Ibn al-Asirga o‘xshab, Abulhasan Ali ibn Zayd Bayhaqiyning «Mashorib at-tajorib va g‘avorib al-g‘aroib» («Tajribalar» poklanishining joyi va «G‘aroib narsalar»ning cho‘qqisi) asaridan foydalangan. («Mashorib» Ibn Miskavayhning «Tajorib al-umam» asarining davomidir¹⁸⁵)

Juvayniy asarining ikkinchi jildi xorazmshohlar va Xurosonda hukm surgan mo‘g‘ullar tarixini (656/1258 yilgacha) yoritadi¹⁸⁶.

Faxriddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Umar ar-Roziy (vaf.606/1210) Xorazmshoh Takesh uchun «Jomi’ al-ulum» (Bilimlar to‘plami) nomli ensiklopediyani yozgan. Bu asar ham bizgacha yetib kelmagan.

¹⁸³Бартольд В.В. О некоторых восточных рукописях. // ИРАН, серия VI, г. XIII - С. 924. - N4.

¹⁸⁴Табакоти Носирий // Қўлэзма. Россия ФА ШИ Санкт-Петербургдаги Шарқ қўлэзмалари институти. - № С 426 (572abb). Наири: Табақати Насири. Edited by Abdul Hai Nabibi. Kabul Vol.I. 1963. VolIII. 1964.

¹⁸⁵Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. / Сочинения. Том I. - С. 78. Прим.3.

¹⁸⁶Жувайний Хўжа Алоуддин Атомалик. Тарихи Жаҳонкушо. // Қўлэзма Ўзбекистон ФА ШИ. - № 610. 261 варақ. Тошов Н.И. «Тарих-и джахангуша» Ала ад-дина Джувайни ценный источник по истории Центральной Азии XII-XIII вв. Автореферат канд. ист. наук. Ташкент: ИВ АН Узбекистана, 2004. - 22 с.

Bugungi kungacha yetib kelmagan Xorazm tarixiga oid manbalardan yana biri 80 jilddan iborat bo‘lgan Abu Muhammad Mahmud ibn Muhammad ibn Arslon al-Abbosiy al-Xorazmiy (vaf.568/1172-73)ning asaridir. Mazkur asarning qisqacha varianti XIV asr qurama tarixchisi az-Zahabiya (vaf.748/1348)mansubdir. Yoqut al-Hamaviy Abu Muhammad Mahmud al-Xorazmiy asaridan foydalangan¹⁸⁷.

Xorazmshohlar davri tarixiga oid muhim manbalardan murassalot (xabarnoma, maktubot, insho) janridagi asarlari tilga olish mumkin. Bunday rasmiy xat va nomalardan iborat to‘planning biri Rossiya FA SHI da saqlanadi. Hujjatlarning katta bir qismi Muntajabaddin Badi’, ya’ni Sulton Sanjarning munshiysi qalamiga taalluqlidir. To‘plamda Rashidaddin Vatvot qalamiga mansub xat va nomalar mavjud (masalan, El Arslonning xalifa devoniga yuborilgan xati). To‘plamda Otsizning Sanjarga itoat etgani haqidagi nomasi, Otsizning o‘z isyonini oqlab, Sanjarni ayblashi kabi qiziqarli materiallar sanaladi.

Ikkinchi hujjatlar to‘plami «at-Tavassul ila-t-tarassul» (xabarlar ila yaqinlashmoq) bo‘lib, muallifi Bahouddin Muhammad ibn Muayad al-Bag‘dodiy, Xorazmshox Takeshning devoni inshosi qalamiga mansub¹⁸⁸. Bahouddin Muhammad Xorazmshoh Muhammad tomonidan qatl etilgan shayx Najmiddin Kubroning eng iste’dodli shogirdi mashhur shayx Majidaddin Bag‘dodiyning akasi bo‘ladi. Asar matnidagi hujjatlar 578-579/1182-1184 yillarga to‘g‘ri keladi.

Shihobiddin Muhammad an-Nasaviyga nisbat berilgan yana bir asar «Kitob nafs al-masdur fi futuri zamon al-masdur va zamon as-sudur al-futur» dir. Mazkur manba 1930 –yili Tehronda nashr

¹⁸⁷ Ёқут. Иршод. Жилд II. - Лондон. 1910. - Б. 212.

¹⁸⁸ *Kitob at-Tavassul ila-t-tarassul. Bo saʼy va эҳтимоми Бахманёр ва муқаддимайи Мирзо Муҳаммадхон Қазвини. Техрон, 1315/1936, Баъзи хужжатларнинг наири: Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Ч. I. Тексты. СПб., 1898. - С. 73-82.*

etildi¹⁸⁹. Eron olimi va adibi Mirzo Muhammad Qazviniy bu asarni Muhammad Zaydariyga nisbat berilishi xato ekani va u an-Nasaviyga taalluqli ekanini isbotlab bergan¹⁹⁰. Mazkur asarni eronlik tarixchi, adib va shoir Rizoqulixon Hidoyat (1800-1871) nashrga tayyorlagan hamda bu asar shu olim vafotidan ancha keyin Rizoqulixonning kirish soʻzi bilan toshbosma shaklida chop etilgan (79+26 varaq, kichik hajmda). Rizoqulixon Hidoyatning soʻziga qaraganda, mazkur asarning bir nusxasini u Mirzo Abdullo munshiy Tabaristoniyni shaxsiy kutubxonasiidan topgan.

Muallif asarning nusxasi haqida boshqa qayd va tasnif qilish maʼlumotlarini bermagan. Faqat uning 500 yil muqaddam yozilgani taʼkidlangan xolos. Asar nashridan soʻng, yuqorida nomi tilga olingan Muhammadxon Qazviniy «Nafsat al-masdur» matni va maʼlumotlarini tahlil qilib, uning muallifi Muhammad Zaydariy emas, balki u Shihobiddin Muhammad Nasaviy qalamiga mansub ekanini isbotlashga urindi. Uning xulosasiga qaraganda, Rizoqulixon «Siyrat» muallifining vatani boʻlgan Xorandiz soʻzini «Zeyder» deb oʻqigan (asarda bu soʻz diakratik belgisiz kelgan). Xorandiz esa Nisa shahriga yaqin boʻlgan qalʼaning nomi boʻlib, u asarning ikki joyida tilga olingan. Muhammadxon Qazviniy an-Nasaviyning ikkala asarida uchraydigan, sheʼriy parchalar («Siyrat»da arab tilida, «Nafsat»da forscha), baʼzi voqealarning bayoni va tafsilotlari, muallifning biografik maʼlumotlarini solishtirganda shunday xulosaga kelgan. Muhammadxon Qazviniyning xulosalarini I.Petrushevskiy ham tasdiqlagan¹⁹¹.

¹⁸⁹ *Нафсат ал-масдур. Иниои Шихобиддин Муҳаммад Хурандизи Насави. Таших ва тавзиhi дуктар Амир ҲасанЯздагирди. Чопи аввал. Техрон: Тус, Китобхонаи миллии Эрон. 1381. - 948 с. (форс тилида)*

¹⁹⁰ *Петрушевский И. Новый источник по истории монгольского нашествия. // Вопросы истории, 1946. - № 11-12. - С. 121-126.*

¹⁹¹ *Петрушевский И. Новый источник по истории монгольского нашествия. // Вопросы истории, 1946. - № 11-12. - С. 122. Оқои Мирзо Муҳаммадхон Қазвиний. Дар бобби нухаи «Нафсат ал-масдур» толифи Нураддин Муҳаммад Муниш. / Нафсат ал-масдур. Иниои Шихобиддин Муҳаммад Хурандизи Насави. - С. 38 - 81*

Shihobiddin an-Nasaviyning har ikkala asarida voqealar bayoni yuqori mansabdagi amaldor va shaxs tilidan bayon qilinadi. Masalan, har ikkala asarda muallifning Alamutga, ismoiliylar hukmdori oldiga Jaloliddin farmoniga binoan ular tomoniga qochib o'tgan bir mo'g'ulni Shirkabut qal'asiga yetkazish uchun borgani hikoya qilinadi¹⁹². Muallif buyruqni bajarib qaytgach, sultonni o'z qarorgohida topmagani, Xorazmshohni topmagach, uch oy Ganjada qolib ketgani, sultonga qarshi Sharaf ul-mulkning isyon ko'tarishini bayon qiladi¹⁹³.

1231 –yili bahorida muallif Xorazmshoh saroyiga kelganida, uni Mayaforiqin hokimi ayubiylar sulolasidan bo'lgan Shihobiddan al-Malik al-Muzaffar G'oziy huzuriga elchi qilib jo'natiladi¹⁹⁴. Har ikkala asarda ham muallifning Amid yaqinidagi urushdan so'ng (1231 yili avgust oyida) Xorazmshohni qayta ko'rmaganini aytgan.

«Nafsat al-masdur fi futuri zamon as-sudur va zamon as-sudur al-futur» (Zamona vayronagarchiligining sodir bo'lishi va vayronagarchilik sodir bo'lish zamoni shamolining esish ovozi) asari an-Nasaviyning fors tilidagi mustaqil asari sanaladi. Bu asar muallifning esdaliklari bo'lib, unda bayon qilingan voqealarning ishtirokchisi an-Nasaviyning o'zidir. «Siyrat» esa Xorazmshoh Jaloliddin haqidagi tarixiy-biografik asar hisoblanadi.

«Nafsat al-masdur» asarida an-Nasaviy o'zining boshidan kechirgan voqealari, g'am-qayg'ulari, taqdirini barcha tafsilotlari bilan bayon qilgan. Mazkur asar «Siyrat»dan yetti yil oldin, ya'ni 632 hijriy shamsiy yili (1634-35) yozilgani ma'lum bo'ladi. Bu asarda sulton Jaloliddin biografiyasiga doir ma'lumotlar kamroq (26-55 betlar) tilga olinsa-da, biroq unda «Siyrat»da uchramaydigan sulton hayotiga oid ba'zi fakt va ma'lumotlarni o'qish mumkin.

¹⁹² *Ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди (97-боб. Тотоларнинг Султонга Ширкабут чегараларида қилган хужуми баёни) – Б. 266 ва кейингилари. «Нафсат ал-масдур». - Б. 38-44.*

¹⁹³ *Ўша жойда*

¹⁹⁴ *Ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди (105 боб.)-Б. 287 ва кейингилари. «Нафсат ал-масдур». - Б. 47-48.*

Jumladan, an-Nasaviy Ganjada bo'lgan vaqtida ganjaliklarning sultonga qarshi qo'zg'olonga tayyorgarchilik ko'rayotganlarini yozadi. Muallif jonini xavfga solib (Ganja atrofi mo'g'ullar qo'lida edi), Xorazmshoh qarorgohiga keladi. Sulton bu qo'zg'olon haqida o'z munshiyidan ham aniq ma'lumot oladi. Sulton Jaloliddin bu qo'zg'olonni hijriy shamsiy 628 yili, rajab oyida (5 may-3 iyun, 1231 yil) bostiradi.

«Nafsat al-mastur»da muallifning Mayaforiqinga borib, Shihobiddin al-Malik al-Muzaffardan elchi sifatida borib, Xorazmshohga madad berishini so'ragani «Siyrat»dan ko'ra to'laroq beriladi. Al-Malik al-Muzaffar elchi an-Nasaviy bilan xayrlashish vaqtida Berkridan ma'lumotnomani kaptar orqali oladi. Unda mo'g'ullarning 50 guruh bilan Berkri dovonidan o'tib kelayotganlari haqida xabar bor edi. Shundan keyin al-Malik Xorazmshohga madad berish fikridan qat'iyon voz kechadi¹⁹⁵.

«Nafsat al-masdur»ning uchdan bir qismi muallifning Xorazmshohdan ajralgandan keyin boshidan kechirgan voqealar bayoniga bag'ishlanadi. I. Petrushevskiyning xulosasiga qaraganda, bu manbaning eng qiziqarli qismini tashkil qiladi. Bu tafsilotlar muallifning keyingi asarida uchramaydi.

An-Nasaviy «Nafsat al-masdur»da guvoh va ko'pgina voqealarning ishtirokchisi sifatida mo'g'ullarning bosqini, ularning Iroqayn, janubiy Armaniston, Ozarbayjonda qilgan yovuzliklari, qochoqlarning azob-uqubatlari, shahar va kasabalarda feodallarning o'zaro urush va taloshlaridan tinch aholi boshiga tushgan og'ir oqibatlar batafsil hikoya qilinadi. An-Nasaviy o'z zamonining fojiasini yorqin insoniy tuyg'ular bilan hujjat sifatida yozib qoldirgan. Uning esdaliklari o'sha davrning boshqa mualliflarning (Ibn al-asir, Kirakos Gandzakskiy, Juvayniy va b.) ma'lumotlari bilan birga katta ahamiyatga ega.

An-Nasaviyning «Nafsat al-masdur» asari to'rt yil mobaynida yozilgan bo'lib, u Xuroson ashroflaridan Sa'daddin Ja'far ibn

¹⁹⁵Қаранг: *Нафсат ат-масдур*. - Б. 47-48; *«Сийрат» даги маълумот*. - Б. 287 ва кейингилар.

Muhammadga bag'ishlangan. Manbada Jaloliddin atrofidagi shaxslar, amaldor va mansabdorlarning kayfiyati yaxshi yoritilgan. Jaloliddin va uning yaqinlari islom dini himoyasi uchun «kofir» (tatar-mo'g'ul)larga qarshi muqaddas urush (g'azot) olib borilganlari talqin qilinadi. Eng asosiysi, an-Nasaviy tavsifida Jaloliddin tirik bir shaxs sifatida, barcha kamchilik va xatolari bilan gavdalanadi. Vaholanki, keyingi fors tilida ijod qilgan tarixchilar (Juvayniy, Rashidaddin, Isfizoriy, Mirxond) Jaloliddinni ancha ideallashtiradilar¹⁹⁶. Xorazm davlatidan ketib, Eron, Hind va arab mulklarida, Kavkazda mo'g'ullarga qarshi kurash olib borgan Jaloliddin mo'g'ullar saroyidagi tarixchilardan Rashidaddin va Juvayniy tomonidan hurmat bilan tilga olinishi, mard va dovyurak o'g'lon, qahramon hamda g'oziy sifatida maqtovlarga ega bo'lishi katta ahamiyatga ega, albatta.

«Nafsat al-masdur» an-Nasaviy uslubidagi murakkab, mubolag'ali arabizmlar to'la tilda, sajdagi mumtoz fors tilida yozilgan. Mutaxassislar orasida bunday uslub «sabki iroqiy» nomi bilan mashhur¹⁹⁷.

Abu Ali Hasan ibn Ali Tusiy Nizom ul-mulk Sharq tarixi va madaniyatida o'zining «Siyosatnoma» (yoki «Siyar al-muluk») asari bilan o'chmas iz qoldirgan.

Abu Ali Hasanning bobosi Bayhaq qishlog'ining eng nufuzli dehqonlaridan bo'lib, to'rt nafar o'g'ilning otasi edi. Uning katta o'g'li Abulhasan Ali otasi vafotidan keyin Xuroson voliysi Abulfazl saroyiga borib xizmatga kiradi. 1018 yilda¹⁹⁸ uning oilasida Tusning Rodkon viloyatidagi Navg'on qishlog'ida Abu Ali Hasan olamga keladi. U boshlang'ich tahsilni shu yerda oladi, keyin Nishopur va Marvda o'qib, voyaga yetgach, Balxga borib, Ali ibn Shodon

¹⁹⁶ *Ибн ал-Асир ва Жузжоний Жалолиддин тавсифида муболага қилмайдилар. Грузин ва арман муаллифлари эса Жалолиддинни прозелитизмга айблайдилар. Қаранг: Петрушевский И. Новый источник по истории монгольского нашествия. - С. 125.*

¹⁹⁷ *Мужтабо Минави. Шихобаддин Насави ва нураддин Нишопури. / Нафсат ал-масдур. Иншои Шихобиддин Муҳаммад Хурандизи Насави. - S.83-86*

¹⁹⁸ *Низом ул-мулк сўзига қараганда 1092 –йили у 96 ёшда экан. Шунинг учун бу санадан олдинроқ Низом ул-мулк оламга келган бўлиши мумкин.*

xizmatiga kiradi. Keyinchalik u Dovud ibn Mikoilga dabir bo‘ladi. Dabirlik mansabidan saljuqiylar shohi Alparslon (1063-1072 yillar) saroyida vazirlik mansabigacha ko‘tariladi va «Nizom ul-mulk», ya’ni mulkning nizomi nomi bilan shuhrat qozonadi. Vazirlik davrida u qariyb davlatning butun ishlarini o‘zi olib boradi.

Nizom ul-mulk saroy va davlatdagi shunchalik katta obro‘-e‘tiboriga qaramasdan hasadgo‘y, garazgo‘y kishilar va mansabdorlarning ig‘volaridan xavfsirab yashardi. Hatto Alparslonning o‘zi ham vazirini rofiziylilikda ayblab, uning shofeiylar mazhabida emasligidan afsuslanardi. Shohning shunday munosabatini Nizom ul-mulk o‘z asarida taassuf bilan eslaydi.

1091 –yili Nizom ul-mulk yozgan 39 bobdan iborat «Siyosatnoma» yoki «Siyar al-muluk» («Podshohlar turmushi») nomli asar shohga manzur bo‘ladi. So‘ngra Nizom ul-mulk asarini qayta ishlab, uni yangi bob va qismlar bilan boyitadi. 1092 –yili uni ko‘chirib, Sulton Malikshohga berib qo‘yish uchun saroyning maxsus kotibi Muhammad Mag‘ribiy an-Nosihga topshirib, o‘zi Bag‘dod safariga yo‘l oladi.

Nizom ul-mulkdan keyin, 1092 –yili Malikshoh ham o‘ldirilib, toj-taxt uchun kurash avj olib ketadi va davlat ishlari tartibsizlikka uchrab, xalqning ahvoli yomonlasha boradi. Shuning uchun ham Muhammad Mag‘ribiy faqat 1105 –yilga kelib, ya’ni G‘iyosuddin Muhammad bini Malikshoh davrida (1105- 1118 yillari) asarni e‘lon qilishga muvaffaq bo‘ladi.

Shunday qilib, kotib Muhammad Mag‘ribiyning Nizom ul-mulkka sadoqati va shijoati tufayli uning vasiyatnomasi bizgacha yetib keldi.

«Siyosatnoma» asari yaratilgan davridan boshlab olimlar, tarixchilar, adiblar, eng asosiysi, shohu hokimlar diqqatini tortib keladi. Bu asarni sultonlar va boshqa mansabdorlar ko‘chirtirib olib, o‘z faoliyatlarida foydalanganlar. «Siyosatnoma» Sharq madaniyatini, saljuqiylar tarixi va siyosiy hayotini o‘rganishda eng ishonchli manba bo‘lishi bilan birga, fors adabiyotining dastlabki badiiy namuna asarlaridan sanaladi.

Buyuk bobomiz sohibqiron Amir Temur o'zining tuzuklarida ulug' vazir va davlat arbobi Nizom ul-mulk amallarini hurmat-ehтиrom bilan eslab, jumladan, shunday deydi: «Masalan, Malikshoh Saljuqiyy o'z vaziri Nizom ul-mulkni martabasidan tushirdi. Vazir boshdan-oyoq yaxshi sifatlarga o'ralgan edi. Uning o'rniga zoti past, yomon bir kishini vazir qilib tayinladi. Bu shumqadam vazirning qabih ishlari, zulmi-sitami va nafs buzuvchiligi kasofatidan saltanat binosi buzila boshladi». Sohibqiron boshqa bir joyda Nizom ul-mulkni davlatni boshqarishda ibrat qilib ko'rsatib, uning fazilatlariga ta'rif beradi: «Nizom ul-mulkning yomon qilmishlari kam bo'lib, xayrli ishlari ko'proq edi. U hajga bormoqchi bo'lib turgan vaqtida avliyolardan biri unga debdi: «Malikshoh davlatining xizmatida bo'lib, amalga oshirayotgan xayrli ishlaring va Tangri Taolloning bandalariga yetkazib turgan yordaming haj qilish bilan barobardir».

Amir Temur aqlli, bilimdon va xushyor vazir mamlakat hayotining turli jabhalarida juda katta kuch ekanligi, podshohning boshiga tushgan muhim va mushkul ishlarni tadbirkorligi va uzoqni ko'ra bilishi bilan osonlashtirishini olijanoblik ila e'tirof etadi. «Bunday vazirni e'zozlab, izzat-ikrom etsinlar», «davlat sherigi bilib, aziz tutsinlar. Zinhor uning so'zidan chiqmasinlar, u nima degan bo'lsa, bari aql ko'zqusidir», deya qayta-qayta ta'kidlar ekan, shunday hurmatga sazovor vazir sifatida yana Nizom ul-mulkni misol keltiradi.

Asarning tarixiy, siyosiy va badiiy ahamiyati shundaki, usaljuqiylar hukmronligiga oid obro'li manba bo'lib, bu silsila Shohlari uchun davlatni boshqarishda bir dastur tarzida yaratilgan. Asar adabiy manba sifatida ham juda qimmatlidir. Shu sababdan asarga, Nizom ul-mulk shaxsiyatiga Amir Temur, Alisher Navoiy, «Dastur al-muluk» muallifi Samandar Termiziy, «Osor al-bilod» muallifi Abu Yahyo Zakariyo ibn Muhammad al-Qazviniiy hamda Ibn Isfandiyor, Ibn Bibi, Ibn Tiqtak, Xoja Xalifa va boshqa ko'plab ulug' alloma-yu davlat arboblari g'oyat yuksak baho berganlar. Ushbu asar mashhur sharqshunos olimlardan Sh.Riyo, V.Dorn,

E.Brove, A.Kristensen, Sh.Shefer, T.Neldeke, V.V.Bartold, A.Qrimskiy, Muhammad Nizomiddin, Fayz al-Hasan Fayziy, B.G'afurov, B. Ahmedov va boshqalar diqqatini tortib, ularning jiddiy xulosalariga asos bo'lgan. Ko'pgina xorijiy nashrlarda «Siyosatnoma» asari bugungi siyosatchilar uchun ham eng yaxshi qo'llanma sifatida baholanadi.

«Siyosatnoma» asari va Nizom ul-mulkning shaxsiyati ko'p mutaxassislar qatori o'zbek olimlari hamda o'quvchilarini qiziqtirib kelmoqda. Bu asardan ba'zi parchalar va ma'lumotlarni biz akademik Bo'riboy Ahmedovning maqolalarida hamda «O'zbekiston tarixiga oid manbalar» kitobida uchratamiz.

«Siyosatnoma» yoki «Siyar al-muluk» asarini olimlar saljuqiylarning siyosiy dasturi sifatida baholaganlar. Asarning asosiy g'oyalari ham shundan iboratki, vazir Nizom ul-mulk shoh va hokimlarni adlu insofga, sulh va muruvvatga, davlatni oqilona boshqarib, qat'iy qoida va tartib o'rnatishga, amaldorlarni vijdonli, pok, halol va imonli bo'lishga, mamlakat obodonligi, uning ahli farovonligi, tinchligi va totuvligini ta'minlash uchun harakat qilishga da'vat etadi.

Kitobxon Nizom ul-mulk asarini o'qir ekan, muallifning aql-zakovati, hayotiy tajribasi, hikoya va misollariga maftun bo'ladi, unda keltirilgan ilmiy, axloqiy-tarbiyaviy, diniy dalillarga ishonishi, asar muallifining tili, badiiy tasvir mahoratiga qoyil qolishi shubhasiz.

Masalan, Alisher Navoiy «Majolis un-nafois»da Xoja Kamoliddin Husayn nomli shoir haqida gapira turib shunday yozadi: «Xoja Nizom ul-mulkning o'g'lidir. Otasining taayyun va ishtihori burungi Nizom ul-mulkdin ortiqroq bo'lmasa, o'ksuk ham emas. E'tibor yuzidin aning bila teng bor edi. Ammo mansab yuzidin ortti...». Navoiyning gaplari shuni ko'rsatadiki, Hirot madaniy muhiti uchun saljuqiylar vaziri taniqli shaxs bo'lgan. Shu boisdan ham boshqani unga nisbat berib ta'riflayapti.

Nizom ul-mulk fikricha, adolat va saxovat xayr-sadaqadan, nochor, noiloj kishilarga madad berishdan, beva-bechoralar, mayib

va nogironlarga xazinadan nafaqa ajratish, insonlarning huquqlariga rioya qilishdan iboratdir. Amaldorlarni to'g'ritanlab, ularga qo'llaridan keladigan ishlar va vazifalarni topshirish, bir kishiga bir amal berib, undan itoat, ijro fazilatini kutish davlat boshqaruvining asosiy talablaridandir. Har bir ishda amaldorlarning maslahat bilan ish ko'rishlari ko'zda tutiladi. Nizom ul-mulk shoh, umuman, hukmdorlar hayot tajribasiga ega bo'lgan, jahon kezman oqsoqollar, olim-u mo'tabar kishilar bilan maslahatlashib ish tutishi tarafdoridir.

Nizom ul-mulkning yana bir fikri zamonamiz bilan hamohang. Bu g'oya shundan iboratki, davlatda markaziy hukumat (ya'ni shoh hokimiyati) juda ham kuchli bo'lishi lozim. Shundagina davlatda tinchlik va adolat barqaror bo'ladi, raiyat o'z maqsadiga yeta oladi, jamiyat sulh hamda adolat, muruvvatda yashaydi.

XI asr vaziri Nizom ul-mulkning fikricha, raiyat ahli, zulmu sitam ko'rgan har bir kishi, umuman norozi bo'lganlar amaldor va hokimdan boshlab vazir hamda shohning o'zigacha qabullariga borib, shikoyati yoki maslahatini bayon qilishlari zarur. U yozadi: «Podshoh haftada ikki kun zulm ko'rganlarni qabul qilib, zolimlarning dodini berib, jazolab va raiyat so'zlarini bevosita eshitib borishi kerak. Agarda xudojo'y podshoh dodxohlarni oldiga chaqirib, haftada ikki marotaba ularning so'zlarini eshitadi va zolimlarning jazosini beradi, degan xabar mamlakatga tarqalsa, unda sitam qiluvchilar oqibatini o'ylab, qo'rqib, bedodlik qilmaydilar».

Nizom ul-mulk har bir g'oyani isbotlash uchun muayyan tarixiy va afsonaviy shaxslar, sulolalar hamda saltanatlar tarixi, o'tmishidan foydalanib, tegishli voqealardan misollar keltiradi. Davlat boshqaruvi va hukumatchilikka u (875-999 yillarda hukm surgan) somoniy va g'aznaviy sulton hamda shohlarini namuna qilib ko'rsatadi. Bu sulolalarning namoyondalarini nihoyatda ulug'lab, ba'zan ularga xos bo'lgan fazilat va yaxshi hislatlarni, xulq-atvorlarni e'zozlab, zamona shohlarida ham shunday sifatlarni ko'rmoqchi bo'ladi va shu yo'l bilan ularga davlatni boshqarish borasida samimiy maslahatlar qiladi.

Nizom ul-mulk zamonasiidagi salbiy munosabatlarni ba'zan ochiqchasiga bayon qiladi, lekin oqil va farosatli davlat arbobi bo'lganligidan o'zining ba'zi harakatlari zoye ketayotganligidan afsuslanadi. O'sha davrlarda ham hasadchi va g'arazli amaldorlar borligi, saroydagi makrlar, amaldorlarning bir-birlariga qasd, dushmanliklari davlat ishlari, xalq va saltanatga ziyon ekanligini yashirmaydi. «Bizning zamonda, deb yozadi u, amirlar bir harom dinordan cho'chimaydilar, haqiqatni yolg'onga chiqarib, ish oqibatini o'ylamaydilar». Boshqa bir joyda «hozir shunday zamon bo'lganki, yuz musulmonning qoni to'kilsa ham, birovning zarracha ishi yo'q. Ajab dunyo, bundan keyin nima bo'lar ekan?!»- deb yozadi.

Davlatni idora etishda amaldorlar katta o'rin tutishlarini yaxshi tushungan Nizom ul-mulk ularni to'g'ri tanlab, joy-joyiga qo'yishni, har biriga loyiq amal berib, asosiy maqsad yo'lida tarbiya qilishni muhim bir talab deb biladi. Har qaysi amaldorni tarbiyalashga ko'p vaqt ketishi va bu mushkul ish ekanini tushuntirib, hokimlarga qo'l ostidagilarni ehtiyot qilishni maslahat beradi. Amaldorning xatosini ko'rib, uni darrov ishidan olish to'g'ri emasligi, uni birinchi marotaba kechirib, yana xato qilmasligi uchun himoya qilish kerakligini aytadi.

«Siyosatnoma» mavzu jihatdan juda keng qamrovli va sermazmun asar. Unda davlat boshqaruviga aloqador qariyb hamma qoida va qonunlar, usul va vositalar, qozi va qozixona ishlari, qo'shin va sarbozlar, xizmatchi va shaxsiy sarbozlar masalalari, saroydagi soqchilar-u posbonlar vazifalari, ularning maoshlari, xat tashuvchi choparlar xizmati va ayg'oqchilik (razvedka) ishlari, ularning moddiy jihatlari, xazina va baytulmol, elchilarga munosabat, hatto shohning oilaviy ishlari, uning bazm va majlislari, xos xodim va shaxsiy soqchilari haqida ma'lumot hamda maslahatlar bor. Asardan moliya va xo'jalik ishlari, soliq va xiroj, zakot va vaqf masalalari ham o'rin olgan. Ular ba'zan kerakli darajada ochib berilgan bo'lmasa ham, muayyan tadqiqotlarga manba bo'la oladi.

Asar hozirgi davr siyosatchilari, davlat amaldorlari va mansabdor kishilari, umuman, o'tmish tariximizga qiziquvchi barcha o'quvchilarga ma'naviy ruh va kuch beradi, deb o'ylaymiz.

Asarning badiiy qiymati shundaki, uning muallifi o'z fikrlarini turli hikoyatlar vositasida isbotlab, mustahkamlab boradi. Qarashlari kitobxonga tezroq yetishi uchun turli tarixiy shaxslar, har xil qahramonlar va ularning hayoti haqidagi hikoyatlarni keltiradi. Saljuqiy hukmdorlarga pand-nasihatlarni qilayotgan muallif, asosan, ilgari o'tgan hukmdorlar bilan bog'liq voqealarni keltirish bilan ularning ijobiy xususiyatlarini zamonasi shohlari, o'tmish hukmdorlariga namuna qilib ko'rsatishni istaydi. Salbiy jihatlarni tilga olarkan, ularning oqibatlaridan saboq beradi. Asarning tili soddaligi bilan kitobxonni o'ziga tortadi. Nizom ul-mulkning bayon uslubidagi publitsistik ruh ham asarni o'qimishli qilgan.

«Siyosatnoma», - deb yozadi B.N.Zaxoder, bu jiddiy siyosiy hujjat bo'lib, markaziy hukumat parchalanishiga qarshi qaratilgan asardir. «Siyosatnoma» markazlashgan davlat tuzishga da'vat etib, kuchli davlat mahkamasi, armiya va boshqa tekshirish vositalarini yaratishga chaqiradi¹⁹⁹».

«Siyosatnoma»ning eng qadimiy nusxasi Britaniya muzeyida (ADD 23516) hamda Berlinda saqlanadi. Bu nusxalar 1168-69 yili Urmiya shahrida amir-hojib Alp Jamoliddin farmoniga binoan ko'chirilgan, Sharl Shefer 1291 –yili ko'chirilgan boshqa nusxadan foydalanib, asarni fransuz tiliga o'girib va 1893 yili nashr etgan. 1914 –yili Kalkutta shahrida asarning tosh bosma nusxasi ham chop qilingan. Keyinchalik, 1932 –yili Tehron shahrida Ibrohim Xalxoliy ishtirokida «Siyosatnoma» asari besh nusxa asosida solishtirilib, bosib chiqarilgan.

Nizom ul-mulkning bu asarini B.N.Zaxoder ko'p yillik tadqiqotlaridan so'ng 1949 –yili rus tiliga tarjima qilib, nashr ettirdi. 1960 –yili asar ingliz tilida chop qilindi.

¹⁹⁹ *Сиасатнаме. Книга о правлении визира XII столетия Низам аль-мулька. -Москва-Ленинград: Наука, 1949, 242 бет.*

«Siyosatnoma»ning yana bir nashri 1989 –yili Dushanbeda amalga oshirildi. Asarni nashr etgan olim A.Devonaqulov o‘zining so‘z boshisida asarning asosan badiiy ahamiyatini umuminsoniy qadriyatlar jihatidan tahlil etgan. Ammo bu nashr kamchiliklardan xoli emas: asarning ba’zi boblari tushirib qoldirilgan.

«Siyosatnoma»ning o‘zbek tiliga ilk bor Shodmon Vohidov va Aftondil Erkinovlar tomonidan tarjima qilinib chop etilgan (Toshkent: Adolat, 1997. Ikkinchi nashri: Toshkent Yangi asr avlodi, 2008.)

Fors tilidagi navbatdagi tarixiy asarlardan biri Xorazmshohlar davri tarixchisi Nosiraddin Abu Said Abdulloh ibn Imomaddin Abulqosim Umar ibn Faxriddin Abulhasan Ali al-Bazaviyning (vafoti 684/1285-86) «Nizom at-tavorix»asarida²⁰⁰ (O‘Z FA SHI 9720 raqamli nusxadagi to‘rtinchi qismidagi Xorazmshohlar va mo‘g‘ullarga bag‘ishlangan boblarida. 72^a-82^a; Sankt-Peterburgdagi V 234-2 (266 bb) raqamli nusxada 148^a-154^b varaqlar) ham Abbosiylar xalifalari tarixi doirasida mavzuga oid ba’zi masalalar yoritiladi²⁰¹.

Hamdulloh ibn Abu Bakr ibn Ahmad ibn Nasr Mustavfiy Qazviniyning (vaf.750/1349-50) «Tarixi guzida» (Saylangan tarix) asari mashhur tarixchi Rashididdinning o‘g‘li G‘iyosiddin Muhammadga (736/1336 o‘ldirilgan) bag‘ishlangan. Asarining to‘rtinchi bobidagi «Islom davrida bo‘lgan sulolalar» qismida yettinchi sulola sifatida Xorazmshohlar (163^a- 168^b) davri tarixi va ular bilan zamondosh bo‘lgan boshqa sulolalar davri yoritilgan. Unda Xorazmshohlar sulolasining namoyondalari, ularning xalifalik bilan bo‘lgan munosabati, Xorazmshohning mo‘g‘ullar bilan olib

²⁰⁰ *Ал-Байзавий. Низом ат-таворих. // Қўлёзма. Ўз ФА ШИ. - № 9720. 80+3 вар.; Шу муаллиф. Низом ат-таворих. // Қўлёзма. Россия ФА Санкт-Петербургдаги Шарқ қўлёмалари институти. - № В 234-2 (266бб).*

²⁰¹ *СВР (История). - С. 30-32; Миклухо-Маклая Н.Д. Описание персидских и таджикских Рукописей института востоковедения. Вып. 3. – С. 39-46.*

borilgan siyosati, mo‘g‘ullar bosqini va uning oqibati yoritilgan (186^a-201^b varaq)²⁰².

Muhammad ibn Ali ibn Muhammad ibn Husayn ibn Abu Bakr Shabongaroiy (693/1293-94-733/1332-33) «Majma’ al-ansob» (Nasablar to‘plami) asarida jamlanma tarzda umumjahon tarixini Odam ato davridan boshlab bayon qiladi. Asar ikkinchi jildining ikkinchi qismi uchinchi bobida Abbosiylar davrida hukm surgan sulolalar tarixi berilgan. Muallif unda safforiylar, somoniylar, g‘aznaviylar, daylamiylar, saljuqiylar, g‘uriylar, ismoiliylar va Xorazmshohlar tarixini qisqa yoritib beradi.

Muinaddin Natanziy o‘zining «Muntaxab at-tavorixi Muiniy» asarini temuriyzoda Fors hukmdori Iskandarga (1409- 1414) bag‘ishlaydi. Umumjahon tarixiga bag‘ishlangan asarning ikkinchi jildi butunlay Abbosiylar xalifaligi davrida hukm surgan sulolalar tarixiga bag‘ishlangan. Asarda Xorazmshohlar davri «Xorazm sultonlari» nomi bilan tilga olingan (171^b-177^a). Asarning uchinchi jildi turk va mo‘g‘ul qavmlari tarixi, mo‘g‘ul xonlari tarixi Amir Temur davrigacha keng yoritiladi. Uchinchi jild ham mo‘g‘ullar, ularning bosqini va oqibatlarini o‘rganib baholashda muhim ahamiyat kasb etadi²⁰³.

Mashhur tarixchi Mirxond (vaf. 2 zu-l-qa’da 903/24-fevral 1498 yil) Alisher Navoiy homiyligida «Ravzat as-safo fi siyrat al-anbiy va-l-muluk va-l-xulafu» (Anbiyo, shohlar va xalifalar hayotlarining safoli bog‘i) asarini (oltita jildini) 1498 –yili yozib tugatgan. «Ravzat as-safo» ko‘p fors va arab tilida bitilgan manbalar asosida yozilgan. Muallif foydalangan manbalarining ba’zilari bizgacha yetib kelmaganini inobatga olsak, mazkur asarning ba’zi qismlarining naqadar ahamiyatli ekani ravshanlashadi. Mavzuimiz

²⁰²СВР (История) - 36-36; Миклухо-Маклай Н.Д. Описание персидских и таджикских Рукописей института востоковедения. Вып. 3. – С. 59-66.

²⁰³Мунтахаб ат-таворихи Муини мансуб ба Муин ад-дин Натанзи. Ношир J.Обен. Техрон. 1336/1957.

doirasida Mirxond asarining to‘rtinchi va beshinchi jildlar (qism, daftar, mujallad)i juda muhimdir.

Mirxondning mazkur asari ham Xiva xonlari va Muhammadrahimxon birinchi (1221/1806-1240/1825) Muhammadamin (1262/1846 - 1271/1855) Muhammadrahimxon Soniy «Feruz» (1282/1864-1328/1910) buyrug‘i bilan tarjima qilingan. Tadqiqot mavzuiga tegishli to‘rtinchi va beshinchi jildlarini Muhammad Yusuf Rojiy ibn qozi Xo‘jamberdi Xorazmiy Muhammadamin buyrug‘ini Muhammadya‘qub mehtar orqali olib amalga oshirgan²⁰⁴.

Bundan tashqari, o‘zbek tilida «Ravzat as-safoning xulosasi», ya’ni qisqa variantini Eshonjon ibn Muhammad xo‘ja Toshkandiy (Xo‘jayev, 1872-1953)1947 yili o‘quv qo‘llanma sifatida tuzgan va unga shaxslarning ko‘rsatgichini ham bergan²⁰⁵.

«Xulosat al-axbor fi bayoni ahvol al-axyor» muallifi G‘iyossiddin ibn Xumomaddin Muhammad Xondamir (vaf. 942/1535- 36) bo‘lib, unda umumjahon tarixi «olamning yaratilishidan» 875/1470-71 yilgacha bo‘lgan tarix hikoya qilinadi. Asarning sakkizinchi «maqola» si Abbosiylar davri (212^a - 312^a) va ulardan keyingi sulolalar tarixi, to‘qqizinchi qismida esa mo‘g‘ullar davri (312^b-349^a) bayon qilinadi²⁰⁶.

²⁰⁴ Шу таржима нусхасидан Ўзбекистон ФА ШИ фондида иккитадан (№№1813(ТВ ва В жилдлар), 7415(ИВ жилди), 7393(У жилди)) сақланади. СВР (История) - с 61-66; Бошиқа нусхалари: Каталог фонда Института Рукописей АН Ўзбекистана. Том Л - Т «Фан». 1989. - С.295 (ИВ жилд. № 1383). Форс тилидаги учинчи ва тўртинчи жилдларидан нусха шу заҳидада (буғунги кунларда Ўзбекистон ФА ШИ-3) 4282 рақамда сақланарди. Каталог фонда Института Рукописей АН Ўзбекистана. Том I, - Т «Фан». 1988. - С.279 .

²⁰⁵ Хулосат «Равзат ус-сафо» // Қўлёзма. Ўзбекистон ФА ШИ. - №9101Л. -315+14 с. Айни шу муаллиф Мирхонд асарининг биринчидан еттинчи жилдларигача бўлган барча биографик маълумотларни жамлаб форс тилида 1947 йили «Хулосат «Равзат ус-сафо» асарини тузган (№ 9587/ 1, 9102, ҳажми 143 вар). Худди шу муаллиф яна «Равзат ус- сафо»даги барча исмлар кўрсатгичини «Асмо ар-рижол «Равзат ус-сафо» номида тузган ва у ҳамжоридаги асарлар билан бирга Ўзбекистон ФА ШИ сақланади (№№9548).

²⁰⁶ Хондамир. Хулосат ул-ахбор фи баёни аҳвол ал-ахёр. // Қўлёзма. Ўзбекистон ФА ШИ.№5365. - 440 варақ. Қолган нусхаларининг тавсифи: СВР (История). – С.68-69.

Xondamirning «Habib as-siyar fi axbori afrodi-l-bashar» asarini oʻzining homiysi Karimaddin Habibulloh Sovajiyga bagʻishlaydi va uning ikkinchi jildini mavzuimizga daxli bor²⁰⁷. Mazkur jildning uchinchi va toʻrtinchi juzvida Abbosiylar va shu xalifalar davridagi mashhur sulolalar tarixi bayon qilinadi²⁰⁸.

Mazkur bob boʻyicha quyidagi xulosalarni berish mumkin:

- Xorazmshohlar davlatida davlat tashkiloti, davlatchiligi negizini Saroy, Hukumat, Oʻrdu (Qoʻshin) va Dor ul-qazo (sud mahkamasi) tashkil etgan.
- Xorazmshohlar davlatida davlat mansablari maʼmuriy, diniy va harbiy lavozimlarga boʻlingan.
- Mamlakatning butun hududi maʼmuriy jihatdan viloyattashkiloti, yaʼni viloyat va viloyat vazirliklariga boʻlingan. Xorazmshohlar davlatining harbiy tashkiloti saroy va hukumat tashkiloti singari boʻlgan.
- Xorazmshohlar davlatida markazlashgan adliya tashkiloti mavjud topgan boʻlib, bu tashkilot shariat sudi va urf-odatga koʻra hukm chiqarishga asoslangan. Qozilar sulton tomonidan tayinlangan. Quyi sudlar yuqori sudlarga tobe boʻlib, shariat sudlaridan tashqari, urf-odat qonuniga asoslangan ayrim sud muassasalari mavjud boʻlgan.
- Xorazmshohlar kuchayib ketgan bir zamonda u Sharqda shakllanib, rivojlanayotgan Chingizxon imperiyasi bilan roʻpara kelib, u bilan toʻqnashdi. Bu toʻqnashuv va Chingizxonning Xorazmshohlar davlati hududlariga bostirib kirishi aniq sabablar, ichki va tashki omillarga bogʻliq. Xorazmshoh va uning hukumati bir necha strategik va taktik xatolarga yoʻl qoʻyib, mamlakatni qoʻldan boy berdilar.

²⁰⁷Хондамир. *Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афроди-л-башар. Дар чаҳор жилд. Бо саъй ва эҳтимом, нешгуфтори Жалол Хумойи. Техрон, 1333/1954.*

²⁰⁸Мазкур асарнинг бир нечта нусхаси Ўзбекистон ФА ШИИ хазинасида сақланади (Иккинчи жилдининг рақамлари: 2153, 157^б-350^б вар: 4399; 4431; 5173). СВР (История). – С. 70-73. Бошқа нусхалари: Миклухо-Маклай Н.Д. Описание... - С. 115-125.

- Chingizxonning harbiy yurishi bu ko‘chmanchilar harbiy-qabilaviy tizimining madaniy o‘troq turmush tarziga bosqini edi. Uning natijasida katta madaniy hududlar vayronagarchilik va tushkunlikka duch keldi. Bu bosqinchilikning oqibatlari uzoq yillardan keyin, faqat Amir Temur davrida xalqimizning ulkan jasorat va mehnati bilan bartaraf etildi.
- Mo‘g‘ullar bosqiniga qarshi kurashni o‘n yildan ko‘p davrda Jaloliddin Munguberdi boshqargan. Uning jasorati, qahramonligi va hayoti turli xil qarama-qarshilik va xatoliklardan xoli emas.
- Yuqoridagi barcha mavzular Xorazm vohasining ayni shu murakkab va fojiali tarixi, madaniy va ma‘rifiy hayoti o‘sha davrda yozilgan arab va fors tillardagi tarixiy asarlarda o‘z aksini topgan.

III bob. XORAZMDA ILK TURKIY (ESKI O‘ZBEK) TILIDAGI TARIXNAVISLIK MAKTABI — TARIXIY ASARLAR VA ULARDAGI DAVLATCHILIK MASALALARI

1. «Tarixi O‘tamish hoji ibn mavlono Muhammad Do‘st sulton» (Chingiznoma) da mo‘g‘ul va turkiy sulolalar tavsifi

Markaziy Osiyoda chingiziylar sulolasining legitimatsiyasi turli shakl va yo‘nalishlarda amalga oshirilgani ma‘lum. Ularning davlat tepasiga kelishlari va uning bardavomligini ushlab turishlari hamda taxtga da‘vogarlarning huquqlarini ta‘minlab berish uchun turli janrdagi asarlar yozildi. Ularning ichida tarixiy asarlar alohida o‘rin egallaydi. Chingizxonning vorislari ham unga o‘xshab, o‘z hokimiyatlarini ilohiy, shajaraviy, kuch, taqlid hamda an‘anaviy normalar, huquq va odatlarni saqlash yo‘li bilan qonuniyligini ta‘minlashga harakat qilganlar. Shunday sulolalardan biri Xorazm va Dashti Qipchoqda hokimiyatni qo‘lga kiritib, uni ushlab turishga

harakat qilganlaridan biri Shayboniylar bo‘ladi. Shaybon/Shibon, Sibon Jo‘jining o‘g‘li, Botuxonning akasi bo‘ladi. Botuxon Majoriston (Vengriya) yurishidan so‘ng Shaybonga ulus sifatida Koralni berib, urug‘ va qabilalardan qushchi, nayman, qarluq/qarliq va buyraqlarni beradi. Shaybon avlodlaridagi xonlar chingiziylarning turli uluslarida hukm surgan yoki bu mamlakatlarning siyosiy hayotida faol qatnashganlar.

Shayboniylarning O‘rta Osiyoda hukm surgan davri va ularning tarixiga atab yozilgan tarixiy asarlar Temur va temuriylar davriga nisbatan ancha kam yetib kelgan. Xorazmlik muallif tomonidan turkiy tilda Xivada yaratilgan Shayboniylar davriga doir ilk asarlardan biri «Chingiznoma»dir.

«Chingiznoma» asarining bugungi kunda yagona nusxasi O‘zbekiston FA Aburayhon Beruniy nomidagi SHI №1552/ raqami ostida saqlanadi. Muallifi O‘tamish hoji ibn mavlono Muhammad Do‘st bo‘lib, asarda u otasini «Muhammad do‘sti hazrati hoqon» deb ham tanitgan. U zodagonlar oilasiga mansub kishi bo‘lib, Xorazm xonligining asoschilaridan biri Elbarsxon (1512-1525) xizmatida bo‘lgan. Ajdodlari esa XV asrning 80 –yillarida Sirdaryo quyi oqimida ulusi shayboniylardan Yodgorxon ibn Shaybonixon xizmatida bo‘lgan. O‘tamish hoji esa Elbars saroyida munshiy yoki kotib vazifasida xizmat qilgani taxmin qilinadi²⁰⁹. Asarini u shayboniy Esh Sulton (965/1558 yili o‘ldirilgan) buyurtmasi bilan XVI asrning birinchi yarmida yozgan.

«Chingiznoma»haqida birlamchi ma’lumotlarni Ye.F. Kal²¹⁰, V.V. Bartold²¹¹, A.Z. Validov²¹²lar bergan. Keyinchalik

²⁰⁹Утемиши-хаджи. Чингизнаме. Факсимиле, перевод, транскрипция, текстологические примечания, исследование В.П. Юдина. Подготовила к изданию Ю.Г. Баранова. Комментарии и указатели М.Х. Абусаитовой. -Алма-Ата, 1992.

²¹⁰Каль Е.Ф. Персидские, арабские и тюркские рукописи Туркестанской публичной библиотеки. -Т., 1889.-S. 52.

²¹¹Бартольд В.В. Отчет о командировке в Туркестан (летом 1902). // Сочинение, т. VIII. М., 1973.-С. 119-210

²¹²Валидов А.З. Восточные рукописи в Ферганской области // ЗВОРАО. Т.22. Ч. 2. 1915- С320.

qozog‘istonlik mashhur olim V.P. Yudin mazkur manba asosida bir nechta maqolalar yozib, asarni rus tiliga tarjima qilib, uning tabdilini va matniga tekstologik izohlar berish bilan e’tirof etgan. Nashr muharriri akademik B. Ahmedov ham unga kirish so‘z yozgan va asar muallifi hamda tadqiqotchisiga yuqori baho bergan. Bugungi kunga qadar mazkur nashr manbashunoslikning yorqin namunasi sifatida xizmat qiladi. V.P. Yudin «Chingiznoma» ma’lumotlarini tadqiqot doirasiga tortib, uning Dashti Qipchoq, Oltin O‘rda, umuman, Qozog‘iston tarixiga doir barcha ma’lumotlaridan foydalangan²¹³. O‘tamish Xojining «Chingiznoma»sihozirgi o‘zbek tilida 2009 –yili sharqshunos G‘ulom Karimov tomonidan nashr qilingan²¹⁴. Biroq aytish lozimki, asarning tili xususiyatlari, muallifning tarixnavislik uslubi tarixnavislik hamda manbashunoslik nuqtai nazaridan tadqiq doirasiga haligacha tortilmagan.

«Chingiznoma» ma’lumotlari O‘rta asrlardagi Markaziy Osiyo xalqlarining siyosiy, etno-siyosiy va etno-madaniy, xo‘jalik, ijtimoiy va madaniy hayoti haqida ko‘plab materiallar beradi. Shuningdek, hozirgi manbashunoslik va tarixshunoslik muammolarini hal etishda muhim mavqega egadir. Asar Chingizxon va chingiziylarning XIII-XIV asr tarixini yoritishda, Oltin O‘rda xonlari - Botuxondan to To‘xtamishning taxtga kelishiga qadar voqealarni o‘rganishda katta ahamiyatga ega.

²¹³Юдин В.П. Орды Белая, Синяя, Серая, Золотая...// Казахстан, Средняя Азия и Центральная Азия в XVI-XVIII вв, Алма-Ата, 1983. – С. 106-165; Шу муаллиф. Переход власти к племенным биям и неизвестной династии Тукалтимуридов в казахских степях в XIV в. (К проблеме восточных письменных источников, степной устной историографии и предистории казахского ханства). / Утемиш-хаджи. Чингизнаме. Факсимиле, перевод транскрипция, текстологические примечания, исследование В.П. Юдина. Подготовила к изданию Ю.Г. Баранова. Комментарии и указатели М.Х. Абусайтовой. Алма-Ата, 1992- С. 57-75. Шу муаллиф. Неизвестная версия гибели Уруххана (из политической истории восточного Даиш-и кипчака XIVв). Ўша жойда - С. 76-82 ва б. Шу муаллиф.. Централная Азия в XIV-XVIII веках глазами востоковеда. –Алматы: Дайк-Пресс. 2001.-384 с.

²¹⁴Ўтамиш Хожии ибн Муҳаммад Дўстий. Ўтамиш Хожии тарихи. Наширга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Фулом Каримов. -Т.: «Ўзбекистон», 2009.-48с

V.P. Yudin «Chingiznoma»ni «dasht ogzaki istoriyagrafiyasi an'anasiga tegishli, degan fikrni ilgari surgan edi»²¹⁵.

O'tamish hoji o'z asarini yozish jarayonida asosan rivoyatlar va xalq og'zaki ijodidan foydalanib, yana sayyohlar, amaldorlar, xonlar, Sulton G'oziy xizmatida bo'lgan Hoji Niyoz va xitoy qabilasidan bo'lgan Bobo Ali biy bergan ma'lumotlaridan ham foydalangan. Asardagi ba'zi voqealar tafsilotini muallif guvoh sifatida tasvir etgan. Manbada keltirilishicha, muallif Xorazm va Oltin O'rdaning janubiy viloyatlarida, Kaspiy dengizi atroflari, quyi Volgabo'yida ham bo'lgan ekan²¹⁶.

O'tamish hoji ba'zi voqealar bayonida manba sifatida Esh Sultonning akasi Do'st Sulton «daftari» (kitobi)ni ko'rsatadi²¹⁷. Esh Sulton faqatgina bir yil 964-965/1557-1558 Xorazm taxtini boshqargan edi. Do'st Sulton esa shu yili Xorazmda yuz bergan g'alayonlar jarayonida halok bo'lgan.

Muallifning Do'st Sulton asariga bir necha marta murojaat qilgani, Xorazmda XVI asrning boshlarida allaqachon chingiziylarning vorislari sifatida shayboniylarning tarixi va ular hokimiyatining legitimatsiyasiga bag'ishlangan asarlar mavjudligini ko'rsatadi. Kelajakda Do'st Sultonning «daftari» topilsa, bu muammo ham hal bo'lish ehtimoli bor. Asarda Do'st Sulton «daftari»dan quyidagi ma'lumotlar olingani havola etilgan (tahrir bizniki – M.E.):

«Ba'zilar ayturlar: «Xulaguxan bu lashkarning ichinda erdi. Bu lashkar bosilg'anda o'ldi, hech kishi oning o'lganidin xabardor bo'lmadi». Ammo hazrati Do'st Sultonning tavorixlarida aytib tururlar: «Bu lashkarki bosilib bordi, g'ussasindin xasta bo'lub ikki oydin so'ng o'ldi», deb tururlar. Va Allohu a'lam»²¹⁸.

²¹⁵ Утемиш-хаджи. Чингизнаме.-С.б.

²¹⁶ Утемиш-хаджи. Чингизнаме. Факсимиле, перевод, транскрипция, текстологические примечания, исследование В.П. Юдина. Подготовила к изданию Ю.Г. Баранова. Комментарии и указатели М.Х. Абусаитовой. -Алма-Ата, 1992. -С42^b

²¹⁷ Чингизнома. Кўлёзма. ЎзФА ШИ №1552/У. 43^a, 54^b.

²¹⁸ Ўша асар. 43^a

Keyingisi:

«Qara Nug‘ay Sir bo‘yinda uch yil podshohlik qildi. Turkiston viloyatlarig‘a hukm qilur edi. Uch yildan so‘ng vafot topti. Inisi Tug‘li Timur tegan xon bo‘ldi. Faxri salotin hazrati Do‘st Sultondaqi daftarda aytib erdi: Bu Tug‘li Timur ulug‘ podshoh bo‘ldi. Samarqandda Buxorog‘ahukm qilur erdi. Amma muddati podshohliqi ma‘lum ermas. Andin so‘ng Badiq o‘g‘lon o‘g‘li Urus xon bo‘ldi. Bu Urus xon ulug‘ podshoh bo‘ldi. Tamomi Turkiston viloyatlarig‘a hukm qilur erdi. Tuxtamishxon bila Timur Qutli xong‘a ul mahalda xonlik tegmaydur erdi. Bu xoni mazkurning xizmatida bo‘lur erdilar. Chun inoyati azali birla farri podshohi Tuxtamish o‘g‘lonning zotinda paydo erdi, xonning navkarlari taqi o‘zga xaloyiqlari ixtiyor bu o‘g‘loni mazkurg‘a maida erdilar. Bu boshdin xoni mazkur yamon aylanib Tuxtamish o‘g‘longa qasd qilur bo‘ldi»²¹⁹.

«Chingiznoma» mazmun jihatidan oxirgacha yetkazilgan asar emas, chunki bizgacha uning noqis, to‘la bo‘lmagan nusxasi yetib kelgan. Asar yaratilishi davri, Xorazmda shayboniylar sulolasining birinchi namoyondalari tarixiga doir juda kam ma‘lumotni beradi. Tarix fanida Xorazm xonligining aynan XVI asrning boshlari va o‘rtalarigacha bo‘lgan davr juda ham kam o‘rganilgan va manbalarda ham ma‘lumotlar qariyb yo‘q hisobida.

Manbalarning ma‘lumotiga qaraganda, Jo‘ji ibn Chingizxonning beshinchi o‘g‘li Shibon/Sibon, Shaybon xonning naslidan Xorazmda avval Yodgorxon ibn Shaybon, keyin Abulak ibn Shaybon, keyin Aminakxon ibn Yodgorxon, so‘ngra Elbarsxon ibn Berka sulton → Sulton Hojixon ibn Belikach sulton → Hasanqulixon ibn Abulakxon → So‘fiyonxon ibn Aminakxon → Bo‘chg‘axon ibn Aminakxon → Ovanishxon ibn Aminakxon → Qolxon ibn Aminakxon → Oqatoyxon ibn Aminakxon → Yunusxon ibn So‘fiyonxon → Do‘stxon ibn Bo‘chg‘axon hukmronlik qilganlar²²⁰.

²¹⁹Чингизнома. Қўлёзма. ЎзФА ШИ №1552/Ү. 43^a, 54^b.

Mazkur xonlarning nasablariga ahamiyat beradigan bo'lsak, ularning hokimiyat tepasiga kelishlari va hukmronliklarida tartib va izchillik yo'q. Boz ustiga taxtni har bir da'vogar qonli urushlar va muhorabalarda qo'lga kiritishlarini, xon unvoniga ega bo'lganlar esa ko'pincha turli qabila va guruhlar zodagonlari qo'lida «qo'g'irchoq xoniga aylanib ketishlari juda achinarli hol. Bunday holat Xorazm xonligi o'rnatilayotgan davrda markaziy hokimiyatning zaifligi, bu hokimiyatni mustahkamlaydigan shaxs yo'qligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, Xorazm vohasi, uning ichki ishlariga bir tomondan Eron, bir tomondan Buxoro xonligi, uchinchi tarafdan Oltin O'rda hukmdorlari doim daxl qilib turganlar. Buxoro hukmdori Shayboniylardan Ubaydullohxon (940-1533-34/9461539-40) bu ichki nizolardan foydalanib, 1539 –yili Xorazmni bosib olgan edi²²¹.

Ma'lumki, 1510 –yili Eron Shohi Ismoil I Safaviy Muhammad Shayboniyxonni urushda mag'lub etib, uni o'ldiradi. Xorazm safaviylar tarkibiga kiradi va uning shahar hamda qal'alaridan Urganch, Vazir, Xiva va Hazoraspdanoiblarini tayinladi. Bir yil o'tgach, Xorazmda Eron qizilboshiylari zulmidan ozod bo'lish uchun harakatlar boshlandi. Bunda, ayniqsa, Vazir aholisi shijoat ko'rsatib, shia qizilboshlarini haydab yuborish uchun jasorat ko'rsatdilar. Vazir shahri qozisi Umar qori aholini «kofir- shia»larga qarshi jihodga aholini da'vat etib, eroniylarga bo'ysunganlar dindand

²²⁰ «Мажмаъ ул –ансаб ва-л-ашжор» (муаллифи Абдулқодир ибн Муҳаммад Амин) бу сулола шажараси қўйидагича берилган : Сулолага асос солингани Элбарс ибн Беркадир. Ундан кейин Султон Хожихон ибн Белбарс, кейин Ҳасанқули хон ибн Абулак, кейин Суфиён хон ибн Аминак ва ҳақ... Элбарсхон ибн Берке ибн Ёдгор хон ибн Белбарс хон ибн Берке ибн Ёдгорхон; Ҳасанқули хон ибн Абилак хон ибн Ёдгор хон ибн Темуршоҳ хон; Аминак ибн Ёдгор хон ибн Темуршоҳ хон. Аминакнинг ўғиллари Аванеш хон, Қал хон, Суфиён хон, Буджафа хон, Оғотой хон. (Аминак хон авлодлари): Юнус хон ибн Суфиён хон ибн Аминак хон ; Дўст Муҳаммад хон ибн Буджафа хон ибн Аминак хон; Араб хон ибн Хожим Муҳаммадхонким, у Хожим хон ибн Оғотой хон ибн Аминак хон номи билан машҳурдир. Қаранг: Абд ал –Қадир ибн Муҳаммад Амин.Маджма ал-ансаб ва -л-ашджар./Введение, перевод с арабского-персидского и тюрского, текст, факсимиле аавтографа, камментарии и указатели Ш.Х Вохидова, А.К. Муминова, Б.М. Аминова.-Алмати:Дайх-Пресс.2005.-С.277. (текст стр. 350.)

²²¹Бартольд В.В. Отчет о командировке в Туркестан (летом 1902). - С. 166.

chiqishlarini eʼlon qildi. Vazirliklar Dashti Qipchoqdan Shayboniylar avlodidan boʻlmish Elbarsxonni (1512-1525) keltirib, xon koʻtardilar. Shaharda qizilboshlar qirib tashlandi. Bu vaqtda Urganchda Subhonquli Arab hokim boʻlgan. Uning tayanchi Urganch va uning atrofidagi oʻzbek aholisi edi. U Vazirdagi voqealar vaqtinchalik va koʻchmanchilar shaharni talab qaytib ketadilar, degan umidda edi.

Elbarsxon uch oydan keyin Urganchga yurish qilib, urushda Subhonqulixon halok boʻladi. Urganchga Elbarsxon Yodgorxonning oʻgʻillari Abulak va Aminakni chaqirib olib, shaharni ularga topshiradi, oʻzi Vazirga qaytadi. Abulak va Aminak Xivaga kelib, bu yerdagi qizilboshlarni ham yoʻq qiladilar, Hazorasp va Kat ham ular ixtiyoriga oʻtadi. Ismoil Safaviy vafotidan soʻng esa qolgan qizilboshlar va eroniy noiblar ham koʻchib ketishadi.

Elbarsxon «kofir» qizilboshlarni haydab chiqargani uchun oʻzi va oʻgʻillariga «gʻoziy», inisi Belikach oʻgʻillarining barchasiga esa «hojiiy» nomini beradi. Elbarsxon anʼanaga qarshi ravishda davlatni Chingiziylar emas, balki «Xorazmshoh»lar davlati deb atashni buyuradi.

Xorazmning Doʻstxon ibn Boʻchgʻaxon xonligi davrigacha boʻlgan tarixi bugungi kunga qadar yoritilmay kelmoqda. 964/1556-57 yili Shayboniylardan Doʻstxon ibn Boʻchgʻaxon ibn Aminak Xiva taxtiga koʻtarildi. Uning xonligigacha boʻlgan davr Xivada gʻalayonlar, taxt talashlar, sukut va tanazzul davri edi. Bayoniy va Tabibiylar bu davr tarixiga oid shunday maʼlumotlarni beradilar: Doʻstxon faqir va darveshtabiat kishi boʻlib, uning inisi Esh Sulton esa bahodir va majnunvash, birovlarning qizi va ayoliga koʻz olaytiradigan kishi edi. U ogʻasi Doʻstxonning davlatiga qanoat etmay, Urganchni talashni maqsad qilib, unga yurish qildi. Bu vaqtda Urganchda Hoji Muhammad xon edi. U Esh Sultonning Urganchga yurish qilganini bilib, unga qarshi chiqadi va Qum qalʼa nohiyasida urush boʻladi. Sakkiz kun muhorabadan soʻng tomonlar sulhga kelishadi. Esh Sulton Xivaga, Hoji Muhammad esa Urganchga qaytdilar. Oradan biroz vaqt oʻtgach, Esh Sulton Xiva,

Hazorasp va Kat otiqlarini yig'ib, yana, Urganchga lashkar tortadi. Hojimxon bundan xabar topgach, o'z inilari bilan Ko'k qal'aga kelib turadi. Muhoraba bir hafta davom topadi. Bir kechasi Esh Sulton Hojimxonga bildirmay Urganchga bostirib kiradi va qal'a ichidagi uyg'ur va naymanlarning mol-mulkini talab, o'zlarini shahardan haydaydi. Qal'adan tashqarida qolgan Hojimxon ilojsizlikdan Vazirga borib, u yerda Ali Sultondan madad so'rab qo'shin oladi. U Marvdan ham madad so'rab yordam oladi. Uchala qo'shin Urganchni to'rt oy davomida qamal qilishadi. Hojimxon qal'ani qo'lga kiritganda Esh Sultonni Tayon Ali do'rman degan navkari otib o'ldiradi. Chunki Esh Sulton bir vaqtlar Tayon Alining singlisiga zo'rlik qilgan. Esh Sulton o'ldirilgach, uning navkarlari ham qochib ketadilar. Hojimxon Urganchni olgach, Xivaga qo'shin yuboradi va Xiva xoni Esh Sultonning akasi Do'stxonni ham qatl ettiradi. Bo'chg'axon naslidan hech kim qolmaydi²²². Bu davr tarixini yoritishda keyingi davr xorazmlik tarixchilar asarlaridan manba yo'qligi tarixchilarga muammolarni tug'dirishi aniq.

«Chingiznoma»da qimmatli tarixiy ma'lumotlar talaygina. Bulardan Berdibek (758/1357-762/1361)dan keyin Oltin O'rda hokimiyati tepasiga kelgan Shaybon va shayboniylarga tegishlisini misol tariqasida keltirish mumkin (qisman tahrir qilindi - M.E.): «Ejan xon bila Sayin xon mashhur turur. Turali xon qizi zaifasindin tug'g'an erdi. Yana o'n yetti o'g'ulkim o'zga zaifalarindin bo'lub erdi. Bu Ejan birla Sayin xonlikni bir- birisinga muroat qildilar. Sayin xon kichik erdi. Og'asi Ejenga aydi: «Otam o'rnig'a og'am sen. Hamon otam turursan. Yot yurtga bora turubmiz. Xon bo'lg'il!», tedi. Ejan aydi: «Mening sendin yoshga ulug' ekanim rost. Ammo, otamiz seni bisyar suyip erka usturub erdi. Bu chokg'a tagri sening erkalik(in)gni va mahallaringni chekib tururman. Shoyadki xon bo'lsam burunkitek mahallaringni cheka

²²²Худойбергенов К. Хива хонлари шажараси. Хива, 1996. - С. 9. Бўрибой Аҳмедов В.В. Бартольд маълумотига таянган ҳолда Дўст Султон XVI асрнинг 30 йилларида ўлдирилган деган. Баёний ва Табибийлар эса уни Эш Султон ўлдирилганидан кейин қатл этилганини кўрсатмоқдалар - М.Э.

olmag'ayman. Taqi oramizda urush-adovat bo'lg'ay. San-oq xon bo'lg'il. Sening xonliqingg'a man chidarman. Ammo maning xonlig'img'a san chidamassan», tedi. «Ul tegen ne so'z bo'lur? Yosaqli og'am turganda manga ne oxshar ki xon bo'lg'aymen», - teb og'asiga ko'p taklif qildi. Qabul qilmadi ersa, aydi: «Bo'lmasa bir ish qilali. Ulug' bobomiz Chingizxon qoshig'a borali. Man ham so'zimni arz qilayin, siz ham so'zungizni arz qilingiz. Har ne bobomiz yarlig'i bo'lsa oning birla bo'lali», - tedi ersa, bu so'zni ma'qul ko'rub qabul qildi. Bir onadan tug'gan ikki o'g'ul va o'zga onadin tug'gan o'n yetti o'g'ul barchasi qo'shulub Ulug' xon ko'rinishiga bordilar. Bularki xonning xizmatiga yetishdilar, xon bularga uch o'rga/o'rda soldi. Altun bosag'ali oq o'rgani Sayin xonga soldi, bolat bosag'ali bo'z o'rdani Shaybang'a soldi²²³. Pas (shundan keyin), Uch yerda Shayban xon o'g'lonlari To'xtamish xon bila Temur-Qutli va Urus xon o'g'lonlariga faxr qilib maqtanurlar: «Biz sizlardan ortuq tururmiz», - teb. Ul biri urga turur. Ayturlar: «Otamiz Yo'ji (Jo'ji)xon o'lgandan so'ng ulug' bobomiz Chingizxon qoshing'a otalarimiz bordilar ersa, Ejan birla Sayindan so'ng bizning otamiz Shaybon xong'a o'rga soldi. Sizlarning otalaringiz telagan ham solmadi», - teyurlar. Taqi ikkinchi ulkim, «O'zbekxon qahr qilib qiyat Isantayg'a urum chertib barcha o'g'lonlarini alkunlari birla qo'shun berdi ersa, ul taqi bizni izzat va hurmat qilib: «Qilich chopqan, yurt ochgan. Ar Shaybanning o'g'lonlaridur», - teb ikki bog'lig elni bizga berdi: biri qarliq, biri bo'yraq turur. Ul ikki elni olib Sayin xon salg'agan yurtimizda o'z holimizg'a qo'yg'andir. Biz ul Jir-Qutlining koshonasig'a tash kirpich qo'yg'anda va taqi o'g'li Tungiz-Bug'aning eshikinda qorlab o'takina yuqunganda ul ishlarda biz yo'q turu[r]biz», - teyurlar. Ulkim Sayin xon o'g'lonlari Berdibekxonda tamom bo'ldi ersa, Jonibek xonning onasi Tay-Duali begim: «Emdi yurt taqi xonliq Shaybon xon o'g'lonlarig'a tegar», - teb Manqutay o'g'li

²²³ *Олтин ўрда, Кўк ўрда. Оқ ўрда...лар ҳақида муфассал қаранг: Юдин В.П. Орды Белая, Синяя, Серая, Золотая...// Казахстан. Средняя Азия и Центральная Азия в XVI-XVIII вв. - Алма-Ата, 1983. - С. 106-165;*

Xizrxonni undatib eltib Saroy viloyatinda xon qildi. Sayin xon o'g'lonlarindin so'ng ul xon taxtida xonliq bizga tekkandur terlar»²²⁴.

Shaybon Botuning Rus yerlari, Qrim, Yevropaga qilgan yurishlarida (1234-1238, 1238-1240 yillari) faol qatnashgan. Bu haqda O'tamish hoji Rashid ad-dinga²²⁵ nisbatan kengroq ma'lumot beradi. Rashid ad-din Shaybonning Bukchek va Bo'ri bilan Qrimga 1238 –yili qilgan yurishida uni Tatqar istehkomini olgani haqida yozgan²²⁶. O'tamish hoji esa Qrimda Shaybonni Qirq yer degan mustahkam qal'ani qamal qilganini yozib, uni uzoq muddatli qamaldan keyin qo'lga kiritganini batafsil bayon qiladi. «Chingiznoma» muallifi hatto Shaybonni harbiy hiyla ishlatganini yoritadi: «... Qirim viloyatinda Qiriq Yeri²²⁷ tegan xera ofarin berk qal'a bor tururkim, oning berkligi va mazbutliqi olamda mashhur turur. Necha yillar qabab urush soldilar, ola bilmadilar. Oxir hukm qildikim, oxshomdin so'ng tang otquncha har na kim, ovoz qilur, oni bir-biringa urushdurun. Yoki qo'llarig'a olib bir-biriga chaqishtura boshladilar. Va baqir qazanlarini va tabaqlarini va chanaqlarini ura boshladilar. Qolning ichinda bu sadoye va alomate bo'libdiki, yer-ko'k zilzilaga keldi, qulaqlar tondi. Qalqa xaloyiqlari sarosar ang-tang bo'lub xar sari yugurushlar: «Na hol bo'ldi?» teb. Ul oxsham tong otquncha ul sado va ul g'ovg'a tinmadi. Qalqa xaloyiqlari ham yotib uxlamadilar. Yana oxshamki, bo'ldi, bayaqitak yana alomate va g'avg'o qobardilar. To bir hafta-o'n kunga tegri ish-kuchlari bu bo'ldi. Kalka xaloyiqlari uyqusizlikdan xarob bo'lur erdi. Bu g'oyatga tegri –ayturlarkim: «Agar bir ish qilur bo'lsa, qilur edilar. Shoyad bularning bu oylarda va bu kunlarda rasmi va odati bu tariqa bor bulg'ay», - teb, farog'at

²²⁴Чингизнома. Қўлёзма. ЎзФА ШИ №1552/Ү. 38^б-39^а.

²²⁵Рашид ад-дин. Сборник летописей. Т.2. / Перевод с перс, Ю.П. Верховского. -М.-Л., 1960.-С. 37,39.

²²⁶Ўша ерда. - С. 39.

²²⁷Ҳозир Қримда Богчасарой яқинидаги Чуфут қалъа харобалари. Уни 1299 йили Нўғай бузиб ташлаган. (М.Э).

bo'ldilar. Chun Shaybonxan bildiki, bular farog'at bo'ldilar, lashkarini yig'durdi. Ayturlarki, ul qalqa bir yalan qoyaning ustinda tururlar. Bu axshom g'avg'o va sadoni ko'praq qildi. Qal'aning to'rt yonidin chaqurlar soldi. To tong otguncha bir kishi chiqar saqli yo'l qildilar. Qal'a xaloyiqlari g'avg'o va sado jihatidin mitin ovozin ma'lum qilib xabardor bo'lmadilar. Yo'lak tayyor bo'lg'ach darvazaga urush soldilar. Qalqa xaloyiqlari yugurub darvozaga keldilar. Bir jamiyat bahodurlarni ul yo'lg'a ta'yin qilib tururlar, ul yo'ldin yugurib chiqqach qal'aga o'zini soldilar, taqi qal'ani oldilar. Ul qal'ani ko'rgan ravandalardin so'raduq, hanuz ul yo'lning hududi bor turur tedilar. Ondin so'ng Ulaq viloyati²²⁸ ustunga yuridilar, ani fath qildi. Ondin so'ng Korol viloyati²²⁹ ustunga yuridi. Korol azim ulug' viloyat turur. Oning ko'p urushlari bo'ldi. Oqibat fath qilib, Korolni poytaxt qildi. Anda vafot bo'ldi. Taqi hola Korol podshohining avlodi turur. Shayx Ahmad xon necha yil onda tutqun bo'lub yana andin salomat chiqib o'z viloyati Hoji Tarxonga keldi. Ul aytur ekandur: «Bizning o'zbek taifasinda harki [m] omaqli elki, bo turur, barchasindin anda bor turur. Shaybon xon birla borib anda qolib turarlar», - ter²³⁰.

«Chingiznoma»da turli sohalaridagi tarixiy termin va istilohlar uchraydi. Bulardan davlat boshqaruviga doir unvon va amallardan: podshoh, sulton, hokim, biy, bek, qo'nalg'a;

Hududiy ma'muriy bo'linmalardan: ulus, el, viloyat, yurt, o'rda, aymoq, tuman;

Harbiy sohaga tegishli istilohlardan: qo'shun, dorug'a, nuker, mulozim, undaqchi.

Etnos va etnik sohasiga tegishli termnilardan: urug'/uruq, uyg'ur, qiyot, qazoq/qazoqlar, o'zbek/o'zbeklar, barin, do'rman, nayman, buyraq, arg'un.

Ijtimoiy va xo'jalik hayotiga doirlaridan yasoq va xirojni tilga olish mumkin.

²²⁸ Улакут - Валахия ҳамб37/1238 йили Шайбон томонидан босиб олинган эди.

²²⁹ Полякларва венгларнинг ерлари.

²³⁰ Чингизнома. Қўлёзма. ЎзФА ШИ №1552/В. 39^о.41^а

Manbada keltirilganlardan ba'zilarining tavsifini berish mumkin:

Ulus (mo'g'ulcha so'z) –mamlakat, davlat ma'nosida.

El (mo'g'ul) –qabila, qabilalar ittifoqi, xalq, davlat, mamlakat, o'lka, diyor, o'rda, turli qabilalar zodagonlari ittifoqi.

Viloyat (arab) –o'lka, viloyat, mamlakat.

Yurt (mo'g'ul) –hudud, aslida ko'chmanchilar ko'chib yuradigan ma'muriy-qabilaviy bo'linma. Mamlakat ma'nosida ham ishlatiladi.

O'rda (mo'g'ul) –yurta so'zidan (xon yurtasi, saroy yurtasi va x.) kelib chiqqan termin. Keyinchalik hukmdor, xonning saroyi O'rdasi sifatida tan olindi.

Aymoq, omak, obak (mo'g'ul) –qabila, qavm, urug' va ularning konfederatsiyasi, hududi sifatida talqin qilinadi.

Tuman (mo'g'ul) –mulkdorlarning ma'muriy bo'linmasi, o'n ming nafardan iborat qo'shinni berib, uni ta'minlaydigan hudud.

Hokim (arab) –hukmdor, mahalliy hukmdorlarning unvonlari.

Biy (turkcha) –turkiy qabilalarning peshvolari. Avvalboshda ularda harbiy vakolatlar va mas'uliyatlar bo'lmagan.

Bek (turkcha) –qabila va urug' harbiy dastalarining boshlig'i.

Qo'nalga (turkcha) –ma'muriy va harbiy amaldorlarni yo'l davomida ulov, yotoq, oziq-ovqat va boshqa narsalar bilan ta'minlash majburiyati.

Urug'/uruq (mo'g'ul) –oila, avlod, urug'. Aymoqdan kichikroq bo'lgan, ko'pincha, avlodning bir mashhur oqsoqoli atrofida jiplashgan qon-qarindoshlar.

Uyg'ur –Sharqiy Turkiston va Yettisuvda shakllangan turkiy xalq. Manba yaratilishi davrida Dashti Qipchoqdagi eng kattaqabiladir.

Qiyot, qiyat –mo'g'ul qabilalaridan. Chingizxon va uning vorislari davrida bu qabilaning no'yonlari va amirlari katta mavqega ega bo'lganlar. O'tamish hoji ma'lumotiga qaraganda ulardan Isataybek Qiyot Jo'jiylarning qo'shiniga qo'mondonlik qilib, Oltin O'rdada hokimiyatni qo'lga kiritgach, taxtga

O‘zbekxonni o‘tqazgan. Uning vorislari Sharqiy Dashti Qipchoqda ba‘zan butunlay hokimiyatni qo‘lga kiritganlar. Isobiy Qiyot Ko‘ragon O‘zbekxonning qizi Itkujud-bekaga uylangan va kuyov-ko‘ragon sifatida mamlakatda katta mavqeni qo‘lga kiritgan edi. Uningavlodlari hatto Berdibekxon vafotidan so‘ng (1359) Sirdaryoda hokimiyatni o‘z qo‘llariga oladilar.

Qazoq/qazoqlar (V.P.Yudin talqinida) bu so‘z mo‘g‘ullar hukmronligi davrida (XIII) paydo bo‘lgan. Avvalboshida “qazoq” bu o‘z davlati, qabilasi, urug‘idan ajralib yurgan kishiga (yokikishilarga) nisbatan aytilgan. Qazoqlik muayyan erkin turmush tarziga nisbatan ham ishlatilgan. Kirey/girey va Jonibek Dasht Qipchoqdan bir katta o‘zbek guruhlarini olib, qazoq bo‘ylab Yettisuvga ketgan. Shu guruhga nisbatan qazoq etnonimi ishlatiladigan bo‘ldi.

Sulton Husayn Boyqaroning rasmiy manbalarida (masalan, “Muizz al-ansob” asarida) uni hokimiyat tepasiga kelishidan oldingi davrini «qazoqlik davri» deb tavsif qilganlar

O‘zbek/o‘zbeklar –«Chingiznoma»dagi davr, ya’ni XIV-XV aserlarda o‘zbek nomi Sharqiy Dashti Qipchoqdagi mahalliy, turkiylashgan mo‘g‘ul qabilalariga nisbatan ishlatilgan, etnonim sifatida emas²³¹.

Barin/bahrin –manbalarda mazkur qabila nomi bayri, barim, baxrin, bagrin, baarin shaklida ham keladi. Turk-mo‘g‘ul bo‘lgan bu qabila butun Chig‘atoy ulusi bo‘yicha joylashgan edi. Bahrin eli Mo‘g‘uliston, Sharqiy Turkiston, Qozog‘iston va bugungi O‘zbekiston hududlarida yashagan²³².

Do‘rman –turk va mo‘g‘ul qabilalaridan, Chig‘atoy va Shaybon uluslarida yashaganlar.

²³¹Ахмедов Б. Государство кочевых узбеков. М 1965, С. 11-16.

²³²Тарихи Рашидий.// Ўз ФА ЎзФА ШИ. № В 648.-В. 395; Шах Махмуд Чурас. Хроника. Тарих. / Критический текст, перевод, комментарии и указатели О.Ф. Акимушкина. М., 1976. -Лл 74^а, 84^а; Юдин В.П. О родоплеменном составе могулов и Могулистана и Могулии и их этнических связях казакским и другими соседними народами // Изв. АН КазССР, ООН. 1965. Вып. 3. – С. 55. Яна: Чингизнома. - Б. 158. изоҳ 84.

Nayman –turk va mo‘g‘ul qabilalaridan, Chig‘atoy va Shaybon uluslarida yashaganlar.

Buyraq–turk va mo‘g‘ul qabilalaridan, Chig‘atoy va Shaybon uluslarida yashaganlar. Qo‘shinlari Shaybon yurishlarida qatnashgan²³³.

Qarluq–turk va mo‘g‘ul qabilalaridan, Chig‘atoy va Shaybon uluslarida yashaganlar. Qo‘shinlari Shaybon yurishlarida qatnashgan²³⁴.

Arg‘un - Temuriy Abu Sayyid (1451-1469) davrida Sirdaryo havzasidan Movarounnahr hududlariga ko‘chib kelgan qabila. Ularning qo‘shinlari Abu Sayyidga Hirotni bosib olishiga ko‘maklashganlar (862/1457-58). Keyingi davridagi temuriylar saltanatida arg‘un amirlari ham yuqori mavqelarga erishganlar va ularning nomlari, unvon va amallari “Muizz al-ansob”ining oxirlarida Abu Sayyid va Sulton Husayn Boyqaro amirlari qatorida keltirilgan²³⁵.

Mazkur mavzu bo‘yicha quyidagi xulosalarni berish mumkin:

- «Chingiznoma» Xorazm vohasida, xorazmlik muallif tomonidan yaratilgan va bizgacha qisman bo‘lsa-da, yetib kelgan ilk turkiy tarixiy asardir;
- «Chingiznoma» muallifi asarini yozishda asosan «Dasht og‘zaki istoriyagrafiyasi»dan keng foydalangan;
- «Chingiznoma» asarida O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan,

O‘zbekiston tarixiga oid ma’lumotlarni quyidagi guruhlarga bulish mumkin;

- 1) Shaybon va shayboniylar nasablari, ular o‘rtasidagi oilaviy munosabatlar;
- 2) o‘troq va ko‘chmanchi aholining davlat va ijtimoiy tuzumlariga doir ma’lumot;

²³³Чингизнома. Қўлёзма. ЎзФА ШИ №1552/Ү.38

²³⁴Ўша жойда, 38^б

²³⁵Мунд ал-ансаб/ Введение, перевод, факсимиле Парижского списка, комментарии и указатели Ш.Х. Вохидова Алматы: Дайк-Пресс, 2006.

- 3) O'rta Osiyoga kelib o'rtnashgan ko'chmanchi qabila va elatlarning tarixi, ularning yangi konfederatsiyalar tuzishdagi o'rni;
- 4) Jo'ji xonadoniga doir ma'lumot. Chig'atoy nasabi va shajarasiga oid materiallar;
- 5) Shayboniylarning Dashti Qipchoq va Oltin O'rda, shuningdek, yurish qilingan boshqa davlatlar bilan o'rnatilgan munosabatlari haqida aniq ma'lumotlar;
- 6) ko'chmanchilar hokimiyatining sakralizatsiya (muqaddas diniy marosimlar) masalalariga doir materiallar;
- 7) Yaso va Yusun, tuzuk, to'ra huquqining joriy qilinishi;
- 8) ko'chmanchilar an'anasiga asoslangan davlat ma'muriy apparati va boshqaruvining shakllanishi;
- 9) mo'g'ul qabilalarining turkiy aholi o'rtasidagi assimilyatsiya masalasiga doir ma'lumot;
- 10) Chingiziylar hokimiyatining bosib olingan hududlarida legitimatsiya masalalariga doir kuzatuvlar;
- 11). Chingiziylar va shayboniylar davrida joriy qilingan va amalda bo'lgan unvon hamda mansablar, ularning darajalari haqidagi ma'lumotlar;
- 12). Chingiz avlodlari davridagi harbiy tarixi, harbiy ishlar to'g'risidagi ma'lumotlar;
- 13). Manbaning matnshunoslik, tilshunoslik, tarixiy-jo'g'rofiy, terminologiya jihatdan o'rganilishi istiqbolli ilmiy yo'nalishni ta'minlaydi;

2. Abulg‘oziy Bahodirxonning «Shajarayi tarokima», “Shajarayi turk” asarlari va turkiy qavmlarning O‘rta Osiyo siyosiy-ijtimoiy hayotidagi o‘rni

Abulg‘ozixon qariyb 20 yil (1644-1664) Xorazmni idora qilgan hukmdor. Lekin akademik Bo‘riboy Ahmedovning xulosasi bilan aytganda, u «tarixda oliy hukmdor sifatida emas (tarixda jahonni titratgan ne-ne podshohlar o‘tmadi, lekin ulardan nom-nishon qolmagan), balki yirik olim sifatida tarixda nomi qoldi. Darhaqiqat, Abulg‘ozixon keng va chuqur ma‘lumotli kishi edi»²³⁶.

«Bu faqirga, - deb yozgan edi uning o‘zi, xudoy taollo inoyat qilib ko‘p nimarsa bergan turur. Xususan uch hunar bergan turur. Avval, sipohigarlikning qonuni va yo‘sunikim nechuk otlanmoq va yurumak va yovg‘a yosoq yasamoq, ko‘p birlan yuruganda nechuk qilmoq, oz birlan yuruganda nechuk qilmoq, do‘stg‘a dushmang‘a nechuk so‘zlashmaq. Ikkinchi, masnaviyyot va qasoid va g‘azaliyot va muqatta‘ot va ruboiyot va barcha ash‘orni fahmlamaklik, arabiy va forsiy va turkiy lug‘atlarning ma‘nosini bilmaklik. Uchinchi, Odam ahdindin to bu damg‘acha Arabistonda, Eron, Turonda va Mog‘ulistonda o‘tgan podshohlarning otlari, umrlarining va saltanatlarining kam yoki ziyodin bilmaklik»²³⁷.

Abulg‘ozixon 15 rabi‘al-avval 1012/12 avgust 1603 yil Urganchda olamga kelgan. Ramazon oyi 1074/mart 1664 yili vafot etgan. U Xiva xoni Arab Muhammadxon (hukmronligi 1602-1623)ning to‘rtinchi o‘g‘li edi. Lekin uning hayoti xonzodalarnikiday tinch-totuvlik, osudalik, yemak-ichmakdan mo‘l-ko‘l bo‘lib kechmadi. Abulg‘oziy olti yoshida onasidan (Mehribonu

²³⁶ Аҳмедов Б. *Тарихдан сабоқлар*. -Т.: «Ўқитувчи», 1994. - Б.217.

²³⁷ *Абулғозий. Шижаърайн турк (электрон нусхаси)*. В.8-9.

xonim; shayboniy Yodgorxon avlodi bo‘lmish Jong‘ozi sultonning qizi edi) yetim qoldi, 13 yoshida toju taxt uchun boshlangan o‘zaro kurashlar girdobiga tushdi. 1616 yili og‘alari Habash sulton bilan Elbars sulton nayman va uyg‘ur qabilalarining boshliqlariga tayanib (ularning onalari nayman qabilasiga mansub edi), otasiga qarshi isyon ko‘tardilar. O‘shanda Arab Muhammadxon, odatda ota-bola orasidagi muomalani andisha qilib, isyonkor o‘g‘illariga Vazir shahrini ham qo‘shib berdi. Oradan besh yil o‘tar-o‘tmas oralari yana buzilib, nizo urushga aylandi. 1621 yilda Toshli yormish qudug‘i yonida ikki orada bir tarafda Arab Muhammadxon to‘ng‘ich o‘g‘li Isfandiyor sulton va Abulg‘ozi sulton bilan, ikkinchi tomonda uning boshqa o‘g‘illari Habash sulton bilan Elbars sulton orasida urush bo‘ladi. Oqibatda Arab Muhammadxon, Isfandiyor sulton va Abulg‘ozi sultonlar mag‘lubiyatga uchradilar. Asir olingan xonning (Arab Muhammadxonning) ko‘zlariga mil tortildi va Xivaga olib keltirilib qamab qo‘yildi. Ko‘p o‘tmay, u shu yerda qatl etildi.

Urushdan keyin Abulg‘ozixon avval Kotga, so‘ngra Buxoroga, ashtarxoniylerden Imomqulixon (1611-1642) huzuriga qochib bordi. Arab Muhammadxonning boshqa o‘g‘illari: Isfandiyor sulton, Sharif Muhammad sulton va Xorazmshoh sulton Xazoraspga bordilar, uning mustahkam qal‘asi ichiga kirib yashirindilar. Habash bilan Elbars qirq kunlik qamaldan keyin og‘asi Isfandiyor, inilari Sharif Muhammad va Xorazmshoh sultonlar bilan yarashib, Isfandiyorga Makka ziyoratiga ketishga ijozat berdi, Sharif Muhammad sultonga Kotni in‘om qildi, O‘n ikki yoshli Xorazmshoh sulton bilan o‘n yoshli Afg‘on sultonni Xivaga jo‘natdi.

Lekin Isfandiyorxon Makkaga bormadi, u tuppa-to‘g‘ri Isfaxonga, shoh Abbos 1 (1587-1629) huzuriga bordi va uning yordami bilan 1623 yili Xiva taxtini egalladi. Abulg‘ozixon bundan xabar topib, o‘sha yiliyoq Xorazmga qaytib bordi. Isfandiyorxon unga Urganchni in‘om qildi. Lekin oradan to‘rt yil o‘tib, 1627 –yili xon bilan oralari buzilib Turkistonga Eshimxon (1629 yili vafot etgan) huzuriga qochib bordi. Ko‘p o‘tmay, uni Tursunxon

Toshkentga olib ketadi. U Toshkentda ikki yil istiqomat qildi va Tursunxonning o'limidan keyin, 1630 –yili yana Buxoroga, Imomqulixon huzuriga bordi. Lekin bu gal u Buxoroda ko'pga qolmadi. O'sha yili xondan norozi bo'lgan xivalik turkmanlarning chaqirig'i bilan yana Xorazmga qaytib bordi. Isfandiyorxon (o'sha vaqtda Hazoraspeda turardi) ikki oy davom etgan bordi-keldidan keyin unga Xivani topshirishga majbur bo'ldi. Oradan olti oy o'tgach, Isfandiyor uni o'sha vaqtlarda Eron podshosi tasarrufiga tushib qolgan Niso bilan Darunga (Ashxobod bilan Qizil arvot o'rtasida joylashgan manzilgoh) bosqin qilishda ayblab hibsga oldi va Eronga, shoh Safi I (1629-1642) huzuriga garovgon sifatida jo'natib yubordi.

Abulg'ozini Eronda qariyb 10 yil (1630-1639) maxsus nazoratchilar qo'l ostida Isfahonga yaqin joylashgan Taborak qal'asida yashadi. 1639 –yili yoz kunlaridan birida u tutqunlikdan qochib qutilishga muvaffaq bo'ladi. Ko'p mashaqqatlar chekib, ikki yarim yil deganda, 1642 –yili Orol o'zbeklari orasiga kelib tushadi. Orollik o'zbeklar 1643 –yili Abulg'ozini xon qilib ko'tardilar. Oradan bir yil o'tgach, 1644 –yili u ko'pchilik raqiblarini yengib, Xorazm taxtini egallashga muvaffaq bo'ldi.

Abulg'ozixon hammasi bo'lib yigirma yil atrofida xonlik taxtida o'tirdi. Lekin umri ko'proq urush-talashlarda o'tdi: 1646-1653 –yillari u Tajan, Bomi baurma (Kizil arvotning janubiy-sharqiy tarafida joylashgan manzilgoh), Atrok va Jurjon Turkmanlari bilan urush olib bordi, 1655-1662 yillari o'lkaga vaqti-vaqti bilan bosqin qilib turgan yoyiq (Ural) lik o'ris qozoqlari, qalmiqlar va qozoq ko'chmanchilari bilan kurash olib bordi, 1663-1664 yillari bir necha marta Buxoro ustiga yurish qiladi.

1664 –yili Abulg'ozixon og'ir dardga chalinib yotib, toju taxtni esa o'g'li Anushaxon (1664-1674) ga topshirdi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, 1664 –yilning aprel oyida u dunyodan o'tdi. Abulg'ozini hammasi bo'lib 60 yil-u yetti oy umr ko'rgan.

Abulg'ozixonidan ikki tarixiy asar qolgan, Biri «Shajarayi tarokima» (1658-1661 yillar orasida yozilgan deb taxmin qilinadi)

deb atalib, turkiy qabilalarning, xususan, turkman qabilalarining kelib chiqishi haqida qimmatli ma'lumot beradi. Asarda barcha turkiylarning afsonaviy podshosi O'guzxon va uning avlodi tarixi, shuningdek, turkman urug'lari (solur, bayondur, taka, yovmut, tevachi, Xizr eli, sariq, Ali eli, yozir, ersori va boshqalar) ning kelib chiqishi qisqa tarzda bayon etilgan. «Shajarayi tarokima», Abulg'ozixonning o'z so'zlariga qaraganda, turkman mullalari, shayxlari va beklarining iltimosi bilan yozilgan. Ushbu asarning tanqidiy matni, ruscha tarjimasi, katta ilmiy tadqiqot bilan birga, 1958 –yili A.N.Kononov (1906-1986) tarafidan Sankt-Peterburgda chop etilgan²³⁸. Mazkur asardan dunyo xazinalarida bizga yettita nusxasi ma'lum. Ulardan ikkitasi Rossiyada²³⁹ va qolgan beshta nusxasi Toshkentdagi Aburayhon Beruniy nomidagi SHI saqlanadi. Ular turli vaqtlarda ko'chirilgan bo'lib, faqat ikkitasida kotiblarning nomi yozilgan. Bulardan biri Mirzo Amon ibn Ison Xuzoriy bo'lib, nusxani rajab oyi 1341 –yili 17 –fevral – 19 –mart 1923 –yili Buxoroda ko'chirgan (nusxa raqami 1223). Ikkinchi kotib Muhammadsharifxo'ja Muhammado'g'li Mullo Boqijon Rahmon o'g'li iltimosi bilan rabi al-avval 1344/19 –sentabr – 19 –oktabr 1925 –yili ko'chirgani ma'lum bo'ladi (№ 1807)²⁴⁰.

²³⁸ Самойлович А.Н. Одни из списков «Родословного древа туркменского» Абулгази-хана // ДАН-В. 1927. — С. 39-42; Кононов Л. П. Родословный туркмен, сочинение Абу-л-Гази хана хивинского. -М.-Л., 1958. С. 20-27; Собрание, 1, 72, №171; Каль Е. Персидские, арабские и тюркские рукописи Туркестанской Публичной библиотеки. Т., 1889. - С. 52- № 801. (з); Туманский А.Г. Абул-Гази-Бохадур-хан, Родословная туркмен, Ашхабад, 1897 (по ташкентской рукописи). Шажрайи Тарокима. Истанбул. 1937; Кононов А.Н. Родословная туркмен. (текст, перевод, комментарии и последование). М. - Л., 1958. Самойлович А.Н. По поводу издания Н. П. Остроумовим «Светоч ислама // ЗВОРАО. XVIII. - С. 2-4; Бартолд В.В. Очерк истории туркменского народа. // Туркменья. Л., 1929.- С. 36. - Сочинения. Т. II. Ч.1. - С. 584-594; МИТТ. II. - С. 28-38

²³⁹ Россиядаги нухалари тавсифига қаранг: Дмитриева Л.В., Муғинов А.М., Муратов С.Н. Описание творческих рукописей Института Народов Азии. I. История. / Род ред. А.Н.Кононова. -МОСКВА: Наука, 1965. - С. 92-94.

²⁴⁰ Собрание восточных Рукописей АН Республики Узбекистан (СВР). История Составители: Д.Үи. Юсупова, Р.П. Джалилова. -Тошкент: Фан, 1988. - С, 152-154.

Abulg'ozixonning ikkinchi asari «Shajarayi turk» nomi bilan mashhur. Mazkur asarning asosiy qismi 1663-1664 yillarda yozilgan. Unda Xorazm XVI-XVII asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy tarixi bayon etiladi²⁴¹.

«Shajarayi turk»ning yozilish sabablari haqida muallifning o'zi bunday deydi: «Ammo bizning ota-oqalarimizning beparvolig'i va Xorazm xalqining bevuqflig'i, bu ikki sababdin, bizning jamoatimizning Abdullohxonning (Shayboniy Abdullaxon II; 1583-1598 yillari Buxoro xoni) otalari (Abulxayrxon: 1528-1568 yillar) birlan bizning otalarimizning (shayboniy Yodgorxon; XV asr) ayrilgan yeridin to bizga kelguncha tarixlarini bitmay erdilar. Bu tarixni bir kishiga taklif qilali deb fikr qilduq, hech munosib kishi topmaduq, zarur bo'ldi [va] ul sababdin o'zimiz aytduq»²⁴².

Asar qisqa muqaddima va to'qqiz bobdan iborat: 1) Odam Atodan to turklarning qadimgi xonlaridan Mo'g'ulxongacha kechgan hodisalar zikri; 2) Mo'g'ulxondan Chingizxongacha bo'lgan tarix; 3) Chingizxonning tug'ilganidan to vafotigacha bo'lgan tarixi; 4) Chingizxonning uchinchi o'g'li Ugadoy qoon va avlodi; shuningdek, Chingizxonning boshqa o'g'illari naslidin

²⁴¹Абулғозийнинг ушбу асаридан 11 нусхаси Тошкентда (Ўз ФА ШИ) ва олти нусхаси Санкт-Петербургда сақланади. Қаралсин: СВР. История. С 154-155; Ахмедов Б. Историко-географическая литература - С. 72-78; Шу муаллиф. Тарихдан сабоқлар. - Б. 217-223; Дмитриева Л.В., Мугинов А.М., Муратов С.Н. Описание тюркских рукописей Института Народов Азии. I. История. С. 93-94; Яна қаранг: Лекции И.Н. Березина, записанные студентом В. Игнатъевым в 1866 г., 4-я лекция. / Архив востоковедов ЛО ИНА АН СССР, разряд III, описм I. - № 31. В «Ученых записках ИВ АН СССР». VI, 1953 - С. 41 ва кейингилари (№29); Пертсч W. Die Handschriften-Verzeichnisse der königlichen Bibliothek zu Berlin, Bd. VI. Verzeichniss der türkischen Handschriften, Berlin, 1889. В. 228 NN204; Rieu Ch. Catalogue of the Turkish Manuscripts in the British Muzeum. London. 1888. 282a; Blochet E Catalogue des manuscrits turcs de la bibliothèque Nationale de Paris, T. I. Paris, 1932. 232 №141; Tarjimalari: Desmaisons P. Aboul-Ghazi Bêhadour-Khan. Histoire de Mogols et de Tatares St-Pbg. I, 1871 (матни). II. 1874 (таржима); Абулгази Шаджарайи турк. Перевод Тредьяковского. (Казань) 1770; Родословное древо тюрков. Сочинение Абул-Гази хана хивинского. Перевод и предисловие Г.С. Саблукова. Казань, 1906, Ўзбек тилидаги наишлари:

²⁴²Абулғозий. Шаджарайи турк. Т., «Чўлпон», 1992. – Б.9.

bo'lgan va Mo'g'ulistonda podsholik qilganlar zikri; 5) Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoyxon avlodidan Movarounnahr va Koshg'arda podsholik qilgan xonlarning zikri; 6) Chingizxonning kenja o'g'li Tuluyxon avlodidan Eronda podsholik qilganlar (ular tarixda elxoniyalar deb ataladi; 1256-1336 yillari hukmronlik qilganlar) zikri; 7) Chingizxonning ulug' o'g'li Jo'jixon avlodidan Dashti Qipchoqda podshoh bo'lganlar zikri; 8) Jo'jixonning beshinchi o'g'li Shaybon (XIII asr) avlodidan Movarounnahr, Qrim, Qozoq va Turonda xonlik qilganlar, shuningdek, Jo'jixonning o'n uchinchi o'g'li Tuqay Temurxon naslidan Qrim, Qozoq va Movarounnahrda podshohlik qilganlar zikri; 9) Shaybon avlodidan Xorazm mamlakatida podshohlik qilganlar zikri.

Abulg'ozixon asarning 7, 8 va 9-boblarining bir qismini (1644 yilgacha kechgan voqealar tarixini) yozib ulgurgan xolos. 1-6-boblar va 9-bobning davomi (1644-1664 yil voqealari) Anushaxonning topshirig'i bilan Mahmud ibn mulla Muhammad Urganjiy degan olim tarafidan yozilgan. Bu haqda asarda mana bunday qayd bor: «Ma'lum bo'lsinkim, Abulg'ozixoni jannat makon bu kitobni tasnif qilib yarmiga yetkanda xasta bo'ldilar, O'g'illariga vasiyat qilib tururlarkim, bu kitobni notamom qo'ymang, itmomiga sa'y qiling. Ul sababdin Abulmuzaffar va d-mansur Anushaxon ibn Abulg'ozixon marhum va mag'furiy, bu bandayi bebizoat va kaminayb benstitoat Mahmudiy ibn mulla Muhammad Zamoni Urganjiy bo'lg'ayman, «bu kitobni itmomiga yetkur», deb hukm qildilar»²⁴³. Endi bu hukm qachon bajarilganini aniqlasak. Bunda bizga asarning xotimasiga ilova qilgan Mahmud ibn Muhammad Zamonning izohlari yordam beradi. Birinchisi shuki, Mahmud Urganjiy asarni davom ettirishga kirishar ekan, unda Anushaxon ibn Abulg'oziyini «marhum va magfur», ya'ni olamdan o'tgan shaxs sifatida tilga olgan. Bas, Mahmud Urganjiy

²⁴³ *Абулғозий. Шажарайн турк. Т., «Чўлтон», 1992. – Б.173 (қўлёзма 185) Яна қаранг: Дмитриева Л.В., Муғинов А.М., Муратов С.Н. Описание тюркских рукописей института Народов Азии. I. История. / Род ред. А.Н. Кононова, МОСКВА: Наука, 1965. - С. 94.*

buyruq bergan xonning vafotidan so'ng asarni davom ettirishga kirishgan. Ikkinchi izoh esa asarning yozib tugatilishi sanasini aniqlaydi. To'qqizinchi bobdagi «Avaneshxonning podshohliqining zikri» nomli kichik bobdan keyin keluvchi qism matnida aks topgan. Uni Mahmud Urganjiy hijriy 1116/1704-05 yili Xorazmda bosh xon bo'lib turgan «oliysha'n Muso Muhammadxon» buyrug'i bilan kitobga kiritgan. Muso Muhammadxon esa Shohg'oziy ibn Avazg'oziy ibn Sultong'oziy ibn Elbarsxonning o'g'li bo'lgan. Uning nasabiga kelsak, Abulg'oziy quyidagi ma'lumotlarni beradi. Dashti qipchoqlik Elbarsxon 1512-1513 yillari Xorazmdan safaviylarning noiblari va qo'shinlarini haydab, xon ko'tariladi va qarindoshlaridan amakilarini ham da'vat etib, ularga mamlakat tumanlarini idora etish uchun beradi. Oradan ancha vaqt o'tgach, 1532 –yili arzimagan narsa uchun Elbarsxon avlodlari bilan uning amakivachchasi Avanesh sulton va avlod-urug'lari o'rtasida qirg'in-barot urushlar bo'ladi. Oqibatda Elbarsning farzandlari mag'lubbo'lib, barchalari Buxoro, Samarqand va Toshkentga qarindosh shayboniylar huzuriga ketishga majbur bo'ladilar. Ulardan sulton G'oziy ibn Elbars Buxoro xoni Ubaydullohxon ko'magida Xorazmni qisqa vaqtga qaytarib olishidan ham natija chiqmaydi. Bular haqida Abulg'oziy mufassal ma'lumot beradi. Shunday ekan «Shajarayi turk» hijriy 1116/1704-05 yili Muso Muhammadxon hukmronligi davrida uning buyrug'i bilan ham o'z nihoyasiga yetgan ekan.

Asar Abulg'ozixonidan avval yozilgan birmuncha tarixiy kitoblar (umumiy soni 18)ga asoslangan. Bundan tashqari, asarning qo'lyozmasini tayyorlashda (8,9-boblari) muallif o'zi bilan va so'rab-surishtirib to'plagan ma'lumotlaridan ham keng foydalangan.

«Shajarayi turk» tarixning turli masalalariga (ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, etnik va x.) oid e'tiborga molik, ma'lumotlarga boy asardir. Biz misol tariqasida ulardan ayrimlarini qayd etib o'tamiz.

Tarixiy ma'lumotlar ichida Shaybon ulusi va uning sarhadlari, XV asrning so'nggi choragi XVI asr boshlaridagi umumiy ahvoli, Sibir xonligi, Xorazmning XVI-XVII asrning birinchi yarmidagi

ijtimoiy-siyosiy ahvoli, uning Rusiya, Qozoq hamda Buxoro xonliklari bilan bo'lgan o'zaro munosabatlari haqidagi ma'lumotlar diqqatga sazovordir. Masalan, Shaybon ulusining sarhadlari va tashkil topgan vaqti haqida asarda - bunday deyilgan: «Ul (Botuxon) bu safarda (1236-1240 yillari Mojoy, Boshg'ird, Rus va Kuril yerlariga qilingan harbiy yurishi) ishimni bitirgan sen bo'lding» tedi. Tag'i Shaybonxonga juldu teb o'n besh ming evlik el berdi... ul safarda olg'an o'lja viloyatlardan Kuril (asli Kelar) yurtini berdi. Bayri elindan qo'shga va naymam va qorliq va buyrakni, (ya'ni) bu to'rt uruq elni berdi. Tag'i aydiki, «o'lturur yurtung akam (O'rda) Ichan birlan mening oramizda bo'lsun. Yoz yozina Irg'iz va Ur va Ila (daryolaridan) to Urol tog'igacha, Yoyiqning (Urol daryosining) kun tug'ish tarafini yaylag'il. Qish bo'lg'anda Oraqum, Qoraqum va Sir suvining bo'yini, Chu suvining, Sari (Sariq) suvining oyoqina qishlag'il, tedi»²⁴⁴.

Ma'lumki, XV asrning 20-yillarida tashkil topgan, Si-bir xonligi nomi bilan mashhur bo'lgan va G'arbiy Sibir ustidan hukm yurgizgan feodal davlat tepasida ham o'sha Shaybon naslidan bo'lgan xonlar turgan. Ularning so'nggi xonlaridan Ko'chumxon (1563-1598) haqida asarda quyidagilarni o'qish mumkin «...Mahmudakxoni mazkurning bir o'g'li Murtazon, aning o'g'li Ko'chumxon... Bu Ko'chumxon Turo viloyatida qirq yil podshohlik qildi. Uzun yosh tobd. Axir ikki ko'zi nobino bo'ldi. Tarix 1003/1595 –yilda Ko'chumxonning qo'lindin Turoni o'ris oldi. Qo'chumxon qochib mang'it xalqining ichiga bordi. Taqi haq rahmatig'a ketdi»²⁴⁵.

Asarda rus xalqi va Rusiya bilan munosabatlar haqida ham qisqa, lekin e'tiborga molik ma'lumotlar keltirilgan. Mana ulardan ba'zilari: «(Arab Muhammad) xon bo'lg'andin (1602 –yili) olti oydin so'ng Qo'sh yoyiq tegandi yurugan o'rusning qozoqindin ming kishi saratonning avvalgi kuni g'ofil kelib, Urganchning qal'asina kirdi. Shaharda ra'iyatdin o'zga kishi yo'q edi. Xonning

²⁴⁴ *Абулғозий. Шажаарайи турк.Т. «Чўлпон», 1992. - Б. 106 (кўлёзма 105^а).*

²⁴⁵ *Ўша асар. –Б. 96.*

urdusi va sipohxalqi Amu suvining labinda erdilar... [Urus qozoqi] Urganchda ra'iyatdin ming kishini o'lturdi va ming qiz birlan juvonna oldi. Ming arabag'a yaxshi mollardin yukladi. Bo'z va buyog'li va palos va to'n va to'shak- yastuq mundag' nimarsalarning barchasini o'tga yoqdi. Bularni saranjom qilguncha yetti kun bo'ldi. Andin so'ng Urganchdin chiqib daryo labiga yurudu..." Va yana: "Biz dunyoga kelgan yilining avval bahorida o'n yetti kishi Urusg'a savdoga ketar. Qo'sh yoyiq teganda ming qozoq o'rus bor erkanda. Yo'lda anga uchray qolur, [alardin] ikkisini o'lturur, saqlagan kishilardin Urganchning xabarin so'rar..."²⁴⁶

Asarda keltirilgan etnografik, ya'ni turk-mo'g'ul qabilalari, xususan, ular nomlarining ma'nosi haqidagi ma'lumotlar, o'zbeklar, sartlar hamda turkman urug'lari (sariq, yovmut, qizil ayoq, ersari va hak...) haqidagi ma'lumotlar ham o'ta muhimdir. Jumladan, u turkiy qabilalarga kiruvchi va turk nomibilan ataluvchi qabilalar quyidagi katta 5 avlod (bo'g'in)ni tashkil qiladi degan. Bular: uyg'ur, kang'li/kangli, qipchoq, qalach, qarluq qabilalari. So'ngra u boshqa turkiy qabila va urug'lar haqida to'xtab o'tadi: 1. Tekrin yoki mekrin. 2. Qirg'izlar. 3. Kem-kemchutlar. 4. O'rmonkat. 5. Nukuzlar. 6. Tatarlar. 7. Oyrat/uyrat. 8. To'rg'ovut. 9. Qo'ri. 10. To'las. 11. Bulg'ochin. 12. Kermuchin. 13. Tulengut. 14. O'rasut. 15. Kusutmay. 16. Nayman. 17. Kerayit. 18. O'ngut. 19. Turg'oq. Ajoyibi shundaki, Abulg'oziy bu etnonimlarning ba'zilarini etimologiyasi bilan beradi²⁴⁷.

Abulg'oziy Bahodirxon o'z kitobida mo'g'ullarni ikki katta bo'lakka bo'ladi. Biri qiyon/qiyot (nirun), ikkinchisi nuguz/nukuz (darlikin). Bulardan tashqari, mo'g'ullardan 25 ta urug' va qabilalarini tilga oladiki, ulardan barisi o'zbek xalqining etnik tarkibiga kirgan²⁴⁸. «Asl lafzi mo'g'ul (mo'gul) turur. Avomning tili kelmaslikidin bora-bora mo'g'ul tedilar. Mungning ma'nosin barcha

²⁴⁶ *Абулғозий. Шажарайи турк. Т. «Чултон», 1992. – Б. 160.*

²⁴⁷ *Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. -Т. «Фан», 1968. – В.32 ва кейингилари.*

turk bilurlar: qayg‘u ma’nosina turur. Ulning ma’nosi sodadil, ya’ni qayg‘uli soda temak bo‘lur»; «Qipchoq - Tan (Don) va Itil (Volga) va Yoyiq (Ural), bu aytilg‘an suvlarning orasinda o‘lturlar»; «Qiniqli turkman birlan birga o‘lturur erdilar. Turkman viloyatg‘a tushgandin so‘ng Issiqko‘l va Chu va Talosh; bu aytilg‘an suvlarning yoqalarinda vatan qilib, ko‘p yillar o‘lturdilar, Urganch podshohlarindin Takeshxon (1172-1200 yillari hukmronlik qilgan) qiniqlining bir o‘g‘lining qizin oldi. Turkan otliq. Sulton Muhammad Xorazmshoh (1200-1220 yillari hukm surgan) ul qizdin tug‘di». So‘nggi misol: «To‘qtoq‘uxon (1290-1312 yillari hukmronlik qilgan Oltin O‘rda xoni), o‘lgandin so‘ng o‘n uch yoshinda O‘zbekxon (1312-1342) xon bo‘ldi. Taqi elni otabobosining dasturi birlan zabt qildi. Har kimning martabasini loyiq hurmat qilib, in’omlar berdi. El-ulusni dini islomg‘a kirguzdi... Andin so‘ng Jo‘ji elini o‘zbek eli tedilar»²⁴⁹.

O‘zbeklarning urug‘ va qabilalariga tegishli ma’lumotlardan asarda keltirilgan urug‘ va qabilalar nomi juda muhim. Bular: Orlot/arlat, og‘or, olayunotli, o‘qli, aymoq, boshqird, bayot, tot, totar, temirli, turumchi, turk, turkman, taka, turbotli, tevachi, jobi, jomachi, cho‘bichoq, cho‘boni, chig‘atoy, cho‘ni, xizr eli, xurosonli, xalaj, dukar, soiq, solur, surxi/surqi, soqar, saljuq, sultonli, savroqi, sovchili, qo‘rg‘oli, qo‘rqin, qorliq, qipchoq, qoratoshli, qalmoq, qirg‘iz, chiroyli, qutlar, lola, mo‘g‘ul, mang‘it, nayman, mo‘ndi, yozir, yag‘mo, yovmut, yurti va b²⁵⁰.

O‘lkaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga oid ma’lumotlar asarda Xorazmning o‘sha zamonlarda ham obod bo‘lganligi, Amudaryo o‘zanining o‘zgargan vaqti va uning oqibatlarini haqidagi ma’lumotlar ham qimmatlidir. Bu xususida ham bir-ikki misol keltirish mumkin:

²⁴⁸ Булар: меркит, қўнғирот, қоранут, қурлос, элчигин, урмовут/уймовут, қўникмар, арлот, келкит, бодай/бадай, қилик, уйшун, сулдус/сулдуз, элдуркин/илдуркин, кенкит, дўрбан/дўрман, барин/бахрин, сукут, қурловут, бурқут, уклан/ ўқлан, журут, рожарот, бойвут, жалойир.

²⁴⁹ Абулғозий. Шажарайи турк. Т. «Чўлпон», 1992. – Б. 102.

²⁵⁰ Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари - Б. 35.

«Ul vaqtda (So‘fiyonxon zamonida) Urganchdin Abulxon (Kaspiy dengizining sharqiy tarafida, Hozirgi Krasnovodsk qo‘ltig‘ining janubi-sharqiy tarafida joylashgan tog‘li nohiya) bormoq bu ovuldin ul ovulg‘a borg‘ontek erdi.

Aning uchun Amu suvi Urganch qal‘asining tubidan o‘tib, Abulxon tog‘ining kun tug‘ishina borib, tog‘ning tubina tegib, qibla tarafindin o‘g‘rulub kun botishiga borib, andin o‘tub O‘g‘urcha (Amudaryoning quyi qismida, uning janubiy irmog‘i Ajoyba suvining Kaspiy dengiziga quyiladigan yerda joylashgan manzil) borib Mozandaron (Kaspiy dengizining o‘rta asrlardagi nomlaridan biri) tengizina quyari edi. Tag‘i ulkim, Amudaryoning ikki tarafi to O‘g‘urcha borguncha, ekinlik va yuzum bogi va daraxiston erdi. Baland yerlarga chig‘ir qururlar erdi. Molli xalq ko‘kovun va chibin vaqtida bir-ikki manzil yiroqroq quduqlarga ko‘tarlar erdi. Chibin yotqondin so‘ng suvning yaqasiga kelurlar erdi. Obodonlik va ma‘murlikning hech nihoyati yo‘q erdi»²⁵¹. Va yana: «Aning (Aminakxonning o‘g‘li Kolxonning) zamonida Urganch obodon va xalq tinch bo‘ldi. Benihoyat arzonlik bo‘ldi... Bir pulga bir non bo‘ldi tedilar»²⁵². Yana bir misol: «Kema o‘sha vaqtda (Avaneshxon davrida) Urganch birlan Vazirning orasindin yurur erdi»²⁵³.

Yana shu ham diqqatga sazovorki, o‘sha zamonlarda Xorazmda, boshqa ekinlar bilan bir qatorda, bug‘doy ham ko‘p ekilar, shuning uchun ham non arzon edi. Bir misol keltirish mumkin: «Ulvaqtda (Arab Muhammadxon davrida) Mizdaxkandin to Boqirg‘onning bori yuzi Quyg‘un degan yergacha bug‘doy ekilar erdi. Bizning xon Tuq qal‘asining yuqorisidin bir ariq qazdurub tururlar. Faqir dunyoga kelmasdin bir yil burun (1602 –yili) mezon bo‘lg‘anda saqasini ko‘marlar edi. Bug‘doyni o‘rgan vaqtda ocharlar erdi. Bir necha yildin so‘ng ariqning kengligi otgan o‘q o‘tmasday bo‘ldi. Suvning oyoqi Quyg‘un bordi. Andin Achi tengizina (Achchik dengiz) bordi. Yolg‘uz bug‘doy ekilur erdi. Otl

²⁵¹ *Абулғозий. Шажарайи турк. Т. «Чўлпон», 1992. – Б. 119.*

²⁵² *Ўша асар. - Б. 130.*

²⁵³ *Ўша асар. - Б. 127.*

kishi o'n kunda bug'doyning toshindin aylanib kela bilmas erdi. Ul vaqtda pal-puchak yarim misqol kumush bir tanga yerina yurur erdi. Bir tangaga yarim teva (tuya) yuki bug'doy berurlar erdi. Bir misqol kumushga bir xarvor (bir eshak yuki) bug'doy berurlar erdi»²⁵⁴.

Yuqorida keltirilgan misoldan Amudaryo qadim-qadim zamonlardan Kaspiy dengiziga borib quyilishi ma'lum bo'ladi. Lekin keyinchalik daryo o'zanini o'zgartirib, Sariqamish pastligiga quyiladigan bo'ldi. Bu voqea sodir bo'lgan vaqt «Shajarayi turk»da aniq ko'rsatilgan. «Biz dunyoga kelmasdan o'ttiz yil ilgari (ya'ni 1573 –yili M.E.), deb yozadi Abulg'ozixon, Amu suvi Xos minorasining yuqorisi, uni Qora ayg'ir to'qayi derlar, ul yerdin yo'l yasab oqib, Tuq qal'asina borib, Sir tengizina quyg'on erkandur. Ul sababdin Urganch cho'l bo'lubti»²⁵⁵. Bundan boshqa yana ko'p misollar keltirish mumkin.

Qisqasi, «Shajarayi turk» Xorazmning uzoq o'tmishdagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga oid yana juda ko'p ma'lumot beradi. Shu sababdan uni Xorazm tarixiga oid qimmatli yozma manbalar qatoriga qo'shish lozim»²⁵⁶.

Xulosa sifatida quyidagilarni qayd qilish mumkin:

- Xorazm vohasida «Shayboniynoma» janridagi asarlar XVI asrdan paydo bo'lgan. Uning birinchi namunasi O'tamish hojining «Chingiznoma» asari sanaladi.
- Bu sulola namoyandalari hokimiyatni qo'lga olgach, uni qonuniylashtirish uchun legitimatsiyaning turli vositalaridan foydalana boshladilar.
- Xorazm tarixnavisligi maktabining asoschisi tomma'noda Abulg'oziy Bahodirxon hisoblanadi. Uning asarlarida dasht og'zaki istoriografiyasidan keng foydalanilgan.
- Shu bilan birga, Abulg'oziy o'z asarlarida fors istoriografiyasi va musulmon tarixnavisligi an'analaridan foydalana olgan.

²⁵⁴ *Абулғозий Баҳодирхон. Шаҷарайитурк. Т. «Чўлпон», 1992. – Б. 155.*

²⁵⁵ *Ўша асар.- Б. 160.*

²⁵⁶ *Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. Т. «Ўқитувчи», 1994. – Б. 223.*

- Abulgʻoziy Xorazm vohasida turkiy (chigʻatoy) tilida islom tarixnavisligi fazosida (doirasida) turkiy xalqlarning paydo boʻlishlari, ularning islomlashuvi jarayonlari va zamonasida dolzarblik ahamiyat kasb etgan koʻp mavzu va muammolarga ahamiyat bergan.

IV bob. XIVA SOLNOMALARIDA OʻZBEK DAVLATCHILIK TARIXINING OʻZIGA XOS XUSUSIYATLARI

1. Xiva xonligining idora qilish tamoyillari

Moʻgʻullar davrida boʻlib tashlangan, Temuriylar davrida goh Samarqand, goho Xurosonga boʻysungan Xorazm Shayboniyxon

(1505 y) va Ismoil Safaviy (1510 y) bosqiniga duch kelib, Shayboniyxon vafotidan so'ng tez orada ozodlik uchun kurashni boshladi²⁵⁷.

Xorazm vohasi va uning atroflaridagi hududlarda xalq ozodlik harakati 1511 –yilda boshlandi. Vazir shahri ulamolari qozi Xo'ja Umar boshchiligida madad so'rab Boqirg'onda bo'lgan Sayyid ato avlodidan Hisomuddin Qittolga murojaat qilib, uni Xorazmga kelib taxtni egallashini so'radilar. Lekin u Berke sulton o'g'li Elbarsxonni Xorazmga yuboradi²⁵⁸. O'zbeklarning shaharga yaqinlashib kelayotgandan xabar topgan aholi kechasi qizilboshlarni Ismoil Safaviyning gumashtasi dorug'a Rahmonqulibek boshchiligida o'ldira boshladilar. G'alaba haqida Abulg'ozzi shunday yozadi: «Ulug' to'y qilib, o'zbek va sart barchasi yigilib ittifoq bilan tarix to'qqiz yuz o'n birda va qo'y yilinda Elbarsxonni xon ko'tardilar»²⁵⁹. Vazirga qaram Yangi shaharga Bilbars, Tirsakka esa yana bir o'zbek hokim etib tayinlandi. Elbars va Bilbars Jo'jining beshinchi o'g'li Shaybonning vorisi Arabshoh avlodlaridan bo'lganligi bois ularning xonlik sulolasi Arabshohlar deb ham nom olgan.

O'zbek xonligi tashkil etilib, oradan uch oy o'tgach, Elbars Urganchni egallash maqsadida qo'shin tortib keldi. Shahardan yarim farsax masofada bo'lgan jangda Elbarsxonning qo'li ustun kelib, hokim Subhonquli boshliq qizilboshlar va ularning ittifoqchilari yengildi. Urganchni egallagan Elbarsxon Dashtda qolgan Yodgorxon o'g'lonlariga chopar jo'natdi. Oradan sal vaqt o'tib, Abulakxonning bir o'g'li va Aminakxonning olti o'gli eldoshlari bilan birga Xorazmga keldilar. Ularning kuchiga tayangan

²⁵⁷Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари. -Т.:«Фан», 1960.В. 6

²⁵⁸Ҳасан Мурод Муҳаммад Амин ўгли. Элбарсxonни Хоразм келиб хон бўлмоқ сабаблари. // Қўлғезма. ЎЗФА ШИ. - №12581. 24^o.

²⁵⁹Абулғози. Шажарайи турк. -Т.: «Чулпон». - Б. 121. Бу сулоланинг насаби ҳақида қаралсин: Абд ал-Кадир ибн Муҳаммад-Амин. Маджмаъ ал-ансаб ва-л-ашиджар. Введение, перевод с арабского-персидского и тюркского, текст, факсимиле автографа, комментарии и указатели Ш. Х. Вохидова, А. М. Муминова, Б. Аминова. - Алматы: Дайк-Пресс, 2005. - С. 190.

Elbarsxon qisqa muddatda Xiva, Hazorasp, Katni oldi. Kelajakda inisi Bilbars lashkarlari ko'magida Elbarsxon Xurosonning Mahnacha va Durun degan yerlari hamda turkmanlarning Abulxon va Mang'ishloqhududlariga tez-tez bosqinchilik yurishlari qilib turdi. Shunday qilib, Elbarsxon davrida davlatning siyosiy geografiyasi shakllanib, janubda Saraxs, Shimolda Orol, g'arbda Kasbiy, sharqda Buxoro xonliklari bilan chegaradosh bo'ldi²⁶⁰.

Elbarsxonning 1516 yilda ro'y bergan vafotidan keyin farzandlari o'rtasida taxt va mansab uchun kurash boshlandi. Bu davrda Yodgorxonning nabiralari orasida Berkening o'g'li Sultonhojidan yoshi ulug'i yo'q edi. Shu bois uni Vazirga keltirib, xon qilib ko'tardilar. Sultonhojining qo'shini oz bo'lib atrofda dushmanlariga qaqshatqich zarba bera olmadi. Uning vafotidan keyin esa taxtga Abulakxon o'g'li Hasanquli ko'tarildi. Endilikda yangi xon taxti Vazirda emas, balki Urganchda joylashgandi. Shu davrga qadar Urganchda ark bo'lmagan. Eshsulton degan amaldor shahar arkini qurdirgan.

Oradan biroz vaqt o'tgach, barcha o'zbek sultonlari Urganchga hujum uyushtirib, qamal qildilar. «Urganch ulug' shahar, - deb yozgandi Abulg'ozii. Tez-o'q qahatlik bo'la qoldi. Bir eshakning kallasi qirk-ellik tanga bo'ldi, topilmadi»²⁶¹. O'ta og'ir muhtojlikni boshidan kechirgan Urganch aholisi 4 oy davomidagi qamaldan so'ng taslim bo'ldi. Shahar olingach, Xasanquli va uning katta o'g'li Bilol Sulton o'ldirildi.

Urganchda So'fiyon xon deb e'lon qilindi²⁶². Vazir, Yangishahar, Tirsak, Xuroson, Durun, Mang'ishloq turkmanlarining ko'pgina ovullarini boshqarish Sultong'ozii boshliq Berke sulton nabiralari topshirildi. Amudaryoga yaqin Xiva, Hazorasp, Kat, Bo'ldumsoz va Ingichka, Kopettog' yon bag'ridagi Bog'obod,

²⁶⁰ *Абулгази. Техте - Р. 225-227. Саблуков таржимасида. - Б. 195 ва кейингилари.*

²⁶¹ *Абулғозий. Шажарайи турк. -Т.: «Чўлпон» - В.125.*

²⁶² *Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол // МИТТ. Т. ИЛ С. 324-325; Бартолд В.В. Сведения об Аралском море и низовьях Амударьи с древнейших времен до XVII века. // Сочинения, т.III. 1965-С, 15-94.*

Nisoy, Obivard, Chahordeh, Mahna, Chacha aholisi hamda daryo irmoqlari bo'yida o'tirgan Abulxon va Dehistondagi turkmanlar Aminakxonning to'rt o'g'li tomonidan bo'lib olindi. Barcha amaldorlar xon topshirig'i bilan soliq yig'ishi va poytaxtga yuborib turishi lozim edi.

Xorazmda vatan tutgan o'zbeklar hukmdorlari bilan turkmanlar orasidagi munosabatlar asta-sekin keskinlashib bordi. Ayniqsa, esari, adaqli, xizr eli, tevachi kabi turkman urug'lari oqsoqollari elati gardaniga yuklangan soliqlardan norozi edilar. Sababi katta-kichik elatlarga soliq to'plash uchun yuborilayotgan amaldorlarning soni 40 dan oshib, ularning xarxashasi haddan tashqari ko'payib ketdi. Soliq yig'uvchilarning o'ldirilgani haqidagi xabar So'fiyonning to'rt inisi bilan turkmanlar ustiga qo'shin tortishiga turtki bo'ldi. Ersari elatiga yetib kelgan So'fiyon qo'shinlari aholining katta-yu-kichigini ayamadan qira boshladi. O'ldirilgan 40 o'zbeklar xuni uchun turkmanlarga 40 ming qo'y o'lpon to'lash majburiyati yuklandi²⁶³.

1522 –yilda So'fiyonxon vafot qilgach, Urganchdagi xon taxtiga Buchg'axonni keltirib o'tqazdilar. Uning davrida Buxoro xonligi lashkarlarining Eron hududlariga ko'plab yurish qilganligi sababli Eron shohi Tahmosp Buchg'axon bilan yaqin qarindosh tutinish uchun uning akasi So'fiyonning Oyshabegi ismli bo'yyiyetgan qiziga uylandi. Bu Eron va Xorazm o'rtasidagi munosabatni yaxshiladi²⁶⁴.

Buchg'axon 1526-yilda vafot etgach, Urganch taxti Avanishxon qo'lga o'tdi. Urganchga kelgan Durun hokimi Muhammadg'ozining Avanishxonning katta o'g'li Dinmuhammad tomonidan o'ldirilganligi va Aminakxonning o'g'illari va Elbarsxonning avlodlari o'rtasidagi qonli to'qnashuvga sabab bo'ldi. Avanishxon Vazir yaqinidagi Qumkend degan joyda

²⁶³ *Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. // МИТТ. Т. III. — С. 324-325.*

²⁶⁴ *Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. // МИТТ. Т. III. - Б. 325*

Sultong'ozining tarafdorlarini yengdi va Elbarsxon avlodidan bo'lgan 16 ta xonni o'ldirdi²⁶⁵.

Qarindoshlari bilan Buxoroga ketgan Sultong'ozining katta o'gli Umarg'ozini ukasi Sherg'ozini bilan birga Ubaydullaxon saroyida tarbiyalana boshladi. Ular biroz ulg'aygach, otalari mulkiga da'vogarlik qildilar. Vaziyatdan foydalangan Ubaydullaxon Toshkentdan Baroqxon, Samarqanddan Juvonmardxon, Hisordan Hamza Mahdiy sultonning nabiralari lashkarlarini Buxoroga to'pladi. 1538 yilda Buxoro qo'shinlari kelayotganidan xabar topgan Xiva va Hazoraspeda o'tirgan Aminaxonning o'g'illari Avanihxonning oldiga qochib bordilar. O'z navbatida Xon Urganchni tark etib, Ustyurt tomon jo'nadi. Orqasidan yetib kelgan qo'shin Avanihxonni Bayot qiri etagida asirga oldi. Ubaydullaxon uni Umarg'oziga berdi va u o'ch olish niyatida Avanihxonni o'ldirdi²⁶⁶.

Ubaydullaxon Urganchni boshqarishni o'g'li Abdulazizga topshirdi. Yangi hukmdor bilan birga to'rt qismga ajratilgan o'zbek urug'larini boshqarish uchun Hisor, Samarqand, Toshkent to'ralari va Buxoro amaldorlari qoldirildi. Ubaydullaxon o'zi bilan Aqatoyning bir gala xotin, bola -chaqalarini ham olib ketdi. Ammo ulardan biri 18 yashar Hojimaxon Xorazmda yashirilib qoldi.

Kelgusida u Durun hokimi Dinmuhammad bilan maslahatni o'rta qo'yib, Urganchga yurish rejasini tuzdi. Lashkar Qurdush degan joyga kelganida unga xizir eli, adoqli turkmanlaridan 1000 kishi qo'shildi. Shahar olingach, dorug'a va uning o'ngiga yaqin amaldori qatl etildi. Hazorasp dorug'asi qochdi. Ushbu voqealardan xabar topgan Abdulaziz ham Urganchni tark etib, otasi oldiga shoshildi.

Buxoro xoni Ubaydulla 40 ming lashkarlik katta qo'shinni Xorazmga jo'natdi. Buxoroliklar Hazoraspeda egalladi degan xabarni eshitgan Dinmuhammad o'zining 3 ming kishilik qo'shini bilan jangga kirishni niyat qildi. «Buxoro qo'shinlari kunduzi dam oladi

²⁶⁵ *Мунис на Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол.-В. 59-60*

²⁶⁶ *Ўша жойда.*

va kechalari yuradi»²⁶⁷ degan ma'lumot asosida Shikast ko'li yaqinidagi yo'lning ikki yoqasida pistirma qo'ygan Dinmuhammad va Yusuf sultonning lashkarlari buxoroliklar ustiga qo'qqisdan hujum qilib, bosqinchilarning ustidan g'alaba qozondi. Asir olingan Buxoro amaldorlari Xorazmdan haydab ketilgan barcha o'zbek sultonlari va oila a'zolarini qaytarishga va'da berdilar. Ularni olib kelish vazifasi Hojimaxonga topshirildi²⁶⁸.

Buxoroga borgan Hojimaxonni Ubaydullaxon yaxshi qabul qildi, otasi va qarindoshlarini olib ketishga ruxsat berdi²⁶⁹. Undan keyin Hojimaxon Samarqanddan Jumanmardxon va Hisordan Kolxon hamda uning otasi Aqatoyxonni olib, Urganchga qaytdi. 1547 yilda Urganchda xon taxtiga ko'tarilgan Kolxon zamoni tinch va obodonchilik davri bo'ldi. «Kolxon xon bo'ldi, bir pulga bir non bo'ldi dedilar»²⁷⁰, - deb yozgandi Abulg'ozu.

Kolxon otasi Aqatoyxonni Vazirga hokimqilib tayinladi. Xiva va Hazorasni boshqarish Buchg'axonning o'g'illari Esh va Do'stga berildi. Ammo vaqt yetib ulg'aygan Aminakxonning nabiralari orasida birlik bo'lmadi. Ular bir-biriga xavf tug'dirib, ayrimlari Buxoroga qochib ketdilar.

Bu vaqtda Buxoroda So'fiyonxonning Yunus ismli o'g'li ham bor edi. «Yunusxon aqlli va juvonmard va g'ayur, yorliqi katti kishi erdi»²⁷¹, - deb yozgandi u haqda Abulg'ozu. Yunusxon Mang'it hokimi Ismoilbiyga kuyov bo'lib, 1556 yilda qaynotamni ko'rib kelaman deb 40 yigiti bilan Xorazmga yo'l oldi. Tuq qal'asiga²⁷² yaqin kelgan Yunusxon Urganch shahri devorlarini

²⁶⁷ *Абулғози Баҳодирхон. Шажарайи турк. – Б. 135.*

²⁶⁸ *Огаҳий. Фирдавс ул-икбол. // МИТТ. Т. II. - S.59-60*

²⁶⁹ *Ўша жойда. С. 87-88.*

²⁷⁰ *Абулғози Баҳодирхон. Шажарайи турк. – Б. 138.*

²⁷¹ *Ўша жойда. Б.138*

²⁷² *Туқ - Урганчга энг яқин қалъа ва Амударё қирғоғида жойлашган аҳоли пункти. Қаранг: Гулямов Я. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. Тошкент: Фан, 1976 С. 33, 131, 192; Бартольд В.В. Соч. Т. II. Ч. 1. - С. 66. Муфассал қаранг: Гудкова А.В. Ток-кала. Т., 1964.*

ko'rdi. Kun botgach, uning yigitlari shahar qal'asi devorlarini mash'ala ko'tarib qo'riqlayotgan soqchilardan bir nechtasini o'ldirib, shahar ichiga kirdilar.

Nochor ahvolga tushib qolgan shahar hokimi Mahmud sulton Vazirga qochib, Aqatoyxon huzuriga bordi. Aqatoyxon qo'shini Urganchga kelgach, Najmiddin Kubro maqbarasi yaqinida qonli jang bo'ldi. Unda yengilgan Aqatoyxon o'ldirildi va jasadi Vazirga jo'natildi. Aqatoyning katta o'g'li Hojimon Xurosonning ukalari bilan askar yig'ib, Urganch yaqinida Amudaryodan kechib o'tdi. Bundan xabar topgan Yunusxon shaharni tashlab Buxoroga qochdi, uning o'g'li Qosim sulton esa o'ldirildi²⁷³.

Vaqt o'tib So'fiyonxon va Kolxonning barcha farzandlari o'ldi hamda ulardan nasl qolmadi. Avanihxonning o'g'illari Xurosonda va Aqatoyxonning o'g'lonlari Xorazmda hukmdorlik qilardilar. Buchg'axonning Esh ismli o'g'li Xivani, Do'st – Hazoraspni, Buram esa Katni boshqardi. 1557 yilda Do'stni xon deb ko'tardilar, ammo uni Hojimon tan olmadi. Bundan aziyat chekkan Eshsulton qo'shin to'plab Urganch ustiga yurdi. Ammo Qumqal'a yaqinidagi Churnuk degan joyda bo'lgan 8 kunlik jangda Hojimonni yenga olmadi.

Xivaga qaytgan Eshsulton uyg'ur va naymanlarni yerlaridan quvdi. Ularning yerlarini do'rmon urug'iga berdi. Yangi qo'shin bilan kelib, Urganch va Tuq qal'asi orasidagi maydonda Hojimon bilan yana bir hafta urishdi. Ammo hech bir taraf g'olib kelolmadi. Shunda Eshsulton kechasi qo'shini bilan yashirin holda Urganchga bordi. Qal'adagi uyg'ur va naymanlardan boshqa aholiga tegmadi. Bir qism aholi Vazirga qochdi. Hojimon Aqatoyxon o'g'lonlarini yordamga chorlab, Urganchni 4 oy qamal qildi va oxiri oldi.

«Urganchda Eshsultonni o'lturub va Hevaqda Do'st sultonni o'lturub oq kigizning bir kunchini Ali sulton va uch kunchini inisi tutib Hojimonni o'rtada yerda o'lturtub, o'ttiz to'qqiz yoshina yetganda yilqi yilinda tarix to'qqiz yuz oltmish to'qqizda Urganch

²⁷³ *Мунис на Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол.-Б.70-71.*

viloyatida xon ko‘tardilar»²⁷⁴. Muarrix Munisning xabar berishicha, Hojimonxon o‘zining 42 yillik hukmronligi davrida goh Urganch, goh Xivada yashagan²⁷⁵.

1558 –yilda Xorazmga Antoniy Jenkinson ismli elchi keldi. Xorazmdan keyin Buxoroga²⁷⁶ borib qaytgan Jenkinson, qish fasli boshlanganligi sababli Urganch va Vazir shaharlarida 4 oy davomida qolib ketadi. Keyinchalik o‘z xotiralarida Xorazm vohasi haqida qiziqarli esdaliklar qoldiradi²⁷⁷.

1573 yilda Buxoro hukmdori Abdullaxon katta qo‘shin bilan Xorazmga yurish boshladi. Bundan xabar topgan Temur sulton Kubatog‘ (Mang‘it yaqinida) dan tortib, Toshsoqa qirlarigacha bo‘lgan o‘zbek va srtlarni Xivaga to‘pladi. Vazir xalqi ham kelib, Xiva qal‘asiga qamaldi. Buxoro qo‘shinlarining boshi Yangiariqqa yetgan vaqtda Abdullaxon Qulanchi degan joyga kelib to‘xtadi. O‘nkundan keyin «Hoji Muhammadxon Xurosondan qo‘shin bilan kelayotir» degan xabar tasdiqlandi. Ushbu vaziyatda Abdullaxon Xivaga chopar jo‘natib, Po‘lat va Temur sultonlarga sulh taklif qildi. Ikki o‘rtada bir-birovga daxl qilmaslik haqida kelishilganidan so‘ng, Buxoro qo‘shinlari orqaga qaytdi²⁷⁸.

Keyingi yillarda ham Xiva shahri Buxoro bilan munosabatlarda muhim rol o‘ynadi. 1595 yilda Buxoro hukmdori Abdullaxon ikkinchi bor Xorazmga yurish qilgan vaqtda Hazoras

²⁷⁴ *Абулғози Баҳодирхон. Шажарайи турк. – Б. 150.*

²⁷⁵ *Shir Muhammad Mirab Munis fnd Myhammad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm/Edited by Yuri Bregel. T.J.Brill. Leiden-New York-Kobenhavn-Koln, 1988. Shir Muhmmad Mirab Munis fnd Myhumad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm/ Edited by Yuri Bregel. T.J.Brill. Leiden-New York-Kobenhavn-Koln, 1988. - B. 670.*

²⁷⁶ «ТуркистончорРоссиясимустамлакачилигидаврида» (Т.: «Шарқ», 2000) номли монография муаллифлари А.Женкинсон Бухорода 1558 -йилнинг апрелидан 1559 -йилнинг 2 сентябригача бўлган ихтамдаунга Ричард ва Роберт Жонсон исмли агентлар ҳамроҳлик қилганлиқ ҳақида ёзди (Б. 28).

²⁷⁷ *Дженкинсон А. Путешествие в Среднии Азию 1558-1560 гг. // В кн.: Английские путешественники в Московском государстве в XVII в. Перевод с английского Л.Готье. Л., 1932.- Б. 167-215.*

²⁷⁸ *Огаҳий, Фирдавс ул-иқбол. // МИТТ. Т. II - С. 88.*

hokimi Muhammad sulton a'yonlarini olib Xivaga qochdi. Bu yerga to'plangan o'zbeklarning yetakchilari bir-biriga ishonmasdan Pahlavon Mahmud maqbarasiga borib, Qur'oni Karimni o'rta qo'yib ont ichsalar-da, birika olmadilar. Natijada Temur sulton va Po'lat sultonning o'g'illari 2 ming uylik qavmi bilan Vazirgayo'l oldilar.

Ertasiga Buxoroning 3 ming kishilik qo'shinlari yo'lga tushgan xivaliklar izidan Olmaotishgan qal'asi yaqinida quvib yetdi. Xivaliklar aravalarni bir joyga to'plab, mudofaa janglari boshladilar. Juda ko'p moli va odamlaridan ajralgan xivaliklarning bir qismi Vazirga qochib borishga muvaffaq bo'ldilar. Ularning izidan kelgan Abdullaxon qo'shinlari Vazir qal'asini bir oy davomida qamal qilib turdilar. Qal'ani olishga ko'zi yetmagan Abdullaxon sulh taklif qildi. Qaytish vaqtida Urganch o'zbeklarining davlatmand amaldorlarining mol-mulki tortib olindi va kishi boshiga 10 tangadan o'lpon solindi. Pul topa bilmay o'g'il-qizini sotib berganlar ko'p bo'ldi, deb yozgandi Abulg'oz²⁷⁹.

Buxoroliklar bosqini vaqtida 3 ming kishilik askar bilan Xurosonning Durun degan joyida turgan Hojimxon o'z o'g'illari va qarindoshlari bilan Qazvinga borib Shoh Abbas huzuriga qo'ndi. Shoh Hojimxonni yaxshi qabul qildi va unga iltifot ko'rsatdi. Buxoro hukmdori Abdullaxonning o'g'li Abdulmo'min boshliq lashkarlar Xurosonning barcha hududlarini egalladi va Asfaroyin degan joyda qizilboshlar qamalda qoldi, degan xabarni olgan Shoh Abbas katta qo'shin bilan Bastomga ketdi²⁸⁰.

Shu vaqtda Xojimxon Urganchda buxorolik sipohlardan 40 va Xivada 60 kishigina qolganligini eshitib, tezda Astrobodga yo'l oldi. Quran tog'iga yetganida Hojimxonga taka va yovmut turkmanlaridan 50-60 kishi qo'shildi. O'rta quduq degan joyda ularga yana shuncha esari turkmanlari qo'shildi. Qo'shini soni ortgan Hoji Muhammadxon o'g'illari Arab Muhammadxon va

²⁷⁹ *Абулғози. Шажарайи турк. – Б. 151*

²⁸⁰ *Огаҳий, Фирдавс ул-иқбол. // МИТТ. Т. II. - С. 85-86.*

Muhammadquli bilan Urganchga, Po‘lat sulton o‘g‘li Bobo sulton esa Xivaga qarab ketdilar.

Urganchga kelgan Hojimxon hokim Sari sulton va uning navkarlarini o‘ldirtirdi. Xiva devorlarini buzib qal‘aga kirgan Bobo sulton lashkarlari esa Berdi Manglishbiy ismli arbob va unga qarashli 100 dan ortiq navkarlarni o‘ldirdilar. Shundan keyin yordam bergan turkmanlarga sovg‘a-salomlar berib orqasiga qaytardilar. Bobo sulton Hazoraspga va inisi Hamza sulton Xonqaga bordilar.

Xorazmdagi ahvoldan xabar topgan Buxoro xoni Abdullaxon Xo‘jamquli qushbegiga Hazoraspga borishni buyurdi. Kutilmaganda yovning qal‘a oldida paydo bo‘lganidan hayratga tushgan Bobo sulton 15 navkari, 3 ta esari turkmani va qal‘adagi sartlar bilan mudofaaga kirishdi. Hazoraspga yetib kelgan Abdullaxon qal‘ani 4 oy qamal qildi va Bobo sultonni taslim bo‘lishga majbur etdi. Bu voqea 1598 –yilda ro‘y bergan edi²⁸¹.

Oradan biroz vaqt o‘tgach, Abdullaxon dunyodan o‘tdi. Bu haqda Bistomda turgan Hojimxon xabar topgach, Shoh Abbosdan ruxsat olib Xorazmga qaytishga shoshildi va sakkiz kun deganda Urganchga yetib keldi. Yangi sharoitda u Urganch bilan Vazirni boshqarishni o‘ziga olib, Xiva bilan Katni Arab Muhammadxonga, Hazoraspnini Isfandiyor sultonga berdi. Ikki yildan keyin Hoji Muhammadxon Urganch va Vazir qal‘alarini boshqarishni Turkiyadan kelgan o‘g‘liga topshirdi. O‘zi esa Xivada kichik o‘g‘li Arab Muhammadxon oldida turdi. Hoji Muhammadxon davrida Xorazmda o‘rnatilgan osoyishtalik bois qishloq xo‘jaligi va irrigatsiya qurilish ishlariga e‘tibor kuchaydi. Urganch va Kat hokimi Ali Sulton tashabbusi bilan Yangiariq va Tosh Yormish ariqlari qazildi²⁸².

Ko‘p voqealarning shaxsan guvohi bo‘lgan Hoji Muhammadxon 1601 –yilda 83 yoshida dunyodan o‘tdi. Tarixiy manbalarda Hojimxon nomi bilan Xiva shahrining Xorazm xonligi

²⁸¹ *Огаҳий, Фирдавс ул-иқбол. // МИТТ. Т. II. - С. 85-86.*

²⁸² *Ўша жойда*

poytaxti qilib belgilanganligi qayd qilinadi. Shu davrdan boshlab rusmanbalarida Xorazmdagi davlatning nomi Xiva xonligi deb yozila boshlandi²⁸³.

1602 –yilda Xiva xonligi taxtiga Arab Muhammadxon ko‘tarildi.

Arab Muhammadxon hukmronligining dastlabki yillarida toju taxt uchun kurash davom etdi. Nayman urug‘i vakillari xon o‘rniga Xisrav sulton ismli Elbarsxon avlodiga mansub amaldorni qo‘yishni rejalashtirdilar. Movarounnahrda Xivaga keltirilgan Xisrav sultonni taxtga ko‘tarish haqidagi maslahatda qatnashgan ikki kishi sheriklarini sotib qo‘ydi. Natijada Arab Muhammadxon Xisrav sultonni tutib olib, o‘ldirishga hukm qildi. Bu ishni Xisrav sultonning inisi Bobo mirzo amalga oshirdi²⁸⁴.

Oradan ikki yil o‘tib uyg‘ur urug‘i oqsoqoli Ponashmirzo fatvosi bilan Samarqanddan Hasanqulixon avlodidan bo‘lgan Solih sulton degan kishini yashirin ravishda Urganchga olib keldilar. Isyondan xabar topgan Arab Muhammadxon tezda Xivadan Urganchga boradi va xalqni maslahatga chorlaydi. Urganchliklar uni yoqladilar va qozoqlar oldiga borgan 200 ga yaqin odamlar ham qochib ketdilar. Qo‘lga olingan Solih sulton o‘ldirildi. Xon isyonchilarni jazolash yoki avf etishni fuqaroning o‘ziga havola qildi²⁸⁵.

1616 yilga kelib, taxt va mansab talashish mojarolariga Arab Muhammadxonning o‘g‘illari ham qo‘shildilar. Uning Isfandiyorxon, Habash, Elbars, Abulg‘ozi, Sharif Muhammad, Xorazmshoh va Afg‘on sulton ismli 7 nafar o‘g‘li bor edi. Otasining taxtga o‘tirganiga 14 yil bo‘lganda o‘g‘illari 16 yoshli Habash va 14 yoshli Elbars sultonlar bilan yov bo‘lib qoldilar. Otasi Urganchga

²⁸³ Жуковский С.В. Сношения Россия с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие Петроград, 1915. - С. 98 ва кейингилари; Нетьматов Т. Хива билан Россия ўртасида муносабатлар тарихига доир баъзи манбалар (XIX асрнинг 20-50-йиллари). Т., 1957. – Б.138.

²⁸⁴ Абулгози. Шажарайи турк. - Б.167.

²⁸⁵ Абулгози, Шажарайи турк. Б.167 ва кейингилари.

ketgan vaqtida ular qo‘shin to‘plab Xurosonni talab qaytdilar. Arab Muhammadxon Vazir qal’asini o‘g‘illariga berganini e’lon qildi. O‘z navbatida Elbars 4 ming navkari bilan Xivaga kelib otasini ko‘rib ketdi. Oradan 5 yil o‘tgach, Elbars sulton Obivardga yurish qilishni rejalashtirdi va otasidan yordam olish uchun Xivaga keldi. Ammo bu vaqtda xon Urganchga ketgandi. Elbars navkarlari xonni tutib Xivaga olib keldilar. Elbars otasini bir uyga qamab, oldiga soqchi qo‘ydi. O‘ttiz yildan buyon yig‘ilib kelinayotgan xazinani va otasi beklarining molini tortib oldi. So‘ngra o‘margan mollarini olib Vazirga otlandi. Ammo uning zafari uzoq davom etmadi²⁸⁶.

Elbars Xivada zo‘ravonlik qilayotgan daqiqalarda Isfandiyor sulton Hazoraspa, Habash, Abulg‘ozi va Sharif Muhammad sultonlar Urganchda lashkar to‘plash bilan ovora edilar. Oqsoqollar aka-ukalarning qon to‘kishlariga fatvo bermadilar. Elbars shu bahona bilan Arab Muhammadning jonini uzishi mumkin deb xavfsiradi. Elbars Xivani tark etgandan keyin Arab Muhammadxon Urganchga keldi. Bu yerdagi o‘g‘illari bilan Elbars sulton ustiga yurish qildi. Natijada uning uy-joyi va eli qirg‘in qilindi, o‘zi esa 5-6 kishisi bilan qir-adirga chiqib ketdi.

O‘g‘illari Elbars va Habash sultonning noo‘rin ishlari Arab Muhammadxonga tinchlik bermasdi. Xon lashkar to‘plash va Vazirga yurishga farmon berdi. Bu haqda xabar topgan Elbars va Habash ham kuch to‘plab, Xivaga yurish boshladilar. Toshli Yarmish arig‘i soqasiga yetganda har ikki tomon o‘rtasida janglar boshlandi. Habash sulton asir tushgan otasi Arab Muhammadxonning ko‘zini o‘yish to‘g‘risida farmon berdi va keksa xonni Xivaga keltirib, qamab qo‘ydilar²⁸⁷.

Yengilgan Isfandiyor, Sharif Muhammad va Xorazmshoh sultonlar Hazorasp qal’asiga yashirindilar. Abulg‘ozi avval Katga qochdi, keyin esa Buxoro xoni Imomquli huzuriga jo‘nab ketdi²⁸⁸.

²⁸⁶ *Абулғози. Шажарайи турк. - В.167.*

²⁸⁷ *Абулғози. Шажарайи турк. - В.162.*

²⁸⁸ *Ўша жойда- В. 165.*

Habash va Elbars sultonlarning kuchlari Hazorasq qal'asini 40 kun qamal qilib turdi. Kuch bilan qal'ani bo'ysundirishga ko'zlari yetmagach, muzokara boshladilar. Natijada Isfandiyor sultonga Makkaga ketishga ruxsat berildi. Sharif Muhammad sultonga Kat shahri topshirildi. Arab Muhammadxonning kichik o'g'illari - Xorazmshoh sulton 12 yoshda va Afg'on sulton 10 yoshda bo'lganligi sababli Xivada onalari qaramog'ida qoldirildi. Habash sulton Urganch va Vazirni, Elbars sulton esa Xiva va Hazorasqni boshqardilar²⁸⁹.

O'g'illari yurt bo'lishayotganini ko'rish nasib qilmagan Arab Muhammadxonni uch zaifasi va ikki kenja farzandlari bilan Qumqal'ada tutqinlikda ushlab turishardi. Bir yildan keyin Elbars sulton akasi Habashga aytmay otasi va kichik inilarini Xivaga olib keldi. Shu yerda otasi Arab Muhammadxon, ukasi Xorazmshoh sulton, akasi Isfandiyorning 3 va 1,5 yashar o'g'illarini o'ldirtirdi. Kichik inisi Afg'onni akam o'ldirsin deb Habash sulton oldiga yubordi. Ammo bu norasida bolaning nima aybi bor, deya Habash sulton uni Rusiyaga jo'natib yubordi. O'zga yurtda Afg'on sulton 30 yil umr ko'rdi va nasl qoldirmasdan dunyodan o'tib ketdi²⁹⁰.

Isfandiyor Makkaga bormadi va Isfahonda Shoh Abbos I (1587-1629) huzurida biroz turgach, ruxsat olib yurtiga qaytishga harakat qildi. U Durun shahri va Abulxon tog'lariga kelgan vaqtida 300 ga yaqin lashkar to'pladi. Unga turkmanlarning taka, sariq, yovmut urug'laridan yana 80 ga yaqin yigitlar kelib qo'shildilar. Tez orada Habash sulton Tuq qal'asi yaqinida suv bo'yida turibdi, degan ma'lumot olindi. Isfandiyorxon yarim kechada inisi uyiga bostirib borganda, Habash uyida yo'q edi. Shu kechasi u bir navkarining uyida tunagan bo'lib, voqeadan xabar topgach, qochib Elbarsxon oldiga keldi. Og'a-inilar kuch to'plab Isfandiyor ustiga yurdilar. Ular kelguncha Elbarsxonning qaynotasi, Baqirg'onlik

²⁸⁹ Аҳмедов Б. *Тарихдан сабоқлар*. - Б. 218.

²⁹⁰ Абулғози. *Шажарайитурк*. - Б.165

Sayyid ota avlodidan bo‘lgan Nazarxo‘ja ismli amaldor juda ko‘p odamlarni to‘plab Isfandiyor sultonga qarshi kurash ko‘tardi²⁹¹.

Isfandiyor sulton Nazarxo‘jani Mang‘ishloqgacha quvib bordi. Qaytib kelgach, Urganch yaqinida 23 kun davomida Habash va Elbars bilan jang qildi. Elbars qo‘lga olinib, qatl qilindi. Habash esa Sirdaryo bo‘ylaridagi qoraqalpoqlar oldiga bordi. U yerda bir vaqtlar o‘zi iltifot ko‘rsatgan mang‘it mirzolaridan Shaynak ismli amaldor bor edi. Undan madad va iltifot kutgan Habash g‘afatda qolib, aldandi. Shaynak o‘z homiysi va navkarlarini tutib Isfandiyorga topshirdi. U Habashni o‘ldirdi²⁹².

Oradan ikki oy o‘tgach, Isfandiyor sulton nayman elini qirdi. O‘zbeklar uch bo‘lakka bo‘linib, biri - mang‘it, biri- qozoqlar yurti va yana biri Movarounnahrda ko‘chib ketdi. Uchyildan keyin Amudaryoning Orolga quyadigan yerlariga 3 ming uylik o‘zbeklar qaytib keldi. Buxoroda turgan yana 3 ming uylik o‘zbeklar Katga ko‘chib kelganlarida, Isfandiyor daryodan o‘tib ularning barchasini qilichdan o‘tkazdi. Inilariga o‘xshab qon to‘kib, minglagan jasadlarni pillapoya qilib taxtga chiqqan Isfandiyorxon 16 yil hukmronlik qildi²⁹³.

1643 yilda Orol o‘zbeklari Abulg‘ozini xon qilib ko‘tardilar²⁹⁴. Ammo Xorazmning barcha hududlarini bir vaqtda birlashtirish imkoni bo‘lmadi. Chunki Isfandiyordan qolgan o‘g‘illari Yushan va Ashraf sultonlarga berilgan yerlar Buxoro xoni Nodir Muhammad ta‘sirida edi. Shu bois Abulg‘ozi bir necha bor Xiva ustiga yurib, bo‘ysunmagan odamlarni qirdi. Xiva qa‘lasi yaqinida Buxoro xonining nevarasi Qosim sulton qo‘shinlari bilan bo‘lgan jangda Abulg‘ozi lashkarlari jasorat ko‘rsatib, g‘alaba qozondilar.

Qosim sulton boshliq buxoroliklarning Xiva ostonasidagi mag‘lubiyatidan xabar topgan Nodir Muhammad 1644 –yilda Xorazmga Yoqub Tavsat ismli amaldorni yubordi, ammo u ham

²⁹¹ *Абулғози Баҳодирхон. Шажарайи турк. - Б.165-166*

²⁹² *Ўша жойда.*

²⁹³ *Ўша жойда - Б.167.*

²⁹⁴ *Оғаҳий. Фирдавс ул-иқбол. // МИТТ. Т. III. - S.326-330.*

yengildi. Shu orada Buxoro beklari Nodir Muhammadni taxtdan ag‘darib, o‘rniga o‘g‘li Abdulazizni ko‘tardilar²⁹⁵.

1644 –yilda Abulg‘ozi Xivaga kelib, xon taxtiga rasman chiqdi. Xon barcha turkmanlarning gunohini o‘tgani va ularning o‘z yerlariga qaytib kelishlari mumkinligi haqida xabar tarqatdi. Ammo uning qarorgohiga 2 mingga yaqin turkmanlar yig‘ilgach, ularni qirib tashlash va o‘g‘il-qizlarini asir olib Xivaga jo‘natishni buyurdi²⁹⁶.

Xorazm vohasidagi turkmanlarni tor-mor keltirgandan keyin Abulg‘ozi 1646 –yilda Tajan vohasidagi turkmanlar ustiga yurish qildi. Ularni ham jazolab, ko‘plarini o‘lja olib qaytdi. Keyinchalik Tajandan qochgan va Xivadan borgan turkmanlar Qizil Arvotning janubiy-sharqiy tarafidagi Bomibavurma degan joyda to‘planganini eshitgan Abulg‘ozi yana qo‘shin to‘pladi. Turkmanlar o‘z bola-chaqalarini Qoraqusti degan yerga jo‘natib, o‘zlari toshdan qal‘a qurib, Bomibavurmada jang qilishga tayyor turdilar.

Turkmanlar harchand urinmasinlar, bu to‘qnashuvda ham xon qo‘shinlari g‘alaba qildi²⁹⁷.

Kelgusi yili janubiy Xorazmdagi yirik qal‘a hisoblangan Katni qolmiqlarning qo‘shut urug‘idan bo‘lgan Durdi Toyshi odamlari talab ketdi. Ularning izidan qo‘shin bilan ta‘qib qilgan Abulg‘ozi 15 kun deganda Yugrukbosh degan joyda talonchilar orqasidan yetdi. Yarim kunlik jangu jadaldan keyin qolmiqlar qochib ketdilar. Biroz dam olgach, xon qo‘shinlari yana bir hafta davomida qolmiqlarni ta‘qib qilishni davom ettirdi. Natijada qolmiqlar ko‘plab ot va tuyalari, bosqinchilik bilan talagan mol-mulklaridan ayrilib, faqat bir qismi jon saqlashga muvaffaq bo‘ldilar, xolos²⁹⁸.

Xivaga qaytgan Abulg‘ozi Atrek daryosi bo‘yida yashayotgan turkmanlarning Odiy sardor boshliq bayraj urug‘i ustiga yurish qildi. Abulg‘ozi odamlari bayrajlar eliga savdo ishlari bilan

²⁹⁵ *Абулғози Баҳодирхон. Шажарайи турк. - Б.167*

²⁹⁶ *Ўша жойда - Б. 168.*

²⁹⁷ *Ўша жойда*

²⁹⁸ *Огаҳий, Фирдавс ул-иқбол. // МИТТ. Т. I. – С. 328.*

ketayotgan Avnash ismli taka turkmaning karvoniga duch keldilar. Olingan ma'lumotlar asosida xon bayrajlar ustiga yurish qildi. Abulg'ozining shu janggi haqida Urganchjiy shunday yozgandi: «Andag' urush bo'ldikim, hargiz mundag' bo'lmay erdi. Nogoh xoni jannat makonning bir qo'li Odiy bayramni miltiq bilan uzub yiqitdi. Andin so'ng o'ttiz yigit ko'tarila ot soldilar. Taqi turkmanlarni o'lturub, o'g'lon-ushoqini o'lja va asir qilib, xonga olib keldilar. Xon ham bu yigitlarga in'omlar berdi. Taqi bir necha kundan so'ng fath va nusrat bilan qaytib Xevaqqa tushdilar»²⁹⁹. Keyingi yili Abulg'ozni turkmanlarning yimrayli (emireli) va sariq urug'larini bo'ysundirdi.

Xonlikning shimoliy va sharqiy hududlari xavfsizligini ta'minlash ham Abulg'ozining e'tiborida turardi. 1655 –yilda qolmiqlarning turg'avut urug'idan Mergan To'yshi va O'qchurtaba Tag'ul ismli yetakchilari Hazorasping bir qancha qishloqlarini talagandan keyin, Sadvar va Darg'anota qishloqlari aholisining mol-mulkini talon-toroj etdi. Bu haqdagi xabarni eshitgan Abulg'ozni qolmiqlarning 10 kun oldin yurtiga qaytib ketganligi haqidagi axborotga qaramasdan, ularni ta'qib qilishga qaror qildi. Katta talofat berib ko'chishni davom ettirayotgan qolmiqlarning asosiy kuchlari Sangin rabot degan joyga yashirindilar.

Urushga yuragi betlamagan qolmiqlar xonga odam yuborib, «Buxoroga boramiz deb, adashib sizning yurtigingizga borib qolibmiz, bizni kechiring» deya yalindilar. Shundan so'ng talagan mol-hollarini oldiga solib, qilichlarini buyniga osib xon oldiga kelgan qolmiqlarni kechirdilar. Ular bundan keyin hech qachon Xiva xoni yerlariga hujum qilmaslikka ont ichdilar³⁰⁰.

Xiva xonlari avlodlari Buxoro hukmdorlari bilan qarindosh-urug'chilik munosabatlari bo'lsada, ular orasida raqobatlar davom etardi. Buxoro xoni Abdulazizning inisi Subhonquli Abulg'ozining ukasi Sharif Muhammadning kuyovi edi. Balx hokimi bo'lgan Subxonquli Abulg'oziga odam jo'natib, akasiga qarshi urushga

²⁹⁹ *Абулғози Баходирхон. Шажарайи турк. - Б.183.*

³⁰⁰ *Огаҳий, Фирдавс ул-иқбол. // МИТТ. Т. II. – С. 330*

da'vat qildi. Abdullaxon davrida qarindosh-urug'lari qoni to'kilganligini ko'p marta eshitgan Abulg'ozu Buxoro ustiga yurish boshladi. Ko'kardik degan joyga yetganda xon Bekquli inoqni Qorako'l ustiga yubordi. O'zi esa 30- 40 qishloqni egallagach, Buxoro darvozalari oldida paydo bo'ldi. Shu orada Bekquli ham Qorako'lni egallab, katta o'lja bilan kelib, xonning asosiy lashkarlariga qo'shildi. Xivaga qaytgan xon lashkarlariga alohida iltifot ko'rsatdi³⁰¹.

Shu yili Abulg'ozining o'zi Qorako'lga ikkinchi bor yurish qildi. Kelgusi yili Chorjo'y ham shu tariqa bo'ysundirildi va xalqi asir qilib olib ketildi³⁰².

1657 yilda Abulg'ozu qo'shinlari Qorako'lga yurish qilib, Yoychin va Narzam degan joylarni egallab, Karmana ustiga yurish boshladi. Zarafshon daryosidan o'tgan xivaliklar shahar aholisining mol-holini o'lja oldilar va Abulg'ozu buyrug'i bilan 15 ming kishilik qo'shin orqaga qayta boshladi. Ularni ta'qib qilgan Buxoro qo'shinlari bilan xivaliklar o'rtasidagi to'qnashuv yetti marta takrorlandi. Xivaliklarning qutulishi mushkul bo'lib qolganda Anushaxon Abdulazizning qo'shiniga shiddat bilan hamla qildi. Qo'qqisdan boshlangan ushbu hujum natijasida buxoroliklar qo'shini parokanda bo'ldi. Ular chekinib, o'zlarini daryoga tashlay boshladilar. Abdulazizning o'zi ham daryodan o'tib, zurg'a jon saqlashga muvaffaq bo'ldi³⁰³.

Karmana safarida Anushaxon 14 yoshlik yigit bo'lib, otasining behad hurmatiga sazovor bo'ldi. «Taqi barcha xalqni yig'ib aytdilar kim, o'g'limizning avval safari erdi, oyoqi va yo'li muborak bo'ldi. Abdulazizxon tek ulug'podshohni bosduq va taqi urush kunida qilgan ishlariga tahsinlar qilib, ulug' to'y berdilar. Taqi tug' berib, lashkar qo'shib Hazoraspn berdilar»³⁰⁴, deb yozgandi Mahmud Urganjiy.

³⁰¹ *Ўша жойда.*

³⁰² *Ўша жойда.*

³⁰³ *Абулғози Баходирхон. Шажарайи турк. –Б. 187*

³⁰⁴ *O'shajoyda, B. 188.*

1663 yilda Abulg‘ozi Vardanze degan joyga yurish qilib, yana bir bor Buxoroga otlandi. Shaharning Namozgoh darvozasi oldida turgan Abulg‘ozi Buxoroga kirmaslikka qaror qildi. Chunki bu vaqtda Abdulaziz Samarqandda bo‘lib, shaharda oddiy xalqdan boshqa qo‘shin yo‘q edi. Shu bois xonning o‘zi yo‘qvaqtda bir necha xotin-xalaj turgan shaharni oldi degan andishadan qochib, Abulg‘ozi ulkan o‘ljalar to‘plagan qo‘shinni Xivaga qaytarishga farmon berdi. «Agar tangri bersa, Abdulazizxon qal’aning ichinda tursa, aning qo‘lidan olg‘aymen», degan Abulg‘ozining orzuniyatlarini ro‘yobga chiqmadi.

Akademik B.Ahmedov yozgandi: «Abulg‘ozi hammasi bo‘lib yigirma yil atrofida xonlik masnadida o‘tirdi. Lekin boshqa hukmdorlarga o‘xshab huzur-halovat ko‘rmadi. Umri ko‘proq urush- talashlarda o‘tdi»³⁰⁵. Darhaqiqat Abulg‘ozi butun umrini taxt uchun kurash va jangu jadallarga bag‘ishlagan fotih desa, mubolag‘a bo‘lmas. Ammo u davlat arbobi sifatida ham juda katta qobiliyatli inson edi. Dastavval u xonlikda boshqaruv tizimini mustahkamlashga e‘tiborni qaratadi. Tez orada turkmanlarning nufuzli amaldorlarini boshqaruv ishlaridan chetlashtirdi, ularning mol-mulki, yer-suvi tortib olindi. Bo‘ysunmagan turkmanlar Axal-Taka va Mang‘ishloq hududlariga qochishga majbur bo‘ldilar. Xonlikni boshqarishda o‘zbeklarning mavqei ortib bordi³⁰⁶ va ularning 360 vakili xon saroyida turli lavozimlarga ko‘tarilganini Munis «Firdavs ul-iqbol» asarida keltiradi (28^a). Xon yangi amaldorlardan 32 nafarini mahram qilib, o‘z yoniga oldi³⁰⁷.

Xorazmga Dashti Qipchoqdan kelgan ko‘chmanchi qabilalarni o‘troqlashtirish tadbirlari ham Abulg‘ozining ichki siyosatida

³⁰⁵ Ahmedov B. *Tarixdan saboqlar*. - B. 219.

³⁰⁶ Qo‘shjonov O., *Durdiyeva G. Xiva xonligi turkmanlari. Xiva, 2008-11*

³⁰⁷ “Андоққим икки шайх ул-ислом, икки қози, бир раис Саййид ота авлодидан, бир мутавалли бир нақиб, тўрт оталик, тўрт иноқ, тўрт мироб, тўрт парвоначи, икки оқо, икки арбоб, тўрт чигатой иноқи ва бир вазирким, ҳоло меҳтар дерлар ва бир қушбеги, бу иккови ўринсиз хон ҳузурда оёқ устида турадилар”. *Мунис. Фирдавс ул-иқбол. //қўлўзма. № Е 6(фотонусхаси). 64^a вар; Яна қаранг: Йўлдошев М. Хива хонлигида феодал ер эгаллиги ва давлат тузилиши. –Б. 82.*

muhim o‘rin egalladi. Ular to‘rtta guruhga bo‘linib, Buxoro bilan chegara bo‘lgan Doyaxotun (Darg‘onota yaqinida) dan tortib, to Orolgacha bo‘lgan yerlarga joylashtirdi. To‘pa deb atalgan bu guruhlarning kattalaridan biri – uyg‘ur va nayman qabilalari tashkil qilib, ularga do‘rman, yuz, ming, shayx, burloq kabi kichik urug‘lar ham qo‘shildi. Uyg‘urlarga Hazorasp bekligining chekka qishlog‘i Pitnakdan tortib, Yangiariqqacha bo‘lgan yerlar, naymanlarga esa Yangiariqdan to Gurlangacha bo‘lgan hududlar ajratildi.

Qiyot-qo‘ng‘irotlar to‘pasiga o‘zbeklarning jaloyir va turkmanlarning alieli urug‘lari ham birlashtirilgan bo‘lib, ularga Shovotdan Ko‘ng‘irotning Quyg‘un degan joyigacha bo‘lgan yerlar ajratildi. Uchinchi to‘paga nukus-mang‘it qabilalari birlashtirilib, ularga kenagas va xo‘jaeli urug‘i kiritildi. Qang‘li-qipchoqlar alohida to‘paga ajratilgan bo‘lib, unga ko‘chmanchilarning yana bir nechta urug‘lari birlashtirildi³⁰⁸.

Gurlandan to Lavzan kanaligacha bo‘lgan hududlar hamda Amudaryoning quyi qismida nukus va mang‘it qabilalari joylashtirildi. Amudaryoning so‘l sohilidagi Qipchoq atrofi, Xo‘jaeli va Ko‘ko‘zak oralig‘ida qang‘li va qipchoq qabilalari joylashtirildi. Ular tarkibida Dashti Qipchoqdan kelgan o‘zbeklarning 14 urug‘i ham o‘rnatirildi³⁰⁹.

Xiva atrofiga joylashtirilgan qipchoq va qo‘ng‘irot o‘zbeklariga alohida yerlar ajratilib, ularning o‘troqlashuv jarayoni sal kam ikki asr davom etdi. Shu orada Orolbo‘yi va Quyi Amudaryo hududlariga joylashgan qoraqalpoqlar ham o‘zbek urug‘lari bilan aralashgan holda qon-qardoshlik rishtalarini shakllantirdilar.

O‘zbeklarning Xorazmga ko‘chib kelishi va o‘troq hayotga o‘tishi jarayonida dehqonchilik sohasi sezilarli darajada rivojlana boshladi. Aholi sonining oshishi va oziq-ovqatga bo‘lgan zarurat ekin maydonlari uchun yangi yerlarni o‘zlashtirish, sug‘orish

³⁰⁸Мунис, Фирдавс ул-иқбол. // МИГТ. Т. II. - С. 328. (прим. 1); Муравьев Н. Путешествие в Туркмению и Хиву. - С. 36.

³⁰⁹Мунис. Фирдавс ул-иқбол. // МИГТ. Т. II. - С. 328. (прим. 1).

ehtiyojlarini qondirish maqsadida yangi nahr (kanal) va ariqlar qazishni, qishloq (kent) va shaharlar qurish ishlarini mislsiz kengaytirdi. Shu bilan bir qatorda tabiatning injiqlarini va o'zgarib turishini hisobga olishga ham to'g'ri keldi. Xususan, Amudaryo o'zanining o'zgarishi natijasida O'zboy, Daryolik, Qo'nadaryo havzasidagi Urganch, Vazir, Devkesgan, Aqcha kelin, Shohsanam kabi qal'alar bilan bir qatorda qishloq va ovular aholisi ichimlik va dehqonchilik uchun zarur bo'lgan suv tanqisligini seza boshladilar.

Xon topshirig'i bilan Vazir qal'asi aholisi Gurlan qal'asi yaqinida tiklangan Kichik Vazir qishlog'iga ko'chirildi. Abulg'ozii 1646 –yilda Urganch-arna arig'ini qazirdi va uning yaqinida asos solingan qal'aga Yangi Urganch deb nom berdi. Bu yerga Ko'hna Urganch aholisining bir qismi ko'chirib keltirildi. Shundan biroz keyin G'ozibod kanali ham qazilib, uning yaqinida chegara istehkomi hisoblangan qal'a tiklandi³¹⁰.

1663 yilda taxtga chiqqan Anusha Muhammadxon (1663-1687) Xiva xonligi mavqei va qudratini oshirish maqsadida otasi ishlarini davom ettirdi³¹¹. U Buxoro, Samarqand, Xurosonga bir necha bor harbiy yurishlar uyushtirdi. Xonning harbiy yurishlarida jasorat ko'rsatgan turkmanlarga nisbatan munosabat yaxshi tomonga o'zgardi. Xon turkmanlarga Xorazm vohasi va uning atroflariga ko'chib kelishiga ruxsat berdi.

1687 yilda saroy a'yonlari uyushtirgan fitnaning qurboni bo'lgan Anushaxon³¹² o'rniga taxtga o'g'li Xudoydod (1687-1688) o'tkazildi. Yangi xonning hukmronlik davri uzoq bo'lmadi. Siyosatda bilimdon va xalqqa adolatli xon sifatida obro' orttira boshlagan Xudoydodni inisi Arangxon shahid etdi³¹³.

Arangxon (1688-1695) davrida³¹⁴ Xivada amaldor Muhammad Rizo Xo'jamberdi biyning mavqei katta bo'lib, uning mablag'i

³¹⁰ *Фуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиши тарихи. - Б. 209*

³¹¹ *Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. // МИТТ. Т. I. - С, 33-332.*

³¹² *Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. // МИТТ. Т. III. - С.330.*

³¹³ *Ўша жойда.*

³¹⁴ *Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. // МИТТ. Т. III. - С.330-332.*

evaziga madrasa bino qilindi. Ammo xonning noto‘g‘ri siyosati oqibatida yurtida ichki nizolar kuchayib, aholining hayoti og‘irlashib bordi. 1695 –yilda Amir Sayyid inoqning o‘g‘li Odina Muhammad boshliq qo‘ng‘irot o‘zbeklari xonga bo‘ysunmay qo‘ydilar. Ular o‘zbeklarning mang‘it, qangli, qipchoq, xo‘jaeli urug‘laridan to‘plagan askar va Darg‘onota turkmanlari yordamida Xivani egalladilar. Arangxon o‘ldirilib, taxtga Hojimaxon naslidan bo‘lgan Jo‘jixonni (1695-1698) o‘tqazdilar. Keyingi 15 yilda Xiva xonligi taxtida 10 ga yaqin hukmdorlar almashdi (Jo‘jixon (1695-1698), Valixon (1698-1699), Shoh Niyozxon (1699-1702)³¹⁵, Shobaxton (1702-1703), Sayyid Alixon (1703-1705), Musoxon (1705-1706)³¹⁶, Yodgorxon (1706-1713) va h.)³¹⁷. Siyosiy barqarorlikning yo‘qligi va xalq ahvolining og‘irlashib borayotganligi noroziliklarni haddan tashqari kuchaytirib yubordi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Abulg‘oziyxon hokimiyat tepasiga kelgan birinchi kundan boshlab asosiy e‘tiborni davlatni mustahkamlash masalasiga qaratdi. Xiva tarixchisi Munisning ko‘rsatishicha, Abulg‘ozixon ma‘muriy islohot o‘tkazib, xonlikning markaziy boshqaruv tizimini batamom yangidan tashkil etdi. Ya‘ni saroyda 32 ta markaziy boshqaruv lavozimlarini tashkil etib, ular tubandagicha taqsim etildi: 2 ta shayxulislom, 1 ta mutavalli, 1 ta noyib, 4 ta otaliq, 4 ta inoq, 4 ta mirob, 4 ta biy, 1 ta parvonachi, 2 ta aka, 2 ta arbob, 4 ta chig‘atoy inoqi, 1 ta vazir va yana 1 ta qo‘shbegi lavozimlaridir. Shu bilan Abulg‘ozi o‘zbeklarni va yerni aholining nufuzli vakillarini davlat boshqaruv ishlariga jalb etib, ular orasida ma‘lum barqarorlikni vujudga keltirdi. Davlat hokimiyatini mustahkamlab olishi Abulg‘oziga ichki va tashqi siyosatni keng qo‘lamda amalga oshirish imkoniyatini berdi. Abulg‘ozixonning ichki siyosat borasida o‘tkazgan eng muhim tadbirlaridan yana biri o‘zbek qabilalarini butun voha bo‘ylab

³¹⁵ *Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. // МИТТ. Т. I. - С, 332.*

³¹⁶ *Ўша жойда.*

³¹⁷ *Шерғози, Элбарсхон, Абулғози II, Шоҳғози ҳукмронликлари ҳақида қаранг: Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. // МИТТ. Т. I. - С, 332-335.*

o'troqlashtirish siyosati bo'ldi. XVII-XVIII asrlarda bunday o'troqlashish jarayoni Orol bo'yidagi o'zbeklar va Qoraqalpoq qabilalari orasida ham kuchaydi. O'zbek va qoraqalpoqlarning ommaviy o'troqlashuvi va ularning dehqonchilik hayotiga o'ta borishi bilan Xorazmda sug'oriladigan ekin maydonlarni o'zlashtirish, yangi ariqlar chiqarish, yangi shahar va qishloqlar bunyod etish zaruriyatini tug'dirdi. Shuningdek XVI asr 70 yillarida Amudaryo oqimining o'zgarishi bilan Xorazmning shimoliy qismidagi shahar va qishloqlarda yuz bergan suv tanqisligi ham Abulg'ozixonni bu borada keskin choralar ko'rishga undayotgan edi. Darhaqiqat, Abulg'ozixon va o'g'li Anushaxon zamonida yangi yerlarni o'zlashtirish va yangi ariqlar chiqarish sohasida shunday ulkan ishlar qilindiki, bu burilishlar Xorazmning bundan keyingi taraqqiy etishi uchun juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Abulg'ozixonning ana shu xayrli ishlarini o'g'li Anushaxon davom ettirdi³¹⁸.

XVIII asr oxiriga kelib, Xiva xonligida shakllangan beqaror siyosiy vaziyat, mansab va taxt talashuvlar, soliqlar va ortiqcha majburiyatlarning ko'pligi inqiroz holatlarini yanada chuqurlashtirdi. Xonlikning siyosiy birligi susaydi, uning tashki va ichki munosabatlari mushkul bir holatga tushdi. Kuchli siyosiy arboblarning yo'qligi, iqtisodiy jihatdan mustahkam tayanchlarning buzilishi mamlakatning qaramligi va harbiy jihatdan ojizlanishiga sabab bo'ldi. Vujudga kelgan vaziyat qattiqqo'l va uzoqni ko'ra biladigan qobiliyatli davlat arboblarining siyosiy kurash minbariga chiqarishni talab qilardi. Siyosat maydonida paydo bo'lgan qo'ng'iroq inoqlarining XVIII asr oxirlarida amalga oshirgan chora-tadbirlari vujudga kelgan inqirozli holatni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, bu harakat Xiva xonligining keyingi taraqqiyoti uchun sharoit yaratgan edi. XVIII asrda Xiva xonligida shakllangan obyektiv shart-sharoitlar siyosiy-ma'muriy boshqaruvda o'zbeklarning qo'ng'iroq sulolasi arboblarining mustahkam o'rin egallashlari uchun real imkoniyatlarni yaratdi. 1763 –yilda siyosiy

³¹⁸ Гулямов Я. История орошения Хорезма. - С.199-202

minbarga o‘zbeklarning qo‘ng‘irot urug‘i inoqi Muhammad Amin (1729-1790) ko‘tarildi³¹⁹ va keyingi 150 yil davomida uning avlodlari Xiva xonligida hukmronlik qildilar. 1770 yilda o‘zbeklarning qo‘ng‘irot urug‘i inoqi Muhammad Amin Buxoro xoni Doniyolbiy oldiga yordam so‘rab bordi. Uning bilan Buxoroga borgan 63 mahramlar orasida Avaz mirob (Munisning otasi), Shomurodbek, Abdukarimbek, Shoniyozbek, Muhammad Rizobek, Bobobek, Rahimberdibek, Ollaberdi udaychi kabi amaldorlar, Abdurahmonboy, Boynazarboy, Eshqobilboy, Niyozmuhammadboy kabi boylar bor edi³²⁰.

Buxorodan madad kuchlari bilan qaytgan Muhammad Amin inoq Jahongirxonni taxtdan tushirdi va uning o‘rniga Bulakayni o‘tqazdi. Qisqa muddatda yovmutlar zo‘ravonligi cheklandi, ocharchilik asoratlari tugatildi va arzonchilik boshlandi. Yirik yer egalari va dehqonchilik kentlaridagidagi oqsoqollar hamda savdogarlardan madad olgan Muhammad Amin qo‘g‘irchoq xonlarni taxtga qo‘ysa-da, butun davlat hokimiyatini boshqarishni o‘z qo‘liga oldi³²¹.

Muhammad Amin inoq vafotidan so‘ng, o‘g‘li Avaz Muhammad inoq (1790-1804) ham bir qator xonlarni (Oqimxon, Abdulazizxon, Abdullaxon, Ortiq G‘oziyxon, Yodgorxon, Po‘lat G‘oziyxon, Abdulfayzxon, Abulg‘ozi IV va V) taxtga ko‘targan bo‘lsa-da, asosan xonlikda davlat hokimiyatini o‘z qo‘lida ushlab turdi³²².

³¹⁹ «Хон амри билан Муҳаммад Аминбек Хўжақули иноқни хон кўринишида тутиб ўлдирди. Иброҳим иноқни Муҳаммад Амин иноқ қатлга еткурди. Бу воқеа кўй йили санаи 1175 шавволда... вуқуъ топти. Ҳам ул кун жума намозидан бурун Муҳаммад Амин иноқни Иброрим иноқга қоим мақом этдилар. Муҳаммад Амин иноқ ул фурсатда 32 ёида эрди. Оғоси давлати ва ибтидои аморати ул кундандир». Мунис ва Оғарий. Фирдавс ул-иқбол. // Қўлёзма. Ўз ФА ША. №5364/І. 46^а вар. Яна қаранг. Оғаҳий. Фирдавс ул-иқбол. //МИТТ. Т. II. — С. 337.

³²⁰ Беёний. Хоразм тарихи, 78^а вар; Юлдошев М. Хива хонлигида феодал ер эгаллиги ва давлат тузилиши. Тошкент. Ўздавнашр. 1959. - Б.90-94.

³²¹ У ва унинг даври тарихи ҳақида қаранг: Оғаҳий. Фирдавс ул-иқбол. // МИТТ. . - С 337-354; Муниров Қ., Мунис, Оғаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари: - Б. 8.

XVIII asrning o'rtalarida Xiva xonligi chuqur siyosiy inqiroz davrini boshidan kechirgan. Bu inqiroz qabilalar orasidagi qonli kurashlar, xon bilan katta mulkdorlar, ko'chmanchilar bilan o'troq xalq o'rtasidagi to'qnashuvlar, shuningdek, tashqi dushmanlar bilan bo'lgan kurashlar natijasida kelib chiqqan edi. Bu hol Xorazm iqtisodiy taraqqiyotiga katta ta'sir o'tkazgan. Mamlakat tushkunlikka qarab borayotgan va to'xtovsiz qonli kurash davom etayotgan bir davrda qo'ng'iroq urugi sulolasining boshliqlaridan Eshmuhammad o'g'li Muhammad Amin siyosiy kurash maydoniga kirib, davlatni qo'lga olishga urinadi,

XVIII asr o'rtalarida mahalliy yuqori tabaqa vakillari qozoq sultonlaridan xon tayinlab, ulardan biri bo'lgan G'oyibni (1747-1757) xon deb e'lon qiladilar. Nihoyat, 1770 yilga kelib, qo'ng'iroq urug'i vakillarining hukmronligi boshlanib, ularning namoyandalari Muhammad Amin Inoq (1770-1790 yillar. Aslida esa u 1761-1762 yildan siyosiy ishlarga aralashgan) hokimiyatni qo'lga oladi. Bu soxta xonlarning kelib chiqishi uncha aniq emas, ular asosan o'zlarini Chingizxon avlodi deb hisoblovchi qozoq sultonlari orasidan saylanardi.

Xorazm mahalliy mulkdorlari orasidan chiqqan Muhammad Amin inoq davlatni qo'lga olgunga qadar va qo'lga olish uchun kirishgan vaqtida bu yerdagi o'zaro kurashlardan foydalangan turkman mulkdorlari Xiva xonligiga ega bo'lish uchun qattiq harakat qildilar. Natijada, ular vaqtincha bo'lsahamikki marotaba hokimiyatni qo'lga kiritdilar. Keyinchalik ham Xiva xonligiga buysunmay, o'z mustaqilliklarini saqlab qolish uchun astoydil kurashdilar. Ular bilan mahalliy o'zbek mulkdorlari orasida davlatni qo'lga olish uchun bo'lgan kurashlar natijasida mamlakat vayron bo'ldi, xalq esa chidab bo'lmas darajada og'ir ahvolda, ochlik va yalang'ochlikda yashar edi. Munisning: «Muhammad Amin inoqga

³²²Матниёзов М. *Хива хонлигида яшаган халқлар ва уларнинг хонлик ижтимоий-сиёсий ҳаётида тутган ўрни ва роли. (XIX аср – XX аср бошлари). 2-нашри. Урганч, 2004. -Б.23.*

qo'shilguncha bir yilda 53 martaba yovmud sipohi bila urishdilar»³²³, -deb keltirgan ma'lumoti u davrda to'xtovsiz o'zaro urushlar bo'lib turganligidan dalolat beradi.

Bu kurashlar natijasida Xorazm xalqlari naqadar achinarli ahvolga tushib qolganligi Munis yozib qoldirgan quyidagi ma'lumotlarda aniq ko'rinadi: «Andin so'ng muonidlar Hazorasp, Xonaqoh va Oroidin o'zga jami mamoliki Xorazmga istilo topib, fuqaro va raoyoning anfos va amvolida ixtiyor qolmadi. Yovmutning zulm va taaddisi haddan o'tib, qal'a qal'aga raft-omad qila olmadilar.

Bu jihatdan Xorazm diyorida qahat va g'ilo shoyi' bo'ldi. Toun va vabo voqi'. Aksari maorif va mashohir, balki fuqaro va raoyo mahalla-mahalla va qabila-qabila jalo ixtiyor qilib.... atrofua aqtori olamg'a muntashir bo'ldilar. Xususan, Buxoro jonibig'a musofirot ko'rgizib, ju' (ochlik) balosidin qutuldilar. Qochmoqqa qudrati yetmagan xalq avlodini qozoq va qoraqalpoqqa sotib, nafaqa qildilar. Yovmut dag'i o'g'irlab sota boshladi. Aksari qulo' (qal'alar) va bilod (shaharlar) xarob bo'lib, kentlar va mazra'alar besha va jangaliston va kuloti yerlar nayiston bo'ldi. Xivaq ... ning oliy imoratlari munhadim bo'lib, o'rniga so'kso'k va yulg'un ko'kordi. Vahshiy jonivorlar odamizodg'a qoyimmaqom bo'ldi. Aningdek obod shaharda 40 uylik raiyat qoldi. Ba'zidin eshitdimkim, 15 uylikdin ko'b ermas erdi. Aksari namoz jum'ada uch yoki to'rt kishi topilur erdi. Muonidlar shaharning atrofida mutamakkin erdi. Qahat ul g'oyat istilo topdikim... it va eshak go'shti ommai xaloyiqg'a halol bo'ldi. Ba'zi yerda odamni ham yebdurlar»³²⁴.

Xorazmda yashovchi xalqlar qahatchilik va ochlik balosidan qutulish maqsadida xotin, bola-chaqalari bilan Buxoro tomonga qochishga majbur bo'ldilar.

Vaqtincha Xorazmdan voz kechishga majbur bo'lgan Muhammad Amin inoq yana Xorazmga qaytib keldi. Muhammad

³²³ *Мунис ва Оғаҳий, Фирдавс ул-иқбол. 47^b*

³²⁴ *Ўша жойда. 50^a, ^b вар.*

Amin inoq davrida Orol hokimi To'ra Murodga qarshi boshlangan kurash Muhammad Rahim (1806-1825) davrigacha davom etdi. Davlatni qo'lga olishda va hukmronligini tiklashda Muhammad Amin inoq amirlar, katta yer egalari, savdogarlar, ulamolarga suyanganligini Munisning «Muhammad Amin inoq... vaqtini g'animat bilib, aksari umaro (amirlar) bila yovmut muxolifatida muttafiq bo'lib, qal'adorlik umuriga ishtig'ol ko'rg'izdi»³²⁵, degan so'zlari ham isbotlaydi.

Hokimiyatni qo'lga olgandan keyin Muhammad Amin inoq Xiva xonligida o'z hukmronligini tiklash uchun harakat qilayotgan Orol mang'itlariga qarshi kurashdi va 1787-yili ularni tor-mor qildi.

XVIII asrning oxirlarida Muhammad Amin inoq va uning o'g'li Avaz inoqlar davrida mamlakatni idora etishda qo'shbegi – ma'muriy ishlar, mehtar moliya ishlari, otaliq askar boshliqlaridan iborat urug' boshliqlariga suyangan kengash mavjud edi.

Xivada inoqlar o'zlarini mustaqil sezib, taxtni nasldan naslga o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lganlaridan keyin xonlik taxtida hech qanday huquqqa ega bo'lmagan, inoqlar qo'lida o'yinchoq bo'lgan Chingiz avlodi soxta Abulg'ozni V ni Avaz inoqning o'g'li Eltuzar taxtdan tushirib, 1218 yil 13 sha'bonda (1803 yil 28 noyabr) o'zini qo'ng'iroq urug'i sulolasining xoni deb e'lon qildi.

Xiva xonlari qoraqalpoq xalqini ham o'z hukmronligiga bo'ysundirish uchun harakat qilganlar. Biz Munis va Ogahiy asarlarida XVIII va XIX asrlarda qoraqalpoq xalqining Xiva xonlaridan tortgan azob-uqubatlari haqida juda ko'p ma'lumotlarni uchratamiz.

Munisning yozishicha, 1218/1803-04 yili Eltuzar o'zi bosh bo'lib, Oqyoqish etagi, Tangriyor daryosining boshida va Yorti qum mavzesida yashayotgan qoraqalpoqlar ustiga yurish qilgan³²⁶.

Eltuzar xonlik taxtni olgandan keyin Xiva xonligining ishlariga aralashib kelayotgan Buxoro amirligiga qarshi kurashga o'tlanadi. 1806 –yili ikki xonlik o'rtasida bo'lgan jang Xiva

³²⁵ *Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-икбол, 47⁶ вар.*

³²⁶ *Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-икбол, 74⁶ вар.*

askarlarining magʻlubiyati va Eltuzarning halokati (u suvga choʻkib oʻladi) bilan tugaydi. Shundan soʻng Xiva taxtiga mazkur sulolaning koʻzga koʻringan eng yirik vakillaridan biri - Eltuzarning ukasi Muhammad Rahim I (1806-1825) oʻtiradi.

Muhammad Rahim I hukmronlik qilgan davrni asosan 3 bosqichga boʻlish mumkin. Dastlab Muhammad Rahim I Xiva xonligidagi mayda va katta mulkdorlarni boʻysundirishga kirishdi. 1811 –yilda Toʻra Murod soʻfini oʻldirib, Orolni oʻziga qaratdi. Shundan keyin Muhammad Rahim I vaqtincha boʻlsa ham Buxoro xoni Amir Haydar bilan Eltuzar davrida uzilgan aloqani tiklashga intildi. Chunki, Xiva xoni xonlikning eng ashaddiy dushmani bilan aloqani tiklab olgach, mamlakatni kuchaytirish imkoniyatiga ega boʻlar edi.

U oʻz hukmronligining ikkinchi bosqichida (1227-1235/1812-1820) oʻz kuchi va eʼtiborini qozoq, turkman va Xuroson yerlarini bosib olishga qaratdi. Bosib olingan yerlar hisobiga ham oʻz hududlarini kengaytirib, xonlikni iqtisodiy jihatdan bir oz jonlantirdi.

Muhammad Rahim I oʻz hukmronligining uchinchi davrida (1236-1240/1821-1825) bugun kuchini asosan Buxoro xonligini bosib olishga qaratdi.

Muhammad Rahim I oʻz mavqeini mustahkamlash maqsadida vaqtincha boʻlsa ham eski xon avlodidan boʻlgan (soxta xon boʻlgan) Abulgʻozi V ni yana davlat tepasiga olib keldi. Keyin esa Xiva xonligini birlashtirish borasidagi kurashni yakunlaydi. Bu kurash shafqatsizlik bilan kechdi, oqibatda koʻplab qabilalarning boshliqlari oʻldirildi yoki Buxoroga qochishdi.

Dehqonchilik bilan shugʻullanuvchi tumanlardagi dehqonlarning asosiy ommasi XVII asr oxiri XIX asr boshlarida boʻlgan urushlarda faol qatnashdi. Bu urushlar hukmron tabaqaga yoqmaydigan oqibatlariga olib kelishi muqarrar boʻlib qoldi, chunki dehqonlar, ayniqsa, yersiz kambagʻallar yer uchun kurashga qoʻzgʻalgan edilar. Muhammad Rahimxon bobosi Muhammad Amin inoq davrida boshlangan Xiva xonligi hududini kengaytirish

va u yerda yashovchi qabilalarni birlashtirish ishlarini qattiqqo‘llik bilan davom ettirdi. U qadimdan hukmron bo‘lib kelgan inoqlarning hukmronligini tugatib, o‘zining «asl zotligi» bilan faxrlanib kelgan va eski tartibni orzu qilib yurgan kishilarning hammasini o‘zidan hamda har qanday boshqaruv ishlaridan chetda tutishga intildi.

XX asrning 30-40 yillarigacha tarixchilar Xivada yirik yer-mulklar urug‘ boshliqlarining yerlarini musodara qilish yo‘li bilan vujudga kelgan, deb hisoblab keldilar³²⁷. Bu noto‘g‘ri fikr bo‘lib, Xivada yirik yer mulklari urug‘ boshliqlarining yerlarini musodara qilish yo‘li bilan emas, balki shu urug‘larning quyi tabaqalariga qarashli yerlarni musodara qilish yo‘li bilan vujudga keltirildi. Shuning uchun ham Muhammad Rahimxon o‘tkazgan islohotlar xalq ommasining quyi tabaqalarini juda gazablantirgan, chunki uning bu islohotlari dehqonlar ommasining mulkdan mahrum qilinganligini qonunlashtirishdan boshqa narsa emas edi.

Xorazmda markazlashgan xonlik tashkil qilish va atrofdagi xalqlarni xonlikka bo‘ysundirish uchun, ayniqsa, Muhammad Rahim I davrida harakat kuchaygan. Muhammad Rahim I Xuroson, Orolga (Qo‘ng‘irot), turkman, qoraqalpoq yerlariga muntazam ravishda hujum qilib turdi va ulardan ko‘pini o‘ziga bo‘ysundirishga muvaffaq bo‘ldi. O‘zi bosh bo‘lib, bir necha marta Orolga yurish qildi, Orol esa To‘ra Murod so‘fi boshchiligida Xiva xonligiga bo‘ysunishdan, unga zakot va xiroj to‘lashdan bosh tortgan edi. Uzoq qarshilikdan keyin 1811 –yili Muhammad Rahim Orol atrofidagi qoraqalpoqlarni bo‘ysundirdi. Qo‘ng‘irot shahri vayron qilindi³²⁸.

Qoraqalpoqlar zimmasiga harbiy majburiyatlar ham yuklatilgan edi. Urush paytida ular 1000 dan 2000 nafargacha piyoda va otliq navkarlar yetkazib berishi lozim bo‘lgan. Safar chogi qo‘shin ikki tomonlama ham o‘z biylari, ham o‘zbek

³²⁷ *История народов Узбекистана. Т. 2. -Т., 1947. - Б. 142; Иванов П.П. Архив Хивинских ханов XIX в. -Л., 1930. - Б. 18.*

³²⁸ *Асқаров А. Ўзбекистон халқлари тарихи, 2 жилд Т.: «Фан», 1993. – В.71.*

yuzboshilari rahbarligida yo'lga chiqardi. Turkmanlarning qo'zg'olonlarini bostirishda ularning yordamidan foydalanilardi.

Shunday qilib, XIX asr boshlarida qoraqalpoqlar buysundirildi. Xivaliklar esa ko'chish-ko'chirish siyosati olib borishni, ularning hududida qal'a qurishni davom ettirishdi.

Muhammad Rahimxon I turkmanlarning bir qancha urug'ini Xiva atrofiga ko'chirib keltirgan. Bundan maqsad – arzon ish kuchidan foydalanish va boylik orttirish edi. Ko'chirib keltirilgan xalq ataylab daryo va yop, arnalarining etaklariga joylashtirilgan. Ular xon tomonidan qo'yilgan hamma shartlarni bajarishga majbur edilar. Aks holda, berilayotgan suv darholto'xtatib qo'yilar edi. Shu yo'l bilan ularni Xiva xonligiga qaram qilib olardilar. Xon bu bilan cheklanib qolmay, o'z armiyasi sonini ko'chirib keltirilgan xalqlar hisobiga ko'paytirgan ulardan o'z siyosatini o'tkazish maqsadida foydalangan.

Muhammad Rahim davrida urushlarda qo'lga tushirilgan o'lja va mollardan «g'on»³²⁹ olingan. 1227 (1812-1813) yili Muhammad Rahim Quyi Sirdaryo bo'yidagi qozoqlar ustiga hujum qilib, qo'lga katta o'lja kiritadi. Askarlar qo'lga tushgan molning bir qismini xonga ko'rsatmay, uylariga jo'natgan edilar. Muhammad Rahim Xivaga qayta turib, yo'lda shu mollarni qo'lga tushiradi³³⁰.

Buxoro amiri Amir Haydar bilan diplomatik aloqani mustahkamlab olgach, Muhammad Rahim qozoq yerlarini bosib olishga kirishdi. Shu maqsadda, 1227/1812-1813 yili o'zi bosh bo'lib, Dashti Qipchoq³³¹qa – qozoqlar ustiga yurish qiladi. U Moyli Chantal, Otaliq arnasi orqali Amudaryodan kechib o'tadi. So'ngra Qubosh, Qizali, Tangyor boshi, Qoqmasaksavul yo'li orqali Dashti

³²⁹Гон - юришларда туширилган ўлжанинг 1/5 қисми давлат фойдасига олинган.

³³⁰Мунис ва Оғаҳий. Фирдавс ул-иқбол. 176^a вар.

³³¹XII асрдан бошлаб жуда катта ҳудуд Днепр ва Қора денгизнинг шимолӣ қиргогидан то Иртиш ва Балхаш кўлигача, жанубда эса Хоразм ва Сирдарё этакларигача бўлган ерлар Дашти Қипчоқ, деб юритилган. Бу ном шарқда кенг танилган қипчоқ қабиласи атамасидан олинган. Юз йиллар давомида ушбу ҳудудда яшаб келган туркий қабила ва халқларбирлашди.

Oqtabon, Taqir qiri, Ko'ktepa, Chigili, Yangidaryo mavzularini bosib o'tib, Yaxshito'paga hujum qiladi³³².

So'ng har ikkala xonlikning umumiy dushmani bo'lgan Eronga qarshi kurashga va Xuroson yerlarini bosib olishga kirishiladi. Hijriy 1227 (1812-1813) yili xon o'zi bosh bo'lib, Xurosonga (hozirgi Turkmanistonning janubi va Eronning shimoli) yurish qiladi. Xivada uning o'rnida Qutlug' Murod inoq qoladi. Munisning yozishiga qaraganda, Hisor, Chilkon, Xisrav qal'alari bosib olingan. Rizo Qulixon «Hidoyat» va Kalot hokimi Paxtalixonlarning bo'ysunganliklari haqida elchilar xabar keltiradilar³³³.

Xurosonni bosib olish uchun bo'lgan kurashlar «g'azot» niqobi ostida shialarga qarshi tashkil qilinar edi.

U Quyi Sirdaryo bo'yidagi qozoqlarni ham bo'ysundirishga urinib ko'rdi, lekin ular allaqachon rus tobeligiga o'tishgan edi.

Muhammad Rahimxon mamlakatni markazlashtirish, uni qudratli davlatga aylantirishda qattiqqo'llik bilan ish tutdi. Siyosiy tarqoqlikka harakat qilayotgan mahalliy hukmdorlarga qarshi beshafqat kurashdi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Xiva xonligida davlat hokimiyatining markazlashuvi, uning qudratli davlatga aylanishi ma'muriy boshqarishning takomillashuviga, ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi tub o'zgarishlarning amalga oshuviga ko'p jihatdan bog'liq edi. Ana shuni yaxshi his qilgan Muhammad Rahimxon bu borada qator islohotlarni amalga oshirdi.

Muhammad Rahimxon I xonlikning ma'muriy boshqarilish tartibini tubdan o'zgartirdi. Ilgari butun xonlik hududi juda ko'p sonli bekliklar orqali idora qilinib kelinayotgan edi. Bekliklarda hukmdorlar o'z qo'llariga juda ko'p mol-mulklarni to'plab, mustaqil hokimlik tarafdori edilar. Ular markaziy hokimiyatga bo'ysunishdan bosh tortayotgan edilar. Shuni hisobga olib, Muhammad Rahimxon I xonlik hududida kentlarga ajralishni bekor qildi va mamlakatni

³³² *Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. 174^б, 175^а вар.*

³³³ *Ўша жойда. 182^б вар*

ma'muriy jihatdan 15 ta hokimlikka bo'ldi. Keyinchalik 26 ta hokimlik tashkil etildi³³⁴. Viloyat hokimliklari esa, o'z navbatida, masjid-qavmlarga bo'lindi. Xonlikda jami 1578 ta masjid-qavm bo'lgan. Viloyat hokimliklari xon tomonidan tayinlangan hokimlar orqali boshqarilgan, masjid-qavmlarining qozi va oqsoqollari esa viloyat hokimlari tomonidan tayin etilgan. Hokim va mahalliy hukmdorlar el orasida hurmat-e'tibor qozongan kishilardan tayinlanadigan bo'ldi³³⁵.

Muhammad Rahimxon I mamlakatda pul muomalasini tartibga solishda ham ibratli ishlarni amalga oshirdi. Hali, o'sha vaqtda xonlikda Buxoro xonligida zarb etilgan mis tangalar muomalada bo'lib, pulning qadrsizlanish darajasi eng yuqori nuqtaga ko'tarilgan edi. Bu savdo-tijorat ishlariga va soliq yig'ishga salbiy ta'sir ko'rsatib keldi. Muhammad Rahimxonning o'tkazgan islohoti bilan Ko'hna Arkda maxsus zarbxona tashkil etildi. Bu yerda oltin, kumush va misdan yasalgan xonlikning o'z pullari - tangalari zarb qilina boshladi.

Oltin va kumush tanganing bir tomonida uning zarb etilgan joyi va yili, ikkinchi tomonida xonning nomi bayon qilingan. Oltin tanga ulli (katta) va kichik tilloga ajratildi. Katta tillo ruslarning o'sha vaqtlardagi pul qiymatining 3 sum 60 tiyinigga, kichik tillo esa,

³³⁴ *Болтаев А. Хоразм тарихига оид ҳужжатлар //Қўлёзма, ЎзФАШИ – №9320. А. Болтаевнинг маълумотларига кўра, Асфандиёрхон замонида хонликда қуйидаги бекликлар бўлган: Ҳазорасп – ҳоким Исмоилхўжа Исломжоннинг акаси, Остона – ҳоким Шайх ул-ислом, Урганч – ҳоким Оллоберганбий, Кот – ҳоким Абдулла иноқ, Тошхўвуз – ҳоким Жуманиёз маҳрам, Қўшқўприк – ҳоким Катовул, Оқдарбанд – ҳоким Ниёз маҳрам, Гурлан – ҳоким Муҳаммад Шарифбой, Кўк Қашқа ҳоким, Кунғирот – ҳоким Кутлимуродбой, Кўҳна Урганч – ҳоким Нурмуҳаммад девон, Илонли – ҳоким Бобо девон, Тахта –ҳоким, Хонқа – ҳоким Муҳаммадхўжа Ҳожибой, Шоббоз – ҳоким Бектош оталий, Маноқ – ҳоким Нуржон Баҳодир, Фазибод – ҳоким юзбоши, Шайх – ҳоким юзбоши. Манғит - ҳоким Муҳаммад Ниёзбой, Хўжайли ҳоким Ёрмуҳаммадбой, Хўжайли – ҳоким Азизбий хўжа, Чуманай – ҳоким Абдул Раҳимбой, Тўрчи –ҳоким, Октепа –ҳоким, Қорогон –ҳоким, Хитой –ҳоким. Яна қаранг. Сабурова С. С. XIX аср ва XX аср бошларида Хива хонлигининг давлат тизими. Тарих фан. ном. дисс. Т., 2002. –Б. 92, Воҳидов Ш, Холиқова Р. Марказий Осёдаги давлат бошқаруви тарихидан. В.63-64.*

³³⁵ *Хива - 2500. Хива жаҳон маданияти дурдонаси. Урганч, 1997. – 65^б.*

1 so‘m 80 tiyiniga teng bo‘lgan. Bitta tilloning qiymati 18 ta kumush tangaga barobar bo‘lgan.

Kumush tanga xon tanga yoki oq tanga deb ham yuritilgan bo‘lib, uning qiymati ruslarning 20 tiyini qiymatiga teng edi. Mis pulning kichik miqdori shohi yoki shoyi deb yuritilgan. Shoyilar ham ikki shaklda bo‘lgan, ular abbos shoyi va yarim shoyi deb atalgan. Abbas shoyi rus pulining 10 tiyiniga, yarim shoyi esa, 5 tiyin qiymatiga ega bo‘lgan. Muhammad Rahimxon I xonlikda soliq tizimini ham tartibga soldi. Avvalgi mahsulot bilan yig‘ib olinadigan soliq xiroj o‘rniga, pul solig‘i solg‘utni joriy qildi. Ana shu yangi soliq tartibiga muvofiq, mulkdorlar yerga egalik qilish darajasiga qarab, uch toifaga ajraladi. Birinchi toifaga 10 tanob va undan ortiq yerga ega bo‘lgan mulkdorlar kirdi. Ular «a‘lo» deb yuritildi va yiliga davlatga uch tillo (54) tanga soliq to‘laganlar. Ikkinchi toifadagi mulkdorlar «adno» deb yuritilib, ular 5 dan 10 tanobgacha yerga egalik qilganlar. Ular xazinaga har yili 2 tillo (34 tanga) miqdorida soliq to‘laganlar. Uchinchi toifaga 5 tanobgacha yerga egalik qilgan mulkdorlar kirgan. Ular «ansat» deb yuritilgan. Shu guruhga kirgan fuqarolar davlatga yiliga bir tillo (18 tanga) soliq to‘lashga majbur edilar. Xonning maxsus yorligi bilan taqdirlangan mulkdorlar, saroy a‘yonlari, ruhoniylar va navkarlar soliq va natural majburiyatlardan (qozu, qochu, begor kabi) ozod etildi. Shuningdek, boquvchisini yo‘qotgan kambag‘al oilalar, yetim-yesir va nogironlar ham soliq to‘lovidan ozod etilgan edi³³⁶. Muhammad Rahimxon Ining soliq - moliyaviy siyosatining o‘ziga xos tomoni shundaki, avvalo, soliq solish va uni yig‘ib olish markaziy hokimiyat qo‘liga o‘tdi va endilikda soliq daftarlarida rasmiylashtirildi. Solg‘ut avvalgidek xohlagan vaqtda emas, balki kuzda hosil yig‘ishtirib olingandan so‘ng to‘planadigan bo‘ldi. Yana soliqning qat‘iy belgilangan miqdori mulkdorlarda yer mulklarini hamda undan olinadigan daromadni ko‘paytirish manfaatdorligini oshirdi, ularning bozor bilan aloqasining yanada yaxshilanishiga olib keldi, o‘z navbatida, hukumatning soliq siyosatida vujudga

³³⁶ *Хива - 2500. Хива жаҳон маданияти дурдонаси. -68 б*

kelgan muayyan tartib xonlikning moliyaviy imkoniyatini oshirdi, bu esa mamlakatda bunyodkorlik va obodonchilik ishlarini yanada kengaytirishga moddiy zamin yaratdi. Muhammad Rahimxon yuqoridagi muhim tadbirlarni amalga oshirishda uni qo'llab-quvvatlaydigan ijtimoiy tayanchga muhtoj edi. O'rtahol va mayda mulkdorlar toifasi, o'troq aholi, ulamolar, din peshvolari, turkman navkarlari va qoraqalpoq biylari xonning ishonchli tayanchi bo'ladilar. Chunki, ular kuchli hokimiyatdan manfaatdor edilar.

Xiva xonligining chet davlatlar bilan munosabati ham yaxshilana bordi. Jumladan, Eron, Buxoro, Rossiya va boshqa davlatlar bilan diplomatik aloqalari yaxshilangan.

Muhammad Rahimxonning vafotidan keyin uning o'g'li Ollohqulixon (1825-1842) taxtga chiqdi. Bu davrda o'zaro urushlar ko'p bo'ldi. Ollohqulixonga otasidan boy xazina va qo'shni davlatlarga ta'siri katta bo'lgan mamlakat meros bo'lib qoldi. Bu merosni saqlab qolish uchun Ollohqulixon bir necha marta qo'shni davlatlar ustiga lashkar tortib bordi. Sulh tuzilganiga qaramay, Buxoroning ustiga 7 marta yurish qilib, bir necha qishloqlarni talab qaytdi. Qariyb har yili Xurosonga yurish qilinardi.

1245/1829-1830 yili Ollohquli Xurosonga uchinchi marta yurish qiladi. Ali eli qal'asi bosib olinadi va u yerda yashayotgan xalq Xorazmga, Qilich Niyozboy arnasining etagi va Buldumsoz qal'asining atrofiga ko'chiriladi. Ular hozir ham shu yerda yashab kelmoqdalar³³⁷. Har yilgi chegara qishloqlariga bosqinchiliklarini hisobga olmaganda, Ollohqulixonning shaxsan o'zi bosh bo'lib, 5 marta Xurosonga yurish qilgan. Ba'zi bir shaharlarni bosib oladi, bir qancha qal'alarni vayron qiladi va u yerda yashayotgan ba'zi bir aholi toifalarini Xorazmga majburiy ravishda ko'chirib keladi.

Jumladan, 1826 yilda Xurosonning Oqdarband qishlog'ini bosib oldi va aholisini Xorazmga ko'chirdi. Xivaning shimoli-g'arb tomonidan ularga joy berdi. Hozir bu qishloq Oqdarband deb ataladi (Xivadan 16-18 km uzoqlikda, Ko'shko'pir tumani hududida.)

³³⁷ *Оғзахий. Рибз ур-давля, №5364/11, 3176 вар.*

Ogahiyning yozishicha, Olohqulixon Buxoro bilan keskinlashgan munosabatni tartibga keltirgandan soʻng, 1241 (1825-1826) yili Hazorasf hokimi, yaʼni oʻz birodari Rahimquli toʻra boshchiligida Xurosonga askar yuboradi.

Shunday qilib, Xiva xoni bilan Eron shohi oʻrtasida boshlangan oʻzaro kurashlar uzoq vaqt davom etadi. Eron ustiga Xiva xonlari tomonidan toʻxtovsiz uyushtirib turilgan yurishlar joniga tekkan Eron shohi doʻstlik oʻrnatishni iltimos qilib, Xiva xoniga elchi yuborgan. Elchi boʻlib kelgan Hodiixon xonga quyidagi nomani topshirgan: «Qadim zamonlardan to shu vaqtgacha Xorazm xonlari bila Eron podsholari orasida doʻstlik davom etib kelgan. Bizlar ham shu tariqa yoʻl tutsak, chunki ikki yurtning xalqi farogʻat va xotirjamlik bila hayot kechirishlariga sabab boʻlar edi!»³³⁸.

Bu nomani olgandan soʻng, Xiva xoni Olohqulixon unga javob yozib, oʻz elchisi Bikish xalifani Muhammadshoh huzuriga yuboradi. Erondan yana shohning Mirzo Rizo degan vaziri elchi boʻlib keladi. Shunga qaramasdan, ikki mamlakat oʻrtasidagi kurash keyinchalik ham davom etadi.

Xiva xonligining Oʻrta Osiyodagi xonliklar hamda Xurosondan tashqari, rus va boshqa xalqlar bilan boʻlgan munosabatlari haqida ham manbalarda maʼlumotlar bor³³⁹. XIX asrda Rossiya bilan Xiva xonligi oʻrtasida boʻlgan munosabatlarni bunga misol qilib keltirish mumkin.

Rossiyaga tobe boʻlgan yerlarga Xiva xonligi tomonidan hujumlar uyushtirilib turilgan. Buni Ogahiyning asarlarida keltirilgan maʼlumotlar ham isbotlaydi.

«1256/1840-1841 –yili Xiva xoni qoʻlida 1000 ga yaqin rus asirlari ozod qilingan. Rossiyaga yuborilgan Xiva savdogarlari maʼlum vaqtdan beri oʻz yurtlariga qaytarilmasdan, ushlab turilgan. Agar rus asirlarini ozod etib, oʻz yurtiga yuborilmagan taqdirda, Xorazm karvonining ham qaytib kelmasligi mumkin edi.

³³⁸ *Огаҳий, Руѣз уд-давла. 350а вар.*

³³⁹ *Ўша жойда. 350а вар.*

Otajon oxundni elchi tayinlanib, Xorazmdagi rus asirlari u bilan birga Rossiyaga yuborilgan. «Muhammad Sharif no‘g‘ayni qamoqdan chiqorib ... Otajon oxundg‘o qo‘shib, rus asirlari bilan mazkur yili jumodis-soniy oyining to‘rtida, dushanba kuni ruxsat berilgan. Anglisdin elchi bo‘lib kelgan shaxs bir sohibkim, rus yurtig‘a borurg‘a mayl ko‘rguzub, ijizat talab erdi, ani ham ul elchilarga hamroh qilib yubordi»³⁴⁰.

Asirlar Rossiyaga yetib borgandan so‘ng, Xorazm karvonlariga ham o‘z yurtlariga qaytishga ruxsat berilgan.

Rossiya bilan Xivaning savdo va diplomatik munosabatlari yomonlashganligi sababli Xiva bozorlarida oldi-sotdi ishlari kamayib qoladi. Xonlik iqtisodi pasayib, bozorda narx-navo ko‘tarilib ketadi. Mamlakatda ahvolning bunday yomonlashuvi natijasida xon Rossiya talablarini bajarishga kirishdi. Endi ular ruslarning hujum qilishidan ham ko‘rquvga tusha boshlagan edilar. N.Zalesov³⁴¹ va N.I.Veselovskiylarning³⁴² ma‘lumotlariga qaraganda, asirlar masalasi hal etila bermagach, 1836 –yili Rossiya territoriyasida bo‘lgan Xiva xonligiga tegishli kishilarni ushlab turish haqida buyruq chiqqan. Rossiya hukumati nomidan Perovskiy Xiva xoniga rus asirlarining hammasini o‘z yurtlariga qaytarishni, rus yerlarini talon-toroj qilishga xotima berishni, Rossiya savdogarlariga ham Rossiyada bo‘lgani kabi sharoit yaratib berilishini talab qilib, noma yuborgan. 1837 –yili faqat 25 tagina asir qaytarilgan edi. Shuning uchun Xiva savdogarlari ham o‘z yurtlariga qaytarilmagan. Yana ikki yildan so‘ng, 1839 –yil 18 sentabrda Xiva xoni Rossiyaga 80 ta asir bilan xat yuborgan. Shundan so‘ng, 1839 –yili Perovskiy boshchiligida Xivaga yurish qilingan, Xivaga yuborilgan otryad 5217 kishidan iborat bo‘lgan.

³⁴⁰ *Огаҳий, Риёзуд-давла. 350'*

³⁴¹ *Залесов Н. Посольство в Хиву капитана Никифорова в 1841г./ВС. 186.№11,стр. 45.*

³⁴² *Веселовский Н.И. Очерки историко-географических сведений о Хивинском ханстве СПб.,-S.314,315*

Lekin qishning qattiq kelganligi tufayli otryad Oqbuloq qal'asidan orqaga qaytishga majbur bo'lgan.

Ruslarning Xivaga yurishi muvaffaqiyatsiz chiqqan bo'lsa-da, ularning ba'zi maqsadlari amalga oshdi. Rossiya hukumati tomonidan shunday jiddiy choralar qo'llanishi natijasida 1840 –yili 418 kishidan iborat rus asirlari Otaniyoz hoji boshchiligida O'z yurtlariga qaytarilgan. Bundan tashqari, Xiva xoni Ollohquli shu yili 18 –iyulda bundan keyin Rossiya yerlariga hujum etmaslik va ruslardan qo'lga tushirilgan asirlarni sotib olmaslik haqida farmon chiqargan³⁴³.

T.Ne'matov o'zining «Xiva bilan Rossiya o'rtasidagi munosabatlar tarixiga doir ba'zi manbalar» asarida bu masalani juda to'g'ri talqin etadi. Xiva xonining rus asirlarini ozod etishi va ularni o'z vatanlariga qaytarilishining sababini u quyidagicha tushuntiradi: «Xiva xonligining ichki vaziyati Rossiya bilan tezlikda diplomatik va savdo aloqalarini tiklashni talab qilar edi»³⁴⁴.

Xiva bilan Rossiyaning diplomatik aloqalari birmuncha yaxshilangach, rus elchilari Xivaga kela boshladilar. 1257/1841-1842 yilda kapitan Nikiforov rahbarligida elchilar keladi³⁴⁵. Lekin Nikiforov boshliq missiya o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erisha olmadi. Ayniqsa, chegara masalasida Xiva xoni Ollohqulixon uning fikriga qo'shilmagan edi. Xon bu talablarni rad qildi va o'z elchilarini Nikiforov bilan Rossiyaga yubordi.

1257/1841-1843 yili Rossiyaga elchi bo'lib ketgan Vais Niyozboy 1258/1842-1843 yili Xivaga qaytib keladi. «Vais Niyozboykim, urus elchiligiga ketib erdi, andoqkim yuqoriroq mazkur bo'lib erdi, urusdin Danilevskiy otlig' elchi bila Xorazmg'a

³⁴³ Огаҳий. Рийз уд-давла. 356^{a,b}вар.

³⁴⁴ Неъматов Т. Хива билан Россия ўртасидаги муносабатлар тарихига доир баъзи манбалар. -Т., 1957. - Б. 162.

³⁴⁵ Никифоровнинг Хивага келиши Н.И.Веселовскийнинг асарида батафсил ёритилган.

keldi»³⁴⁶. Rossiyadan kelgan bu elchi ko‘p tufhalar va sovg‘alar bilan kelgan edi. «Ul jumladin bir taxtravon otlig‘ aroba erdi»³⁴⁷.

Nikiforovdan so‘ng Xivaga G.I.Danilevskiy boshchiligida kelgan missiyaning asosiy vazifasi Xiva xonligi bilan Rossiya o‘rtasida do‘stlik, savdo va diplomatik munosabatlarni kengaytirish choralarini ko‘rish edi. Shuningdek, Rossiya bilan bo‘lgan elchilik munosabatlaridan tashqari, Oллоhqulixon davrida atrof mamlakatlardan deyarli har yili Xivaga elchilar kelib, u mamlakatlarga ham elchilar yuborilib turilgan.

Ma‘lumki, Angliya mustamlakachilarining «Ost-Hindiston» kompaniyasi O‘rta Osiyoga o‘z josuslarini yuborgan. Shulardan biri 1843 –yilda 33 yashar kapitan Abbot Xivaga kelgan. U Rossiyaga qarshi ittifoq tuzishni taklif qilib, rus qo‘shinlariga qarshi kurashish uchun qo‘shinlar yuborishga va‘da qilgan.

Ogahiy «Riyoziy ud-davla» asarida Abbotning Xivaga kelishi haqida shunday yozadi: «Ham ul 1255 (1839-1840) yili zulqa‘da oyining o‘n beshida Hindustondin Haybat sohib otlig‘ anglis elchisi kelib, oston bo‘slig‘a musharraf bo‘ldi»³⁴⁸.

Bu to‘g‘rida Bayoniy keltirgan ma‘lumotlar diqqatga sazovordir. Bu ma‘lumotlar Angliyaning ig‘vogarlik siyosatini ochib tashlaydi. Bayoniy yozishicha, Abbot Xiva xoni Oллоhquliga bunday degan: «Ruslar yana ellik yildan so‘ng sizlarning viloyatingizni olur. Agar xohlasangizkim, viloyatingizni davom qo‘lingizda turib, hech kishi anga mutaarriz bo‘la olmag‘ay, viloyatingizni xatlashib bizga bering. Xorazm ingliz yurti bo‘ldi degan so‘z ishtihor topsun, andin so‘ng bu xavfdin forig‘ bo‘lursiz. Bizning sizga bu so‘zimiz hoshokim, nafsoniyat yuzidan bo‘lgay, balki mahz do‘stlikdurkim, g‘arazimiz Rossiyaga Hind yo‘lini masdud etmakdur. Bizdan sizga foyda yetar, aslo zarar yetmasdur, xatlashg‘onda xohishingizcha shartnoma yozdorong, biz qabul

³⁴⁶Огаҳий. Риёз уд-давла, 356^{ab}, вар. Яна қаранг: Веселовский Н.И. Очерк историко-географических сведений о Хивинском ханстве, СПб., 1877. – С. 320-331.

³⁴⁷Огаҳий. Риёз уд-давла, 362 вар.

³⁴⁸Ўша жойда, 352 вар.

etarmiz»³⁴⁹. Lekin Abbotning bu urinishlari muvaffaqiyatsiz tugadi. Xiva xoni Oллоhquli uning takliflarini qat'iy rad etdi va Abbotga bunday deb javob berdi: «Alhol, ul bizning ustimizga yurish etgan ermas. Ellik yilgacha kim bor, kim yo'q. Biz ellik yilda kelur ishning andishasi bila bugun yurtimizni qo'ldan birovga bermasmiz. Bizdan so'ng'ilar ne ish etmakni xohlar, etsunlar»³⁵⁰.

Abbotning Xivaga kelishini Ogahiyga nisbatan Bayoniy mufassalroq bayon etgan. Bunday ig'volarga qaramasdan, Xiva xonligi bilan Rossiya o'rtasidagi diplomatik va savdo munosabati rivojlanib bordi. Chunki iqtisodiy hayot shuni talab qilar edi.

Xiva xonlari ichida mashhurlaridan biri bo'lgan Oллоhqulixon Chorjo'y shahriga qilingan yurish paytida duchor bo'lgan kasallikdan so'ng 1842 –yilda vafot etadi. U 18 yil xon bo'ldi. Undan 7 o'g'il qolgan. U o'zi hayot vaqtida tayyorlab qo'yilgan Pahlavon Mahmud maqbarasi yoniga dafn etiladi.

Undan keyin Xiva xonligi taxtiga Rahimquli (1842-1846) keladi. Rahimquli davrida ham qo'shni davlatlar ustiga yurishlar uyushtirilib turilgan. Jumladan, 1259 (1843-1844) yili Buxoro ustiga yurish qilinadi. Amir Nasrullo bilan munosabat buzilgandan keyin esa Buxoro yerlarini talash uchun maxsus kuch tayin etilgan. Ular ma'lum muddat muntazam ravishda Buxoro yerlariga hujum etib turganlar³⁵¹.

XIX asrda Xorazmda yozilgan tarixiy asarlarda Qo'qon xonligi bilan bo'lgan diplomatik munosabatlarga oid materiallar ham keltirilgan. Jumladan, 1259 «zu-l-qa'da oyining o'n to'rtida chahorshanba kuni /1843 yili, 21 dekabr Rahimquli Xo'qand elchisi Qorabosh dodxohg'a Bobobekni elchilik yo'suni bila qo'shub, muhabbatnoma bilan Xo'qand viloyatiga yubordi.»³⁵² Yoki «1260 – yili jumodi-l-avval oyining o'n to'qqizida juma kuni /1844 yili, 7 may Xo'qandga ketgan elchilar, ya'ni Bobobek va Yaxshimurodbek

³⁴⁹ Баёний. Шажараи хоразмиохий, №9596, 301⁶ вар.

³⁵⁰ Шу асар, 301⁶, вар.

³⁵¹ Огаҳий. Зубдат ут-таворих. №5364/ III, 397^{ab}

³⁵² Огаҳий. Зубдат ут-таворих. №5364/ III, 397^{ab}

mazkur viloyatning hukmroni Sheralixonning qo‘shg‘on elchisi Qorabosh dodxoh va yuborgan tuhfa-larin Xivaga keltirdilar»³⁵³.

Shuningdek, Buxoro amirligi bilan bo‘lgan munosabatlarga ham Ogahiy asarlaridan misol keltirish mumkin³⁵⁴. Rahimquli davrida ruslarning Ollohqulixon rad etgan shartlari qabul qilinib, tasdiqlangan. Ruslarning yuborgan sovg‘alari qabul qilindi. Shartga ko‘ra, Xiva xonligi Rossiyaning savdo ishlariga yaqindan yordam berishi va savdogarlarini himoya qilishi, ulardan yerli xalq qatori boj olishi, xonlikda doimiy rus davlati vakili bo‘lishiga rozi bo‘lishi kerak edi. Sirdaryo bo‘yidagi Rossiyaga tobe bo‘lgan qirg‘izlardan soliq olmoqchi bo‘lgan xivalik o‘limga mahkum qilinsin, deyilgan bir qancha shartlar 1842 –yil 27 –dekabrda Rahimqulixon tomonidan qabul qilindi va tasdiqlandi³⁵⁵.

Ko‘rinib turibdiki, Xiva xonligi Rahimqulixon davrida Buxoro va, shuningdek, O‘rta Osiyodagi xonliklar bilan elchilik munosabatlari va savdo-sotiq ishlarini yaxshilashga harakat qilingan.

Rahimqulixon vafotidan keyin davlat tepasiga Muhammad Amin (Madaminxon, 1845-1855) keladi.

1855 yili turkmanlarga qarshi yurish vaqtida Muhammad Amin halok bo‘lgandan keyin Saraxsdan qochgan qo‘shin Abdulloni xon (1855 y. 5 oy) qilib ko‘tardi. Lekin u, ko‘p o‘tmay, ya’ni olti oydan so‘ng yovmutlar bilan bo‘lgan urushda turkmanlar tomonidan o‘ldiriladi va Xivada xonlik taxtiga Kutlug‘ Murod (1855 y. 7 oy) chiqadi.

Turkmanlardan yengilgan Xiva xoni Kutlug‘ Murod elchi yuborib, sulh tuzish masalasini o‘rtaga tashlaydi. Xiva xonligi beklaridan biri bo‘lgan Muhammad Niyozbiy paytdan foydalanib, turkmanlar bilan til biriktiradi. Uning maqsadi xonni o‘ldirib, Xiva taxtini egallash edi. Buni uning turkmanlarga bergan va‘dasidan tushunib olish qiyin emas.

³⁵³ *Огаҳий. Зубдат ум-таворух. №5364/ III, 405^a*

³⁵⁴ *Ўша жойда. 414⁶, вар.*

³⁵⁵ *Ўша жойда. 386⁶, вар.*

«... Turkmanlarga va'da etdikim, agar sizlarning yordamingiz bilan saltanat menga yetushsa, qilgan xizmatlaringiz uchun uch kun muddatigacha shahar xalqining asbob va nuqud, mol va ashyosin g'orat va toroj qilurg'a ruxsat berurman, balki barcha ishda sizlarni sohibixtiyor qilurman»³⁵⁶.

Muhammad Niyozbiy sulh tuzish niqobi ostida o'ziga yaqin bo'lgan turkmanlar bilan birga Xivaga kelib, Qutlug' Murodni hanjar urib o'ldiradi.

Bu voqeadan xabar topgan xonning vaziri Muhammad Ya'qub mehtar yovmutlarga qarshi shaharda qirg'in uyushtiradi. Ogahiyning yozishicha, bu qirg'inda shu qadar ko'p kishi o'lganki, ko'chalar, mahallalar va bozorlar o'likka to'lgan. Xalq bir haftagacha uyidan chiqib, bir-birinikiga borish rasmini unutgan. Kesilgan boshlardan bir qancha yerlarda baland minoralar ko'tarilgan³⁵⁷.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Xiva xonligidagi turkman qabilalari o'zlarining mustaqilliklari uchun Xiva hukumatiga qarshi keskin kurashadilar.

Kutlug' Murod o'ldirilgandan keyin Xivada davlat tepasiga Sayyid Muhammad (1856-1865) keladi.

Ogahiyning asarida, Sayyid Muhammad Qo'ng'irog ustiga bostirib borgan vaqtda haqiqatan ham uchta rus paroxodining Qo'ng'irotga yuborilganini ko'ramiz³⁵⁸. Lekin uning yozishicha, xon askarlari bilan ular o'rtasida hech qanday to'qnashuv bo'lmagan.

Sayyid Muhammad vafotidan so'ng davlat tepasiga Muhammad Rahim II «Feruz» (1865-1910) keladi. U Xiva taxtida eng ko'p vaqt o'tirgan xonlardan biri Sayyid Muhammadrahimxon II 47 yil-u 15 kun davomida xonlikni boshqardi. Feruzning asli ismi Bobojon to'ra bo'lib, u 1845 –yili navro'z ayyomida Xorazm xoni Sayyid Muhammadxon xonadonida tug'iladi. Bobojon to'ra otasining vafotidan so'ng, 1865 –yili, o'n to'qqiz yoshida Xiva taxtiga ko'tarildi.

³⁵⁶ *Огаҳий. Жомий ул-воқеоти султоний. 302^б вар.*

³⁵⁷ *Ўша жойда. 305^а, 307^а вар.*

³⁵⁸ *Огаҳий. Гулшани давлат, 197^б, 200^б вар.*

O'rta Osiyo yerlarini birin-ketin egallayotgan Rossiya imperiyasining Xorazmga yurish boshlashiga quyidagi hodisa ham bahona vazifasini o'tagan. Buni Bayoniy «Shajarai xorazmshohiy» asarida shunday keltiradi: «Bahri Xazor kanorida baliqchilik etib yurugan Rusiya fukarolaridin ba'zilarini Manqishloq qozoqlaridin bir jamoa asir etib kelturub, Xivaqda sotmoq boshladilar. Ikki yil oradin o'tub, asirlar yigirma birga yetdi. Hijratning ming ikki yuz sakson yettinchi yilida Rusiya davlati mundin ogoh bo'lub, elchi yuborib, ul asirlarni tiladi»³⁵⁹.

Elchi keltirgan noma mazmuni bunday edi: «Siz jamoa bila bizlar burundin do'stlik bila ravish etib yurur erduk. Alhol, eshiturmizkim, bir necha o'g'ri va avboshlar bizi jamoadin bir necha kishini asir etib eltib, ul taraflarda sotg'on ermishlar. Tavaquq' uldurkum, burungi do'stlikning rioyasini tutib, ul asirlarni berib yuborgaysiz. Qozonlidin ul tarafi sizning haddingiz va bu tarafi bizga mutaalluqdur. Mundin so'ng aslo bir-birimizning haddimizga mutaarriz bo'lmay, do'stona sulukni masluk tutg'aymiz. Odam avlodi aziz va mukarram jamoadurlar. Olarni chorpoy qatorlarida bozorga solib sotmoq hech viloyatda yo'qdur. Sizlar ham mundog' ishni etmasangiz yaxshiroqdur. Bu so'zlarni qabul etsangiz, biz jamoaning boisi minnatdorliqimizdur. Vagarna, mundog' ishlarning oxiri nizo' va harbgaga munjar bo'lur, vassalom»³⁶⁰. Xorazm xoni nomaga javoban qullarni ozod etsa, adolatdan bo'lardi, albatta. Ammo, bu bo'lg'usi istiloni to'xtata olmas, biroz kechiktirishi mumkin edi, xolos. Zotan, «Rusiya davlati mundin burun besh martaba Xorazm ustiga askar yuborib, alarning ba'zilarini Xorazmga borib urishib, qirilib, hanuzgacha aslo zafar topa olg'onlari yo'q erdi»³⁶¹.

Qullikka qarshioqilona so'zlar yozgan imperiyaning necha-necha «aziz va mukarram jamoalarni» shafqatsiz ravishda asriy

³⁵⁹ Баёний. Шажарай хоразмиохий. 452^b, 453^a var.

³⁶⁰ Ўша жойда.

³⁶¹ Баёний. Шажарай хоразмиохий. 458^b var.

qullik asoratiga tortayotgandi. Xonning rad javobi chor armiyasi hujumini tezlatdi. Chunki, «Ushbu yili Rusiya davlati Samarqand va Zarafshon vodiylarini zabt etib, Xo‘jand bila Buxoro oraliqlariga kirgan»³⁶², navbat Xorazmga yetgan va elchi maktubida muqarrar «nizo’ va harb»dan ogohlantirilgan edi.

Muhammadrahimxon II davrida, 1873 yili Xiva general Kaufman qo‘shinlari tomonidan bosib olindi va Rossiya tarkibidagi tobe davlatga aylantirildi.

Xivani boshqarishni davom qildirishni Fon Kaufman Muhammad Rahimxon II ga topshiradi.

Xivani boshqarish uchun devon tuziladi. Devon tarkibiga chor Rossiyasi vakillari ham kiritiladi. Xivani boshqarish chorizm qo‘shinlarini oziq-ovqat, yem-hashak bilan ta‘minlash maqsadiga qaratiladi.

Xiva zabt etilgach, general Kaufman Xiva turkmanlariga qarshi bosqinchilik urushini boshlaydi. Ularga 600 000 so‘mdan ziyod tovon to‘lash yuklanadi. Ayni shu bosqinchilik bahonasida turkman aholisi qirg‘in qilinadi. Butun turkman qishloqlari yoqib yuboriladi, chorva mollari tortib olinadi.

Xiva xoni Muhammad Rahimxon II va general Kaufman o‘rtasida 1873 –yil 12 –avgust kuni Xiva xonligi uchun og‘ir va asoratli shartnoma tuziladi. Shartnoma tufayli Xiva xonligi chor Rossiyasiga qaram bo‘lib qoldi. Jumladan, shartnomaning I bandiga binoan, Xiva xoni o‘zini «Rusiya imperatorinning vafodor tobei deb bildi»³⁶³.

Muhammadrahimxon I ayyor va o‘z manfaatlariga pishiq hukmdor edi. Buni quyidagi misolda ko‘rish mumkin. Xorazm aholisiga solingan ikki million ikki yuz ming manot miqdoridagi soliqning uch yuz ming manoti Yovmutlar hissasiga tushadi. Buni

³⁶² *Ўша жойда 554⁴ вар.*

³⁶³ *Правительственный вестник. 1878, №300 Ҳасан Мурод Муҳаммад Амин ўғли. Хоразм тарихига доир материаллар. В.87-107*

undirish ham Xorazm xoni zimmasiga yuklatilgandi. Yovmutlarga azaliy keki bo'lgan xon Kaufmanni ularga qarshi qayraydi: «... Kaufman yigirma bir to'pg'a egalik etgonda, xon hazratlari deb erdilar: «Yavmut jamoasi bag'oyat sarkashdurlar. Siz bizning hamma to'plarimizni olib ketsangiz, ondin so'ng biz yavmutni boshqora olasmiz va bu uch yuz ming manotii ham, o'zungiz olmasangiz, bizga sarkashlik yuzidin taallul ko'rguzub, tezlikda bermasdur»³⁶⁴. Bu qayrovdan so'ng Kaufman ikki to'pni yovmutlar qatli uchun olib, o'n to'qqizini xonga qaytaradi. Shunday qilib, xon yovmutlardan Kaufman qo'li bilan qasos oladi.

Muhammadrahimxon II - Feruzdan 6 o'g'il qolgan. U vafot etgan kuni Xiva taxtiga uning to'rtinchi o'g'li Sayyid Isfandiyor (1910-1918) ko'tarildi.

Isfandiyorxon xonlik davrini yangiliklardan boshladi. Uning farmoni bilan xonlik aholisi qadimdan to'lab kelayotgan soliqlarning bir necha turi qisqartirildi. Jumladan, yiliga har kishi davlat uchun 12 kun tekinga ishlab berishi va 2,5 tanga soliq to'lashi shart edi. Aholi begor deb atalgan ushbu soliq turidan, shuningdek, yiliga 2 tanga miqdorida suv solig'i to'lashdan ozod qilindi.

General-mayor unvoniga ega bo'lgan Isfandiyorxon ham otasi kabi rus podshosining ko'plab orden va medallari bilan mukofotlangan.

Isfandiyorxon zamonida bir necha marta xalq qo'zg'olonlari bo'lib o'tdi. Xon bu qo'zg'olonlarni ruslarning yordami bilan bostirdi. Bir necha marta Qurbon Muhammad sardor - Junaydxon boshliq turkmanlar Xivani taladilar.

Isfandiyor davrida ham anchagina binolar, telegraf, shifoxona, madrasalar, masjidlar, bog'lar qurilgan. Isfandiyorxon Xivadagi Ichon Qal'aning shimoliy tomonidagi vayron bo'lib yotgan yerlarni obod qilib, uni Toza Xivaq nomi bilan atashga farmon bergan. Bulardan tashqari, Isfandiyorxon 1911-1913 yillarda Nurullaboy saroyi deb nom olgan nihoyatda chiroyli mehmonxona binosini qurdirdi. Mehmonxona 7 xonadan iborat bo'lib, yevropacha shaklda

³⁶⁴ Баёний. Шажараи хоразмиюҳий. 475^b, 476^a var.

qurilgan. Uning arxitektori A.M.Roop degan rus fuqarosi bo'lgan. Bu yerda xonlikda birinchi marta elektr chirog'i yoqilgan.

1914 yilda Isfandiyorxon onasi Qutlug'jamolbika vafotidan so'ng, unga atab Pahlavon Mahmud maqbarasida bir qorixona qurdirdi. Bu qorixonaning bir hujrasidagi uchta qabrning bittasida Qutlug'jamolbika dafn qilingan. Hujra ichi va qabrlar chiroyli koshinlar bilan bezatilgan.

1918 –yilning 1 –oktabrida Junaydixonning buyrug'i bilan Xiva yaqinidagi Ismomut ota qabristoni shayxining o'g'li Onnagaldi Isfandiyorxonni Nurullaboy saroyining mehmonxonasida so'yib o'ldiradi. Buning sababi, birinchidan, turkmanlardan chiqqan Junaydixon o'zini «xon» deb e'lon qilmoqchi ekanligi bo'lsa, ikkinchidan, Rossiyada bo'lib o'tgan oktabr inkilobidan keyin rus askarlarining Xivadan ketib qolgani bo'ldi.

Isfandiyorxon turkmanlar tomonidan o'ldirilgach, Junaydixon hokimiyatni o'z qo'liga oldi. Lekin u Xiva taxtida o'tira olmasligi sababli, taxtga marhum xonning akasi Sayyid Abdulloni (1918-1920) ko'tardi. Sayyid Abdullo nomigagina xon bo'lib, xonlikda boshqaruvni Junayd amalga oshira boshladi. Uning qarorgohi Xivadan 45 km. g'arbda joylashgan Taxta tumanidagi Badirkant qishlog'ida edi. O'zini «xon» deb e'lon qilgan Qurbon Muhammad sardor (Junaydixon) Xiva xonligida mis va kumush tangalar zarb qildirdi³⁶⁵. Tangalarga uning nomi yozilmasa ham, 1918-1919 yillarda zarb qilingan bu tangalar xalq tilida «Junayd» pullari nomini oldi

1919 –yilning oxirida To'rtko'lda tuzilib, 1920 –yil 2–fevralda Xivaga kirib kelgan Qizil Armiya qo'shinlari Junaydixon lashkarlarini tor-mor etib, hokimiyatni sovetlarga olib berdi.

Xivaning oxirgi xoni Sayyid Abdullo taxtdan voz kechdi. U taxtda 1918 –yil 3 –oktabrdan 1920 –yil 1 –fevralgacha o'tirgandi.

³⁶⁵ *Хива мамлакатида Жунайдахоннинг тутган ўрни ҳақида муфассал қар.: Ражабов Қ. Хоразмда истиқлол ҳаракати ва Жунайдахон //Жамият ва бошқарув. 2000, №1. - Б. 36-43: Қўшжонов О., Полвонов Н. Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар. - Б 323, ва кейингилари.*

2-fevral kuni Ko'hna Ark maydonida ko'p ming kishilik miting bo'lib, unda xonning taxtdan ag'darilgani e'lon qilindi. Xon «o'z iltimosiga binoan» Xivada qoldirildi. 5 kishidan iborat Muvaqqat hukumat tuzilib, 26-30 aprel kunlari Butun Xorazm xalq vakillarining 1-qurultoyini chaqirdi. Qurultoy eski Xiva xonligi hududida Xorazm Xalq Sho'rolar Jumhuriyati tuzilgani va uning 1 Konstitutsiyasi (Asosiy qonuni) qabul qilinganini e'lon qildi. Yangi hokimiyatning a'zolari saylandilar.

Shu yil 12 iyul kuni yangi hukumatga qarshi tayyorlangan katta isyon bostirildi, uning 5 rahbari otib tashlandi. Bu isyonga rahbarlik qilganlardan biri deb topilgan Sayyid Abdullo va barcha xon avlodlari Xivadan surgun qilindi.

Xulosa qilib aytganimizda, Xiva xonligining XIX asr va XX asr boshlaridagi, ya'ni Qo'ng'irotlar sulolasi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoliga yakun yasar ekanmiz, xonlikda qo'shni xalqlarga qarshi bosqinchilik urushlari olib borilganligi bilan birga, xonlikning qo'shni Buxoro va Qo'qon xonliklari, Afg'oniston, Eron, Hindiston va Rossiya davlatlari bilan savdo va elchilik aloqalari qayta tiklanganligini ko'ramiz. Bu davrda Xiva xonligi ham jahon bozoriga tobora jalb qilina boshlagan, Xiva, Urganch, Hazorasp, Qo'ng'irot kabi shaharlarining ichki va xalqaro savdodagi mavqei oshdi. Poytaxt Xiva shahrida me'moriy qurilishlar va obodonchilik ishlariga nihoyatda katta e'tibor berildi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Xiva xonligida davlat hokimiyatining markazlashuvi, uning qudratli davlatga aylanishi ma'muriy boshqarishning takomillashuviga, ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi tub o'zgarishlarning amalga oshirishiga ko'p jihatdan bog'liq bo'lgan. Ana shuni his qilgan Muhammad Rahimxon I bu borada qator islohotlar o'tkazib, quyidagilarni amalga oshirdi:

1. Ilgari butun xonlik hududi juda ko'p sonli bekliliklar orqali idora qilinib kelinayotgan edi. Bekliklardagi hukmdorlar esa o'z qo'llariga juda katta yer-mulklarni to'plab, mustaqil hokimlik tarafdori edilar. Ular markaziy hokimiyatga bo'ysunishdan bosh tortayotgan edilar. Shuni hisobga olib, Muhammad Rahimxon I

xonlik hududida beklklarga bo‘linishni bekor qildi va mamlakatni ma’muriy jihatdan 15 ta hokimlikka bo‘ldi. Keyinchalik esa 26 ta hokimlik tashkil etildi.

2. Viloyat hokimliklari esa, o‘z navbatida, masjid –qavmlarga bo‘lindi. Xonlikda jami 1578 ta masjid –qavm bo‘lgan. Viloyat hokimliklari xon tomonidan tayinlangan hokimlar orqali boshqarilgan, masjidning qozi va oqsoqollari esa viloyat hokimlari tomonidan tayinlangan. Hokim va mahalliy hukmdorlar el orasida hurmat-e’tibor qozongan kishilardan tayinlanadigan bo‘ldi.

3. Davlat hokimiyatining boshqaruv tizimi tartibga keltirildi, u ixchamlandi va qisqartirildi. Ma’lumki, Abulg‘oziy Bahodirxon zamonida xonlikning boshqaruv tizimida 360 ta lavozim ta’sis etilgan bo‘lib, bu davlatni idora qilishda ancha qiyinchiliklarni tug‘dirib kelayotgan edi. Endilikda boshqarish tizimida ortiqcha lavozimlar bekor qilindi va quyidan yuqorigacha 100 ta lavozim ta’sis etildi. Boshqaruv apparatining lavozimlariga xon tomonidan bilimli va tajribali amaldorlar tayinlanib, ularni vazifasiga qarab ish xaqi belgilandi. Davlat apparati xodimlariga to‘lanadigan ish haqi uchun fuqarolardan o‘zboshimchalik bilan pul to‘plash huquqlari qat’iyan ta’qiqlandi.

4. Oliy Kengash deb ataluvchi boshqarish organi tasis etildi. Oliy Kengash davlat hokimiyatining eng yuqori organi bo‘lib, u qonun chiqaruvchilik, ma’muriy boshqarish va Oliy sud vazifalarini bajardi.

5. Pul muomalasini tartibga keltirish borasida ibratli ishlar amalga oshirildi. O’sha vaqtda xonlikda Buxoro xonligida zarb etilgan mis tangalar muomalada bo‘lib, pulning qadrsizlanish darajasi eng yuqori nuqtaga ko‘tarilgan edi. Bu savdo-tijorat ishlariga salbiy ta’sir ko‘rsatar edi. Muhammad Rahimxon I Ko‘hna Arkda maxsus zarbxona tashkil etdi. Bu yerda oltin, kumush va misdan yasalgan xonlikning o‘z pullari-tangalari zarb qilina boshladi.

6. Soliq tizimi tartibga keltirildi. Avvalgi mahsulot bilan yig‘ib olinadigan soliq-xiroj o‘rniga pul solig‘i solg‘ut joriy qilindi.

Xonning maxsus yorlig‘i bilan taqdirlangan mulkdorlar, saroy a‘yonlari, ulamolar va navkarlar soliq va natural majburiyatlardan (qozuv, qochuv, begor kabi) ozod etildi. Shuningdek, boquvchisini yo‘qotgan kambag‘al oilalar, yetim-yesirlar va nogironlar ham soliq to‘lovidan ozod etilgan edi.

Soliq solish va uni yig‘ib olish markaziy hokimiyat qo‘liga o‘tdi va endilikda soliq daftarlarida rasmiylashtirildi. Solg‘ut avvalgidek xohlagan vaqtda emas, balki kuzda hosil yig‘ishtirib olingandan keyin to‘planadigan bo‘ldi. Soliq miqdorini qat‘iy belgilanganligi mulkdorlarda yer mulklarini hamda undan olinadigan daromadni ko‘paytirish manfaatlarini oshirdi, ularning bozor bilan aloqasining yanada yaxshilanishiga olib keldi. O‘z navbatida, hukumatning soliq siyosatida vujudga kelgan muayyan tartib xonlikning moliyaviy imkoniyatini oshirdi, bu esa mamlakatda bunyodkorlik va obodonchilik ishlarini yanada kengaytirishga moddiy zamin yaratdi.

7. Mamlakatning harbiy qudratini mustahkamlash borasida katta ishlar amalga oshirildi. Harbiy sohada amalga oshirilgan bir qator tadbirlar tufayli xonlikning harbiy qudrati mustahkamlandi, uning muntazam armiyasi vujudga keldi.

8. Qo‘shinlarining tashkiliy tuzilishi va harbiy taktikasida ham jiddiy o‘zgarishlar yasaldi. Xonlikning qayta tashkil etilgan harbiy qo‘shini uning kuch-qudratining asosiy tayanchi bo‘ldi.

Har bir davlatni boshqarishda amaldor shaxslarning o‘rni katta. O‘rta Osiyo xonliklarida ham oliy hukmdor o‘z hukmronligini maxsus mansabdorlar, xodim va xizmatchilari orqali amalga oshirgan.

Biz bir qator amallar, mansab va unvonlarni, ular egalarining vazifalarini Xiva xonligida joriy bo‘lib, amal qilishini ko‘rdik. Shu narsa ma‘lum bo‘ldiki, mazkur davlatda markaziy hukumat kuchli bo‘lganida aholi tinch va totuv yashagan. Davlat barqaror va kuchli bo‘lgan. Aksincha qaysi davlatda markaziy hukumat zaif bo‘lsa, unda o‘zaro janjal va nizolar, boshboshdoqlik ko‘payib xalq bunday olishuvlardan azob chekkan.

Muhammad Rahimxon I yuqoridagi muhim tadbirlarni amalga oshirishda, uni qo‘llab-quvvatlaydigan ijtimoiy tayanchga muhtoj edi. O‘rta hol va mayda mulkdorlar toifasi, sartlar, musulmon ruhoniylari, turkman navkarlari va qoraqalpoq biylari xonning ishonchli tayanchi bo‘ldi. Chunki ular kuchli hokimiyatdan manfaatdor edilar. Muhammadrahimxon I ning vorislaridan bo‘lgan Sayyid Muhammadrahimxon II ham o‘z hukmronligi davrida Xiva xonligida otadan-bolaga meros bo‘lib kelayotgan ko‘p mansablarni qonun yo‘li bilan bekor qildi. Lekin ko‘p unvonlarning egalari xazinadan olayotgan maosh va ba‘zi imtiyozlaridan mahrum bo‘lsalar ham, unvonlarini faxriy unvon sifatida saqlab qolganlar. Aytib o‘tish joizki, Xorazm o‘lkasida hech bir davrda Muhammadrahimxon II hukmronligi davridagidek ijod ahli yetishib chiqmagan. Shuningdek, bu ma‘rifatparvar hukmdor davrida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish hamda sug‘orish inshootlari qurish sohasida, me‘moriy qurilishlar, ilm-ma‘rifatni taraqqiy ettirish, obodonlashtirish sohalarida juda katta ishlar amalga oshirildi.

Xulosa qilib aytganda, XIX asrning birinchi choragi Xiva xonligi tarixida muhim o‘zgarishlar davri bo‘ldi. Xiva xoni Muhammad Rahimxon o‘tkazgan islohotlar tufayli davlat hokimiyati markazlashdi. Ma‘muriy boshqarishning ancha takomillashgan tizimi qaror topdi, xonlikning iqtisodiy va harbiy qudrati mustahkamlandi. Lekin bu jarayon uzoqqa bormadi. 1873 – yilda Xiva xonligi ham O‘rta Osiyoning boshqa xonliklari qatori, chor Rossiyasi qo‘shinlari tomonidan bosib olindi. Xiva xonligi chorizmning sof mustamlakasi bo‘lib qoldi. Xonning butun faoliyati Rossiya hukumati nazorati ostiga o‘tdi. Xonning muntazam harbiy qo‘shinlari tarqatib yuborildi. Xivada maxsus rus qo‘shinlari saqlandi. Xonlikning moliyaviy ishlari, soliq tizimi va xazinasi rus harbiylari nazorati ostiga olindi. Oliy Kengash ishida ham rus ofitserlari qatnashadigan bo‘ldi. Hukumat lavozimlariga ham ular ma‘qullagan amaldorlarga tayinlangan. Xiva xoni davlatni idora qilishda o‘z mustaqilligidan batamom mahrum bo‘lgan edi.

2. Xiva xonligida tarixnavislik an'analari –namoyondalari asarlari

XIX asrda ham Xorazmda chig'atoy tilida ijod qilayotgan shoir va mutafakkirlar ko'pchilikni tashkil qilgan. Ma'lumki, mo'g'ullar davridan boshlab, Xorazmda adabiy turkiy tili shakllana boshladi. O'zbeklar hukmronligi davrida esa O'rta Osiyo davlatlaridan faqat Xorazmda barcha davlat ishlari va adabiy jarayon turkiy tilda olib borilgan. Bunga Xorazm tarixnavisligi yoki solnomanavisligi yaqqol misol bo'la oladi. Xorazm davlatida barcha tarixiy asarlar turk tilida olib borilgan bir vaqtda Buxoroda barcha ijod namunalari fors-tojik tilida olib borilgan. Qo'qon xonligida ham asosiy manbalar fors-tojik tilida, ba'zi asarlar esa turkiy tilda yaratilgani ma'lum.

Xorazmda turkiy tilida yaratilgan birinchi tarixiy asarlardan bu O'tamish hojining «Chingiznoma», ya'ni «Tarixi Do'st Sulton» ekanini yuqorida ta'kidlagan edik. Uning mavjudligidan hatto Abulg'oziy xabarsiz bo'lgan. Aniqrog'i, buasar Xorazmda uncha ma'lum bo'lmagani aniq faktdir. Undan yana

bir nusxasi Zakiy Validiy To'gon kutubxonasida bo'lganini Yu. Bregel ta'kidlab o'tgan³⁶⁶.

Xorazm tarixnavislik maktabiga Abulg'oziy Bahodirxon o'zining «Shajara»lari bilan asos solgani ham ilmda asoslangan. Munis Sherg'oziy xon davrida (1126-1140/1714-1727) Mavlono Sayyid Muhammad oxund tomonidan yozilgan «Gulshani iqbol» (Iqbol/baxt gulshani) asarini tilga oladi va bu asar buxoroliklarning qo'liga tushib, ularning hasadlari natijasi o'laroq yo'qolib ketgan

³⁶⁶*Shir Muhammad Mirab Munis fnd Muhammad Riza Agahi, Firdavs al-iqbal: History of Khorezm/Edited by Yuri Bregel. T.J.Brill. - Leiden-New York-Kobenhavn-Koln, 1988.-P. XIII (Introduction).*

deydi³⁶⁷. Bu asar ham chigʻatoy tilida yozilganini Yu. Bregel taxmin qiladi³⁶⁸.

XVIII asr davomida Xorazm zaminida markaziy hokimiyat zaifligidan, oʻzbek urugʻ va qabilalarining oʻzaro nizolari, oʻzbeklarning turkmanlar bilan urushlari mamlakatni anarxiya holatiga olib kelgan edi. Bu vaziyat esa mahalliy tarixni yoritish uchun imkon bermagani aniq.

XVIII asrning oxirlariga kelib vaziyat ancha oʻzgaradi. Qoʻngʻirot sulolasidan chiqqan inoqlar va xonlar (XIX asrning boshlaridan) hamda oʻzbeklarning gegemon qabilalarining biy va beklari asta-sekinlik bilan oʻtroqlashuv jarayoniga tortildilar. Ular oʻzlarining oldingi ajdodlaridan farqli ravishda tarixga alohida ahamiyat beradigan boʻldilar. Ular qoʻlga kiritilgan mavqe va maqomlarini endi legitimatsiyalash (qonuniylashtirish) vositalarini qidirib, uning eng qulayi tarixnavislik ekanini tushundilar. Bu esa Xorazmdagi madaniy hayotning jonlanishi, yangi kuch va manfaatlarining keng hududlarda ildiz otib, uni mustahkamlashdan darak berardi.

Maʼlumki, moʻgʻullar davridan boshlab, Xorazmda adabiy turkiy til shakllana boshladi. Oʻzbeklar hukmronligi davrida esa Oʻrta Osiyo davlatlaridan faqat Xorazmda barcha davlat ishlari va adabiy jarayon turk tilida olib borilgan. Bunga Xorazm tarixnavisligi yoki solnomanavisligi yaqqol misol boʻla oladi. Xorazm davlatida barcha tarixiy asarlar turkiy tilda olib borilgan bir vaqtda Buxoroda barcha ijod namunalari fors-tojiktilida edi. Qoʻqon xonligida ham asosiy manbalar fors-tojik tilida baʼzi asarlar esa turkiy tilda yaratilgani maʼlum.

XIX asrda ham Xorazmda chigʻatoy tilida ijod qilayotgan shoir va mutafakkirlar koʻpchilikni tashkil qilgan. Qoʻngʻirot sulolasining rasmiy tarixchilaridan biri Munis edi. Uning toʻliq ismi

³⁶⁷Қарағ: Eckmann J. Die tschagataische Literatur. // Philalogiae Turcicae Fundamenta, vol.II.Wisbaden, 1964.-P. 385,387.

³⁶⁸Shir MuhammadMirab Munis fnd Myhammad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm.-P. XIV. (Introduction).

Shermuhammad mirob ibn amir Avazbiy ibn Eshimbiy Mirob ibn Hasanquli atoliq ibn Oraz Muhammad bakavul ibn Davlatbiy ibn Keray biy ibn Muhammadjon so'fi biy yuz³⁶⁹ bo'lib, o'z so'zlariga qaraganda «it yilidan keyin kelgan qo'y yilida, navro'z kuni, payshanba tongida» olamga kelgan ekan. Munis asarida keltirilgan barcha ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, u 19 safar (payshanba kuni shu kunga to'g'ri keladi) 1192/19 mart 1778 yili Xivadagi Qiyot qishlog'ida tug'ilgan. Munis o'zbeklarning yuz qabilasiga mansub ekani, uning shajarasidan ma'lum. Uning ajdodlaridan biri Jiyan biy Anushaxon davrida (1074- 1098/1663-1687) miroblik amali yoki mansabiga loyiq bo'lgan. Keyinchilik uning avlodlari ham shu unvonga sazovor bo'lgani ma'lum. Hatto Munisning akasi Muhammad Niyoz ham otasi Avaz Mirobdan so'ng 1221/1800 yili miroblik unvoniga ko'tarilgan³⁷⁰. Munis asarida biz uning boshqa ajdodlari qatorida onasi tarafidan bo'lgan qarindoshlarini ham tilga olganini bilishimiz mumkin. Uning onasi naymanlardan bo'lib, Xo'jaylida yashaganekan³⁷¹.

Munis o'z ustozlaridan Sayyid Eshonxo'ja (u Xivada Munis bilan qo'shni ham bo'lgan³⁷²) va Sayyid Muzaffarxo'ja mutavalliyni tilga oladi³⁷³. Bundan Munisning yaxshi ta'lim olib, fors va arab tillarini o'rgangani, she'r va tarixnavislikka layoqatli bo'lib tarbiya olganini bilish mumkin³⁷⁴. Munisning birinchi she'ri, yani «Firdavs ul-iqbol»ga kiritilgan masnaviysini 1216/1802 yili Avaz inoq davrida yozgan³⁷⁵. Munisning birinchi devoni esa 1219/1804 yili

³⁶⁹ *Мунис, Фирдавсул-иқбол. (Брегельнашири). –В.166.*

³⁷⁰ *Ўша жойда.*

³⁷¹ *Ўша жойда. - Б. 271.*

³⁷² *Ўша жойда - Б. 76.*

³⁷³ *Уларнинг номлари Муниснинг шеърий мероси ичида келган. Қаранг: Мунис. Фирдавс ул-иқбол. - Б. 163, 204, 381.*

³⁷⁴ *Ўша жойда. - Б. 3. Яна қаранг: Муниров Қ. Мунис. Оғаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари. -Т.: «Фан», 1960. – Б. 19.*

³⁷⁵ *Ўша жойда. - Б. 163. Саййид Музаффархўжага битилган тарих.*

«Munis ul-ushshoq» nomi bilan tuzilgani ma'lum³⁷⁶. Munis juda vaqtlı saroy xizmatiga jalb qilinadi va u avval Xonzoda Muhammadrahimbek xizmatida bo'lgan. Otasiga o'xshab mirob sifatida u xon va xonzodaning harbiy yurishlari va ovlarida hamrohlik qilgan. Biroq saroy xizmati va valiahdga yaqinligi uning oilasini moddiy ahvolini yaxshilashga olib kelmagan.

Yuqori tabaqalarga yaqin bo'lishiga qaramasdan, bu ijodkor ancha moddiy aziyat chekkani ham ma'lum bo'ladi³⁷⁷.

Munis «Firdavs ul-iqbol» asarini Eltuzarxon buyrug'i asosida yozar ekan, o'z navbatida Muhammadrahimga hamnadim bo'lib undan ham moddiy yordam va haq olib turgan, shu bilan oilasini boqib umrguzaronlik qilgan.

16 jumada al-avval 1221/31 iyul 1806 yili Munis akasi Muhammadniyoz mirob halokatidan so'ng (u xon Eltuzar bilan birga suvda cho'kkan edi)miroblik mansabiga ko'tarildi. Bu mansabga uni 20 rabi as-soniy 1221/6 iyul 1806 –yili taxtga ko'tarilgan yangi xon Muhammadrahim tayinlagan³⁷⁸. Munis vafotigacha shu mansabda bo'lib, qolgan 32 o'zbek qabilalaridan tayinlangan amaldor bilan xon huzurida bo'lgan. Aslida mirob suv va sug'orish tizimini nazorat etuvchi amaldor sifatida faoliyat ko'rsatishi lozim edi. Biroq Munis ma'lumotlariga qaraganda, Xorazmda mirob ko'pincha xon yurishlari va ovlarida doim uni hamrohlik qilib yurgan ahli uzangilardan biriga aylangani ma'lum³⁷⁹.

Munis o'z zamonasida juda ham iste'dodli shaxslardan edi. Buni uning atrofıdagilari ham tan olgan. 1220/1805 yili o'rtalarida Eltuzar unga o'z sulolasi tarixini yozishni buyuradi. Munis o'zining

³⁷⁶Муниров Қ. Мунис. Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари. –Б 17. Бу ҳақда Ю. Брегель. Ҳ. Ф.Хофман ва Дж.Экманн ҳам маълумот берадилар.(Пининг библиографиясига қаранг).

³⁷⁷Shir MuhammadMirab Munis fnd Myhammad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm.-P. XVIII. (Introduction).

³⁷⁸Ўшажойда - Б. 243, 251 (матни).

³⁷⁹Ўшажойда. - Б. 333,336, 368.

tarixiy asarini «Firdavs ul-iqbol» (Baxt jannati) deb nomladi. Eltuzar vafotidan soʻng u yozishni toʻxtatadi va Muhammadrahimxon I buyrugʻi bilan uni yana davom etadi. Keyingi tanaffus 1234/1819–yili oʻrtalarida boshlandi. Muhammadrahim I Munidan turkiy tilga Mirxondining «Ravzat as-sifo» asarining tarjimasini buyuradi. Munis mazkur asarning birinchi daftari, ikkinchi daftarining bir qismini Badr urushigacha tarjima qilishga ulgurdi. 1240/1825 Muhammadrahim I vafot etadi. Yangi xon Ollohquli ham unga tarjimani tugatishini buyuradi. Munis tarjimonlikka shunday berilib ketadiki, «Firdavs ul-iqbol» asarini davom ettirishga ulgurmadi (asardagi voqealar 21 safar 1227/5 mart 1812 –yilgacha berilgandi, xolos).

Hijriy 1244 –yilning oxirlari/1829 –yili iyunida Munis vafot etadi. U Ollohquli qoʻshini bilan Xuroson yurishida qatnashib undan qaytayotganda Lutfobod shahri yaqinida kasallikka chalindi va yoʻlda halok boʻldi. «Firdavs ul-iqbol» va «Ravzat as –safo» asarining tarjimasini notamom qoladi. Munis ishlarini uning shogirdi va jiyani (ukasining oʻgʻli) Ogahiy Muhammadrizo ibn Erniyoz bek davom etadi. Ogahiy shanba kuni 10 zu-l-qaʼda 1224/16 dekabr 1809 yili olamga kelgandi. Bu haqda Munisning oʻzi Xoʻjaylida xasta boʻlib yotganida jiyani Muhammadrizo tugʻilganini xabar bergan³⁸⁰. Ogahiyning ijodi va faoliyati haqida quyiroqda maʼlumot beriladi.

Ogahiy «Firdavs ul-iqbol» asarini 1255/1839-40 yili yozib tugatadi.

«Firdavs ul-iqbol» asarining muqaddimasida Munis Eltuzarni otasidan soʻng 1218 –yili 26 zu-l-qaʼda oyi 1804 –yili martida inoq boʻlgani va tez orada 23 shaʼbon 1219 (26 -noyabr 1804) qoʻgʻirchoq chingiziy xonni taxtdan tushirib, oʻzi xon masnadiga oʻtirganini yozadi³⁸¹. Eltuzar 17 rabi as-soniy 1221/3 iyul 1806 –

³⁸⁰ *Shir Muhammad Mirab Munis fnd Myhammad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm.-P. XVIII. (Introduction).-B.271.*

³⁸¹ *Shir Muhammad Mirab Munis fnd Myhammad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm.-P. XVIII. (Introduction).-B. 5.*

yiligacha xonlik qilgan. Munis fikrimizcha, Eltuzar rasman taxtga o'tirganidan so'ng tarixiy asar yozish buyrug'ini Eltuzardan olgan bo'lishi mumkin. «Firdavs ul-iqbol» dan tashqari Munisning devoni «Munis ul-ushshoq» nomi bilan Sayyid Muhammad davrida (1272-1281/1856-1864) tuzilganini Ogahiy xabar beradi³⁸².

Munis tarjimon sifatida samarali ijod qilgan. U fors tilidan o'zbek tiliga birinchi bo'lib, Xorazmda tarjimonlik maktabiga asos soldi. Uning ishlarini Ogahiy davom ettirib, bu maktab saviyasini yana yuqoriga ko'tarib, eng sermahsul ijod qilgan tarjimonga ham aylandi. Ogahiy jami 20 ga yaqin asarlarni fors tilidan tarjima etgan. Ular orasida sharq mutafakkirlari, olim va adiblarining mashhur asarlari mavjud.

Shermuhhammad Munisning tarixiy asari «Firdavs ul-iqbol» qadim zamonlardan boshlab, 1825 -yilgacha Xorazmda sodir bo'lgan tarixiy voqealarni o'z ichiga oladi. Munis bu asarini Sharq tarixchilarining an'anasiga muvofiq hamd va nat bilan boshlagan. So'ngra o'z hayoti va asarning yozilish tarixi haqida qisqacha ma'lumot berib, bevosita Xorazm tarixini yozishga kirishgan. Bu asar muqaddima, besh bob va xotimadan iborat. Ammo Munis bu asarini yozib tamomlay olmagan. U qadim zamonlardan boshlab, Muhammadrahimxon I hukmronligining 7-yili (1813) gacha bo'lgan voqealarni yozishga ulgurgan, xolos. Shu joyidan boshlab asarning chala qolgan qismini Ogahiy (1809-1874) davom ettirgan, 1813 yil voqealarini bayon etish bilan uzilib qolgan «Firdavs ul-iqbol» asarini shu joydan boshlab Xorazmda sodir bo'lgan voqealarni yozish bilan to'ldirgan.

«Firdavs ul-iqbol» asarining tarix ilmidagi ahamiyati shundaki, unda Xorazmning qadim davridan boshlab, Muhammadrahimxon I (1806-1825) davrigacha bo'lgan siyosiy tarixi xronologik tartibda bayon etiladi. Munis qadim zamonlardan boshlab Abulg'ozixon davrigacha Xorazmda bo'lgan voqealarni bayon etarkan, Abulg'ozixon davridagi Xiva va Buxoro xonliklarining o'zaro munosabatlariga ham to'xtalib o'tgan. Shuningdek, asarda

³⁸²МуницоровК. Мунис. ОгаҳийваБаёнийнингтарихийасарлари. –Б 25-26.

XVIII asr va XIX asrning birinchi choragi, ya'ni Qo'ng'irot sulolasi vakillarining Muhammadamin inoq (1755-1790), Avaz inoq (1806-1825)larning Xorazmda hukmronlik qilgan yillaridagi tarixiy voqealar bayon qilingan, iqtisodiy va ijtimoiy hayotga doir ayrim ma'lumotlar ham bergan.

Munis asarida Eltuzarning birinchi to'rtta g'alabasini bayon qiladi. Bular Qoraqalpoqlarga qarshi yurish, yovmutlarning mag'lubiyati, Xo'ja eli mudofaa devorini buzib tashlashi; Qo'ng'irotning bosib olinishi. Bulardan avvalgi ikkitasi Eltuzar xon bo'lmasdan oldin sodir bo'lgan. Keyingi ikkitasi Eltuzar xon ko'tarilganda voqe bo'lgan. Xonning Qo'ng'irotni qamal qilishi 1 rabi' al-avval 1220/28 iyun 1805 yilida boshlanib³⁸³, 17 rabi' assoniy/28 iyun 1805 yili xon istehkomni olgani bilan tugagan³⁸⁴.

Shu voqeadan so'ng Munis xon huzuriga chaqiriladi va yana bir marotaba Eltuzar tarixini yoritish uchun oxirgi buyruqni oladi³⁸⁵.

Eltuzarni buxoroliklar bilan urush qilib, fojiaiy halok bo'lishiga qadar (3 iyul 1806) Munis bir yildan sal ko'proq muddatda Sherg'ozida davri (1125/1713)gacha bo'lgan tarixni yozgandi. Keyin tanaffus uzoq vaqt (muddati madid) davom etadi³⁸⁶. Keyin Muhammadrahimxon (bir bazm chog'ida) unga ishni davom ettirishi va uning hukmronlik davrini ham yozishni buyuradi³⁸⁷.

Munis Eltuzarxondan oldingi hukmronlardan Eshmuhammad biy va Muhammadamin inoq davrlarini yozish uchun 1807 –yil o'rtalaridan yozishni davom ettirib, ancha vaqtini va sa'y-harakatlarini sarflaydi. Muhammadrahimning yettinchi yili bayoniga kelganda (uning keltirilgan oxirgi sana 21 –safir 1227/5 –mart 1812dir³⁸⁸) birdan Munis Muhammadrahimdan «Ravzat as- safo» tarjimasini uchun buyruq olib, qayta «Firdavs ul-iqbol» yozishiga

³⁸³ *Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. Б. 216.*

³⁸⁴ *Ўша жойда. –Б. 216-217*

³⁸⁵ *Ўша жойда.Б. 609.*

³⁸⁶ *Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. Б. 55,167.*

³⁸⁷ *Ўша асар. - Б. 55, 405.*

³⁸⁸ *Ўша асар.-Б.403.*

kirishmadi³⁸⁹. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, «Firdavs ul- iqbol»ni Ogahiy yozib tugatgan va undagi voqealar bayoni 1825 yilgacha berilgan. Ogahiy Munis qo’lyozmasi (avroqi parishon tarqoq varaqlar; bu avroqi parishon ajzo a’zolari tarqoq varaqlar³⁹⁰) ni 20 yildan keyin qayta tartibga keltirib, uni 1258/1242 –yili tamom qiladi.

Munis dastlab asariga «Iqbolnoma» deb nom bermoqchi edi. Keyin uni «Firdavs ul-iqbol» ga almashtiradi. «Chunkim, u (acap) Firdavsi jinondek xon iqboli bilan muzayyan bo’ldi va «Firdavs ul-iqbol»ga musammiy bo’ldi³⁹¹» degan u..

Asar «bismilloh»dan so’ng «Oliymakon sultonlarning dabdabai hashmati va garduntavon hoqonlarning kavkabai davlati aliyul-atloqning qullug’i bila intizom toparkim...») boshlanib, keyin «muqaddima» («ba’zi maxsusoti a’lo xoqoniy zikridakim osori iqboli Sohobqironiy erdi» degan jumla bilan boshlangan), beshta bob va xotimadan iborat. Shunda birinchi bobda Odam atodan Nuh payg’ambar avlodigacha bo’lgan hodisalar zikri; ikkinchi bobda Yofasdan qo’ng’irot sho’basigacha bo’lgan mo’g’ul hukmdorlar zikri; uchinchi bobda Quralas (Chingiziylar to Abulg’ozi ibn Yodgorgacha) davrida sodir bo’lgan hodisalar zikri; to’rtinchida Qo’ng’irot Eltuzarxonning ota-bobolari va beshinchi bobda Eltuzarxonning tug’ilishidan boshlab, bu asarning yozilib tamom bo’lgunga qadar davr; xotimada avliyolar, ulamo, amirlar, beklar, shoir va donishmandlar, hunarmandlar va boshqalar haqida yozmoqchi bo’lgan³⁹².

Munis Eltuzar davri (beshinchi bob)ni ikki faslga bo’lmoqchi bo’ladi. Birida Eltuzar, ikkinchisida Muhammadrahim davrini bayon qilmoqchi bo’ladi. Xotimani Munis yozib ulgurmadi.

³⁸⁹ «Равзат ус-сафо» таржимасининг муқаддимасида Мунис таржимага 13 шаввол 1234/4 –августъ 1819 йили киришиганини ёзган.

³⁹⁰ Охирги сўзлар “Риёз уд-давла” да келтирилади. 270 вар.

³⁹¹ Мунис. Фирдавс ул-иқбол. –Б.8.

³⁹² Мунис. Фирдавс ул-иқбол. – Б. 8.

Asarning boblari tarixnavislik nuqtayi nazar va hajm jihatidan (avtografi va nusxalarida) bir xil emas. Boshidagi ikki bob kompiyativ ahamiyat kasb etgan va avtografda 23 varaqdan iborat. Uchinchi bobdagi Chingiziylar davri uch qismga bo'lingan va uning uchinchi qismi Xorazm Arabshohiylari davrini qamrab olib, Abulg'oziy vafoti bilan tamom bo'lgan va juda ham originaldir. To'rtinchi bob oldingi uchta bobdan ham ko'p - qariyb 80 varaqni tashkil qiladi. Beshinchi bob ham matning 4 qismini tashkil qilib, asl ma'lumotlardan iborat. Yuriy Bregelning xulosasiga ko'ra «Firdavs ul-iqbol» ning 7/8 qismi o'ta aniq va qimmatli ma'lumotlar bilan to'ladir³⁹³.

«Firdavs ul-iqbol» o'z strukturasi bo'yicha sulolaviy tarixnavislilik (yoki mahalliy va sulolaviy tarix kombinatsiyasi) ning namunasidir. Yu. Bregelning Munisni «Firdavs ul-iqbol» yaratilishida hech qanday individualizmi yo'q, bu asar Abulg'oziy va mumkinki «Ravzat as-safo» asari ta'sirida yozilgandir degani mohiyatan xatodir. Birinchidan, sulolaviy tarixnavislik faqat fors tarixshunosligiga xos emas. U janr yoki uslub jihatidan barcha tarixiy tafakkurga xos metoddir. Ikkinchidan, Munis o'zidan oldingi tarixchilar asarlari yoki ijod g'oyalaridan foydalanishi bu uning ijodkorligidan darak beradi. Uchinchidan, Munis sharq tarixnavislik an'analari yangi hudud va xalq/sulolaga tatbiq etgan muarrirlir. Va nihoyat, Munis o'z asarlarini Abulg'oziy asarlaridan farqli o'laroq juda murakkab, jimjimali, musajja' nasrda, o'qimishli shaxslar va yuqori tabaqa namoyandalari uchun yozishga harakatqilgan. Bu yerda uni fors yoki arab tarixnavislik uslublariga taqlid qilgan desa to'g'ri bo'ladi.

Lekin bu yerda ham u turkiy/o'zbek tilining imkoniyatlarini yana bir marta ko'rsatishga harakat qilgani ma'lum.

Abulg'oziy va Mirxondning asari Munis asarining birinchi, ikkinchi, uchinchi bobining ikkita qismi uchun manba sifatida xizmat qilgan (asarda ulardan to'rt marta «Ravzat as- safo»ga va ikki marta «Shajarayi turk» ka havola bor). Keyingi boblarini Munis

³⁹³ *Ÿua acap.- E.19*

«Firdavs ul-iqbol»da safaviylar davri tarixnavisligi va Nodirshoh davri istoriografiyasiga tayanib yozgan³⁹⁴.

Munis asarida Muhammadamin inoq, Avaz inoq va Eltuzar xon davrlaridagi asosiy voqealari alohida nomlanish bilan qat'iy xronologik tarzda berilgan. Muhammadrahim davri esa uning julusidan boshlanadi va yilma-yil bayon qilinib, asarning yarmidan ko'prog'ini tashkil qilgan (avtografdagi 242^a-611^a varaqlar). Shunda Munisning Abulg'ozni vafotigacha bo'lgan tarixi boshqa manbalar asosida yozilgani (komplyativ qismi) ma'lum bo'ldi, qolgan kattaroq qismi esa ta'kidlaganidek original qismini tashkil qiladi. Munis avtografidagi qayd va ishoralar, ilova, hoshiya va sharhlar uni muallif sifatida o'z manbalari ma'lumotlarini tekshirganidan dalolat beradi. Munisning qo'lyozmasida uni manbalari qatorida Mir Alisher Navoiyning «Tarixi anbiyo»si³⁹⁵, «Tarixi Ja'fariy»³⁹⁶, Sa'labiyning «Arais (al-majolis fi qisas al-anbiyo)»³⁹⁷, «Nizom at-tavorix»³⁹⁸, Tabariy asari³⁹⁹, «Tarix»i Hofizi Abro'y⁴⁰⁰, «Hukamo tarixi»(Shaxrazuriyniki)⁴⁰¹. Tarixi Muqaddasiy⁴⁰², «Zafarnoma» muqaddimasi⁴⁰³ tilga olinadi. Biroq bu asarlar nomi «Ravzat as-safo» matni bilan birga «Firdavs ul-iqbol»ga ko'chganini Yu. Bregel ham ta'kidlaydi. Lekin Munisning o'zi manbasining manbasi ham uning asari matniga o'tganini alohida ta'kidlamagan.

³⁹⁴Мунис сафавийлар даврига оид манбалардан «Аҳсанат-таворих» ва «Тарихи оламороий Аббосий» данфойдалангани маълум булади М.Э.

³⁹⁵Мунис. Фирдавсул-иқбол. (Ю. Брегельнашри). - Б. 38.

³⁹⁶Ўша жойда Б.40.

³⁹⁷Ўша жойда.

³⁹⁸Ўша жойда.

³⁹⁹Ўша жойда.

⁴⁰⁰Ўша жойда - Б.41.

⁴⁰¹Ўша жойда. - Б.42. Бу асарнинг муаллифи Шахразурий эканини Ю. Брегель аниқлаган.

⁴⁰²Ўша жойда - Б.48.

⁴⁰³Ўша жойда - Б.56.

Munis asarining uchinchi bobida «Zafarnoma» Muqaddimasi⁴⁰⁴, «Zafarnoma»ga⁴⁰⁵, «Mirsod al-ibod (min al-mabda' ilal ma'od)⁴⁰⁶, bir marta «Tarixi olamoroyi Abbosiy»⁴⁰⁷ ga, ikki joyda Hasan Rumluning «Ahsan at-tavorix»⁴⁰⁸ ini tilga oladi.

Munis asaridagi ko'p parchalar va voqealar bayonini anonim manbalari va informatorlariga havola etib «rivoyat qilurlar», «muarrixlar andoq ayturlarkim», «muallif bir nusxada ko'rgankim», «boshqa so'zga qaraganda» va b., so'zlar bilan kifoyalangan. Ba'zi joylardagi bunday so'zlar to'g'ridan to'g'ri uning manbasining aynan ko'chirmasi bo'lsa, ba'zi holatlarda Munis ma'lumoti boshqa manbalardan olingani taxmin qilinadi. Bunday nomi bilan tilga olinmagan Munisning manbalaridan biri Hamdulloh Qazviniyning «Tarixi guzida»si ekanini Yu. Bregel ham aniqlagan⁴⁰⁹.

Munis o'z davri tarixi bayoniga yaqinlashgan sari yozma manbalarning yo'qligidan nihoyat aziyat chekkanini asarida ta'kidlab o'tadi. Uning shikoyati Eltuzar davridan oldingi tarixga tegishlidir. Munis Xorazm mulkida hukmronlik qilgan chingiziyalar tarixini Abulg'oziy ibn Arabxondan keyin birov yozmaganini, Eshmuhammadbiy va Muhammadamin inoq g'alabalarining hech bir joyda qayd etilmaganini afsus bilan ta'kidlaydi. Va «bu roqimi bebizoat» (o'zini tilga olib) o'z - iste'dodi madadi ila, o'sha davr voqia va hodisotlarini izlab, ularning aniqligiga ishonib, yozib olganini aytadi. Lekin u ko'pgina voqealarga doir ma'lumotlar to'play olmay ancha vaqt asarini yozolmaganini ham aytgan⁴¹⁰. Munis qidiruvlari va izlanishlari qanday natijalarga olib kelganini yozmaydi. Biroq shu davr manbalari qatorida, ayniqsa, qo'ng'irotlar

⁴⁰⁴ *Мунис. Фирдавс ул-иқбол. - Б 19.*

⁴⁰⁵ *Ўша жойда.*

⁴⁰⁶ *Ўша жойда. Асар муаллифи Нажмиддин ар-Рози Доядир.*

⁴⁰⁷ *Ўша жойда. - Б. 32.*

⁴⁰⁸ *Ўша жойда - Б. 32,37.*

⁴⁰⁹ *Shir Muhammad Mirab Munis fnd Myhammad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm. Introduction. - B. XXII-XXIII.*

⁴¹⁰ *Мунис. Фирдавсул-иқбол. - Б. 166.*

davriga oid uni «Tarixi olamoroyi Abbosiy» va Hasani Rumlu asarlaridan foydalanganini ko‘rish mumkin. Bu asarlardan oldin olingan Ma‘lumotlar Munis tomonidan qayta ishlangan va to‘ldirilganini uning avtografidagi ilovalaridan ko‘rish mumkin⁴¹¹. Shu ilovalar va hoshiyalardan Munis bir qancha boshqa manbalardan ham ma‘lumot olganini bilib olish mumkin⁴¹².

Munisning ba‘zi ma‘lumotlari undan oldin yozilgan boshqa asarlarda ham duch kelish mumkin va ulardan Munis foydalanishi mumkin degan xulosa qilsa bo‘ladi. Bular qatorida zikr etilgan «Ravzat as-safo» va «Shajarayi turk»dan tashqari, «Tarixi Banokatiy», «Jomi’ at-tavorix», «Zafarnoma», Tarixi jahonkushoyi Nodiriy»ni tilga olish mumkin. Ularning ba‘zilarini Munis o‘z avtografining hoshiya va ilovalarida ham ko‘rsatgan.

Munis boshqa muarrirlardan farqli o‘laroq (Abulg‘oziy va O‘tamish hojiga o‘xshab) xalq og‘zaki ijodidan, V. Yudin ta‘biri bilan aytganda «dasht istoriografiya»si an‘analaridan keng foydalangan. Bu yerda uning axborotchilari ko‘p holatlarda anonim, ba‘zi holatlarda esa aniq nomlari bilan qayd qilingan. Masalan, u Arangxon davriga (1099-1105/1688-1694) doir ba‘zi voqealarni Sayyid Isomiddinxo‘ja Sayyid Muhammadpanohxo‘ja o‘g‘lidan eshitganini yozadi⁴¹³. Shu davrga oid yana uning bobolaridan biri bo‘lgan Jiyanbiy Mirob nomi ham tilga olinadi⁴¹⁴.

Sherg‘ozixonning Xurosonga yurishi tafsilotlarini Munis bobokaloni Eshimbiy Mirobning eronlik quli nomidan bolaligi paytida eshitganini yozgan⁴¹⁵. 1165/1751-52 yilida Xo‘rozbekni o‘ldirilishini esa «sadoqatli kishilardan» eshitganini ta‘kidlaydi⁴¹⁶.

⁴¹¹ *Мунисавтографининг 47^b, 57^aварақларидагишизоҳларбундандалолатберади.*

⁴¹² *Улар ҳақида Ю. Брегель ҳам маълумот берган. Қаранг: Shir Muhammad Mirab Munis fnd Muhammad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm. - Б. XXXIV ва кейингилари.*

⁴¹³ *Мунис. Фирдавс ул-иқбол. В. 51.*

⁴¹⁴ *Ўша жойда -Б. 52. (Бироқ у ахборотчи сифатида тилга олинмаган).*

⁴¹⁵ *Мунис. Фирдавс ул-иқбол. - Б. 58.*

⁴¹⁶ *Ўша жойда - Б. 68.*

Temurg'ozixon o'ldirilishini Munis o'sha davrda yashagan bir odamdan eshitganini aytadi (o'sha joyda. B.72). Avazbek ibn Eshmuhammad biyning haj tafsiloti va uning Nodirshoh davrida (boshqa yana 19 nafar zodagonlar bilan) o'ldirilgani Muhammadrahimxon tilidan bayon qilinadi. Munis bu tafsilotlarni Muhammadrahimning bekligi vaqtida eshitgan ekan⁴¹⁷. Muhammad inoq nomi bilan bog'liq ba'zi voqealar Munisning otasi Avaz Mirob nomidan beriladi⁴¹⁸.

«Firdavs ul-iqbol» asarining beshinchi bobida Munistarixiy voqealarni ancha erkin va mufassal bayon qilishga harakat qilgan. Bu tabiiy, chunki bu davr tarixining guvohi va faol ishtirokchisi Munisning o'zi bo'lgan. Munis o'zi ishtirok etgan voqealarning birinchi sanasi sifatida 1216 yilining zu-l-qa'da /1802 martini tilga oladi⁴¹⁹. Shu bobning ko'pgina qismlari voqea ishtirokchilari nomidan yozilgan. Bunday holat asarning olti joyida, ya'ni guvohlar tilidan olingan ma'lumot (ular yozma bo'lishi ham mumkin edi) sifatida ko'rsatilgan⁴²⁰. Biroq bobning mazmunidan muallifning guvoh axborotchilari bundanda ancha ko'pligini bilib olish mumkin. Munis o'z asarining mazkur bobini arxiv hujjatlari asosida yozilgani ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Zero, u xon va uning qo'shini bilan ko'p joylarda bo'lgani bilan, ba'zi joylarda sodir bo'lgan voqealarni shaxsan ko'rmagan edi. Shunda u boshqa ishtirokchilarning hisobotlari, esdalik va nomalaridan foydalangan. Munis asarining uch joyida hujjatlardan ham nusxalar bergan⁴²¹. Bundan tashqari, Munisning o'z kundaligi bo'lishi ham mumkinligini Yu. Bregel taxmin qiladi. Bu xulosa esa, fikrimizcha juda to'g'ridir. Aks holda bir necha yillardan so'ng (1713-1812 yillar voqealari 1807-1819 –

⁴¹⁷ Ўша жойда - Б.96.

⁴¹⁸ Ўша жойда - Б. 106-107, 110-112, 129.

⁴¹⁹ Мунис. Фирдавсул-иқбол. - Б. 162.

⁴²⁰ Ўшаасар. - Б. 197, 228, 229, 230, 294, 364 бетларигақаралсин.

⁴²¹ Ўша асар. -Б. 253 (Муҳаммадраҳимхонга кўзғолончилар номидан ёзилган хатнинг нуҳаси); -Б. 285 (Муҳаммадраҳимхоннинг фармони); Б. 371 (Муҳаммадраҳимхонга икки Орол ўзбеклари қабиласининг номлари)

yillar davomida yozilgan; bir joyda esa 1215/1800 –yili voqeasini bayon qilib Munis «buni endi 1224 –yili bildik» deb ta’kidlaydi⁴²²) voqealarni kundan-kunga (ba’zan muayyan kunning aniq vaqtini ko’rsatib) yozishni imkoni bo’lmas edi.

Munis ishini davom etgan Ogahiy yozma manbalardan foydalanishi imkoniyati ko’proq bo’lgan. Ayniqsa, u xon arxivi materiallaridan keng foydalanganini «Firdavs ul-iqbol»dan tashqari, boshqa tarixiy asarlaridan ham ko’rish mumkin. Lekin shuni ta’kidlash lozimki, Ogahiy 1812-1825 yillarni guvoh sifatida yozilishi mumkin bo’lmagan. 1809 –yili olamga kelgan Ogahiy Muhammadrahimxon davrida hali juda yosh edi (uchdan 16 yoshga kirgan u). Ogahiy Muhammadrahimxon vafotidan 15 yil o’tgach, amakisining ishini davom ettirish uchun kirishgani ma’lum. Ogahiy asosan yozma manbalardan foydalanib, og’zaki ma’lumotlarni (bu haqda faqat bitta joyda eslatilgan) qiyinchilik «taraddular bila» qo’lga kiritganini ta’kidlagan. Bundantashqari, Ogahiy Munisdan qolib ketgan boshqa yozma manbalardan ham foydalanishi mumkinligini taxmin qilsa bo’ladi. Ogahiyning «Firdavs ul-iqbol»da keltirgan hujjatlaridan taka urug’iga berilgan ikkita yorliq, qozoqlar boshlig’idan kelgan noma, Afg’oniston va Saraxsdan kelgan xatlarning qisqa mazmuni, Buxoro yurishida ishtirok etgan boshliqlarning ro’yxati, Muhammadrahimxon va amir Haydar o’rtalaridagi mukotabalarining qisqa mazmuni, xonning Buxorodagi xitoy Qipchoqlariga yuborilgan xati, amir Haydar (qalabakiy-?) nomasining matni va hokazoni ajratish mumkin⁴²³.

Ogahiy Munisga nisbatan ba’zi yurishlarni juz’iyotlari bilan batafsil bayon qilgan. Lekin ajoyibi shundaki, ba’zi ahamiyatsiz lahzalar mufassal bayon qilgani bilan, ba’zi ahamiyati katta bo’lgan harbiy yurishlar faqat eslatib o’tiladi, xolos⁴²⁴.

⁴²²Ўша асар.- Б. 159.

⁴²³Ўша асар.- Б. 433, 447, 457, 501, 502, 504, 507, 514-515, 536-537.

⁴²⁴Ўша асар.- Б. 445, 446. Огаҳийнинг бошқа асарларида ҳам шу жузъийёт (камчилик) кўзга ташланади. М.Э.

Munis va Ogahiyning tarixiy asarlarining yaxshi xususiyati ularda keltirilgan voqealar sanalarining aniqligidir. Bu esa Oʻrta Osiyo tarixnavisligida ularning alohida ahamiyatga ega ekanligidan darak beradi. Ularning sanalari hisobini hijriy yili va oylarida, arab va eroniy oylar nomi bilan, turkiy muchal orqali, hafta nomlari, namozlar vaqti bilan, xalq taqvimi (navroʻz, navroʻzi Xorazmshohiy, navroʻzi sultoniy), zodiak - burjlar ramzalari va hokazolar bilan berishadi.

Asarda sheʼriy bezaklar ham juda oʻrinli berilgan. Munis oʻz asarida jami 2915 misradan iborat 683 sheʼriy parcha beradi. Ogahiy esa 514 misradan iborat 84 sheʼriy parchalarni kiritgan. Sheʼriy parchalar Mullo Sayyid Buxoriy, Nizomiy, Saʼdiy, Firdavsiy, Mirzo Nozim Xiraviy va oltitasi nomaʼlum shoirlarga tegishlidir. Asarda Munis va Ogahiyga tegishli tarix, masnaviy va qasidalar bor.

Yevropada «Firdavs ul-iqbol» mualliflari Munis va Ogahiy haqidagi birinchi maʼlumotni X.Vamberi bergan⁴²⁵. Biroq uning maʼlumotlari biroz chalkash ekanini Yu.Bregel koʻrsatadi. X. Vamberi 1863 –yili Xivaga kelganda Munis vafot etgan edi. Ogahiy ham Vamberi bilan uchrashmagani aniq. X.Vamberi xivaliklardan olingan maʼlumotlarni yigʻib olib, Munisga nisbatan berilgan bir badiiy zaif sheʼrni nemischa tarjimai bilan keltirgan⁴²⁶. Shu axborotida X.Vamberi Munis va Ogahiy tarixiy asarlaridan xabardor ekanini bildirib, yaqin kelajakda ularning adabiy merosidan namunalari tarjima etishni rejalashtirayotganini aytgan.

Keyingi maʼlumot Aleksandr Kunga tegishli. 1873 –yili Xiva xoni saroyining talon-torojida ishtirok etgan A. Kun (asli kelib chiqishi olmoniy, Oʻrta Osiyoda Iskandar toʻra nomi bilan oʻzini tanishtirishni xush koʻrgan sharqshunos) 300 jild qoʻlyozma kitoblar orasida Munis va Ogahiy kitoblarini ham olgan. U zudlik bilan «Turkestanskiye vedomosti»da shu haqda axborot berib, Munis asarining oxirgi bobi mazmuni va Ogahiy asarlari haqida maʼlumot

⁴²⁵Вамбери А. Путешествие по Средней Азии, Спб., 1865.

⁴²⁶Мунис. Фирдавс ул-иқбол. - Б.54.

bergan⁴²⁷. 5 dekabr 1873 –yili A.Kun Rossiya jug‘rofiy jamiyatida ham ma’ruza qilib, Munis va Ogahiyning xronikalari haqida ma’lumot bergani ma’lum⁴²⁸.

N.I.Veselovskiy «Очерк историко-географических сведений в Хивинском ханстве с древних времен до настоящего» asarida (Spb., 1877) A.Kun ma’lumotidan foydalanib, Munis va Ogahiy asarlari bilan tanisha olmadi, chunki ular hali ham A.Kunning qo‘lida bo‘lgan edi. Lekin N.I.Veselovskiy A.Amirxanyans (quyiroqqa qarang)ga yozgan xatida Munis va Ogahiy tomonidan yozilgan asarlarga «unchalik ahamiyatga ega emas» deb baho bergan⁴²⁹. X.H.Xovart (N.N. Howort) ham 1880 – yili o‘z asarida A.Kun ixtiyoridagi Xiva solnomalarini eslatib o‘tgan⁴³⁰.

Xon saroyidan olingan 300 jild qo‘lyozmalarning ba’zilari Peterburgdagi Osiyo muzeyiga berildi. Biroq A.Kun o‘z vafotigacha (1888 –yili) Munis va Ogahiy asarlarini o‘zida saqlagan. 1890 –yili uning vorislari kitoblarni Osiyo muzeyiga sotishadi. G.Zaleman esa A.Kun kolleksiyasini tavsiflaganida Munis va Ogahiy asarlari haqida ham ma’lumot beradi⁴³¹. Shu vaqtning o‘zida pastor A. Amirxanyans «Firdavs ul-iqbol» asarini o‘rganib, mufassal tavsifini bergan. Uning bu tavsifi «Записки пастора Авр. Амирханянца об «Истории Хиви»» asari hozir Sankt- Peterburgda saqlanadi⁴³².

Ruhoniy Avraam Amirxanyans «Firdavs ul-iqbol» asariga juda professional tarixchi va manbashunos sifatida baho berib quyidagi xulosalarni bergan (K. Munirov tarjimasida beriladi):

⁴²⁷ Кун А. Заметки о Хивинском ханстве. // Туркестанские ведомости. 1873. - № 40. - С. 158.

⁴²⁸ ЗИРГО, 1874, январь.

⁴²⁹ Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари. Б.58.

⁴³⁰ Howort H.H. History of the Mongols from the 9th to the 19th century. Pt.II/2. London. 1880.-P. 961.

⁴³¹ Salemann G. Das Asiatische Museum im jahre 1890. Nebst Nachträgen // Mélanges asiathiques. Vol. X. St.Pbg., 1894.-P. 274-280.

⁴³² Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийларнинг тарихий асарлари. - Б. 60-61.

– Munis Abulg‘oziy Bahodirxonning tarixiy asarlarini davom ettirgan;

–Abulg‘oziy o‘z asarida maqsadiga muvofiq kelmagani bois tushirib qoldirilgan voqealarni to‘ldiradi. Munisning asarida biz Abulg‘ozixon hukmronlik qilgan davrdan ilgari hamda u xonlik qilgan davrda bo‘lgan, lekin Abulg‘ozixon tomonidan keltirilmagan voqealar haqidagi ma’lumotlarni uchratamiz;

–Xorazmda katta mansabga ega bo‘lgan kishilarning hayoti haqida ma’lumot beradi;

–Qumli sahrolar, Orol dengizi⁴³³, Amudaryoning dastlabki oqimi va Hojimonxon xonlik qilgan davrda uning o‘zgartirilishi haqida qiziq geografik ma’lumotlar keltiriladi. Shuningdek, Shohobod arig‘i, bandi sulton haqida ham ma’lumotlar mavjud:

–asardagi ma’lumotlar faktlar asosida yozilgan bo‘lib, aniq xronologik tartibga ega;

–muallif o‘z asarini yozishda og‘zaki materiallarni diqqat bilan to‘plagan;

–asar sof klassik ilmiy tilda yozilgan;

–kitobda keltirilgan voqealar bir-biri bilan yaxshi bog‘langan⁴³⁴.

Av.Amirxanyans o‘z davrining mashhur sharqshunoslari Berezin, baron Demezov, Fren va Ilminskiylarni chig‘atoy tilida yozilgan manbalarni bostirishda, qo‘llarida shunday bir mukammal qo‘lyozma asar bo‘lsa edi, o‘zlarini baxtli hisoblagan bo‘lur edilar» deb xulosa qilgan.

Munis va Ogahiy asarlarini V.V.Bartold ham jiddiy o‘rgangan va munisshunoslikka asos solgan. V.V.Bartold barcha asarlarida Xiva xronikalaridan yetarli darajada foydalanib, ularga yuqori baho beradi. U hatto, 1914-1917 yillar davomida«Firdavsul-iqbol»asari matnini ham tahrir etib, nashrga tayyorlagani ma’lum. V.V. Bartold

⁴³³Бартольд В. В. Аралское море. Соч., Т.III - С. 331.

⁴³⁴Записки пастора Авр. Амирханянца об «Истории Хивы» // Россия ФА Шарқ қўлёзмалари инстонути (Санкт-Петербург) архиви. Разряд III. Опись 2.- № 34. - С.14-15.

1929 –yili esa uni chop etilishi yaqinligini ham xabar berishadi⁴³⁵. Biroq uning rejalari amalga oshmaganidan xabarimiz bor.

Keyinchalik P.P.Ivanov, A.L.Borovkov, Z.Aksakov⁴³⁶, Ya.G‘ulomov⁴³⁷, Q.Munirov⁴³⁸ Munis va Ogahiy asarlaridan o‘z tadqiqotlarida keng foydalanganlar.

Turkiyalik olimlar Nesip Asim⁴³⁹ (1909) va Abdulqodir Inan⁴⁴⁰ (1933) sobiq SSSRdagi Munis va uning asari haqidagi ishlardan xabarsiz holda maqolalar yozganlar.

«Firdavs ul-iqbol» asaridan parchalar 1969 –yili Qozog‘istonda nashr etilgan «Материали по истории казахских ханств XV- XVIII веков» (Almati, 1969) kitobiga (tarjimon N.N. Mingulov) ham kirgan (560-567 betlar).

Mazkur asar manbashunosligida «Firdavs ul-iqbol»ning ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlab, ingliz tilida izohlar va ko‘rsatgichlari bilan chop etgan Yu. Bregelning xizmati beqiyosdir. Filologiya fanlari doktorlari N.Jumaxo‘ja, S.Ro‘zimboyev va sharqshunos A.Ahmedovlar «Firdavs ul-iqbol»ning ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlab, o‘zbek tilida chop ettirdilar⁴⁴¹.

⁴³⁵ В.В. Бартольднинг асарларида Хива тарихнавислари асарларининг ўрни ҳақида қаранг: Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари. Б. 62 ва кейингилари, - Bregel Y. Introduction. - P. LII-LV.

⁴³⁶ Мазкур муаллифлар Хива тарихчиларининг туркманлар ва Туркманистонга дояр маълумотларини таржима қилганлар. Қаранг: МИТТ, II. – Б. 323-426, 427-476, 477-500; 500-562; 562-611; 611-638.

⁴³⁷ Гулямов Я. Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. -Т.: «Фан», 1957.

⁴³⁸ Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари. -Т.: 1960; Шу муаллиф. Хоразмда тарихнавислик. -Т., 2002.

⁴³⁹ Necip ‘Asim. «Firdaws al-iqbal» // Türk Dernegi. Vol 1. No2. Istanbul. 1328/1910. - P. 68-71, No 3. -P.81-85 .

⁴⁴⁰ Abdülkadir (Inan). XIX-unchi Asir Türkistan şair ve tarihçilerinden Şer Mehmet Munis. 1778- 1829/// Azərbaycan Yurt Bilgisi. Vol. 2. Istanbul. 1933. No 13. - P. 17-20 (maqolaning davomi йўқ).

⁴⁴¹ Мунис ва Огаҳий. «Фирдавс ул-иқбол». Нашрга тайёрловчилар: Н.Жумахўжа С.Рўзимбоев, А. Ахмедов.-Т., «Ўқитувчи», 2010.

Munis va Ogahiy tomonidan bitilgan «Firdavs ul-iqbol» asarining to‘qqizta nusxasi mavjud bo‘lib, bu nusxalar asosan Rossiya FA Sharq qo‘lyozmalari instituti (sobiq Rossiya FA Sharqshunoslik instituti Spb, bo‘limi) da 571^a (590^a), E6 VIII, raqamlar ostida, O‘zbekiston FA Sharqshunoslik instituti fondida 5364/1, 821/1, 9979, 5071, 7422, 275/1 raqamlari ostida hamda Xelsinki saqlanadi⁴⁴².

Asarning Sankt-Peterburgda saqlanadigan nusxalaridan 571^a (590⁰_a) raqamdagisi mahalliy O‘rta Osiyo qog‘oziga, qora siyohda nasta’liq xatida ko‘chirilgan. Sarlavhalar esa qizil siyohda yozilgan. Nusxa Munis va Ogahiyning avtografidir⁴⁴³.

Q.Munirovning esa mazkur nusxa mualliflar avtografi emas, balki bir necha kotiblar tomonidan ko‘chirilgan degan taxmini xato xulosadir⁴⁴⁴. Nusxaning ochiq qolgan varaqlari ko‘p (269^{a,b}, 270^{a,b}, 190^{a,b}, 291^a, 439^{a,b}, 440^{a,b}, 442^a varaqlar). 442 -varaqlarning 6 -betidan boshlab Munis vafotidan so‘ng, Ogahiy tomonidan yozilgan qismi boshlanadi. Nusxa namlikdan zarar ko‘rgan. Asarda hoshiyalar ko‘p ko‘zga tashlanadi. Ushbu nusxa 613 varaqdan iborat. O‘lchovi 14,5x24,5 sm⁴⁴⁵.

Mazkur fondga saqlanayotgan Ye 6-1 (590^{ob}) raqamidagi ikkinchi nusxa xati qora siyoh bilan O‘rta Osiyo qog‘oziga ko‘chirilgan, sarlavhalari qizil siyohda bo‘lib, matn ham qizil ramka ichiga olingan. Asarni ko‘chiruvchi esa Mullo Nur Niyoz xalifa ibn mullo Muhammadniyoz xatib bo‘lib, u 1856-57 yillarda ko‘chirilgan. Nusxa yaxshi saqlangan bo‘lsa ham, uning 150 ta

⁴⁴²Хelsinkiдаги нусха ҳақида қаранг: Halen H. *Handbook of Oriental collection in Finland: Manuscripts, xylographs, inscriptions, and Russian minority literature* London-Malmo, 1979. - P. 100

⁴⁴³Буни Ю. Брегель ҳам исботлаб беради. Қаранг: Shir Muhammad Mirab Munis find Muhammad Riza Agahi. *Firdavs al-iqbal: History of Khorean Introduction*.

⁴⁴⁴Муниров Қ. *Кўрсатилган асари*. - Б.37

⁴⁴⁵Дмитриева Л.В., Мугинов А.М., Муратов С.Н. *Описание тюркских рукописей Института народов Азии*. Т.-S.106-108

varag'i namda qolganligi seziladi. Asarning hajmi 263 varaq, o'lchovi 27x48 sm⁴⁴⁶.

O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan «Firdavs ul-iqbol» asarining nusxalari esa quyidagi kodikologik xususiyatlarga ega. 5364/1 raqamli nusxa nasta'liq xatida, qora siyoh bilan ko'chirilgan. Asar boblari va ba'zi ajratilgan so'zlar qizil siyohda ko'chirilgan. Muqovasi charmdan ishlangan bo'lib, bu Xorazm muqovasozligiga xos. Nusxa Mullo Muhammadrizo ibn Muhammadkarim devon tomonidan 27 sentabr 1904 yilda Muhammadrahimxon II Feruz buyrug'iga ko'ra ko'chirilgan. Asar 244 varaqdan iborat. O'lchovi 29x43 sm⁴⁴⁷.

Shu xazinadagi ikkinchi nusxa (821/1) to'liq holda saqlangan. Nasta'liq xatida qora siyoh bilan ko'chirilgan. Boblar va alohida ajratilgan so'zlar qizil siyohda berilgan. Matn 25 satrdan iborat bo'lib, nusxa 259 varaqni tashkil etadi. O'lchovi esa 26,5x43,5. Uni Mullo Muhammadrizo ibn Muhammadkarim devon 1297/1879-180 yili ko'chirgan⁴⁴⁸. «Firdavs ul-iqbol» asarining mazkur xazinada yana to'rtta nusxasi mavjud⁴⁴⁹.

«Firdavs ul-iqbol» asari manba sifatida quyidagi mavzu va muammolarni yoritishda katta ahamiyatga ega. Bular:

- 1) Xorazmda hukmronlik qilgan shayboniylar nasablari, ular o'rtasidagi oilaviy munosabatlar;
- 2) o'troq va ko'chmanchi aholining davlat va ijtimoiy tuzumlariga doir ma'lumot;
- 3) O'rta Osiyoga kelib o'rnashgan ko'chmanchi qabila va elatlarning tarixi, ularning yangi konfederatsiyalar tuzishdagi o'rni;
- 4) O'lkadagi etnik va etnosiyosiy jarayonlarni yoritish;

⁴⁴⁶Дмитриева Л.В., Муғинов А.М., Муратов С.Н. Описание тюркских рукописей Института народов Азии. I-С. 106-108

⁴⁴⁷СВР, VII. – №№: 5020,5021.

⁴⁴⁸Юқоридаги асарда нуханинг қўчирилган йили 1267/1861 деб хато кўрсатилган.

⁴⁴⁹Тавсифини каранг: СВР. История. - S.191-192. Унда 275/1 рақамли нуханинг тавсифи берилмаган.

5) Xorazm shayboniylari keyinchalik qo'ng'irotlarning Eron, Orol bo'yolari, Dashti Qipchoq va Buxoro bilan aloqalari, yurish hamda urushlari haqida aniq ma'lumotlar;

6) ko'chmanchilar hokimiyatining sakralizatsiya (diniy muqaddas marosimlar) masalalariga doir materiallar;

7) Avval ko'chmanchilar, keyinchalik o'troq aholi an'anasiga asoslangan markaziy davlat-ma'muriy apparati va boshqaruvining shakllanishi, uning sinkretik (aralash) mohiyati;

8) ko'chmanchi turk va mo'g'ul qabilalarining turkiy aholi o'rtasidagi assimilyatsiya va o'troqlashuvi masalasiga doir ma'lumot;

9) Xorazm shayboniylari va qo'ng'iroq sulolasining hokimiyati bosib olingan hududlarda hukmronlik legitimatsiyasi masalalariga doir kuzatuvlar;

10) Xorazm shayboniylari, arabshohlar (Abulg'oziy) davrida joriy qilingan va amalda bo'lgan unvon va mansablar, ularning darajalari haqidagi ma'lumotlar;

11) Қўнғиротлар даврининг ҳарбий тарихи, аскария ва ҳарбий иши тўғрисидаги маълумотлар;

12) Asarning manba sifatida Xorazm tarixnavisligiga baho berish uchun ahamiyati.

13) Munis tarixnavisligi va ijodiy faoliyatiga baho berishda asarning tarixnavislik mohiyati, struktural chegaralarining ahamiyati.

Ogahiyning har bir asari tarixiy manbashunoslik nuqtayi nazaridan alohida tadqiqot obyekti hisoblanadi. «Riyoz-ud-davla» yuzasidan bajarilgan ishlar bu fikrni tasdiqlaydi⁴⁵⁰. «Jome' ul-voqeoti sultoniy» xususida ham shunday fikrlarni bayon qilish mumkin.

Muhammad Rizo Ogahiyning har bir tarixiy asari nafaqat Xiva xonlari, balki mamlakatimiz tarixining muhim pallalarini haqqoniy yoritishga xizmat qilishiga shubha yo'q. Ana shu

⁴⁵⁰ Муталов О. Хива хонлиги Оллоқулихон даврида. Тарих фан. ном. дисс. Т., 2003.. - Б.150.

asarlardan biri «Jome' ul-voqeoti sultoniyy»dir. Ogahiy asarlari qo'lyozmalari katalogini yaratgan olim F.G'anixo'jayev ma'lumotiga ko'ra, asarning ikkita qo'lyozma nusxasi mavjud. Shulardan biri Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida bo'lib, 9786 raqami ostida saqlanadi. Asar to'liq, shildiroq qo'qon qog'oziga yirik nasta'liq xatida yozilgan. Qog'oz nam tortganligidan biroz uringan, ko'p sahifalarni suv dog'i bosib ketgan, Biroq tekstlarga shikast yetmagan. Yomon saqlangan. Kotibi va yozilgan tarixi ko'rsatilmagan. Xatining yozilishiga qaraganda, asar XIX asrning II yarmida ko'chirilgan. 310 varaq, 15x25,5⁴⁵¹. Asar matni tahrir qilingani, hoshiyaga zaruriy qaydlar, muhim tuzatishlar, shuningdek, undagi nazmiy qismlarga qo'shimchalar kiritilganini hisobga olib, Ogahiy ushbu nusxa bilan tanish bo'lgan, deyish mumkin.

Ogahiyning Xorazm tarixiga oid asarlarining uchinchisi bo'lgan mazkur kitob 1273/1856 –yilda yozilgan. Asar o'z ichiga 1846 -yildan 1855 -yilgacha qariyb o'n yillik voqealar tafsilotini oladi. Demak, asarning asosiy qismini Muhammad Aminxon davri voqealari tashkil qiladi. Shu bilan birga undan qisqa muddat xonlik qilgan Sayyid Abdulla (1271/1854) va Kutlug'murod(1271/1854-1272/1855) davri tarixi ham o'rin olgan. Asarga tarix ilmiy nuqtai nazaridan qarar ekanmiz, unda real bir tomondan voqelik saroy muarrixlari uslubiga xos dabdabali tarzda bayon qilinsa, bir tomondan asar boshdan oxir gumanist insonning jtimoiy-siyosiy, falsafiy va estetik qarashlarini bayon qilish vositasiga aylanadi, yana bir jihatdan bularning barchasi badiiy vositalarga burkanganligi bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Shuning uchun ham unda tarix uchun muhim nuktalarni qisqa tarzda quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Muhammad Aminxon julusi va uning Hazoraspga hokimlikqilgani tarixi.
2. Xiva xonligi va turkmanlar munosabati.
3. Xiva xonligi va qochorlar munosabati.

⁴⁵¹*Фанихўжаев Ф. Огаҳий асарларининг тавсифи. (Каталог) - Т.: Ҳ.Сулаймон номидаги Қўлғезмалар институти, 1986. - Б. 28-29.*

4. Xiva xonligi va Buxoro amirligi munosabatlari.
5. Xiva xonligi va Qo‘qon xonligi munosabatlari.
6. Xiva xonligi va Rossiya o‘rtasidagi munosabatlar.
7. Xiva xonligi va Angliya munosabatiga oid ma‘lumotlar.
8. Xiva xonligidagi ma‘muriy boshqaruv, obodonchilik, ma‘naviy hayotga oid ma‘lumotlar.
9. Xiva xonligi va qoraqalpoqlar munosabatining aks etishi.
10. Xiva xonligi va Afg‘oniston munosabatiga doir chizgilar va hokazo.

Shermuhammad Munis, Ogahiy, Bayoniy kabi tarixchilarimiz Tomonidan bitilgan tarixiy voqealarni imkon qadar arxiv materiallari bilan to‘ldirish, ularni bir-biriga solishtirish ko‘z o‘ngimizda voqealikni yanada yaqqolroq namoyon bo‘lishida katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, Ogahiy tomonidan Muhammad Aminxon davri voqealariga bag‘ishlab yozilgan «Jome’ ul- voqeoti sultoniy» asarida, jumladan, quyidagilarni o‘qiyimiz: «Hamul kun xizmatpanoh va mulozamatdastgoh xususiyat vazifa Rahmatulloh xalifakim, xoni jannatmakon, sultoni mag‘firatnishon Rahimquli Muhammad Bahodirxon tag‘addallohu bilg‘ufronning Farmoni vojibuli’zoni mujibicha siforat rasmi bila Buxorog‘a bormish erdi, Amir Nasrullohning ittihadlik va yakjihatlik izhori uchun qo‘shg‘on elchilari bila shahrga kelib, o‘zi ostoni sipehrnishon mulozamatiga yetib, huzuri komilussurur sharafig‘a musharraf bo‘ldi». Ushbu parchadan ma‘lum bo‘ladiki, Rahimqulixon vafotidan sal oldin Buxoroga Rahmatullo xalifa elchi qilib yuborilgan bo‘lib, u xonning vafotidan keyin qaytib keladi⁴⁵². Shuni afsus bilan ta‘kilash lozimki, tarixiy asarlarda xonlarning bir-birlariga elchilar vositasida yo‘llagan xatlarining matnini ham, mazmun-mundarijasini ham keltirish urf bo‘lmagan. Biz Respublika Markaziy Arxividan Buxoro amiri Nasrulloxonning Rahimqulixonga yo‘llagan ushbu javob maktubini topishga muvaffaq bo‘ldik. Maktub fors tilida yozilgan

⁴⁵² *جامع الواقعات سلطانی* ЎзРФА Шарқшунослик институти. Инв № 9786. С. 36(б),37 (а).

bo‘lib (Buxoro amirligida devonxona fors-tojik tilida ish ko‘rgan), quyida uning tarjimasini keltiramiz:

Muhtaram Rahimqulixon!

Oliyoh, yuksak maqomli, amorat va ayolat panohi, izzatu yuksaklik qo‘lida bo‘lgan, hukumat va manzilatdan ogoh, loyiq yo‘lboshchi, jalolat va ulug‘lik maqomida saromat va peshkadam [Rahimqulixon]ga xayrli so‘zlar adosidin so‘ng zamiru xotirlariga ma‘lum bo‘lsunkim, alhamdulillah, ahvollar tinchlik va xurramlik bilan kechmoqda. Malollik va ko‘ngilsizliklar yo‘q. So‘ngra yashirin qolmasinkim, kenagas [urug‘i] haddidan oshmoqda edi, shuning uchun ot solib, unga tanbeh berib qo‘ydik. Yakkabog‘ hamda ularning ba‘zi yurtlarini o‘zimizning qahrli tasarrufimizga oldik. O‘zlarining noto‘g‘ri ishlaridan nadomatda va pushaymon bo‘ldilar. Mehribonlik yuzasidan va saxovat yuzidan jarima (tovon)larini avf qilib, poytaxt Buxoroga qaytdik.

Fotihaxonlik uchun yuborilgan fazlu jang peshvolari Mullo Rahmonberdi mudarris va Rahmatullo mahramni xursandlik va hamjihatlik bilan qabul qildik. Fotiha va duo qildilar. Biz ham ko‘p xursand bo‘ldik. Mazkur ikkoviga aytib yuborgan so‘zlaringizni eshitdik va bizdan ham har ne so‘zimiz bo‘lsa, tingladilar. Amorat va fazliyat ahlidan Husaynixon biy va Mullo Sayyid Olimni hamroh qilib yubordik. Tokim, duoi fotiha o‘qib, Siz janoblaringizning suhbatu salomatliklarini ko‘rib kelgaylar. Assalomu alaykum. Jamodiu-s-soniy oyida yozildi, 1261⁴⁵³.

Maktubda ko‘rsatilgan 1261-hijriy sana 1846 –yilga muvofiq keladi. Rahimqulixon esa ushbu maktubni olgach, sakkiz oy keyin 1262 –yil safar oyining uchi (shamsiy taqvim bo‘yicha davlning o‘n beshi)da mamlakatning shimoliy hududi bo‘lgan Akbar qal’a yonida vafot etadi⁴⁵⁴. Demak, Rahimqulixon vafotidan keyin qaytib kelgan Rahmatullo xalifa ayni shu elchilarga yana hamrohlik bilan

⁴⁵³Ўзбекистон Республикаси Марказий Архиви. И-125. Оп. №2. Д.№ 220, Л.№1. Таржима бизники.

⁴⁵⁴جامع الوقفات سلطانی ЎзРФА Шарқшунослик институти. Инв № ЎзРФА Шарқшунослик институти. Инв № 9786. С. 23(б),24 (а).

Buxoroga yuborilgan. Chunki xonlarning barcha siyosiy masalalarni maktubda bayon qilavermaganlarini ushbu rasmiy yozishma ham tasdiqlab turibdi.

Muhammad Aminxonning Buxoroga yo‘llagan birinchi elchisi Oллоhberdi So‘fi bo‘lib, u o‘sha davrda urf bo‘lgan rasmiy taomilga ko‘ra, «og‘osi (Rahimqulixon 1843-1846 y.y.) xoni magfiratosorning vafoti ixbori va o‘zining Xorazmshohlik avrangiga julusi izhori uchun» (Ogahiy⁴⁵⁵) yuboriladi. Muhammad Aminxon yo‘llagan elchilar taxminan ikki oydan keyin qaytib kelishadi. Ogahiy bu haqda yozadi: «rabi’u-s-soniy oyining o‘n uchida yakshanba kuni Gulbonbog‘ qariyasidagi havlisig‘akim, hazrati a’lo hoqoni getiysitoni mag‘furning vafotining fotihaxonlig‘i va hazrati a’lo xoqoni getiysitonning julusi humoyuni muborakbodligi uchun qo‘shub yuborg‘an ikki elchisi kelib, ostonbo‘slig‘ sharafin topti»⁴⁵⁶. Buxorodan kelgan elchilarga bu safar Bekish xalifa qo‘shib yuboriladi⁴⁵⁷.

Tarixiy solnomalarning yana bir xususiyati shundaki, ularorqali muallif turli munosabatlar bilan bayon qilmagan mavjud siyosiy vaziyatni biroz bo‘lsa ham anglash imkoniyati mavjud. Buxoro va Xiva o‘rtasida hamisha biror ziddiyatli masala mavjud bo‘lgan. Jumladan, bir yildan (1263 1847 yil) keyin Buxorodan kelgan elchiga Muhammad Aminxon elchi qo‘shmay yuboradi⁴⁵⁸. Buning sababini Ogahiy bayon qilmasa ham, xonning Marv (Mari)ga safarideb, izohlash o‘rinli. Chunki Mari Buxoro amirligi va Xivaxonligi o‘rtasida keskin ziddiyatlarga sabab bo‘lgan hududlardanbiri edi.

⁴⁵⁵ *جامع الوقعات سلطانی* ЎзРФА Шарқиюнослик институти. Инв № 9786. S.30(a).
Шарқиюнослик институти. Инв № 9786. S.30(a).

⁴⁵⁶ *جامع الوقعات سلطانی* ЎзРФА Шарқиюнослик институти. Инв № 9786. C.45 (б), 46 (a).
Шарқиюнослик институти. Инв № 9786. C.45 (б), 46 (a).

⁴⁵⁷ *جامع الوقعات سلطانی* ЎзРФА Шарқиюнослик институти. Инв № 9786. 46 (a).
Шарқиюнослик институти. Инв № 9786. 46 (a).

⁴⁵⁸ *جامع الوقعات سلطانی* ЎзРФА Шарқиюнослик институти. Инв № 9786, 96 (a).
Шарқиюнослик институти. Инв № 9786, 96 (a).

Lekin ko‘p o‘tmay, Buxoro bilan diplomatik munosabatlar bir maromda davom etadi. Jumladan, «Jome‘ul voqe‘oti sultoniy»da o‘qiyimiz: «Mazkur bo‘lg‘on oy (1264 hijriy yilning shavvoli) yigirma ikkisida Rahmatulloboy Qaroko‘z kim, Buxorog‘a siforat rasmi bila borib erdi, ... amir Nasrulloning qo‘shg‘on elchisi Subxonquli Miroxo‘r bila kelib, amiri Buxoroning ittihadmandlik mazmuni bila topshurg‘on muhabbatnomasin, yiborgan tuhfalari bila kelturub, suldan xalofat mulozimlarining nazari anvari peshtog‘idin o‘tkardilar»⁴⁵⁹. Ushbu maktub ham Xiva xonlari arxivida saqlangan bo‘lib, unda, jumladan, shunday deyiladi: «... so‘ngra yashirin qolmasinkim, sadoqatli Rahmatullo mahramdan yuborgan maktubingiz yetib keldi. Uning mazmun-mundarijasini anglab tingladik. Mazkur mahramg‘a ruxsat berar ekanmiz, aqida va jang ahlidan Bek miroxo‘rni mahram qilib yubordik. Boshqa neki so‘z bo‘lsa, shul ikkoviga ta‘yin qilib yubordik, borib aytgaylar. So‘zlarimiz ayni sidqdur. Yana assalomu alaykum. 1264»⁴⁶⁰. Asarda yozilishicha, xuddi shu vaqtda Muhammad Aminxon Shukrullo Og‘o va Qilichjonboyni o‘z elchilari sifatida Rossiyaga ham jo‘natadi. (Shu betda.) Ogahiy keltirgan ma‘lumotlarga ko‘ra, keyinchalik Muhammad Aminxon Buxoroga 1264 hijriy yilda Ollohberdi So‘fini, keyinchalik Yaqubboy Xonaqohiy kabi elchilarini jo‘natadi⁴⁶¹.

Ko‘rinadiki, tarixiy solnomalardagi ma‘lumotlarni imkon qadar arxiv materiallari bilan solishtirish, ularni sinchiklab o‘rganish tariximizning nisbatan yaqin o‘tmish bo‘lishiga qaramay, hanuz to‘la ochilmagan qirralarini o‘rganishda katta ahamiyatga ega.

Munis va Ogahiylik shakllangan ilmiy va adabiy muhitda Muhammad Yusuf Bayoniy ham yashab ijod etdi. U tarixchi sifatida o‘zining «Shajarayi Xorazmshohiy» va «Xorazm tarixi» (ikkinchi

⁴⁵⁹ *جامع الواقعات سلطانی* : ЎзРФА Шарқшунослик институти. Инв № 9786. 72 (а,б).

⁴⁶⁰ *Ўзбекистон Республикаси Марказий Архиви. И-125. Оп. №2. Д. № 220, Л. №2. (Таржима бизники).*

⁴⁶¹ *جامع الواقعات منطقی* : ЎзРФА Шарқшунослик институти. Инв № 9786. 115 (а,б); 131 (а).

asar oxiriga yetmagan) asarlari bilan Xorazm tarixnavislik maktabida nom qoldirdi. Muhammad Yusuf Bayoniy bu tarixiy asarlari bilan Xorazmda uzoq asrlar davom etib kelgan tarixnavislik maktabi an'alarini davom ettirdi⁴⁶². U Munis va Ogahiyning tarixiy asarlaridagi voqealarni qaytadan yozib to'ldirdi. O'z davri voqealari asosida «Shajarayi Xorazmshohiy», «Xorazm tarixi» nomli asarlari bilan xonlik tarixida yangi sahifalarni ochdi. Uning «Shajarayi Xorazmshohiy» nomli asarida Munis va Ogahiy tomonidan tavsiflangan qadimgi davrdan to 1873 –yilgacha bo'lgan tarixiy voqeyliklarning bayoni bilan birga, 1873 –yildan 1914 yillargacha bo'lgan voqealar ham tasvirlanadi⁴⁶³. Mazmuni va g'oyaviy yo'nalishiga ko'ra bu asar Munis va Ogahiy tarafidan yozilgan tarixiy asarlarning xulosasi, davomi hisoblanadi. Bu mualliflarning asarlari solishtirilganda shu ma'lum bo'ldiki, Munis va Ogahiy asarlari dabdabali, murakkab til bilan yozilgan bo'lib, ularda arabcha va forscha so'zlar, qiyin iboralar ko'p uchraydi. Bayoniy esa Munis va Ogahiyning asarlarini bir jildga to'plab, ko'pchilik uchun tushunarli bo'lgan sodda til bilan qayta yozdi. Bu haqda muallif asar so'zboshisida aytib o'tadi: «Ogahiy ham Munis Mirobning birodarzasasi va dastparvardasi erdi. Uning uslubida majoz va istiora bilan so'z bayon etar erdikim, kalomining diqqati sababdin omma xalqi maoniylarin fahm eta olmas erdilar. Ul ham bu yo'sunda du bora so'z boshlab, Ollohqulixondan to Muhammadrahimxon I zamonigacha, har xonning voqeotin bir mujallada bayon etib, har birin bir ism bilan mavsum etdi. Ul hazratning (Muhammadrahimxon II) ayyomi saltanatlaridan ham kam besh-yetti yil voqeotin tahrir silkiga chekdi... Bu nusxalarning maolik fahm etib, borin bir mujalladga jam' qilmoqg'a ma'mur bo'ldim»⁴⁶⁴.

Bayoniy asarlaridagi ma'lumotlar ishonchliligi bilan ham ahamiyatlidir. Muallif tarixnavislik haqida shunday yozadi: «Tarix

⁴⁶²Хасанов С. Хоразм маърифати олам кўзгуси. -Т.: «Ўқитувчи», 1996. - Б. 294.

⁴⁶³Баёний. Шажарайи Хоразмиохий, Т. «Адабиёт ва санъат», 1994. - Б.4.

⁴⁶⁴Баёний. Шажарайи Хоразмиохий. - Б. 5.

kitobi yozishni bir sharti bor. Tarixiy voqealarni yozuvchi tarafdorlik etmasdan bo‘lgan voqealarni rostlik bilan bayon etishi kerak. Agar rostlik bilan bayon etmasa, uning so‘zlari hech bir odamga ma’qul bo‘lmaydi»⁴⁶⁵. Bu so‘zlar Bayoniyning tarix yozish mezoniga rioya etganini ko‘rsatadi. Umuman olganda, muallif asarlarini o‘sha davr tarixiy jarayonlari asosida xolisona yozib qoldirgan. Uning «Shajarayi Xorazmshohiy» asari 16 bobdan iborat. Asarning muqaddimasida uning yaratilish sabablari aytib o‘tilgan⁴⁶⁶. Jumladan, Bayoniy «Shajarayi Xorazmshohiy» asarini yozish buyrug‘ini xondan Tolibxo‘ja ibn Avazberdi orqali 22 jumod I kuni (1329/1911 yili 10 may) oladi. Qo‘lyozma Xiva xoni Asfandiyorxon buyrug‘iga ko‘ra ko‘chirilgan. Qo‘lyozmaning 16 - varag‘ida oltin suvi va ko‘k bo‘yoqlar bilan bajarilgan unvon mavjud. Mazkur nusxa 1333 –yili, zu-l-qa‘da oyining birinchi kuni, (10 -sentabr 1915 -yili) Usta Juma Niyozning o‘g‘li Muhammad Ya‘qub tomonidan nasta’liq xatida, fabrika qog‘oziga ko‘chirilgan⁴⁶⁷. Asar 509+6 varaqdan iborat va o‘lchovi 22x29 sm⁴⁶⁸. Ushbu nusxani 1954 –yili Ya.G‘ulomov Sharqshunoslik institutiga hadya etganligi ma’lum. Undan oldin mazkur asar qaysi kutubxonada saqlangani ma’lum emas.

Bayoniyning ikkinchi tarixiy asari «Xorazm tarixi» deb nomlangan bo‘lib, muallif asar muqaddimasida shunday yozgan: «Endi bu kengchilik va farovon zamonda Xorazm xalqi zolimlarning zulmlaridan mutlaq qutuldilar va ozod bo‘ldilar, endi tinchlik bilan bu kitobni avvaldan boshlab yozaman, undagi xonlarga xush keladigan ortiqcha so‘zlar, xushomadgo‘yliklarni olib tashlab, zolimlardan qo‘rqib ayta olmagan so‘zlarni rostlik bilan yozaman»⁴⁶⁹. Muallifning bu so‘zlaridan asar Xorazm inqilobidan so‘ng, adolat mezoniga asoslanib yozilganligini anglash mumkin.

⁴⁶⁵ Баёний. Хоразм тарихи. // Қўлёзма. ЎзФА ШИ. 5-6 varaq.

⁴⁶⁶ Муниров Қ. Қўрсатилгин асар. - Б.56-57.

⁴⁶⁷ Хоразмда битилган қўлёзмалар. – Т., 1997.-Б.17.

⁴⁶⁸ Қўлёзма ЎзФА ШИ. — № 9596. Яна қаранг: СВР, VII. - № 5031.

⁴⁶⁹ Баёний. Шажарайи Хоразмиохий - Б.178.

Bayoniyning «Xorazm tarixi» nomli asari muallif rejasiga binoan 16 bobdan iborat bo‘lishi lozim edi. Acap muallif tomonidan 1339/1920-21 yili yozilgan. Undagi voqealar bayoni 1336/1918 yilgacha, ya’ni Xiva xoni Asfandiyorning vafotigacha berilishi mo‘ljallangan. Muallifning so‘ziga qaraganda, bu asar «Shajarayi Xorazmshohiy»ning to‘ldirilgan varianti edi. Biroq tavsif etilayotgan asar to‘liq emas. U faqatgina yettinchi bobning boshlanishi xon Eltuzarning (1219- 1221/1804-1806yy.) hukumati bayoni bilan tugab qoladi. Bundan, asar tugallanmay qolgan, degan taxmin qilish mumkin. Hozirgacha «Xorazm tarixi»ning yagona nusxasi O‘zbekiston FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Xati nasta’liq, qog‘ozi o‘quvchi daftari, hajmi 90+1 varaq, 22x36. Qo‘lyozma nusxasi XX asrning birinchi choragining oxirida ko‘chirilgan⁴⁷⁰. Mazkur nusxaning oxirida A.Nosirov va A.Juvonmardiyevlarning asarning qimmatini haqidagi qaydlari ham mavjud.

Munis va Ogahiy asarlari singari Bayoniy asarlari ham tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilib, o‘zining yuksak bahosini olgan. Jumladan, Ya.G‘ulomov Ogahiy yozgan tarixning Bayoniy tomonidan qayta yozilgan qismi (1846-1873 y) haqida gapirib quyidagilarni yozadi: «Ogahiy asarlaridagi ma’lumotlarni Bayoniy ma’lumotlari bilan solishtirib ko‘rilganda katta tafovut yo‘q, ammo Bayoniyda uchraydigan va diqqatga sazovor ba’zi bir ma’lumotlar to‘liqroq bo‘lib, Ogahiy asarlarida mukammal emas»⁴⁷¹. Shuningdek, tarixchi M.Y.Yo‘ldoshev Bayoniy asarlari haqida: «Bayoniyning asari faktik materiallarning ko‘pligi va voqealarni izchil bayon qilishi jihatidan Munis va Ogahiyning ko‘p tomli qo‘lyozmalariga nisbatan ham qimmatliroqdir»⁴⁷² degan so‘zi haqiqatdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalarni berish mumkin:

⁴⁷⁰Қаранг: // Қўлёзма. Ўз ФА ШИ. - № 7421. Яна қаранг: СВП, VII - № 5034.

⁴⁷¹Гулумов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Т., 1959. - Б.14.

⁴⁷²Юлдошев М. Хива давлат хужжатлари. Т. 2. -Т.: «Фан», 1960-Б.23.

- Munis tom ma'noda Abulg'oziy Bahodirxondan keyin Xorazm tarixnavisligi an'anasini davom ettirib, uni sifat nuqtayi nazaridan yangi bosqichga ko'targan.
- Munis fors tarixnavisligidan ilhomlangan holda o'zbek tilida umumjahon tarixini (Odam ato yaratilishidan boshlab) qadimdan berib, keyin mahalliy Xorazm hukmdorlari tarixini bergan. Uning tarixiy metodi solnomanavislik sulolaviy tarixnavislik uslubiga o'xshab ketadi.
- Munis ishini va tarixnavislik uslubini shogirdi Ogahiy davom ettirgan. Biroq uning tili Munis bayoni uslubi va tilidan ancha soddadir.
- Munis va Ogahiyning asarlarida Xorazmning asosan siyosiy tarixi hukmdor shaxsiyati atrofida berilgan. Biroq ularning asarlarida Xorazm tarixining turli jihatlari, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot, tashqi aloqalari, me'morchilik, sug'orish tizimi va hokozalar haqida boy ma'lumotlarni topish mumkin.
- Munis va Ogahiy yuqori bosqichga ko'targan tarixnavislik maktabining yana bir buyuk namoyandasi Bayoniydir. Bayoniy mustaqil tarzda ham xonlik tarixining muhim bir davrlarini yoza bilgan. Uning asarlari Xivaning yangi davri bo'yicha muhim manbalar sirasiga kiradi.
- Yuqoridagi nomlari tilga olingan tarixchilar o'znavbatida mohir tarjimon va hattotlar ham bo'lgan. Ular Xorazm tarjima maktabining serijod vakillari sifatida jahon adabiyotida ham alohida o'rin egallaganlar. Biroq Xorazm tarixnavislik va tarjimonlik maktabining ko'p qirralari va jihatlari o'rganilmagan, manbashunoslik hamda tarixnavislik tomonidan tahlil etilib, ularning manba sifatidagi ahamiyati va ma'lumot berish chegaralari belgilanmagan. Xorazm tarixnavisligini o'rganish bugungi kunda istiqbolliva dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri, desa xato bo'lmaydi.

V bob. XIVA TARIXNAVISLIK MAKTABI IZDOSHLARI ASARLARIDA DAVLATCHILIK HAQIDA

1. Tarixnavis Komyobning «Tavorix ul-xavonin» asaridagi davlatchilikka oid ayrim masalalar

Sayyid Homid to‘ra ibn Sayyid Muhammadxon to‘ra Komyobdan bizga bitta she‘riy devon, Xorazm tarixiga oid «Tavorix al-xavonin», «Muntaxab al-voqeot» kabi tarixiy asarlar va XIX asr oxiri – XX asr boshlari Xorazmda yuz bergan tabiat o‘zgarishlari to‘g‘risida ma‘lumot beruvchi «esdaliklar»i yetib kelgan.

D.Rahim va Sh.Matrasullarning Laffasiy bergan ma‘lumotiga tayanib yozishlaricha, Sayyid Homid to‘raning «To‘raxonim» nomli boshqa bir tarixiy asari ham bo‘lgan ekan. Asar Feruzga ma‘qul tushgan va undan bir necha nusxa ko‘chirilgan. Lekin hozirga qadar uning qo‘lyozmasi topilgan emas⁴⁷³.

Istiqlolga qadar Komyob hayoti va ijodiy merosi to‘g‘risida bir nechta maqola va tadqiqotlarda ba‘zi ma‘lumotlar qayd etib o‘tilgan bo‘lsa-da⁴⁷⁴, xon oilasiga mansub bo‘lganligi bois, unga sinfiylik nuqtayi nazardan baho berilib, asarlari ham yetarli darajada ilmiy muomalaga kiritilgan emas edi. Faqat so‘nggi yillarga kelib, uning hayoti va ijodining ba‘zi tomonlarini ko‘rsatib berishga qaratilgan ayrim tadqiqot va izlanishlar yuzaga kela boshladi⁴⁷⁵.

⁴⁷³ Давлатёр Раҳим, Шихназар Матрасул. Феруз - шоҳ ва шоир қисмати. -Т.: Фафур Фулом наширети, 1991. – Б. 77. Яна қаранг: Лафассий Хасанмурод қори Муҳаммадамин ўғли. Хива шоир ва адабиётчиларнинг таржimai ҳоллари. // Қўлўзма. Ўз ФАШИ ФАШИ. № 9494, 7^о-8^а вар.

⁴⁷⁴ Hofman H. Turkish literature a bio-bibliographical survey. Sektion III. Utrecht. 1969. P. 18-19; Дмитриева Л.В. Описание тюркских рукописей института Востоковедения. III том. Москва: Наука, 1980. – С. 131-132; Абдуллаев В. XVII-XVIII асрларда Хоразмда ўзбек адабиёти. - Тошкент., 1958; Ҳақимов М. Сахий қаламлар. -Т.: «Адабиёт ва санъат», 1975. - Б. 174.

⁴⁷⁵ Лаффасий. Тазкираи шуаро. Урганч. Хоразм. 1992; Исмоилова Г. Феруз даври адабий муҳити. Филол. фан, ном. дисс. -Тошкент. 1995, Раҳим Д., Матрасул Ш. Феруз Шоҳ ва шоир

Sayyid Homid to‘ra to‘g‘risidagi dastlabki ma‘lumotni Muhammadrizo Ogahiy «Gulshani davlat» asarida yozib qoldirgan. Ogahiy hijriy 1278 –yil voqealari bayoni borasida so‘z yuritib, jumladan: «Yana ulkim mazkur yilning rabi al-avvalida oyingning ikkisida shanba kechasi bahori hangomidakim barcha kechalarning mahmudi va jamiy soatlarning mas‘udi erdi», deydi va o‘sha kuni xon oilasida bir o‘g‘il tug‘ilganligi hamda Sayyid Muhammadxon unga Sayyid Homid deb ism qo‘yganligini qayd etgan⁴⁷⁶.

Bu voqea «Shajaraiy Xorazmshohiy»da ham eslatib o‘tilgan. Bayoniy hijriy ming ikki yuz yetmish sakkizinchi tovuq (1861-62) yili xonlikda ro‘y bergan eng muhim davlat ahamiyatiga molik siyosiy va diplomatik voqealar borasida axborot berar ekan, shu asnoda Komyobning tug‘ilishi to‘g‘risida ham gapirib o‘tgan. Bayoniy bu haqda mana bunday yozadi; «...Ushbu yil Alloh Taollo xon hazratlarig‘a bir farzand ato qildi. Oni Sayyid Homid to‘ra ismi bila mavsum etdilar...»⁴⁷⁷

Komyobning o‘zi ham tug‘ilgan yilini hijriy 1278 –yilning asad va safar oylari oralig‘ida, deb ko‘rsatgan⁴⁷⁸. Xullas, mazkur sanalardan milodiy 1861 –yil 27 –avgust hisobi chiqadi⁴⁷⁹.

Sayyid Homid to‘ra Sayyid Muhammadxon oilasida beshinchi o‘g‘il bo‘lib dunyoga kelgan⁴⁸⁰. 1864 –yili Sayyid Muhammadxonning bevaqt vafotidan so‘ng Komyob yosh yetim

qismati. -Т. Фафур Фулом номидаги наشريёт-матбаа бирлашмаси, 1991. 125 б; Мадраҳимов Э. Комёб. Хоразм ҳақиқати. 1991 йил, август; Самандирова С. Лаффасий тазкираси ва унинг қўлёмалари. -Т.: Ҳазина 1995, 30 б; Жўраев Ж. Комёб шеърлати манбалари ва айрим хусусиятлари тўғрисида. / Адабиёт кўзгуси (тўплам). -Т.: Абдулла Қодирий номидаги «Халқ мероси» наشريёти. 2000. – Б. 23-29; Жўраев Ж. Хоразм шоирлари ижодидаги муаммо жанри ҳақида. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2001 йил. 4-сон. - Б. 47-49; Комёб. Девон. Наширға тайёрловчи Б.Абдулаев Т.: Университет 2002 56 б. Саййид Ҳомид тўра Комёб. Таворих ул-хавонин. /Масъул муҳаррир А.С. Сагдуллаев. - Т.: «Академия», 2002-116 б.

⁴⁷⁶ Огаҳий. Гулиани давлат. // Қўлёмза, Ўз ФА Абурайҳон Беруний номидаги ШИ. № 7572. 236, вар.

⁴⁷⁷ Баёний. Шижарайи Хоразмиохий. // Қўлёмза. Ўз ФА Абурайҳон Беруний номидаги ШИ - № 274. 431 вар.

⁴⁷⁸ Комёб. Таворих ул-хавонин. // Қўлёмза. Ўз ФА Абурайҳон Беруний номидаги ШИ. - № 7717. 1912 вар.

⁴⁷⁹ «Таворих ул-хавонин»нинг кирилча наширидаги сўзбошида унинг тузилган куни милодийда 2 сентябрь деб нотўғри кўрсатилади - М.Э.

qoladi va uning keyingi taqdiri akasi Sayyid Muhammadrahimxon Soniy (Feruz) bilan bog‘lanadi. Otasi vafotidan keyin taxtga o‘tirgan Feruz davlat ishlari bilan birgalikda oila a‘zolari va qarindoshlarining parvarishi hamda ta‘lim olishiga, xususan, Sayyid Homid to‘raning tarbiyasiga ham alohida e‘tibor bilan qaragan⁴⁸¹.

«Akam meni maktabga topshirdilar. O‘n to‘rt yil o‘tgach, muallim huzurida ilm o‘qib, muallim keltirib bergan kitoblarni o‘rganib, holimizdan ogoh bo‘lib turgach... umrimiz muddati yigirmaga to‘lguncha fozil-u shoirlar, oqil-u olimlar davrasi, majlislarida donish olib, kitobat ijodi sirlarini o‘rgandik...Gohida zohidlar holidan xonaqohga borib ogoh bo‘lardik... Qarchig‘ay va shunqorlar bilan ovga chiqardik... Dehqonchilik ishlari bilan mashg‘ul bo‘lardik.... shul tariqa umrim muddatidin o‘ttiz bir yil o‘tdi. Fard:

Umri mo si sol raft ne xubu zisht,

Kaj falak farzine omad nogoh«kisht».

(Yaxshi yamon o‘ttiz yil o‘tti umrimizdan,

Kajfalakning farzini to‘satdan kelib «kisht» - ket

dedi)»⁴⁸² - deb eslaydi Komyobning o‘zi.

Komyob Muhammadrahimxon homiyligida o‘z davrining yetuk olimlaridan ta‘lim oladi⁴⁸³. Arab va fors tillarini puxta egallaydi. Uning bilim doirasi va dunyoqarashining kengayishida Feruz tashkil etgan davlat siyosatini yurgizish, uning barqarorligi va kelajagini ta‘minlash, taraqqiy ettirish, xalq farovonligini oshirish,

⁴⁸⁰ *Комёб ёзади: «Отам Хақ раҳматининг олти ўғиллари бор эрди. Учови бир онадин ва иккови бир онадин ва бирови ман фақир ёлғуз бир онадин. Ва менинг онам ўзбек жамоасидин эрдилар». Комёб. Таворих ул-хавонин. 196 вар.*

⁴⁸¹ *Саййид Ҳомид тўра Комёб. Таворих ул-хавонин. / Масъул муҳаррир А.С. Сағдуллаев. -Т.: «Академия», 2002. – Б. 7 (Сўз боииси).*

⁴⁸² *Комёб, Таворих ул-хавонин. 191^а вар.*

⁴⁸³ *«...Ва мактабда ўқуб хат ва саводим ўн уч ёшимда чиқди. Ва ҳар турлук китоб ва ҳар нечук хат бўлса ҳам ўқуб ва ёздим ва илм ишидин, филжумла, воқиф бўлуб, огоҳлик топдим. Ондин сўнгра мадраса ва масжид бино этиб, мударрисни дарсғуй уламодин этиб, «Масойил» ва «Мушкулот» илмига иуруъ этдим ва қорихона бино қилиб, яхиши хофиз ул- қуръонхон қорига топшуруб, ондин ҳам Қуръон ўтқариб, Қуръони шариф тиловатига машғул бўлдим. Ва эшони муришонларни чақириб, масжидда суҳбати жаҳр этиб, зикру саноларидин масаррат топтим». Ўша жойда. 197^а, вар.*

mamlakatning maorif va shunga o'xshash bir qator sohalariga e'tiborni qaratish yuzasidan davlat va hukumat arboblari o'rtasida kechadigan suhbat na mubohasalar, shoir va musiqa bilimdonlari ishtirokida bo'lib o'tadigan adabiy kechalar, she'rxonlik majlislari hamda musiqa bazmlarida muntazam ishtirok etib borishining ahamiyati beqiyos bo'lgan.

Komyobdan to'rtta asar yetib kelgan. «Bular ichida uning «Tavorix ul-xavonin» asari, eng avvalo, Munis, Ogahiy va Bayoniylar tomonidan yozilgan tarixiy asarlarning davomi sifatida, ikkinchidan, salafлари qayd etmagan ayrim tarixiy ma'lumotlarni o'zida jamlaganligi va ularning asarlaridagi kemtik o'rinlarni to'ldira olishi bilan e'tiborga molik»⁴⁸⁴.

«Таворих ул-хавонин» (№7717) муқаддима, беш боб (I боб: Одам дамидин ҳазрати Нух авлодигача. 19а-25а; II боб: Ёфасдин Қўнғирот уруғининг воқеоти жумласигача. 25а-33а; III боб: Қурлос авлодидан подшоҳлик мартабасига етганларнинг тафсилан зикри. 33а-35а; IV боб: Қўнғирот подшоҳларининг зикри. 35а-84а; V боб: Муҳаммадамин иноқнинг авлодларидан Хоразм мамлакатида podshohlik qilganlarining zikri. 84^a-204^a) va muallifning o'z hayoti hamda ijtimoiy muhit to'g'risida ma'lumot beruvchi bir maqoladan iborat. Asar 1885-1894 yillarda yozilgan.

Hozircha ilmga «Tavorix ul-xavonin»ning uchta nusxasi ma'lum. Ular 3730/I, 7717 va 853/III raqamlari ostida O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanmoqda. Asar qo'lyozmasining 3730/I raqamli nusxasini muallif dastxati deyish mumkin. Uning deyarli har bir sahifasi hoshiyasiga keyinchalik mayda xat bilan ko'plab to'ldirish va qo'shimchalar yozilib, ma'lumotlar mukammalashtirilgan. Shuni ham aytib o'tish o'rinliki, ushbu qo'lyozma Komyobning to'rttala asarini ham o'z ichiga olgan bo'lib, barchasi bir xil yozuvda ko'chirilgan. Shuningdek, boshqa asarlariga ham keyinchalik ba'zi o'zgartirishlar kiritilgan bo'lib, ular ham bir xil yozuvda bajarilgan.

⁴⁸⁴ Комёб. Таворих ул-хавонин. 191^a вар.

7717 raqamli nusxa esa 1897 –yili domla Ro‘zmuhammad tomonidan Xorazmda ko‘chirilgan. Ushbu qo‘lyozma asar Komyob dastxati bilan ko‘chirilgan birinchi nusxa hoshiyasidagi qo‘shimchalarni ham o‘z ichiga olgan to‘la nusxadir. Uning xat uslubi, imlosi va birinchi nusxadagi kiritmalarning o‘z o‘rniga to‘g‘ri qo‘yilganligidan kotibning anchagina savodli ekanligi bilinadi. Qo‘lyozma Komyob yashagan davr va muhitda ko‘chirilganligi bois, uning nazaridan o‘tgan bo‘lishi ham mumkin. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, uning matnida ham kotib tomonidan amalga oshirilgan ayrim qisqartirish yoki biror so‘zning muqobilini ishlatish kabi tafovutlarga ham duch kelamiz.

Qo‘lyozma 220 varaqdan iborat bo‘lib, haftrang qog‘ozida, nasta’liqda qora siyoh bilan ko‘chirilgan. Ayrim sarlavha va ajratib ko‘rsatilishi lozim deb topilgan o‘rinlar qizilda yozilgan.

Asarining 853/III raqamli qo‘lyozmasi to‘la bo‘lmagan nusxabo‘lib, 198 varaqni tashkil qiladi. Nasta’liqda qora siyoh bilan ko‘chirilgan. Kotibi va ko‘chirilgan yili noma’lum.

Sayyid Homid to‘raning qayd qilishicha, ushbu asarni yozishga kirishishdan avval Xiva xonlari tarixiga oid asar yozish niyati borligini Muhammadrahimxonga bildiradi. Xon bu fikrini quvvatlagan va o‘z davrigacha bo‘lgan tarixiy voqealarni Shermuhammad Munis va Muhammadrizo Ogahiylar yozganligi, u mazkur mualliflarning asarlariga kirmay qolganvoqealar bayonini qalamga olishi lozimligini aytadi. Komyob asarda zikr qilishicha, buyurilgan tarzda asar yozish uchun o‘zi to‘plagan materiallar asosida kitobni yozishga kirishgan⁴⁸⁵.

«Tavorix ul-xavonin»da an’anaviy tarzda insoniyatning yaratilishidan boshlab izchil tarzda turkiy xalqlar, turkiy xoqonlar, qo‘ng‘irot urug‘i, ulardan chiqqan hukmdorlar to‘g‘risida gapirib o‘tilib, nihoyat, Xorazmda hokimiyatni qo‘lga olgan qo‘ng‘irot inoqlari tarixini yozishga kirishilgan.

⁴⁸⁵ Саййид Ҳомид тўра Комёб, Таворих ул-хавонин. / Масъул муҳаррир А.С. Сағдуллаев Наширға тайёрловчилар: Н.Норқулов, Жал. Жўраев, Т.Тоғаев, Жам. Жўраев. Сўзбоши муаллифлари: Т. Тоғаев. Жам, Жўраев. -Т.: «Академия». 2002.- Б. 7 ва кейингилари.

Komyob asarni yozish uchun Shahobiddin Nasaviyning «Siyрати Sulton Jaloliddin Manguberdi», «Temur tuzuklari», Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Abulgʻoziy Bahodirxonning «Shajarayi turk» va «Shajarayi tarokima» singari insoniyat, turkiy xalqlar, qoʻngʻirot xonlari tarixiga oid qimmatli yozma manbalar bilan birgalikda boy folklor materiallaridan ham foydalanganligiga guvoh boʻlishimiz mumkin. Bulardan tashqari, biror joy yoki voqealar bayonidagi mukammallikni oshirish uchun koʻplab surishturuvlar olib borganligi ham sezilib turadi.

Muallifning taʼkidlashicha, «Tavorix ul-xavonin»ning bir qismi ikki bor qayta yozilgan. Dastlabki yozilgan qoralama nusxa ancha mukammal boʻlib, uni bir kishi oʻqib berish uchun oladi va qaytarmaydi. Shu bilan kitobning birinchi qoralama varianti izsiz yoʻqoladi. Komyob keyinchalik iloji boricha birinchi yozganlarini tiklashga harakat qiladi. Birinchi yozilgan nusxa yoʻqolganligiga qaramasdan, asarning ikkinchi qoralamasi ham qimmatli tarixiy faktlarga boy asar holda yuzaga kelgan⁴⁸⁶.

«Tavorix ul-xavonin»ning original va qimmatli boʻlgan qismi beshinchi bob hamda muallifning oʻzi toʻgʻrisida yozgan maqola qismidir. Bu qismda Komyob tomonidan qoʻngʻirot inoqlarining qay tarzda hokimiyat tepasiga kelish va ularning markazlashgan hukumat tuzish yoʻlida doim ajralib chiqishiga harakat qilib kelgan yavmutlar, Orolboʻyi, Qoʻngʻirot aholisi hamda Buxoro bilan olib borgan tinimsiz kurashlari toʻgʻrisida maʼlumotlar beriladi. Shu bilan birga, rus qoʻshinlarining xonlikka bosqichma-bosqich kirib kela boshlashi va nihoyat bosib olinishiga doir tarixiy voqealar qalamga olingan.

«Komyob, shubhasiz, oʻz davrining farzandi va xonning eng yaqin birodaridir. Shu bois ham u Xiva qoʻshinlarining xonlik hududini kengaytirish, hokimiyat uchun olib borgan harbiy yurishlari xususida yozar ekan, ularni afsonaviy, yengilmas

⁴⁸⁶ «Аваз иноқи мағфурийнинг марқум бўлгон воқеасига қалами мушкинрақам кўйгон чоғда, биров ўқуб бераман деб, ҳамул китобни олиб, йўқ қилиб этдим, деб тўрт-беш йил бўлди, бермади». «Таворих ул-хавонин» 166 вар.

kurashchilar qilib tasvirlaydi. Bu harakatlarga nisbatan tabiiy ravishda muallifning xayrixohligi sezilib turadi. Ayni chog‘da u sariq, yavmut, taka, alieli, chandir singari turkman urug‘larini buysundirish uchun olib borilgan urushlarning «zo‘ran va qahran» kechganligini ham qayd qilib o‘tgan»⁴⁸⁷.

Sho‘ro tarixchilari tomonidan o‘z davrida bir butun xalqni bo‘lib yuborish siyosatini ilgari surishga asoslanib, «milliy ozodlik harakati» sifatida baholangan Muhammad Fano/panoh boshchiligidagi amalparast yurt ayirmachilari tomonidan ko‘tarilgan Qo‘ng‘irot qo‘zg‘oloniga ham asarda keng o‘rin berilgan. Istiqlolga qadar bo‘lgan nashrlarda Muhammad Fano Qoraqalpoqxalqi istaklarining ifodachisi sifatida gavdalanadi. Asl maqsadi Qo‘ng‘irotni Xivadan ajratib olish bo‘lgan Muhammad Fano o‘zini xon deb e‘lon qilib, xalqqa nisbatan zulm va vahshiyliklarni amalga oshiradi. Shu bilan birga, fitnachilar o‘n oylik «xonlik davrining mustahkam emasligi va muqarrar mag‘lubiyatni his etgan holda, xonlikni bosib olishni ko‘pdan beri maqsad qilib kelayotgan Rossiyadan madad so‘rab Orenburg general- gubernatoriga maktub ham yozgan edilar. Sayyid Muhammadxonning amalga oshirgan tadbirlari va qo‘zg‘olonchilar maktubi asosida kelayotgan kuchlarning o‘n kunga kechikib kelishi natijasida qo‘zg‘olon tugatiladi. Kechikib bo‘lsa-da, kelayotgan qo‘shinga nisbatan xonning uzoqni ko‘zlab yurgizgan siyosati natijasida ruslar omon qoladi. Shunday bo‘lsa-da, ular bir necha kun xonlikning shaharhamda bozorlarida bo‘lib, aholi bilan muloqotga kirishib, shubhasiz, bo‘lg‘usi bosqinchilik amaliyotlari uchun zarur bo‘ladigan qimmatli harbiy-strategik ma‘lumotlarga ega bo‘lib qaytganlar. Sayyid Homid to‘ra ana shular to‘g‘risida ko‘plab ma‘lumotlarni berib o‘tgan. Ayni shu masala xususida garchi Komyob Ogahiy asarini ko‘rmagan bo‘lsa ham ularning fikrlaridagi yaqinlik va yakkillik ham ahamiyatlidir»⁴⁸⁸.

⁴⁸⁷ Саййид Ҳомид тўра Комёб. Таворих ул-хавонин / Масъул муҳаррир А.С. Сағдуллаев - Т.: «Академия», 2002. - Б. 9.

Asarda yana xonlikning rus qo‘shinlari tomonidan katta harbiy kuch yordamida bo‘ysundirilishi manzarasining yozib qoldirilganligi ham yana bir karra uning qadr-qimmatini belgilaydi. Komyob rus bosqini oqibatlarini to‘g‘risida yozar ekan, ayrim o‘rinlarda xonning ba‘zi harakatlari haqidagi tafsilotlarni biroz yumshatib ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bu tasvirlardan bosqinchi kuchlarning amalga oshirgan talonchiligi, zo‘ravonlik, shafqatsizlik hamda vahshiylikni ham ko‘z oldimizga keltira olamiz.

«Tavorix ul-xavonin»da yana Xiva-Buxoro, Xiva-Afg‘oniston, Xiva-Eron, Xiva-Rossiya diplomatik, harbiy va savdo sohasidagi munosabatlarining ba‘zan rivojlanib, ba‘zan susayib ketish sabablarini ochib berishda muhim rol o‘ynovchi e‘tiborli dalillar havola qilingan.

«Tavorix ul-xavonin»ning yana bir muhim afzalligi shundan iboratki, unda ilk bor xonlikdagi tasavvuf shayxlarining davlat boshqaruviga ta‘siri, mavjud tasavvufiy fiqhalar, ularning turmush tarzi, suluk odob-axloqi va qoidalari kabi masalalar haqida katta hajmdagi qimmatli ma‘lumotlar berilgan. Komyob o‘sha davr tasavvuf pirlari namoyondalaridan Umar eshon, Sodiqeshon, Yusufxon eshon, Ibodulloh eshon (Chotko‘frukli), Islomxo‘ja eshon (Qatag‘ondan), o‘zbekiyopli Siddiq maxzum, Sayyid Abdulloh, Hazorasplik Muhammadsharif, g‘oznobodlik Ulug‘jon eshon, uning o‘g‘li Bobojon mahzum, Hazorasplik Boqir eshon, qozi Abdurahim eshon va Muhammadsolih eshonlarni tilga olgan⁴⁸⁹.

Asar Munis va Ogahiyalar an‘anasi tarzida har bir voqea bayoni muallif tomonidan yozilgan ko‘plab nazmiy xulosalar bilan to‘ldirib borilgan. Nazmiy xulosalarning aksari muallif qalamiga mansub bo‘lsa, ba‘zi o‘rinlarda boshqa mualliflarning ijod namunalari ham keltirib o‘tilgan. Asarning mazkur jihatlari davr

⁴⁸⁸ Сайиёд Ҳомид тўра Комёб. Таворих ул-хавонин. / Масъул муҳаррир А.С. Сағдуллаев. Т.: «Академия», 2002. - Б. 9. Яна қаранг: Нуржонов К., Хасан Р. Исён фитнаси. // Ватан. 1996 йили, 14-21 март. 2(144) сон.

⁴⁸⁹ Комёб. Таворих ул-хавонин. 198^о ва кейинги варақлари.

adabiy jarayonini tadqiq etish, adabiy manbashunoslik nuqtayi nazaridan ham qimmatlidir.

Komyob asarida keltirilgan muhim ba'zi bir voqealarni ajratib o'tamiz:

Muhammadamin inoq Buxorodan qaytib kelib, Xorazm mamlakatini qo'l ostiga kirgizib, «xon va umaro va o'zga qal'alarning hokimining azlu mansabi» ni qo'lga olgani, ammo «o'tgan abo va ajdodining ravish yo'sinidin tajovuz qilmay, otin inoq qo'yub qazoq, dog'i to'ralaridin kim Chingiziya avlodlaridur, olardin birin kelturub otin xon qo'yar erdi. Oxiri umri tekru xonin qatlg'a yetkurub, amirlik otin xonliqg'a intiqol etkurdi» (84-85 var);

Eltuzar Muhammad Bahodirxon ismi bila Xorazmshohlik masnadiga o'lturgani;

Elga saranjom berib askariy lashkar tartib qilgani;

Davlat timsoli sifatida o'zi uchun bir tug' yasatgani (qubbase ming misqollik oltindan, shuqqasi la'lu yoqut javohiroti va olmosdan);

Turt baydoq uzattirib, qubbalarini ming misqol kumushdan oro berib, to'rt to'ba umarosining shavkatini ko'tarib, Xorazmda alohida hukumat yurutmak istagani, markaziy hukumat(podsholikka) bo'yun qo'ymaganni bo'yni kesmak tilagani (bu yo'lda Bekpo'lod otaliq arkka chaqirilib qatl qilindi)⁴⁹⁰;

Eltuzarning imrali, chovdar, yavmutga nisbatan olib borilgan siyosati (yavmutning o'n sakkiz ming uylik jamoasining migratsiya va remigratsiyasi, ya'ni ularning turkman oralariga, keyin Eronga borib qaytib Xorazmga qaytganlari haqidagi ma'lumot);

Xiva va Buxoro o'rtasidagi urushlar (Qutluqmurodxonning asir tushishi, Eltuzarning halokati, uning ukalari Hasanmurodbek, Abdukarimbek, Abdurahimbek ibn Fozilbek va Vali atoliqning o'limlari);

Muhammadrahimxonning oti «oyoqi sichg'on inig'a ketib surunub ketgani» va «tojik umarosidin» ikki kishisi qo'lga asir tushib, keyin qutulib qochgani;

⁴⁹⁰ *Комёб. Таворихул-хавонин. 85^{a,6}вар.*

Xivaga kelgach, umarolar va Fozilbek, Shohniyoz otaliq Muhammadrahimni xonlikka ko'tarmoqchi bo'lganida, u qabul qilmay yana «Abulg'ozixonni qozoqdin kediturub xon qilib, o'zi inoqlik mansabida qolgani», biroq Qutluqmurod Buxorotutqunidan ozod bo'lgach, bir-ikki oydan so'ng xonlik taxtiga ko'tarilgani;

Xonga qarshi Qo'ng'irotda to'ra so'fi, amakilari Muhammadmurodbek, Muhammadrizobek va Eshmuhammadbekning chiqishlari, ular o'rtasidagi toj va taxt uchun kurash, ularni xon tomonidan qatlga yetkazilishi (1016-1096 var.);

Muhammadrahimxonning sariq, solur, taka, yavmut, qarodoshli, alieli qabilalarni, qozoq va qoraqalpoq jamoasin «taxti farmoniga kiritgani»;

Muhammadrahimxon davrida Ko'hna Urganchning qayta obod bo'lgani, «Hiloliy qal'asi, Toshhovuz shahri, Qilichboy mavzesi, Mo'ynoq baldasi»ning obod va ma'mur bo'lgani, Oqmasjid kentiga suv chiqarilgani;

Oллоhqulixon davrida Oqdarbanliklarning (eroniyalar) Xorazmga ko'chirilgani, jamshidiya jamoasini ham ko'chirtirgani;

Abdullohbek Qutlug'murod inoq o'g'lining va besh yarim oydan keyin Qutluqmurod ibn Ibodillohning Ya'qub mehtar sa'yi bila xon bo'lganlari (129^a);

Besh oy o'tgandan so'ng (1270, 14 jumod as-soniy/ 1854, 14 mart) Qutluqmurodxon, Ibrohim devonbegi, Ya'qub mehtarning yavmutlar qo'lidan halok bo'lishlari, Sayyid Muhammadning xon bo'lishi, yavmutlarning qirg'ini;

Sayyid Muhammad Bahodirxon tomonidan vazifa va unvonlarga aka-ukalari va qarindoshlari, qabila peshvolaridan tayinlanishi (shunda akasi Sayyid Mahmud to'raga amir-u umarolik va Hazorasp hokimligi berildi; Eltuzar inoq, Bogibek beklarbegi, Hasanmurodbek kushbegi, ya'ni vazir, Muhammadrizobek otaliq, Sulton Mahmud to'ra ibn Oллоhqulixonga biylik mansabi tegdi);

Sayyid Muhammad Bahodirxon davridagi turkmanlar, Zorliqxon va Muhammad Panohga qarshi kurashlarning tafsilotlari, ruslar bilan birinchi to'qnashuv bayoni,

Sayyid Muhammad Bahodirxoni Soniy «Feruz» davridagi siyosiy voqealar, Xiva istilosi va Rossiya imperiyasi mustamlakachilik davri (172^b varagʻidan boshlanadi);

«Xorazmda Rusiya istilosiga qadar taka turkmanlari Erondin oʻgʻirlab kelturub sotgan tugʻmalari 58500 (ellik sakkiz ming besh yuz) nafar erkan. Shundan 22500 (Yigirma ikki ming besh yuzi) Xorazmdin ketmakni ixtiyor qilmay, yerli va suvli boʻlub qolganlar. Oʻz ixtiyori boʻyinch 36000 (oʻttiz olti ming) nafari Kaufman Xiva xoni xat yozib Eron shohiga mullo Husaynni bosh etib yuborilgan. Yoʻlda yavmut chafovlurub, bir ozini xarob etib, qolgʻonlari mullo Husayn maktubni olib borib Eronda Shohga topshirgʻoni...» (189^b var).

Mavzu boʻyicha quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

- Komyob asarining birinchi bobini Abulgʻoziy asarlari asosida yozgan;
- Asarning original qismi butunlay Komyobning esdaliklari, koʻrgan va eshitganlari asosida yozilgan va shu jihatlari bilan ahamiyatlidir;
- Komyob asarida yana qoʻngʻirot sulolasi hokimiyatining legitimatsiya masalasi, turli kuch va guruhlarining markaziy hokimiyatga munosabatlari, etnik va etnosotsial jarayonlarga doir maʼlumotlarni koʻrish mumkin;

2. XX asr birinchi choragida bitilgan «Xorazm tarixi», «Xorazm xonliklari tarixi», «Xorazm tarixi materiallari» kabi qo‘lyozma asarlarda davlatchilikka oid ma‘lumotlar

Xorazm tarixnavislari qatorida Mullo Hasan Murod qori «Komkori ushshoq» taxallusli ibn Muhammadamin ibn Muhammadnazar devon ibn Qilich Niyoz biy ibn Niyozmuhammad mahram tomonidan Isfandiyorxon davri tarixiga atab yozilgan «Gulshani saodat» asarini ham keltirish mumkin. Muallif qalamiga mansub bo‘lgan mazkur nusxadagi voqealar bayoni 1334/1916 – yilni o‘z ichiga olgan (Isfandiyorxon 1918 –yili vafot etgan). Asar xatida nasta‘liq va shikasta elementlari bor. Fabrika qog‘oziga yozilgan, sahifalarga paygir (kustod)lari ham qo‘yilgan. 63+1 varaq. Unda A. Nosirovning 14 –mart 1967 –yilda nusxaning avtograf ekanligi haqidagi qaydi bor⁴⁹¹.

Qo‘lyozma Qo‘qon qog‘oziga nasta‘liq xatida ko‘chirilgan. Shaharlar, daryo va mamlakatlarning nomlari qizil tush bilan ajratib ko‘rsatilgan. 1^b va 266^a varaqlarda «Abdurahmon ibn Sherdevonbegi, 1246/1830-1831» bitikli muhr izi mavjud. Yozuviga va hoshiyalardagi ko‘plab tuzatish va qo‘shimchalarga qaraganda, ushbu nusxa muallifning o‘z dastxatidir. Ko‘chirilgan sana-1247/1831-1832 yil, 266 varaq. 15x25sm⁴⁹².

1869-1912 yillarda yashab ijod etgan Ahmadjon Tabibiyning «Tavorix ul-xavonin» (Xonlar tarixi) nomli qo‘lyozma tarixiy asari ham Isfandiyorxon davri (1910-1918 yy) tarixini o‘z ichiga olib, asar vaziri akbar Islomxo‘janing (1872-1913 yy) buyrug‘i bilan yozilgan. Qo‘lyozma muhridagi yozuvga ko‘ra 5-sonli Sergeev fabrikasida chiqarilgan sarg‘ish qog‘ozga nasta‘liq yozuvida

⁴⁹¹ЎзФА ШИ Қўлёзма. – № 7771. Яна қаранг, СВП, VII. - № 5032.

⁴⁹²СВП, VII. -№№ 5469,5471.

yozilgan. Sarlavhalar va muhim voqealar nomi qizil rang bilan bitilgan. Qo‘lyozma o‘lchami 35x22 sm⁴⁹³.

O‘rganilayotgan davrda Jumaniyoz Xoja Xorazmiy al-Xivaqiy ibn Boboniyoz Xorazm tarixiga oid risola yozgan. U aniq nomlanmagan bo‘lib, Xorazmda sodir bo‘lgan 1910-1919 yillar voqealarni o‘z ichiga oladi. Nusxa rus fabrika qog‘ozida yashil siyoh va qora tush bilan oddiy nasta‘liq yozuvida bitilgan. Bu 90 varaqdan iborat qo‘lyozma XX asrning 20-yillarida yozilgan. O‘lchami 17,5x22,5 sm⁴⁹⁴.

Xivalik tarixchilardan yana biri Abdulla Boltayev bo‘lib, u 1890 –yili Xivada bo‘yoqchi oilasida dunyoga kelgan. U o‘zining «Xorazm tarixi materiallari» asarida⁴⁹⁵ XX asr boshlaridagi voqealarni guvohi va ishtirokchisi sifatida bayon qiladi. Nasta‘liq xatida qayd daftarida yozilgan. 93+3 varaq. 94^a varag‘ida muallifning tarjimai holi keltirilgan⁴⁹⁶.

Asar 1950 yili Xivada yozilgan. Tarixiy manba sifatida mazkur asar ham juda qimmatlidir. Tarixiy ma‘lumotlaridan Xiva xonligida qulchilik, Xiva va uning atrofidagi madrasalar ularning vaqflari, soliqlar, hunarmandchilik va ularning mahsulotlari, chorvachilik, boj va hokazoni alohida ta‘kidlash mumkin. Xonlikdagi 1910 –yili voqelari, 1917-18 yillaridagi va 1920 –yilidagi xalq qurultoyi, inqilobiy voqealar guvoh tilidan yozilgan.

A.Boltayevning «Xiva esdaliklari» nomli asarida esa muallifning esdaliklari turli manbalar, gazeta maqolalari va boshqa guvohlarning esdaliklari arab va kirill yozuvida, o‘quvchidaftariga yozilgan. Asarning birinchi qismida Xiva madrasalari, Xivaning me‘moriy obidalari, sug‘orish tizimi haqida keng ma‘lumotlar berilib, turli chizmalar keltirilgan (4^b-6^a, 7^b-12^b, 59^b, 78^a-81^b). Ikkinchi qismda muallif ko‘pgina Xiva hujjatlari nusxalarini keltirib, ularni tahlil qilgan (97^b-101^b). Unda Xiva shahrida 1911

⁴⁹³ Худойбергенов К. Паҳлавон Маҳмуд қабр тошидаги ёзувлар... *Тарих фан, ном. дисс.....* -Б. 81.

⁴⁹⁴ Ўз ФА ШИ. Қўлёзмаси. № 7568. Яна қаралсин: *СВП, VII.* - № 5033.

⁴⁹⁵ Болтаев А. *Хоразм тарихи материаллари.* // Қўлёзма. Ўз ФА ШИ. № 9320, 93+3 вар.

⁴⁹⁶ Қўлёзма. Ўз ФА ШИ. - № 9320.

yilda yerga boʻlgan munosabatlar, poʻstindoʻzlarning arizalari, xalqning turli urf-odatlarini haqida qaydlar va fikrlar mavjud. Asarning hajmi 111 varaq⁴⁹⁷. Avtograf. 2 ramazon 1384/5 yanvar 1965 Xivada yozilgan⁴⁹⁸.

Xiva xonligi tarixini oʻrganishda Bobojon Safarovning asarlari ham juda qimmatlidir. Bobojon Safarov XIX asrning oxirlarida Xivada tugʻilib, madrasa taʼlimidan soʻng mufti aʼlam boʻlib ishlagan. Uning shartli ravishda nomlangan «Xorazm tarixi», «Xorazm xonligiga tegishli tarixiy materiallar», «Xorazmda oʻtgan oʻzbek podshohlarining nasablari, xonliklari, avlod-u oilalari, mol-mulkari, xulqu odatlarining voqea ahvollari», «Xorazmda boʻlib oʻtgan qulchilik ahvollarining voqealari», «Isfandiyorxonning xonlik vaqtidagi qilgʻon ishlaridan baʼzi voqealar» asarlari va yozishmalari yetib kelgan. Mazkur asarlarning barchasi Oʻzbekiston FA Sharqshunoslik instituti xazinasida (-№№10231, 11117, 11254/I1254/II, 11254/III) saqlanadi.

Safarov Bobojonning asarlari shoʻrolar davrida yozilgani va ularning mazmunida davrning gʻoyaviy taʼsirini inobatga olish lozim. Ularning biryoqlama voqelarga baho berishi bilan undagi koʻp tarixiy voqealar tafsilotlaridan yangi va oʻta muhim maʼlumotlarni olish mumkin.

«Xorazm tarixi» asarida B. Safarov Xorazmda yuz bergan 1864-1934 yillardagi voqealar bayon etilgan. Asarda, ayniqsa, 1920-1922 yillardagi siyosiy voqealar kengroq yoritiladi. Asarda keltirilgan geografik hamda Xiva xonligining etnik tarixiga oid maʼlumotlar juda qimmatlidir. Asar muqaddima va 36 bobdan iborat. Boblar nomlari quyidagicha:

«Xorazm xonligiga tegishli tarixiy materiallar»da xonlik davriga oid oʻta muhim maʼlumotlar mavjud. Unda xonlik tarixi XVII asrdan XX asrning boshlarigacha yoritilgan. Asarda soliqlar, xiroj, zakot, boj olish haqida maʼlumotlar keltirib, unda Muhammadrahimxon II va Asfandiyorxon davrlari kengroq

⁴⁹⁷Кўл ёзма. ЎзФА III. – № 11645.

⁴⁹⁸СВР. История - С, 239-240.

yoritiladi. Asar nasta'liqda, oddiy qalamda Xivada yozilgan va 16 varaqdan iborat.

«Xorazmda o'tgan o'zbek podshohlarining nasablari, xonliklari, avlodu oilalari, mol-mulklari, xulqu odatlarining voqea ahvollari» nomli asarini B. Safarov O'zbekiston FA Tarix instituti buyurtmasi bilan yozgan. Unda xonlik tarixi Eltuzarxon davridan (1804-1806) boshlab Asfandiyorxon davrigacha (1918 –yili o'ldirilgan) bo'lgan voqealar bayon etiladi. Asar 81 sahifadan iborat.

Bobojon Safarov oxirgi ikkita asarida Xorazmda qulchilik masalasini (12 sahifada) va Isfandiyorxon davri tarixini (4 sahifada) yoritgan.

Xivada yashagan Matkarim Otajonov (1900 –yil tavallud topgan) o'zining «Xonlar, xonzodalarning davri» (mashinkada 199 sahifa) va «Xorazm tarixiga oid materiallardan» (149 var.) nomli asarlarida Xiva xonligi tarixini Hoji Muhammadxon ibn Oqotoyxondan boshlab yozgan. Mazkur asarlarni muallif 1963-1964 yillarda yozgan.

Xivalik davlat va siyosiy arbob hamda tarixchi Polvonniyoz Hoji Yusupov 1861 –yil Xivada tug'ilib, 1936 –yili dunyodan o'tgan. U yigitlik davrida tijorat ishlari bilan shug'ullangan. Bir qancha xorijiy mamlakatlarda, jumladan, Rossiya, Turkiya, Misr va Suriyaga borgan. U arab, fors va rus tillarida erkin gapira olgan. Polvonniyoz Hoji Yusupov «Yosh xivaliklar» partiyasining asoschisi va rahbari bo'lib, u o'z faoliyati davomida ro'y bergan muhim tarixiy voqealarni kundalik daftariga xotiralar tarzida yozib qoldirgan. «Xotiralar» tarzida yozilgani uchun kitobga nom, mavzu va boblar qo'yilmagan. Asar asosan «Yosh xivaliklar» partiyasining demokratik faoliyatiga, uning xon istibdodini ag'darib Xorazmda mustaqil xalq jumhuriyatini barpo qilish va uni mustahkamlash borasidagi ishlarga bag'ishlangan.

Polvonniyoz Hoji Yusupovning o'z qo'li bilan arab imlosida yozgan bu «Xotiralari»ning asl nusxasi tarix fanlari nomzodi A.Sotliqov, Mullo Bolta Davlatov, Mullo Baxtiyor Otajonovlar

tomonidan Hozirgi o'zbek imlosiga o'girildi va asar «Yosh xivaliklar tarixi» nomi bilan nashr etilgan, «Xotiralar»ning asl qo'lyozma nusxasi esa Polvonniyoz Hoji Yusupovning nevarasi qo'lida saqlanmoqda. «Yosh xivaliklar tarixi» kitobi 10 bob, 485 betdan iborat. Asar Muhammadrahimxon II Feruz vafoti va uning o'g'li Xiva xonligi taxtiga ko'tarilish davridan boshlanib, Turkistonda «Milliy hududiy chegaralanish» va XX asrning tugatilishigacha bo'lgan davr voqealarini o'z ichiga oladi⁴⁹⁹.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlariga oid yuqorida ko'rib o'tilgan tarixiy asarlar ham xonlikning ijtimoiy adabiy muhiti haqida to'la ma'lumot beradi va ular ham Xorazmdagi kitob va kitobat san'atining yaqqol namunasi sifatida qimmatlidir. Mazkur bob bo'yicha quyidagi xulosalarni berish mumkin:

- Komyob Xiva ilmiy-adabiy muhitida ijodkor sifatida shakllandi va o'zidan oldin bo'lgan xivalik tarixchilardan ilhomlanib o'z sulolasi tarixini yozmoqqa kirishadi;
- Komyob o'z davri tarixchilaridan farqli o'laroq xalq og'zaki ma'lumotlaridan, guvohlar va voqea ishtirokchilari axborotlaridan foydalangan;
- «Tavorix ul-xavonin»da turkmanlar, qo'ng'iroq, qoraqalpoqlar, Orol bo'yi aholisi va Buxoroga oid ma'lumotlarham talaygina;
- Mullo Hasan Murod qori ibn Qilich Niyoz biy ibn Niyozmuhammadning «Gulshani saodat» asari Xiva xonlaridan Isfandiyorxon davri tarixini o'rganishda muhim manbadir;
- Abdulla Boltayevning «Xorazm tarixi materiallari» XX asr boshlaridagi voqealar bayon qilinadi;
- Bobojon Safarovning tarixiy asarlari sho'rolardavrida yozilgani va ularning mazmunida davrning g'oyaviy ta'siri sezilsa-da, ularda keltirilgan geografik hamda Xiva xonligining etnik tarixiga oid ma'lumotlar juda qimmatlidir;
- Polvonniyoz Hoji Yusupovning «Xotiralar» asarixonlik davrining tugatilishi va Xorazmda mustaqil xalq jumhuriyatining barpo qilinishi hamda uni mustahkamlash borasidagi ishlarga bag'ishlangan;

⁴⁹⁹ *Полвонниёз Ҳожи Юсупов. Ёш хиваликлар тарихи. - Урганч, 2000. – Б. 42.*

XULOSA

Xorazm yozma merosida o'zbek xalqining davlatchiligi tarixi masalalari keng yoritilgani barcha mutaxassislariga ma'lum. Uch ming yillik davlatchilik an'alariga ega bo'lgan xalqimiz o'tmishini turli til va davrlarda bitilgan yozma manbalar orqali o'rganilishi manbashunos olimlar va tarixchilarning muhim ilmiy yo'nalishlarini tashkil qiladi.

Xorazmda bitilgan tarixiy yozma manbalar qadimda, o'rta asrlar, yangi davrda yaratilgan bo'lib, ular qadimiy tillardan pahlaviy, fors, arab va turkiy tillarda yetib kelgan. Davr o'tishi bilan ko'pgina manbalar yo'qolib ketgani ham ma'lum. Shu davrlarda yozilgan manbalar islomgacha va islom davri, Xorazmshohlar, Xiva xonligining tashkil topishidan to 1920 yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Mazkur tadqiqotda Xorazm vohasida yaratilgan shu yozma manbalardagi faqat Xorazmda shakllangan davlatlar va davlatchilik masalalari, ma'muriy boshqaruviga ahamiyat berildi. Mavzuning tarixshunosligi va manbashunosligiga bag'ishlangan adabiyotlar va tadqiqotlar mingdan ham ko'pdir. Manbalardagi ma'lumotlar ham minglab varaqlarni tashkil qiladi.

Xorazmda bitilgan yozma manbalarda davlatchiligimiz haqidagi ma'lumotlarning o'rganilishi hamda tahlili natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

– Eng qadimiy yozma manba bo'lgan va O'rta Osiyo hududida yaratilgan «Avesto» o'zining ko'p qatlamli va murakkabligi bilan e'tiborga loyiq. Unda aks etgan jamiyat va davlat doirasidagi rusum va qonun-qoidalar ma'lum bir tartibda izchil berilmasligi tabiiydir. Birinchidan, biz «Avesto»ning asliy matniga ega emasmiz. Ikkinchidan, hozirgi kunda fanga ma'lum bo'lgan va jahonning ko'pgina tillariga o'girilgan «Avesto»da qonun- qoidalarning asosiysi «Vendidod»da jamlanganiga ko'ra, bu tartib asliy matnda saqlangan bo'lsa kerak, degan xulosa chiqarish mumkin.

– «Avesto»da ijtimoiy tabaqalar xususida gap ketishi, aholining turli kasb-kori, ijtimoiy kelib chiqishi, diniy mansubligi jihatidan

guruhlarga ajratilishi unda ilk davlatchilik atributlarining aks etganidan dalolat beradi.

– Mazkur yodnomada juda uzoq tarixga ond huquqiy atamalarning uchrashi unda davlat huquqi anchayin mukammal aks etganini satadi. Bundan tashqari, unda aks etgan qonunlar avvalo Aleksandr Makedonskiy, keyinchalik islom fathigacha zardo‘shiylik dini yetakchi bo‘lgan hududlarda qonunlar majmui vazifasini ham o‘tagani ma‘lum.

– «Avesto»da davlat chegaralari masalasi mifologik tasavvurlar asosida bo‘lsaham, ayrim o‘rinlarda undagi joy nomlarini lokalizatsiya qilish imkoni tug‘iladi. Uch ming yillik yodnomada bu kabi masalalarning ko‘tarilishi qadim ajdodlarning siyosiy tafakkuri yuksak rivojlanganidan darak beradi.

O‘zbek davlatchiligi tarixini izchil va ilmiy asosda Abu Rayhon Beruniy o‘rgangan. Uning asarlarida qadimiy turkiy qavmlarning va ularning ajdodlari bo‘lmish so‘g‘diylar, xorazmliklar va qang‘lar haqidagi ma‘lumotlari bugungi kunlarda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Shuning uchun ham al-Beruniyning quyidagi ma‘lumotlari, fikr-mulohaza va xulosalari ahamiyatlidir:

- «Avesto» va uning matnlariga ishonch bilan qarashi;
- Qadimiy Xorazmda uning 21 naskdan iborat kitoblari haqidagi uning birlamchi xulosalari;
- Beruniy Xorazmda ilk davlatning paydo bulishini aniq raqamlar bilan ko‘rsatib berishga intiladi. Uning ta‘rificha, mahalliy tarixiy an‘ana Xorazm davlati tarixini tashki tuzilishinigina beradi, chunki xorazmliklarning o‘zlari bu an‘anani ilk o‘rta asrlarda deb tasavvur qilganlar;
- Arab sarkardasi Qutaybaning «Avesto»ni yoddan bilgan hofizlarni qatl ettirishi. Shunda al-Beruniy arablarning qatliomini qoralaydi;
- Ofrig‘iylar haqidagi uning tadqiqotlari, fikr va xulosalari;
- Xorazm tarixi va madaniyatining mo‘g‘ullar davrigacha bo‘lgan davri arab va fors tilidagi manbalarda yoritilgan. Ulardan Ibn al-Asirning «Tarixi komil» asari, Shihobaddin

Nasaviyning «Siyrat» va «Nafsat al-masdur» asarlari, Rashidaddin va Juvayniy, boshqa mualliflarning asarlarida Xorazm va Xorazmshohlarning davri, ular faoliyati bilan bog'liq ko'p masalalar bayon qilgan.

Xorazmshohlar imperiyasi haqidagi manbalarda davlatchiligimiz haqidagi masalalarning aks etishi bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

–Xorazmshohlar davlatida davlat tashkiloti, davlatchiligi negizini Saroy, Hukumat, O'rdi (Qo'shin) va Dor al-qazo (sud mahkamasi) tashkil etgan.

–Xorazmshohlar davlatida davlat mansablari ma'muriy, diniy va harbiy lavozimlarga bo'lingan. Markaziy moliya soliq mahkamasining tuzilishi juda muntazam bo'lib, unga vazir, sohibi devon, munshiy, sohibi devoni istifo yoki mustavfiy (ya'ni daftardor), sohibi devoni ish ishraf mushrif, hojibi xos, sohibi devoni arz yoki ariz va nozirlar, boshliq bo'lishgan. Bu mahkama turli-tuman soliq to'lovchi tabaqalarning hisobini olishda, davlatning tashqi va ichki ishlari yuzasidan vasiqalar hozirlash, davlatning moliyaviy ishlarini yuritish va boshqarib turish, davlat darajalari, idoralarini taftish qilib turish qo'shin boshqaruvi, harbiy qo'shinni to'plash, harbiy boshliqlarni tayinlash, xorijiy elchilarni qabul qilish kabi masalalar bilan shug'ullangan. Davlatda ta'sis etilgan vazir, sohibi devon, hojib yoki ulug' hojib, mastavfiy, nozir va ariz lavozimlari saroydagi eng yuqori lavozimlardan hisoblanib, bosh vazirlik vazifasiga to'g'ri kelardi.

–Mamlakatning butun hududi ma'muriy jihatdan viloyat tashkiloti (voliy, noib o'rinbosar), ya'ni viloyat va viloyat vazirliklariga bo'lingan. Vazir viloyatning eng vakolatli boshlig'i bo'lib, poytaxtdagi singari, viloyatlarda ham vazirga qarashli devonlar bo'lgan. Devoni istifo, devoni ishraf, devoni nazar va devoni arz kabi idoralar mavjud edi. Viloyatda vazirdan keyin eng nufuzli mansab egasi omil bo'lib, omil «voliy» ma'nosida ishlatilgan. Shuningdek, shihna, rais, muxtasiblar ham viloyatning jamoat tartibi, soliq yig'ish masalalari, shaharni boshqarish va nazorat qilish vazifalarini bajarganlar.

–Harbiy va qo'shinga oid boshqaruv ishlarini Buyuk devonning bo'limi devoni arz shug'ullangan. Hukmdorning gvardiyasi ham

mavjud boʻlgan. U armiyaning bosh qoʻmondoni edi. Xorazmshohlar davlatida viloyat markazlarida yetarli miqdorda harbiy qismlar turgan. Shuningdek, mamlakatning chegara qismlari, yoʻllar va mudofaa ahamiyatiga molik qalʼalarda mudofaa qismlari boʻlgan.

–Voliylar va qalʼa qoʻmondonlari keyingi davrlarda yirik urugʻ beklari orasidan tayinlangan. Ularning qoʻl ostida baʼzan (aksariyat hollarda) qullardan tarkib topgan xos harbiy qismlar ham boʻlgan. Urugʻ beklari xizmatga oʻz urugʻi qismini olib kelgan. Iqto egalaridan (sohiblaridan) tashkil topgan mahalliy qismlar ham ularning qoʻl ostida boʻlgan.

–Sulton Alouddin davrida armiya qipchoqlar, soʻng qalach, qarluq, uran, ugʻraq kabi urugʻlardan tashkil topgandi. Alouddin davrida urugʻ beklari qoʻl ostida boʻlgan qipchoq-qanglilar gvardiyaning asosini tashkil etgan. Jaloliddin davrida ular armiyaga olinmagan. Chunki, Jaloliddin valiahdlikka tayinlangandan soʻng unga qarshi bosh koʻtarishgan.

–Jaloliddin davrida viloyat qoʻshinlarining ayrim qismlari turkmanlardan tashkil topgan.

–Xorazmshohlar davlatida markazlashgan adliya tashkiloti tashkil topgan boʻlib, bu tashkilot shariat sudi va urf-odatga koʻra hukm chiqarishga asoslangan. Qozilar sulton tomonidan tayinlangan. Quyi sudlar yuqori sudlarga tobe edi.

–Xorazmning gullab-yashnashi yuqori bosqichga chiqqanda qudratli Xorazmshohlar davlati atrofida eng kuchli turk qabilalari qangli, qipchoq, turkman Qoraqalpoq aholisi birlashib, jiplashayotgan bir paytda Chingizxon qoʻshinlari vahshiylarcha bostirib kirdi. Oqibatda buyuk Xorazm imperiyasi moʻgʻul istilosi tufayli yemiriladi, shahar va qishloqlarning deyarli hammasi talon-toroj qilinib, aholisi qiriladi, qisman haydab olib ketiladi, minglab gektar unumdor yerlar esa xarobaga aylanadi, doimiy ravishda tozalab va qarab turishni talab qiladigan sugʻorish tarmoqlari tushkunlikka uchraydi.

Xorazmda turkiy (eski oʻzbek) tildagi tarixnavislik maktabiga ilk tamaltoshi koʻygan tarixiy asarlardan «Tarixi Oʻtamish hoji ibn mavlono Muhammad Doʻst sulton» (Chingiznoma) ni hamda Abulgʻoziy Bahodirxonning asarlarini tilga olish mumkin.

Mazkur mualliflar asarlarining o'rganilishi quyidagi xulosalarga olib keldi:

– «Chingiznoma» Xorazm vohasida, xorazmlik muallif tomonidan yaratilgan va bizgacha qisman bo'lsa-da, yetib kelgan ilk turkiy tarixiy asardir.

– «Chingiznoma» muallifi asarini yozishda asosan «Dasht ogzaki istoriologiyasi»dan keng foydalangan. «Chingiznoma», «Shajarayi tarokima» va «Shajarayi turk» asarlarida O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, O'zbekiston tarixiga oid ma'lumotlarini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1) Shaybon va shayboniylar nasablari, ular o'rtasidagi oilaviy munosabatlar;

2) o'troq va ko'chmanchi aholining davlat va ijtimoiy tuzumlariga doir ma'lumot;

3) O'rta Osiyoga kelib o'rtnashgan ko'chmanchi qabila va elatlarning tarixi, ularning yangi konfederatsiyalar tuzishdagi o'rni;

4) Jo'chi xonadoniga doir ma'lumot. Chig'atoy nasabi va shajarasiga oid materiallar;

5) Shayboniylarning Dashti Qipchoq va Oltin O'rda, yurish qilingan boshqa davlatlar bilan o'rnatilgan munosabatlari haqida aniq ma'lumotlar:

6) Ko'chmanchilar hokimiyatining sakralizatsiya masalalariga doir materiallar:

7) Yaso va vusun, tuzuk, to'ra huquqining joriy qilinishi:

8) Ko'chmanchilar an'anasiga asoslangan davlat-ma'muriy apparati va boshqaruvining shakllanishi;

9) Mo'g'ul qabilalarining turkiy aholi o'rtasidagi assimilyatsiya masalasiga doir ma'lumot;

10) Chingiziylar hokimiyatining bosib olingan hududlarida legitimatsiya masalalariga doir kuzatuvlar;

11) Chingiziylar va shayboniylar davrida joriy qilingan va amalda bo'lgan unvon va mansablar, ularning darajalari haqidagi ma'lumotlar;

12) Chingiz avlodlari davridagi harbiy tarixiga, askariya va harbiyishi to'g'risidagi ma'lumotlar.

Xiva solnomalari va o'zbek davlatchilik tarixining o'ziga xos xususiyatlarini ham ko'rsatish juda muhim. Xorazm tarixnavislik maktabiga Abulg'oziy Bahodirxon o'zining «Shajara» lari bilan asos solgani ham ilmda asoslangan. Munis Sherg'ozii xon davrida (1126-1140/1714-1727) Mavloni Sayyid Muhammad oxund tomonidan yozilgan «Gulshani iqbol» (Iqbol/baxt gulshani) asarini tilga oladi va bu asar buxoroliklarning qo'liga tushib, ularning hasadlari natijasi o'laroq yo'qolib ketganini aytadi. XVIII asr davomida Xorazm zaminida markaziy hokimiyat zaifligidan, o'zbek urug' va qabilalarining o'zaro nizolari, o'zbeklarning turkmanlar bilan urushlari mamlakatni anarxiya holatiga olib kelgan edi. Bu vaziyat esa mahalliy tarixni yoritish uchun imkon bermagani aniq.

XVIII asrning oxirlariga kelib vaziyat ancha o'zgaradi. Qo'ng'iroq sulolasidan chiqqan inoqlar va xonlar (XIX asrning boshlaridan) hamda o'zbeklarning gegemon qabilalarining biy va beklari asta-sekinlik bilan o'troqlashuv jarayoniga tortildilar. Ular o'zlarining oldingi ajdodlaridan farqli ravishda tarixga alohida ahamiyat beradigan bo'ldilar. Ular qo'lga kiritilgan mavqe va maqomlarini endi legitimatsiyalash (qonuniylashtirish) vositalarini qidirib, uning eng qulayi tarixnavislik ekanini tushundilar. Bu esa Xorazmdagi madaniy hayotning jonlanishi, yangi kuch va manfaatlarning keng hududlarda ildiz otib, uni mustahkamlashdan darak berardi.

Xorazmda yashab ijod qilgan mutafakkirlardan Munis o'z asarlari bilan alohida o'ringa egadir. U Xorazm solnomachilarining eng yirik namoyandalariining biridir.

Ogahiy, Bayoniy (hamda Munis) asarlari manba sifatida quyidagi mavzu va muammolarni yoritishda katta ahamiyatga ega. Bular:

1) Xorazmda hukmronlik qilgan shayboniylar nasablari, ular o'rtasidagi oilaviy munosabatlar;

2) O'troq va ko'chmanchi aholining davlat va ijtimoiy tuzumlariga doir ma'lumot;

3) O'rta Osiyoga kelib o'rtnashgan ko'chmanchi qabila va elatlarning tarixi, ularning yangi konfederatsiyalar tuzishdagi o'rni;

- 4) O'lkadagi etnik va etnosiyosiy jarayonlarni yoritish;
 - 5) Xorazm shayboniylari keyinchalik qo'ng'irotlarning Eron, Orol bo'ylari, Dashti Qipchoq va Buxoro bilan aloqalari, yurish va urushlari haqida aniq ma'lumotlar;
 - 6) Ko'chmanchilar hokimiyatining sakralizatsiya masalalariga doir materiallar;
 - 7) Avval ko'chmanchilar keyinchalik o'troq aholi an'anasiga asoslangan markaziy davlat-ma'muriy apparati va boshqaruvining shakllanishi, uning sinkretik mohiyati;
 - 8) Ko'chmanchi turk va mo'g'ul qabilalarining turkiy aholi o'rtasidagi assimilyatsiya va o'troqlashuvi masalasiga doir ma'lumot;
 - 9) Xorazm shayboniylari va qo'ng'irot sulolasini hokimiyatni bosib olingan hududlarida hukmronlik legitimatsiyasi masalalariga doir kuzatuvlar;
 - 10) Xorazm shayboniylari, arabshohlar (Abulg'oziy) davrida joriy qilingan va amalda bo'lgan unvon va mansablar, ularning darajalari haqidagi ma'lumotlar;
 - 11) Qo'ng'irotlar davridagi harbiy tarixi, askariya vaharbiy ishi to'g'risidagi ma'lumotlar;
 - 12) Ular manba sifatida Xorazm tarixnavisligiga bahoberish uchun katta ahamiyatga ega;
 - 13) Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixnavisligi va ijodiy faoliyatlariga baho berishda o'zlarining asarlarini tarixnavislik mohiyati va struktural chegaralarining ahamiyatibeqiyosdir.
- Xiva tarixnavislik maktabi izdoshlari asarlarida davlatchilik haqidagi fikr-mulohazalar quyidagicha:
- Komyob Xiva ilmiy-adabiy muhitida ijodkor sifatida shakllandi va o'zidan oldin bo'lgan xivalik tarixchilaridan ilhomlanib o'z sulolasi tarixini yozmoqqa kirishadi;
 - Komyob asarining birinchi boblarini Abulg'oziy asarlari asosida yozgan;
 - Komyob o'z davri tarixchilaridan farqli o'laroq xalq og'zaki ma'lumotlaridan, guvohlar va voqea ishtirokchilari axborotlaridan foydalangan;

– Asarning original qismi butunlay Komyobning esdaliklari, koʻrgan va eshitganlari asosida yozilgan va shu jihatlari bilan ahamiyatlidir;

– Komyob asarida biz yana qoʻngʻirot sulolasi hokimiya- tining legitimatsiya masalasi, turli kuch va guruhlarining markaziy hokimiyatga munosabatlari, etnik va etnosotsial jarayonlarga doir maʼlumotlarni koʻrish mumkin;

– «Tavorix al-xavonin»da turkmanlar, qoʻngʻirot, qoraqalpoqlar, Orol boʻyi aholisi va Buxoroga oid maʼlumotlar ham talaygina.

XX asr birinchi choragida bitilgan «Xorazm tarixi», «Xorazm xonliklari tarixi», «Xorazm tarixi materiallari» kabi qoʻlyozma asarlarda Xivaning Rossiya bosqini va hukmronligi davri, Xorazmdagi madaniyat, adabiy muhitva ularning namoyandalarning faoliyati yoritilgan.

Xorazmda yaratilgan yozma manbalarda oʻzbek xalqining davlatchilik masalalarining yoritilishi mavzui boʻyicha quyidagi taklif va tavsiyalarni berish mumkin.

1. Xorazmda yaratilgan yozma manbalar maʼlumotlari shu voqea hamda butun Oʻrta Osiyo xalqlarining tarixiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va etnik birligini koʻrsatadigan manba sifatida oʻrganilmogʻi va talqin etilmogʻi kerak.

2. Turli davr va zamonlarda, har xil tillarda bitilgan ushbu manbalarning maʼlumotlarini oʻzbek tiliga tarjima qilib, alohida mavzular yoki davrlarga ajratilgan holda xrestomatiya shaklida chop etilishi maqsadga muvofiq.

3. Arab bosqini va islomning tarqalishi davrida yaratilgan arab va fors tillaridagi yozma manbalarning aksariyati hali hamon toʻliq oʻzbek tiliga oʻgirilmagan. Ulardagi Xorazm tarixiga oid maʼlumotlari esa oʻrganilmagan va tahlil etilmagan. Bu muammo VIII-XIII asrlar tarixida katta bir jumboqligicha qolmoqda.

4. Xorazmning moʻgʻullar hukmronligi davridagi qariyb ikki asrlik tarixi ham oʻrganilmay kelmoqda. Arab, fors va moʻgʻul tilidagi manbalar asosida bu davr tarixini yoritish istiqbolli mavzulardan sanaladi.

5. Bizningcha, Xorazmning Amir Temur saltanati tarkibidagi tarixini o'rganish vaqti ham keldi.

6. Shu bilan birga Xorazmning XVI-XVIII dagi siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayoti kam o'rganilgan ilmiy mavzulardan sanaladi. Aynan shu davrda Xorazmdagi etno-siyosiy jarayonlar, o'troq va ko'chmanchi aholi o'rtasidagi siyosiy, harbiy, iqtisodiy, savdo, madaniy aloqalar juda ham shiddatli ravishda olib borilgan. Bu mavzularni turli manbalar va arxiv ma'lumotlari asosida o'rganilishi maqsadga muvofiq.

7. Xorazm tarixnavisligida sulolaviy tarixnavislik yetakchilik qiladi. Shu maktab namoyandalari asarlarida hokimiyat masalasi, chingiziylar (shayboniylar), qo'ng'irotlar sulolasining namoyondalari hokimiyatining legitimatsiya masalasini yoritish ham juda dolzarb mavzulardan hisoblanadi.

8. Xorazm tarixchilari maktabi namoyondalarining asarlari bugungi kunga qadar to'liq chop etilmagan. Vaholanki, o'zbek tilida yozilgan bu asarlar O'zbekiston manbashunosligi fanida katta ahamiyatga ega. Munis, Ogahiy, Bayoniy va boshqa Xorazm tarixchilarining asarlarining to'liq chop etilmagani bu yo'nalishdagi katta bo'shliqdan darak beradi.

9. Xonlik va sho'rolar davrida yaratilgan tarixiy asarlarga tanqidiy yondashish zarurligi maqsaddan xoli emas. Chunki har ikkala davrda yashab ijod qilganlar shaxsiy, kasbiy va moddiy manfaatlardan, siyosiy tazyiq va ijtimoiy buyurtmalardan xoli bo'lmaganlar.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Каримов И.А. *Тарихий хотирасиз келажак йўқ.* -Т.: «Ўзбекистон», 1998.
2. Каримов. И.А. *Хива шаҳрининг 2500 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги табрик сўзи* // Каримов. И.А. *Асарлар. 6-том.* -Т.: «Ўзбекистон», 1998. 375-бет.
3. *Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон ФА Тарих институти фаолиятини такомиллаштириши» ҳақидаги Қарори* // *Халқ сўзи*, 1998, 20 июл.
4. Абд ал-Кадир ибн Мухаммад Амин. *Маджма' ал-ансаб ва-л- ашджар./ Введение, перевод с арабского-персидского и тюркского, текст, факсимиле автографа, комментарии и указатели Ш.Х. Вохидова, А.К. Муминова, Б.М. Аминова.- Алматы: Дайк-Пресс. 2005. – С. 277 (текст стр. 350.)*
5. Абдуллева Б. *Комёб ва унинг қўлзма девонлари.* // *Адабий мерос*, 1988.– № 2(44).
6. Абдурасулов А. *Социально-экономическая и культурная жизнь города Хивы в конце XIX - начале XX века. Автореф. дисс. канд. истор.наук.- Т.: 1988. – С.19;*
7. Абдурасулов А. *Хива. Тарихий-этнографик очерклар.* «Ўзбекистон», 1997; Т.:
8. Абдурахманов М. *Научная деятельность А. З. Валидова в Туркестане. Автореф. докт. ист. наук. – Т., 2005. – 46 с;*
9. *Абулгози. Шажарайи турк.* –Т.: «Чўлпон». 1992.
10. *Абу-л-Фазл Бейхаки. История Масуда.* /Вступительная статья, перевод и примечания А.К. Арендса. Т.: «Фан». 1962.
11. *Авесто. Таржумон Ж. Дустҳо. Техрон, 1375;*
12. *Авесто. Яит китоби. (Худо Ахурамазда ва у яратган маъбудалар шаънига айтилган алқовлар). Ўзбек тилига илмий-изоҳли таржималар. М. Исҳоқов таржимаси. – 127 с;*
13. *Авесто. Яит Китоби. Аши алқови (Орд Яит). 45. (М. Исҳоқов таржимаси). Б. 44.*
14. *Агзамова Г. XVI - XIX асрнинг биринчи ярмида Ўзбекистон шаҳарлари ва шаҳарлар ҳаёти.: Тарих фанлари доктори ... дис Т., 2000. - 348 варак;*

- Файзиев А. (Р.Г. Мукминова томонидан тўлдирилган) *Хорезм в начале XVI - первой половине XIX в. / История Узбекистана. - Т., 1993. Т. II. – С. 249-312,*
15. Азамат Зиё. *Ўзбек давлатчилиги тарихи. –Т.: «Шарқ», 2000.*
16. Акимушкин О. Ф. и др. *Персидские и таджикские рукописи Института народов Азии АН СССР (Краткий алфавитный каталог). Под ред. Н.Д. Миклухо-Маклая. Часть 1-2. М., 1964;*
17. Ал-Байзавий. *Низом ат-таворих. // Қўлёзма. Ўз ФА ШИ. № 9720. 80+3 вар.;*
18. Ал-Балазури, Аҳмад ибн Йаҳё. *Ансаб ал-Ашироф. Ал-Қоҳира: Дор ал-маориф. 1959.*
19. Аллаева Н. А. *XVI - XVIII асрларда Хива хонлиги ва Эрон ўртасидаги ўзаро алоқалар. Тарих фан. ном, автореферати. Тошкент, Ўзбекистон ФА тарих институти. 2007. – 25 б;*
20. Амантйев О. *Туркменистан и туркмены в первой половине XVIII века (по данным соч. Мухаммада Казима «Наме-йи аламара-йи Надири») - Аишбад, 1980. – 115 с;*
21. *Арабские рукописи Института востоковедения. Краткий каталог. / Под ред. А.Б. Халидова. Ч.1 – каталог, ч.2 - указатели и приложение. М.: «Наука». 1986;*
22. Арунова М.Р., Ашрафян К.З. *Государство Надиришаха Афшара. (Очерки общественных отношений в Иране 30-40-х годов XVIII века) -М., 1958.- 283 с;*
23. Аскарлов А. *Ўзбекистон халқлари тарихи. 2 жилд. -Т.: «Фан», 1993.- Б.71.*
24. Аҳмедов Б. *Государство кочевых узбеков. М., 1965. - С . 11-16.*
25. Аҳмедов Б. *Тарихдан сабоқлар. Т.: «Ўқитувчи» наириёти,1994. Б. 172.;*
26. Баёний Муҳаммад Юсуф. *Шажарайи Хоразмишохий. // Қўлёзма. Абурайҳон Беруний номидаги ШИ. № 9596.*
27. Баёний. *Хоразм тарихи, №7421, 392^a вар.*
28. Байҳақи Абулфазл. *История Масъуда. 1030-1041. / пер. с персидского, введение и приложение А.К. Арндса. Изд. 2-е, дополненное. М., 1969.*
29. Байҳақи. *Тарихи Байҳақи(тарихи Масъуди). Бо саъй ва эҳтимоми Гани ва Файйоз. Техрон, 1324/1945.*
30. Банокатий Абу Сулаймон ибн Довуд ибн Абулфазл Муҳаммад ибн Довуд. *Равзат ули-л-албоб фи таворих ал-акобир ва-л-ансоб. // Қўлёзма, ЎзФАШИИ. №№ 18, 7330.*
31. Бартольд В. В. *Мулхакат ас-Сурах. Сочинение. Т. VIII. – М.: «Наука», 1973.*
32. Бартольд В. В. *Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Сочинение. Т. I. -М.: «Наука», 1963. С. 549.*
33. Бартольд В.В, *Сведения об Аральском море и низовьях Амударьи с древнейших времен до XVIIвека. // Сочинения, т. II. 1965.-С. 15-94.*

34. Бартольд В.В. К истории арабских завоеваний в Средней Азии. Соч., Т. III. ч. 2.1964. – С. 380-387.
69. Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию 1558-1560 гг. // В кн.: Английские путешественники в Московском государстве в XVI в. Перевод с английского Л.Готье. Л., 1932. - Б. 167-215.
70. Джумаев А. Музыкальные традиции – начала XX века // *Общественные науки в Узбекистане*. -1997.-№7-8. –С. 71 - 81
71. Дмитриева Л. В., Музинов А.М., Муратов С. Н. Описание тюркских рукописей Института народов Азии. I. История. / Под ред. А.Н. Кононова. М., 1965;
72. Документы архива Хивинских ханов по истории и этнографии каракалпаков. Подбор документов, введение, перевод, примечания и указатели Ю.Брегеля. М.: «Наука», 1967.
73. Долимов С. Осаҳийнинг ҳаёти ва ижоди. Филол. фан.номзоди... дисс.-Т., 1962;
74. Дорошенко Е.А. Зороастрийцы в Иране (Историко-этнографический очерк). М., 1982;
75. Дьяконов И.М. История Мидии. М., 1956;
76. Дьяконов И.М., Дьяконов М.М. Лившиц В.А. Документк издревней Нисы (дешифровка и анализ). // Труды ЮТАКЭ. Вып. 2. 1951;
77. Дьяконов И.М., Лившиц В.А. Документы из Нисы I в.до н.э. Предварительные итоги работ. М., 1960;
78. Дьяконов И.М., Лившиц В.А. Парфянское царское хозяйство в Нисе I в. до н.э. // ВДИ. 1960. No2;
79. Ёқутал-Ҳамавий. Иршод. / *The Irshad al-arib ilâ ta'rifat al-adib or Dictionary learned men ol Jâqût*. Ed. D.S. Margolionith. Vol. I-VII. Leyden-London. 1907-1927 (GMS. VI. 1-7)/
80. Ёқутал-Ҳамавий. Муъжамал-булдон. / *Jacut's geograpishen Wörterbuch ans den Handschriften zu Berlin, SP. Paris, London und Oxford...* hrsg. Von F. Wüstenfeld, Bd. I-VI. Leipzig. 1886-1873/
81. Епифанова Л.М. Извлечение из Тарих-и Рашиди / *Материалы по истории и истории науки и культуры народов Средней Азии*. Под.Ред. П.Г. Булгакова и У.И. Каримова. Т., 1991.-338 с;
82. Жабборов И. Буюк Хоразмишоҳлар давлати (Қадимий тарих саҳифалари). -Т.: «Шарк». 1999.
83. Жаъфари А.А. Сатават Ясн. Техрон, 1359;
84. Желябужский Е. Очерки и завоевание Хивы. С 9-ю картинками.М., 1875 // *Туркестанский сборник*, т. 85.
85. Жувайний Хўжа Алоуддин Атомалик. Тарихи Жаҳонкушо. // Қўлёзма Ўзбекистон ФА ШИ. – № 610. 261 варақ.
86. Жук С.И. Макс Вебер и социальная история // *Вопросы философии*, 1990. – № 4. – С. 15-22.;

87. Жуманиёзова М.Т. Этнический состав и особенности материальной культуры населения Хорезмского оазиса в конце XIX – начале XX вв. Автореф. канд. ист. наук. Т., 1998.-28 б;
88. Жўраев Ж. Хоразм шоирлари ижодидаги муаммо жанри ҳақида. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2001 йил. 4-сон. Б. 47-49;
89. Залесов Н. Посольство в Хиву капитана Никифорова в 1841 г. // ВС. Т. XXVI, 1861. Ч. II. С. 65.
90. Записки Н.Н.Муравьева-Карского “Путешествия в Хиву” // Русский архив, 1887, № 3. - Б. 5-42; Муравьев Н. Хива тиждорати. 1819-1820 йилларда Ўрта Осиёга саёҳат // Ҳаёт ва иқтисод, 1993, № 3 – Б 74-75.
91. Золотая Орда в источниках. Том первый. Арабские и персидские сочинения. Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды в переводах В.Г. Тизенгаузена. / Составление, вводная статья и комментарии Р.П. Храпачевского. Москва, 2003.
92. Зороастрийцы. Верования и обычаи. -М.: «Наука», 1987.
93. Ибн ал-Асир. «Ал-Камил фи-т-тарих» (перевод СО староузбекского Б. Ахмедова) // материалы по истории тюркских народов Центральной Азии. - Т.: «Фан». 2003.
94. Ибн ал-Асир. Ал-комил фи-т-тарих. // Қўлёзма, ЎзФАШИ ф.№824, I-VI жилдлар; №825, VII-XII жилдлар. Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г. Булгакова. Дополнения к переводу, примечаниям и комментариям введение и указатели Ш.С. Камалиддина. -Т.: «Узбекистан», 2006.
95. Ибн ал-Асир. Ал-Комил фи-т-тарих. Полный свод истории. Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г. Булгакова. Дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введения и указатели Ш.С. Камалиддина. -Т.: «Узбекистан», 2006. — С. 9.
96. Ибн Халликан. Вафайат ал-а'йан ва анба' абна' аз-заман.Джилд 3. Байрут: Дар Сафир. С. 349.
97. Ибрагимов И. Некоторые заметки о Хивинских туркменах и киргизах. СПб., 1874 // ВС, 1874.
98. Иброҳим Пури Довуд. Виспарад. Техрон. 1343;
99. Иванов П.П. Архив Хивинских ханов XIX в. // Исследование и описание документов с историческим введением. Новые источники для истории народов Средней Азии.-Л.: ГПБ, 1940;
100. Иванов П.П. Извлечения из «Фирдавс ул-икбал»/ Материалы по истории туркмен и Туркмении. II. XVI-XIX вв. Иранские, бухарские и хивинские источники / Под ред. Акад. Струве В.В., Боровкова А.К., Ромаскевич А.А. и Иванова П.П. // Труды ИВ. VIII. М.,-Л., 1938.
101. Иванов П.П. История царствования Сейид-Мухаммедхана (1856-1865) Гулиен-и-давлат. Соч. Мухаммед Риза Мираба Агехи. // МИК. Т.VII. -М., -Л., 1935.

102. Извлечение из «Джаме ал-вакеат-и султани». / Материалы по истории туркмен и Туркмении. П. С. 500-558;
103. Извлечение из «ал-Камил фи-т-тарих» Ибн ал-Асира. Перевод с арабского К.Б. Старковой // Материалы по истории киргизов Киргизии. Вып. 1. Москва, 1973. - С. 52-76;
104. Извлечения из «Зубдат ат-таворих» З. Аксакова. / Материалы по истории туркмен и Туркмении. П. — С. 477-499.
105. Извлечения из «Рияз ад-давла» А.К. Боровкова. / Материалы по истории туркмен и Туркмении. П. С. 427-475.
106. Иностранцев К.А. О домусульманской культуре Хивинского оазиса // ЖМНП, новая серия, ч. XXXI.- №2;
107. Исмаилова Э.М. Рукописная книга Средней Азии позднего периода (XIX в.) Приемы декора: Автореф. дис... докт ист. наук. Т., 1990.-49 с;
108. Исмоилова Г. Феруз даври Хоразм адабий муҳити. Филол.фанлари номзоди... дисс. Т., 1995. - 139 б;
109. История. Составители Д.Ю. Юсупова, Р.П.Джалилова. «Фан», 1998. Т.:
110. Итина М.А. Древнехорезмские земледельцы./ история, археология и этнография Средней Азии. Сборник статей. М., 1968;
111. Йўлдошев М. XIX аср Хива давлати хужжатлари. -Т.: «Ўздавнаир». Т. II, 1960.
112. Йўлдошев М. Хива хонлигида феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши.- Т.: «Ўздавнаир», 1959. – 69 б.
113. Казим М. Фалсафа дар Эрони бостон. Техрон, 1369;
114. Каль Е. Персидские, арабские и тюркские рукописи Туркестанской Публичной библиотеки. Т.,1889. – С. 52.-№801 (2);
115. Камилев Н. Хорезмская школа перевода (проблемы типологии и сопоставительное исследование истории перевода в XIX в.). Дисс... докт. филол. наук. – Т., 1987. –329+23 приложения;
116. Каульбарс А.В. Низовья Аму-Дарьи, описанные по собственным исследованиям в 1873 г. // Записки Русского Географического Общества по отделу общей географии. Кн. 9. 1881;
117. Килевейн Е. Отрывок из путешествия в Хиву и некоторые подробности о ханстве во время правления Саид Мухаммед хана 1856- 1860 гг. //ЗРГО. 1861. Кн. 1. – С. 95, 108.
118. Кобулий Абдуллоҳ. Тазкират ат-таворих // Қўлёзма. Ўзбекистон ФА ШИ. – № 2093. 2^а варақ.
119. Комёб. Таворих ул-хавонин. // Қўлёзма. Ўз ФА Абурайхон Беруний номидаги ШИ. № 7717. 191^а вар.
120. Комилов Н. Муҳаммадризо Огаҳийнинг таржимонлик маҳорати. филол. фан ном... дисс. Т., 1970;
121. Комкор ал-ушиоқ. Гулшани саодат. // Қўлёзма, ЎзФАШИ Ф. №7771.

122. Кондрашев С.К. *Орошаемый Хорезм. Организация орошения, территории и орудий труда в дехканских хозяйствах низовьев Аму- Дарьи.* -М.: Ин. Мелиорации ВАСХНИЛ И ОПИИВХСА. 1931;
123. Кононов Л. П. *Родословная туркмен, сочинение Абу-л-Газн, хана хивинского.* М.-Л., 1958.-С.. 20-27;
124. Корженевский Н.Л. *Посольство Михаила Тихонова в Персию и путь его через Хиву и Кара-Кумы в Хорасан (1613-1615)* // *Известия АН УзССР.* 1951. № 6. С. 69-72;
125. Короглы Х.Г. *Взаимосвязи эпоса народов Средней Азии, Ирана и Азербайджана.* – М., 1983.
126. Костенко Л.Ф. *Город Хива в 1873 г.* // *ВС.* 1873, №12.
127. Кристенсен А. *Кайаниён. Техрон, 1331;*
128. Кристенсен А. *Маздапарастии дар Эрони қадим. Техрон, 1336;*
129. Кун А.Л. *Культурный оазис Хивинского ханства Туркестанские ведомости, 1874, №6;*
130. Кун А.Л. *Научная работа во время Хивинского похода Туркестанские ведомости, 1873, №50;*
131. Кун А.Л. *Поездка по Хивинскому ханству в 1873 г.* // *Известие Императорского русского географического общества, т. 10.* — СПб., 1874.
132. Куфтин Б.А. *Полевой отчет о работе XIV отряда ЮТАКЭ по изучению превобитнобщинных оседлоземельческих поселений эпохи меди и бронзы в 1952 г.* // *Труды ЮТАКЭ.* Т.7. 1956;
133. Кушчанов Д. *Из истории аграрных отношений в Хивинском ханстве в конце XIX – начала XX вв.* Дисс. канд. истор. наук. Т., 1966.
134. Лафассий Ҳасанмурод кори Муҳаммадамин ўгли. *Хива шоир ва адабиётчиларининг таржимаи ҳоллари.* // *Кўлёмза. Ўз ФАШИ.* – № 9494. 7^а-8^а вар.
135. Лобачевский В. *Хивинский район. Военно-статистическое описание Туркестанского военного округа.* Т.: Штаб Туркестанского военного округа, 1912.
136. Мавлонов Ў. *Марказий Осиёнинг қадимги йўллари: шаклла- ниши ва ривожланиши босқичлари.* Т.: «Академіа». 2008. 432 б.
137. Мадаминов М.Р. *Қадимий ва Ўрта аср Хоразм пойтахт қалъалари ва уларнинг қурилиши тарихи. Тарих фан. ном. автореф.* Нукус, 2004.-26 б;
138. *Маджма' ал-ансаб ва-л-ашиджар. Введение, перевод с арабского-персидского и тюркского, текст, факсимиле автографа, комментарии и указатели* Ш. Х. Вохидова, А. М. Муминова, Б. Аминова.- Алматы: Дайк-Пресс. 2005.
139. Мак-Гахан. *Ўқуздаги ҳарбий ҳаракатлар ва Хиванинг истило қилиниши.* Ўзбек тилига О.Абдуллаев таржимаси - Т. 2000.
140. Мамажонов М. *Материалы истории Хивинского ханства.* Дисс. канд. истор. Наук.-Т.,1999. - С.195 :

141. Мамедова Э. О некоторых приемах художественного оформления хивинских XIX века // *Общественные науки в Узбекистане*. -1974.-№8. - С. 49 – 53.
142. Маннанов Б.С. Лолабошининг Хоразм сафари // *Шарқиунослик*. - 1997.-№8 - Б 69-73;
143. Маннанов Б.С. Отношения Ирана сосредниазиатскимиханствами во второй половине XIX века // *Иранский сборник*. - М.,1963.С. 56-71;
144. Маннанов Б.С. Хоразм тарихнавислигида Хива хонлиги таиқи сиёсати // *Шарқиунослик* -1997.-№8. -Б.155-162
145. Маньковская Л. Хива Хоразм наққошлиги хазинаси. Альбом. Тошкент-Дрезден, 1982. 264 б.
146. Масалиева О. XIX аср инглиз-америка тарихиунослигида Бухоро, Хива ва Қўқон хонликлари тарихи. Тарих фан. ном... дисс. – Т., 1999. - 160 б.
147. Матвеев А.М. Из истории выходцев из Ирана в Средней Азии ввоторой половине XIX начале XX в. // *Иран. Сборник статей*. – М., 1973. - С.195-214;
148. Материалы для разрешения вопроса о повороте Аму-Дарьи в Каспийское море. Тифлис, 1887;
149. Материалы по истории Азербайджана из Тарих ал-Камиль (Полного свода истории) Ибн ал-Асира [Перевод с арабского П. Жузе]. Баку. 1940;
150. Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. 2. 1938. С. 532.
151. Матниёзов М. Хива хонлигида яшаган халқлар ва уларнинг хонлик ижтимоий-сиёсий ҳаётида тутган ўрни ва роли (XIXаср - XX аср бошлари). 2-наири. Урганч, 2004. – Б.23.
152. Матниёзов М. Хоразм тарихи. Урганч, 2005;
153. Маткаримов М. Хоразм республикаси давлат тузилиши, нозирлари ва иқтисоди. Урганч, 1993;
154. Матякубова М. XIX асрнинг иккинчи ярми - XX асрнинг бошларида Хива хонлигида китобат ва кутубхона тарихи. Тарих фан. ном. автореф. Т., 2008. - 34 б.
155. Махмудов М., Шарипов У. Хивинское ханство в зарубежной историографии // *Вестник ККО АН РУз.*, 2006, № 2. - С. 39-42.
156. Мийан Бузрук. Ўзбек тарихига оид тўрт муҳим китоб. // *Маориф ва ўқитувчиси*. Тошкент, 1927. №№ 9-10. – Б. 57-61;
157. Миклухо-Маклай Н.Д. Описание таджикских и персидских рукописей Института востоковедения. Вып. 1. Географическисочинения. М.-Л., 1955; Вып. 2. Биографические сочинения. М.-Л., 1964; Вып. 3. Исторические сочинения. М., 1975;
158. Мир Яҳё ибн Абдуллатиф ал-Хусайний ал-Қазвиний. Луб ат-таворих. // *Қўлёзма. ЎЗ ФА ШИ. № 29/1.*

159. Мирза Мухаммад Хайдар. *Тарих-и Рашиди/ Введение, перевод с персидского А. Урунбаева, Р. П. Джалиловой, Л. М. Епифановой.* – Т.: «Фан», 1996.

160. Мирхонд. *Равзат ус-сафо. Муштамал бар ҳафт жилд тамоми дар як жилд ва мужжалади мунтазам.* Бомбай. 1266/1849 (муаллифнинг шахсий кутубхонасидан). *Ўзбек тилидаги таржимаси ЎЗ ФА ШИ хазинасида (№ №3446, 7413, 6788, 7416, 3445, 7417) сақланаётир.*

161. Михайлова А. И. *Каталог арабских рукописей Институтанародов Азии. Вып. 3. История.* М.: «Наука», 1965;

162. Михалева Г.А. *Узбекистан в XVII пер. пол. XIX в. Ремесло, торговля, пошлины.* – Т.1991.-112 ;

163. Момзен В. Макс Вебер и социальная история // *Новая и новейшая история.* 1990. № 4. – С. 55-64.

164. *Муборакишоҳ (Фахруддин Марваруддий). Дурдонаҳои наср.* Душанбе: Ирфон. 1987. — С.426-437.

165. *Мужтабо Минави. Шихобаддин Насаби ва нураддин Нишопури. /Нафсат ал-масдур. Иншои Шихобиддин Муҳаммад Хурандизи Насаби.* -С.83-86.

166. *Муизз ал-ансаб./ Введение, перевод, факсимиле Парижского списка, комментарии и указатели Ш.Х. Вохидова.* Алматы: Дайк-Пресс. 2006.

167. Мукминова Р.Г. *Стольный град Хива// Общественные науки в Узбекистане.* 1997. № 7-8. С. 28-36;

168. Мукминова Р.Г. *Традиции взаимосвязей по шелковому пути в позднефеодальный период // На среднеазиатских трассах Великого шелкового пути (Очерки истории и культуры).* Т., 1990.

169. *Муминджанов Х.Х. Философские проблемы зороастризма.* Душанбе, 2000. – 243с Шу муаллиф. *Зардушт ва ойини у. Жилди 1.* Душанбе, 1993. (тожик тилида).

170. *Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийларнинг тарихий асарлари.* Т., 1960. – 169 б;

171. *Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари.*Т.: «Фан», 1960.

172. *Мунис Шермуҳаммад ибн амир Авазбий. Фирдавс ул-иқбол. // Қўлёзма. Абу Райҳон Беруний номидаги ШИ, № 821/1. 5364 / I 9979, 5071, 7422.*

173. *Мунис ва Огаҳий. «Фирдавс ул-иқбол». Наирга тайёрловчилар: Н.Жумаев, С.Рўзимбоев, А.Аҳмедов.-Т.. «Ўқитувчи», 2010.*

174. *Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик. (XVII - XIX ва XX аср бошлари).* Т., 2002. – 190 б;

175. *Мунтахаб ат-таворихи Муини мансуб ба Муин ад-дин Натанзи. Ношир Ж.Обен. Техрон. 1336/1957.*

176. *Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаши сиёсати: тарих шохидлиги ва сабоқлари (1865-1990 йиллар).*Т.: «Шарқ», 2000.

177. Муталов О. *Хива хонлиги Оллоқулихон даврида. Тарих фан. ном. дисс. Т., 2003. – Б.150;*
178. Наврузов С. *Социально-экономическая и культурная жизнь в Хивинском ханстве В исторической, историко-географической литературе XIX-XX вв. Дисс. канд. ист. наук. – Т., 1991. - 196 ;*
179. Наршахий. *Тарихи Бухоро. Тошкент: Камалак, 1991. - Б.105.*
180. Нафиси С. *Таърихи тамаддуни Эрони сосони. Техрон, 1331;*
181. *Нафсат ал-масдур. Иншои Шиҳобиддин Муҳаммад Хурандизи Насави. Тасҳиҳ ва тавзиҳи дуктар Амир Ҳасан Йазадагирди. Чопи аввал. Тихрон: Тус, Китобхонаи миллии Эрон. 1381. 948 с. (форс тилида)*
182. Неъматов Т. *Хива билан Россия ўртасида муносабатлар тарихига доир баъзи манбалар (XIX асрнинг 20-50-йиллари). –Т.: 1957.*
183. Ниё Р. *Се гуфтор дар борайи арийанийан. Техрон, 1353;*
184. Низомул-мулк. *Сияр ал-мулк. / Форс-тожик тилидан таржимонлар, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари Ш. Воҳидов, Афтондил Эркинов. Иккинчи тўлдирилган ва қайта ишланган нашири. Т.: «Янги аср авлоди», 2008.*
185. Огаҳий Муҳаммадризо мироб. *Гулиани давлат. // Қўлёзма. Абу Райҳон Беруний номидаги ШИ, №7572.*
186. Огаҳий Муҳаммадризо мироб. *Зубдат ат-таворих. // Қўлёзма. Абу Райҳон Беруний номидаги ШИ, № 821/III.*
187. Огаҳий Муҳаммадризо мироб. *Риёз уд-давлат, // Қўлёзма. Абу Райҳон Беруний номидаги ШИ, № 821/II.*
188. Огаҳий. *Жомий ул-воқеоти султоний //Қўлёзма, ЎзФАШИ Ф. №9756;*
189. Огаҳий. *Жомий ул-воқеоти султоний //Қўлёзма, ЎзФАШИ Ф. №9756.*
190. Огаҳий. *Риёз уд-давлат // Қўлёзма, ЎзФАШИ Ф. №821/II.*
191. Огаҳий. *Риёз уд-давлат, № 5364 / II, 317⁶ вар*
192. Огаҳий. *Шоҳид ул-иқбол. 209⁶ -^{210а} вар.*
193. *Озаргушасп Ф. Готаҳо. Жилди 1. Техрон, 1351. Жилди 2. Техрон, 1359;*
194. *Ойдин Тонарий. Жалалиддин Хоразмишох ва унинг даври. (Турк тилидан Бобоҳон Муҳаммад Шариф таржимаси). Т.: «Шарқ», 1999.*
195. *Оқойи Мирзо Муҳаммадхон Қазвиний. Дар боби нусхаи «Нафсат ал-масдур» толифи Нураддин Муҳаммад Муниши. / Нафсат ал- масдур. Иншои Шиҳобиддин Муҳаммад Хурандизи Насави.*
196. *Омузгор Ж. Астурае зиндагии Зардўшит. Техрон, 1373;*
197. *Павлова И.К. Хроника времен Сефевидов (Сочинение Мухаммад-Масума Исфাহани «Хуласат ас-сияр»). – М., 1993.120 с.*
198. *Панков А.В. К истории торговли Средней Азии с Россией XVI -XVII вв. - Т., 1927. – 195 с;*
199. *Периханян А.Г. Общество и право Ирана в парфянский и Сасанидский периоды. М., 1983;*

200. Полвонниёз Ҳожи Юсунов. Ёш хиваликлар тарихи. Урганч, 2000. - Б.42.
201. Полвонов Н. Т. Хоразмдаги ижтимоий ҳаракатлар ва сиёсий партиялар тарихи. (1900-1924). Тарих фан. ном. автореф. Т., 2005.-32 б;
202. Попов А. Сношение России с Хивойю и Бухарою при петре Великом. // ЗРГО, Т. IX. 1853);
203. Путевые заметки майора Бланкенагелья в Хиву в 1793-1794 гг.// «Вестник» Императорского Русского географического общества. Ч.22. СПб., 1858. - С. 87-116.
204. Пьянков И.В. Ктесий о Зороастре. // Материальная культура Таджикистана. Вып. 1. – Душанбе, 1968. — С. 55-68;
205. Ражабов Қ. Хоразмда истиклол ҳаракати ва Жунайидхон //Жамият ва бошқарув, 2000, №1. Б. 36-43;
206. Разий Х. Зардушт ва таълими у. Техрон, 1368;
207. Разий Ҳошим. Авесто: Готҳо, Ясна, Яит, Виспарад, ХурдаАвеста. Таржима ва пазуҳиш. Техрон: Интишороти Беҳжаст Фарнав.1378/2000.-658 с;
208. Раҳим Д., Матрасул Ш. Феруз - шоҳ ва шоир қисмати. Т.: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси. 1991. 125 б;
209. Рашид ад-дин. Сборник летописей. Т.2. / Перевод с перс. Ю.П. Верховского. М.,-Л., 1960. – С. 37,39.
210. Рашидиддин ибн Фазлulloҳ. Жомеъ ат-таворих. // Қўлёзма. Ўз ФАШИ Ф. № 25.
211. Рашиод Муҳаммад. Фалсафа аз оғози тарих (дар 7 жилд). Жилдҳои 1 ва 2. Душанбе: Ирфон, 1990. – 480 с;
212. Ртвеладзе Э.В. К зарубежной историографии Хивы // Общественные науки в Узбекистане, 1997, № 7-8. – С. 112-113.
213. Сабурова С. XIX аср ва XX аср бошларида Хива хонлигининг давлат тизими. Тарих фан. ном. дисс. Т., 2002. – 180 б;
214. Садыков А.С. Россия и Хива в конце XIX начале XX века. – Т.:Фан, 1972;
215. Саидқулов Т. Ўрта Осиё халқлари тарихининг тарихиунослигидан лавҳалар. -Т.: «Ўқитувчи», 1993.
216. Саййид Ҳомид тўра Комёб. Таворих ул-хавонин. / Масъул муҳаррир А.С. Сагдуллаев. Нашрга тайёрловчилар: Н.Норқулов, Жал. Жўраев, Т.Тогаев, Жам. Жўраев. Сўзбоши муаллифлари: Т. Тогаев, Жам. Жўраев. -Т.: «Академия». 2002.
217. Сами А. Тамаддуни сосоний. Техрон, 1338;
218. Самойлович А. К изучению Хивы и Хивинского ханства. // Живая старина, год 18, вып. 2-3, отд. 3. – М., 1909. – С.295-296;
219. Самойлович А.Н. Одни из списков «Родословного древа туркменского» Абульгази-хана // ДАН-В. 1927. – С. 39-42;
220. СВР. История. - С. 35-36.

221. *Собрание восточных Рукописей АН Республики Узбекистан (СВР). История. / Составители: Д.Ю. Юсупова, Р.П. Джалилова. Т.: «Фан», 1988.*
222. *Содиқов А. Хива ва Россия иқтисодий муносабатлари (XIX аср 2 ярми - XIX аср бошлари). — Т.: «Фан», 1968;*
223. *Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество. — М.: Издательство политической литературы. 1992. - С. - 544 с.*
224. *Струве В.В. Родина зороастризма. // Советское востоковедение, т. V. М., 1948. - С. 5-34;*
225. *Султонова Қ. Гулиани давлат муҳим адабий манба. Филол. фан. ном. дис. Тошкент, Ҳамид Сулаймонов номидаги Қўлғезмалар институти. 1993.*
226. *Табақоти Носирий // Қўлғезма. Россия ФА ШИ Санкт-Петербургдаги Шарқ қўлғезмалари институти. — № С 426 (572abb).*
227. *Табари И. Жаҳанбиниха ва жунбишхое ижтимоий дар Эрон. Техрон, 1348; Тарихи тамаддуни Эрон. Таржимон Жавод Муҳйи. Техрон, 1377/1999;*
228. *Тарихи Саййид Муҳаммадхон. // Қўлғезма, ЎзФАШИ №845; Яна қар.: СВР, I, №213.*
229. *Тошов Н.И. «Таърих-и джахангуша» Ала ад-дина Джувайни ценный источник по истории Центральной Азии XII-XIII вв. Автореферат канд. ист. наук. Ташкент: ИВ АН Узбекистана, 2004. — 22 с.*
230. *Тухтаматов Т.Г. Россия и Хива в конце XIX и в начале XX вв. Т.: «Фан», 1970. — С. 4.*
231. *Утбий Абу Жаъфар Абу Наср Муҳаммад. Тарихи Утбий (Тарих ал-Утбий ал-мусаммо би-л-йаминий). // Қўлғезма. Ўзбекистон ФА ШИ. - №3252/V.*
232. *Ўтамыш-хаджи. Чингизнаме. Факсимиле, перевод, транскрипция, текстологические примечания, исследование В.П. Юдина. Подготовила к изданию Ю.Г.Баранова. Комментарии и указатели М.Х. Абусаитовой. Алма-Ата, 1992.*
233. *Фадлаллах Рашид ад-дин. Джамиъ ат-таварих. Т. I. Ч.1. Критический текст А.А. Ромаскеевич, А.А. Хетагурова, А.А. Али-заде. Изд. 2-е, стереотипное. М.: «Наука». 1968. Т. II. Кн.2. / Пер. с персидского О.И. Смирновой, примечания Б.И. Панкратова и О.И. Смирновой. М.-Л.: «Наука», 1952.*
234. *Фаррух Р.Х. Зардўит ва замони у.// Баррасиҳои тарихи. Техрон, 1347;*
235. *Фарҳанги «Шоҳнома». (Номи қасон ва жойҳо). Хусайн Шаҳидий Мозандароний (Бежан). Балх: Бунёди Нишопур. 1377/1999 - 811 с.*
236. *Февр Л. Бои за историю. МОСКВА: Наука, 1991. - 630 с.*
237. *Феҳристи китобҳои чопи-и форси. Гирдоваранда Хонбобо Мушар . Жилди аввал ва дувум. Техрон, 13337-1340 (форс тилида);*
238. *Фролова О.Б. Источник летописи Ибн ал-Асира (XII в) в разделах посвященных истории народов СССР. Автореферат дисс. канд. филол. наук. Л.: ЛГУ, 1954;*

239. Ҳамдуллоҳ Қазвиний. *Тарихи Гузида*. // Қўлёзма, ЎзФАШИ. №№7, 8, 2786, 3624. // *Ta'rikh-i Guzida or «Select History» of Hamdullah Mustawfi-i Qazwini. Introductoin by E.G. Browne. Vol.I, containing the text. Leyden - London. 1910. (GMS, XIV.I).*
240. Ханьков Н.В. *Описание Бухарского ханства*. СПб., 1843. - С. 185, 186.
241. Хива «Ичон-Қалъа» музей қўриқхонаси фонди, инв. №3621.
242. Хивинские хроники XIX в. Муниса-Агехи как источник по истории туркмен // Библиотека сайта: XIII век. // [www: Kungrad.com](http://www.Kungrad.com)
243. Хондамир. Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афроди-л-баишар. Дар чаҳор жилд. Бо саъй ва эҳтимом, пешгуфтори Жалол Хумойи. Техрон, 1333/1954.
244. Хондамир. Хулосат ул-ахбор фи баёни аҳвол ал-ахёр. // Қўлёзма. Ўзбекистон ФА ШИ. №5365. – 440 арақ.
245. Хорошхин А. Хивинское ханство // Туркестанский сборник. Спб.. 1883. Т. 116. С. 473-179;
246. Худойберганов К. Паҳлавон Маҳмуд обидасидаги ёзувлар Хоразм тарихини ўрганишида манба сифатида. Тарих фан. ном. автореф. - Т., 2002.-25 б;
247. Худойберганов К. Хива хонлари шажараси. Хива, 1996. С. 9.
248. Хулосат «Равзат ус-сафо» // Қўлёзма. Ўзбекистон ФА ШИ. №9101/1.-315+14 с.
249. Човдирбоев С., Собиров К. Қадимги Хоразм Ўрта Осиё урбанизацияси жараёнида (Жалолиддин Мангуберди Ватан, юрт ҳимоячиси (Халқаро конференция материаллари. Урганч.) ЎзРФА.: «Фан», 1999.
250. Чориев З. Тарих атамаларининг қисқача изоҳли лугати. -Т.: «Шарқ», 1999.
251. Шайхова А. Юридические документы как источник по истории социально-экономических (преимущественно аграрных) отношений в Хивинском ханстве в XIX - нач. XX вв. Дисс. ... канд. ист. наук. Т., 1989.-170 с;
252. Шихоб ад-дин ан-Насави. Жизнеописание султана Джала ад- Дина Манкбурни. / Перевод З.Буниятова. Баку. С. 1973, 70, 73, 206, 233, 235, 285.
253. Шихобиддин Муҳаммад ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди. - Т.: «O'zbekiston», 2006. 384 б.
254. Шкапский О. Аму-Дарьинские очерки. К аграрному вопросу на Нижней Аму-Дарье. Землевладение в Шураханском участке Аму- Дарьинского отдела. -Т., 1900;
255. Шуқуриллоҳибнал-имом Шихобиддин Аҳмадибнал-имом Зайниддин Закий Румий. *Биҳжат ат-таворих*. // Қўлёзма. Ўз ФА ШИ. № 9855.
256. Эрназаров Ф.Н. XIX асррохири XX аср бошларида Хива хонлигидаги маданият ҳаёти. Тарих фан. ном. автореф. Т., 2005. – 26 б; 257. Юдин В.П. *Центральная Азия в XIV-XVIII веках глазами востоковеда*. Алматы: Дайк-Пресс. 2001. — 384 с.

258. Юдин В.П. *Неизвестная версия гибели Урухсана (из политической истории восточного Дашт-и кыпчака XIV в.)*./
259. Юдин В.П. *Орды Белая, Синяя, Серая, Золотая...// Казахстан, Средняя Азия и Центральная Азия в XVI-XVIII вв. Алма-Ата, 1983. – С. 106-165;*
260. Юдин В.П. *Центральная Азия в XIV-XVIII веках глазами востоковеда. Алматы: Дайк-Пресс. 2001. - 384с .*
261. Юлдашев А. *Ходжент в «ал-Камил фи-т-тарих» Ибн ал-Асира //Исследование по истории и культуре Ленинабада. Душанбе, 1986.*
262. Юлдашев М. *К истории крестьян Хивы XIX века. – Т.: «Фан», 1966;*
263. Юлдашев М.Ю. *К торговых и политических связей Средней Азии с Россией в XVI-XVII века. – Т., 1964. - 123 ;*
264. Юлдашев М.Ю. *Некоторые вопросы научного использования письменных источников по истории народов Средней Азии //Известия АН УзССР. Серия общественных наук. -Т., 1957;*
265. Юсупова Д.Ю. *Сведения бухарского накиба Саййид Ахмада Ходжи о Хивинском ханстве середины XIX в. // Труды молодых ученых и аспирантов ИВ АН Руз. Ч. II. – Т.: «Фан», 1969. -С. 39-48.*
266. Ясперс К. *Смысл и назначение истории. М.: «Политиздат».1991.-390 с.*
267. Ўз.МДА, ф-И-125, рўйхат 1, йиғма жилд 515.
268. Ўз.МДА, ф-И-125, рўйхат 1, йиғма жилд 510, 183, 189 вар.
269. Ўз.МДА, ф-И-125, рўйхат 1, йиғмажилд 519, 20^а, 21^бвар.
270. *Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т. 5. 2005. Б. 506.;*
271. ЎзМДА, ф-И- 125 рўйхат 1, иш 596, 8 - в .
272. ЎзМДА, ф-И- 125, рўйхат 1, йиғма жилд 596, 1, 15 вар.
273. ЎзМДА, ф-И-125, рўйхат 1 , йиғма жилд 596, 1, 15 вар.
274. Қўижонов О., Полвонов Н. *Хоразмдаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар ва ҳаракатлар. – Т.: «Abu matbuot konsalt» МЧЖ, 2007.-388 б.*
275. Қўижонов О., Дурдиева Г. *Хива хонлиги туркманлари. Хива, 2008.*
276. Ғафуров Б. *Тоҷикон. Таърихи қадимтарин, қадим, асри миёна вадаври нав. Китоби 1 (704 с.) ва 2 (416 с.). Душанбе: Ирфон. 1998.(тоҷик тилида).*
277. Ғулломов Я.Ф. *Хоразмнинг сугорилиши тарихи: қадим замонлардан ҳозирги кунгача. -Т.: «Ўздавнашр», 1959;*
278. Ҳасан Мурод Муҳаммад Амин ўғли. *Хоразм тарихига доир материаллар.*
279. Ҳасан Мурод Муҳаммад Амин ўғли. *Элбарсхонни Хоразмга келиб хон бўлмоқ сабаблари. // Қўлғезма. ЎзФАШИ.- №12581.24^ф.*
280. *Abaev V.I. Avestika. / Sprachwissenschaftliche Forschungen. Festschrift für Johann Knobloch. Innsbruck, 1985.*
281. *Abdülkadir (Inan). XIX-unchi Asir Türkistan şair ve tarihçilerinden Şer Mehmet Munis. 1778-1829// Azərbaycan Yurt Bilgisi. Vol. 2. Istanbul. 1933. No 13.*
282. *Acta Iranica: Papers in Honour of Prof. Mary Boyce. Vol 24-25. Leiden, 1985;*
283. *Barnaby F. A ride to Khiva: Travers and adventures in Central Asia. 4 th ed. - London-Paris-New York, 1976.*
284. *Baziner Th. F. NaturwissenschaftlicheReise durch dieKirqisensteppe nach Chiwa, St. Petersburg, 1848;*

285. Boyc M. *A Persian Stronghold of Zoroastrianism. Based on the Ratanbai Katrak Lectures.* 1975. Oxford. 1977;

286. Bregel Y. *Bibliography of Islamic Central Asia. Compiled and edited by Yuri Bregel.* Indiana University. Part II. *Descriptions and Travel; Written Sources for Central Asian History; Ethnography; Folklore; Folk Entertainments; Physical Anthropology.* 1995.

287. Brockelman C. *Ceschichte der Arabischen Literature. I SB.* Leiden, 1937. S. 587-588.

288. Ibn al-Athir. / *The Encyclopedia of Islam. New edition. I-VI volumes.* Leiden: E.J. Brill. 1960-1986. Vol. III. - P. 724.

289. Shir Muhammad Mirab Munis fnd Myhammad Riza Agahi. *Firdavs al-i History of Khorezm / Edited by Yuri Bregel.* T.J.Brill. - Leiden- New York-Koben Koln, 1988.

3

MUNDARIJA

8

KIRISH.....

36

I bob. QADIMGI BITIKLARDA DASTLABKI DAVLATCHILIK HAQIDA

1. «Avesto»da davlatchilik atributlarining aks etishi.....
2. Al-Beruniy ilk turkiy davlatlar haqida..... 48

II bob. XORAZMSHOHLAR IMPERIYASI HAQIDAGI 78

MANBALARDA DAVLATCHILIK MASALALARI

1. Xorazmshohlar davlatidagi siyosiy jarayonlar va uning ma'muriy boshqaruv tizimi.....
2. Arab va fors tillaridagi manbalarda Xorazmshohlar davlati tarixining yoritilishi..... 114

III bob. XORAZMDA ILK TURKIY (ESKI O'ZBEK)

TILIDAGI TARIXNAVISLIK MAKTABI - TARIXIY

ASARLAR VA ULARDAGI DAVLATCHILIK MASALALARI 139

1. «Tarixi O'tamish hoji ibn mavlono Muhammad Do'st sulton» (Chingiznoma) da mo'g'ul va turkiy sulolalar tavsifi.....
 2. Abulg'oziy Bahodirxonning «Shajarayi tarokima», «Shajarayi turk» asarlari va turkiy qavmlarning O'rta Osiyo siyosiy-ijtimoiy hayotidagi o'rni..... 142
- 190

IV bob. XIVA SOLNOMALARIDA O'ZBEK DAVLATCHILIGI

TARIXINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

1. Xiva xonligining idora qilish tamoyillari.....
2. Xiva xonligida tarixnavislik an'analari-namoyondalari asarlari..... 221

**V bob. XIVA TARIXNAVISLIK MAKTABI IZDOSHLARI
ASARLARIDA DAVLATCHILIK HAQIDA**

1. Tarixnavis Komyobning «Tavorix ul-xavonin» asaridagi davlatchilikka oid ayrim masalalar.....
 2. XX asr birinchi choragida bitilgan «Xorazm tarixi», «Xorazm xonliklari tarixi», «Xorazm tarixi materiallari» kabi qo'lyozma asarlarda davlatchilikka oid ma'lumotlar.....
- XULOSA.....
- FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....

Monografiya

MADAMIN ESHMURODOV

XORAZM

MANBALARIDA

DAVLATCHILIK TARIXI

Muharrir:

Texnik muharrir va sahifalovchi:

M. Hayitova

Sh. Qalandarova



Nashriyot
TASDIQNOMA
raqami:
№152441

Bosishga 2024 yil 8 aprelida ruxsat berildi.
Bichimi 60x84¹/₁₆.. «Cambria» garniturasida.
Hajmi – 16,25 bosma taboq. Adadi - 100 dona.
Buyurtma № 15. Bahosi kelishilgan narxda.

Ogahiy nashriyotida tayyorlandi.
Manzil: Urganch shahri Al-Xorazmiy ko‘chasi. 23-uy
“Shams nashr” matbaa korxonasi chop etildi.
Manzil: Yangiariq t., “Gulshan diyor” k., 56-uy.